

Z.T. TAXIROV

O'ZBEK TILINING AMALIY USLUBIYATI

DARSLIK

Toshkent – 2021

**‘O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI FAKULTETI

Z.T.TAXIROV

O‘ZBEK TILINING AMALIY USLUBIYATI

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan*

**Toshkent
“Tafakkur avlodi”
2021**

UO‘K: 811.512.133’38

KBK: 81.2(O‘zb)ya7

T 74

Taxirov, Z.

O‘zbek tilining amaliy stilistikasi [Matn]: darslik /

Z. Taxirov. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2021. 240 bet.

Darslikda uslubiyat, funksiyaviy uslublar – fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis uslubiy imkoniyatlari, til vositalaridan uslubiy foydalanish, matn uslubiyati va badiiy asar tili haqida so‘z boradi.

Darslik universitetlarning jurnalistika, filologiya, pedagogika institutlari til va adabiyot fakultetlari bakalavriant hamda magistrantlari uchun mo‘ljallangan.

Ixtisoslik bo‘yicha doktorantlar, oliy jurnalistika kurslari tinglovchilari, ommaviy axborot (masmedia) sohasida matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilar, blogerlar uchun ham foydalidir.

UO‘K: 811.512.133’38

KBK: 81.2(O‘zb)ya7

ISBN 978-9943-6898-2-4

© Z. Taxirov

© «Tafakkur avlodi», 2021

KIRISH

Ushbu darslik funksiyaviy uslublar, til, adabiy nutq, ogʻzaki va yozma publitsistik nutq, shuningdek til vositalaridan uslubiy foydalanish, matn uslubiyati va boshqalarga bagʻishlangan.

Darslik 15 bobdan iborat boʻlib, har bir bob muayyan mavzuni oʻz ichiga oladi.

Unda til, adabiy nutq va uslub, funksiyaviy uslublar, soʻzlashuv nutqi, rasmiy ish yuritish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub, publitsistik ogʻzaki nutq, soʻz yasalishining uslubiy imkoniyati, uslubiyatning fonetik, morfologik, sintaktik vositalari, matn uslubiyati, til vositalari, koʻchim va obrazli foydalanish, nihoyat badiiy asar tili xususida nazariy fikrlar bayon qilingan va misollar asosida yetarli asoslangan.

Darslikni yozishda muallif uzoq yillar noshirlikdagi (30 yildan ortiq), Milliy universitet filologiya (5 yil), jurnalistika (21 yil) fakultetlaridagi pedagogik faoliyati mobaynida toʻplagan nazariy bilimlari, amaliy koʻnikma, malakasiga asoslangan.

Darslikdan hozirgi oʻzbek tili, adabiy tahrir, ommaviy axborot tili va uslubi, nutq madaniyati va/yoki notiqlik sanʼati kabi fanlarni oʻtishda foydalanish mumkin.

Albatta, mazkur darslik bu boradagi ilk urinish boʻlgani uchun ayrim kamchiliklardan holi boʻlmasligi mumkin. Bu borada oʻz fikr, mulohazalarini bildirgan mutaxassislarga muallif oldindan oʻz minnatdorchiligini bildiradi.

1-BOB. TIL, ADABIY NUTQ VA USLUB

REJA

1. Tasviriy tilshunoslik.
2. Adabiy nutq.
3. Yozma va ogʻzaki adabiy nutq.
4. Ogʻzaki publitsistik nutq.
5. Uslubiyat.
6. Nutq madaniyati.
7. Tahrir va uslubiy talabi.

1-§. Til haqida umumiy ma'lumot

Til – tabiiy til. Inson aloqa-aralashuvining muhim vositasi. Til tafakkur bilan chambarchas bogʻliq. Xabar (informatsiya)ni uzatish va saqlashning ijtimoiy vositasi hisoblanadi, inson xatti-harakatini boshqarish vositalaridan biri. Nutq koʻrinishida yuzaga chiqadi va mavjud boʻladi.

Til tilshunoslik (lingvistika)ning oʻrganish obyektidir. Tilshunoslik – inson tilining tuzilishi va amal qilinishining umumiy qonuniyatlari haqidagi fandir. Tilni oʻrganish jihatlari nuqtayi nazaridan tilshunoslik shartli ravishda ichki va tashqi tilshunoslikka ajraladi.

Umumiy tilshunoslik (tasviriy lingvistika) ichki tilshunoslikka kiradi va umumtil kategoriyalarini oʻrganadi, shuningdek, til tizimining turli darajalari – fonetika, fonologiya, grammatika (morfologiya, soʻz yasalihi, sintaksis), leksikologiya, frazeologiyalarni tadqiq etadi.

Tashqi lingvistika (paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika va b.) soʻzlovchi insonning jamiyatdagi faoliyati bilan tilning bevosita bogʻliq jihatlari oʻrganadi.

Uslubiyatning lingvistik fanlar ichida alohida oʻrnini yaxshi bilish uchun tasviriy tilshunoslikning vazifasini aniqlab olish lozim boʻladi.

Tasviriy fanlar – fonetika, leksikologiya, frazeologiya, grammatika (morfologiya, sintaksis) muayyan tilning tovush tizimi, grammatikasi, soʻzlari (soʻz-iboralari)ning tuzilishini, shularga taalluqli birliklar, kategoriyalarni oʻrganadi. Soʻz yasalihi leksika va grammatika oraligʻida turadi. Til birliklari va kategoriyalarining shakli va maʼnaviy jihatlari, til birliklarini ancha yirik kategoriyalarga

guruhlash, til birliklari va kategoriyalarining til tizimi doirasidagi munosabati, o'zaro ta'siri ham tasviriy fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan tasviriy fanlar (yana boshqa ba'zi fanlar) muayyan bir tildagi birlamchi birliklar va kategoriyalarning mavjud tarkibini, ular aloqadorligi va munosabatlarini tahlil qiladi. Til ichida nima bor ekanligini, fikr, his-hayajon (emotsiya), ma'lumot (xabar) berishni mazkur til qanday vositalar yordamida bayon etishini o'rganadi hamda o'rgatadi.

Demak, tasviriy tilshunoslik "til tuzilishi"¹ haqidagi fandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tasviriy fanlar bilan uslubiyatning tadqiqot obyekti ayni bir tildir. Lekin o'rganish predmeti boshqa-boshqa. Til tizimi, til tizimidagi birliklar va kategoriyalar tasviriy fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. "Tildan, ayniqsa adabiy nutqdan foydalanishning barcha usullari uslubiyatning predmeti hisoblanadi"².

Tasviriy tilshunoslikda tilning tovushlar tizimini o'rganuvchilar, leksikologlar, grammatikachilar, avvalo, muayyan tilga xos jihatlarning lingvistik mohiyatini, qanday matnligidan, nutqiy vaziyatligidan qat'i nazar, o'rnini belgilashi, grammatik vositalar (masalan, morfologiya) tarkibini, leksik tarkibini (asosiy tizimli kategoriyalar bo'yicha) biror-bir matnga ko'ra aniqlash kerak.

Lingvist uchun matnning tasviriy-tuzilish jihatı muhimdir, boshqa jihatlari ahamiyatsiz.

Quyidagi misolga e'tibor beraylik:

Xuftondan keyin parvonachi shahzodaning yangi saroyiga keldi. Biror gumon qoldirmaslik uchun, u qarshi olgan mulozimlarga, shahzodani ko'rib, haqqiga duo o'qimoq niyatida kelganini bayon qildi. Mulozimlar qo'llari bilan uzoqqa ishorat etdilar. Majdiddin uzoqda, kechaning qora ko'miriga yong'in tushgandek, havoda yuzlarcha mash'allarning lovullaganini ko'rdi. (Oybek).

Ushbu misoldagi kechaning qora ko'miri uslubiy ifodasiga ko'ra uslubiyatchi e'tiborini tortishi mumkin. Grammatikachi uchun birikma grammatik jihatdan to'g'ri.

Leksikolog so'zlarning birikmaga kirishuvida qoidadan bir oz chetga chiqish borligini qayd etadi.

¹ Винокур Г.О. Филологические исследования. —Москва: 1989. — 221-б.

² Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. —Москва: 1981. — 173-б.

Mutaxassis-uslubchi esa, qoidadan chetga chiqqanlikni qayd etish bilan birga, bu chetga chiqishlik, *nega?...ni* aniqlash boshlanadi.

2-§. Adabiy nutq

Uslubiyat til – tabiiy til bilangina emas, balki muayyan milliy til zamirida yuzaga kelgan adabiy nutq bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Uslubiyatni nutqiy kommunikatsiyada tildan foydalanish haqidagi fan sifatidagi mohiyatini ochib berishi uchun “adabiy nutq” tushunchasining asosiy jihatlarini aniqlashtirib olish kerak bo‘ladi.

Murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanmish adabiy nutq ijtimoiy kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida lingvistikada turlicha talqin etiladi.

“Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma’lum normaga solingan, xalqning turli madaniy, ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasi”³.

“...umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan va ma’lum me’yorga solingan shaklidir. Demak, ...o‘zbek tilining dialektlari, oddiy so‘zlashuv tili va jargonlaridan tamoman farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiyligi bilan xarakterlanadi”⁴.

“...muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlashtirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli”⁵.

“Umummilliy tilning me’yorlashtirilgan shakli yozma va og‘zaki ko‘rinishda bo‘ladi, ijtimoiy sohalar barchasida amalda bo‘ladi hamda millat madaniy hayotiga xizmat qiladi”⁶.

Ammo, shunga qaramay, adabiy nutq tushunchasi qaysidir darajada ayonlashgan, ya’ni markaziy tushuncha sifatida bir to‘xtamga kelingan.

Adabiy nutq – ijtimoiy lingvistikaning asosiy tushunchasi. U milliy tilning nutq egalari tomonidan namuna sifatida qabul qilingan ijtimoiy (ijtimoiy-madaniy) mavjud (amalda bo‘lish) shaklidan iboratdir. Uning asosiy vazifasi – mazkur milliy tilda so‘zlashuvchilarning tarixan shakllangan jamoasi barcha a’zolarining kishilik

³ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 12-b.

⁴ Shoabdurahmanov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. – 7-b.

⁵ O‘zME, 1-j. –124-b.

⁶ Энциклопедический словарь. –Москва: Советская энциклопедия, 1984. –716-b.

faoliyati barcha sohalarida to'laqonli aloqa-aralashuvi (muloqoti)ni ta'minlashdan iborat.

"Barchaga birdek tushunarli"⁷ bo'lishi adabiy nutqning eng muhim jihati hisoblanadi. Adabiy nutq bajarishi lozim bo'lgan "ana shu asosiy vazifa, uni mohiyatan adabiy nutqga aylantiradi, ya'ni umumqabul qilingan, umumtushunafli bo'lishini ta'minlaydi"⁸. Bunga faqat bitta qo'shimcha qilish mumkin: *umummajburiy*.

Adabiy nutq milliy turkiy-o'zbek tabiiy til tizimiga kiruvchi nutq ko'rinishi hisoblanadi. Abadiy nutq milliy tilning tarixan ijtimoiy (ijtimoiy-madaniy) mavjud bo'lishidagi boshqa tillar bilan ham aloqa-dordir. U hududiy lahjalar (qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz), jargonlar, oddiy so'zlashuv bilan birga milliy til tizimini tashkil etadi.

"Lahjalar orasida, odatda qarluq-chigil lahjasi hamda unga qarashli bo'lgan ayrim sheva va dialektlar o'zbek adabiy tilining tayanch sheva va dialektlari hisoblanadi..."⁹.

Qarluq-chigil lahjasi tarkibidagi Toshkent shevasi shahar shevasi sifatida adabiy nutqga leksik jihatdan ham ko'plab unsurlarni kiritgan. Bunga hozirgi adabiy nutqda me'yoriy hisoblangan talaffuz, terminlar bu shevada ilgaridan shakllangan. Andijon, Farg'ona shevalaridan adabiy nutqga unda keng tarqalgan grammatik shakllardan biri *-yap* qo'shimchasi olingan. Yuqorida qayd etilgan shevalar adabiy nutqga talaffuz me'yorlari bilan ham juda yaqin turadi. Bundan tashqari, ular adabiy nutq shakllanishiga so'z boyligi, uslubiy imkoniyatlari bilan ham katta hissa qo'shgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, go'yo hozirgi o'zbek adabiy nutqidan uzoqroq turgan qipchoq shevasidan ham adabiy nutqga ko'plab so'zlar, uslubiy imkoniyatlar va grammatik vositalar kirgan. Masalan, *-yotir*. Bu affiks yordamida fe'lning hozirgi zamon shakli yasaladi. Shuni aytish joizki, *-yotir* o'g'iz shevasida ham mavjud. Xususan, o'g'iz dialektidan ham ko'pgina so'z va ibora (frazеologizm)lar o'tgan. Masalan, *o'g'lon*, *qayon*, *buyon* va b.

Demak, adabiy nutqning shakllanishi, me'yorlashuvi, sayqal topishida tabiiy tildagi barcha lahja, ulardagi shevalar ma'lum darajada

⁷ Шерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. —Москва: 1987. — 117-б.

⁸ Шерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. —Москва: 1987. — 117-б.

⁹ Shoabdurahmanov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. —T.: O'qituvchi, 1980.—21-b.

qatnashgan. Ammo qarluq-chigil lahjasiga oid shevalar va shevalar ichidagi tarmoqlar asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Tabiiy til lahjalari, ular tarkibidagi shevalar va boshqalarning adabiy nutqning bugungi kundagi darajaga kelishi bilan vazifalari tugaganicha yo'q. Ular bundan buyon ham adabiy nutq so'z boyligining oshishiga, lug'at tarkibida yangi-yangi terminlar paydo bo'lishiga xizmat qilaveradi.

Shevalar adabiy nutqning tom ma'noda davlat tili bo'lishini ta'minlovchi ichki manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalda bo'lgan adabiy nutq ikki ko'rinishga ega. Birinchisi – yozma, ikkinchisi – og'zaki.

Yozma adabiy nutq, og'zaki adabiy nutq – bu ikkisi funksiyaviy-uslubiy soha sifatida farqlanadi.

Birinchisi – kitobiy nutq, ikkinchisi – so'zlashuv nutqi ataladi. Kitobiy nutq, o'z ichida rasmiy-ish yuritish, ilmiy, publitsistik nutq va badiiy nutq (ko'pincha badiiy uslub deb ataladi) kabi funksiyaviy turlarga ajratiladi. Bular barchasi yozma nutq sohasi.

Kitobiy nutqning og'zaki shakli quyidagi funksiyaviy turlarga ajratiladi: og'zaki ommaviy nutq (og'zaki publitsistik nutq), radionutq, telenutq, kinonutq (hujjatli), teatrnutq.

So'zlashuv nutqi funksiyaviy-uslubiy soha sifatida muayyan jihatlari bilan belgilanuvchi turlarni o'z ichiga oladi. Bu turlar, o'z navbatida, ozmi-ko'pmi ekspressiv bo'yoqdorlikka ega ekanligi bilan farqlanadi. Shunga ko'ra ular quyidagicha nomlanadi: betaraf so'zlashuv nutqi, odatiy (oddiy, kundalik turmushdagi) so'zlashuv nutqi, oddiy so'zlashuv nutqi.

So'zlashuv nutqi og'zaki nutq sohasini deyarli to'liq o'ziga bo'ysundirgan. Lekin uning tarkibidagi xat-yozishmaviy uslubni, aloqalarning texnikaviy vositalari rivojlanishi bir oz susaytirgan edi, ammo internet va elektron pochtaning paydo bo'lishi bilan nutqiy muloqotda xat-yozishmaviy (epistoliar) uslubning nutqiy muloqotdagi ahamiyati ancha oshdi.

Bugungi kunda og'zaki nutqning – ayniqsa, og'zaki ommaviy nutqning ahamiyati, jamiyat hayotidagi o'rni tobora oshib bormoqda. Bunga alohida olingan bir mamlakat miqyosida emas, balki jahon miqyosida ko'plab kuzatilayotgan mitinglar, saylov kompaniyalari, parlament yig'ilishlari, madaniy tadbirlar, ziyolilarning ijodiy ilmiy yig'ilishlari keng tarqalishi sabab bo'lmoqda.

Ommaviy nutqning, ayniqsa nisbatan siyosiy nutqning rivoj topayotgani ommaviy xabarlarida yaqqol sezilmoqda.

Radio, kinematograf va ayniqsa, XX asr o'rtalarida olis kosmik aloqa sohasidagi taraqqiyot tufayli televideniye global miqyosda chegara bilmay qoldi. Monopol maqomga ega bo'lgan matbuot so'zi (yozma) og'zaki nutqning tobora kuchayib borayotgan raqobatiga duch kelmoqda.

Lekin bosma so'z – gazeta, jurnallar – ommaviy nutqiy kommunikatsiyada o'z egallagan o'rnini bo'shatishni xayoliga ham keltirmayapti. Ommaviy axborot (massmediya)ni taqdim etuvchilar "...gazeta matnlarining salmog'i ommaviy xabarlarning boshqa vositalari barchasining matnlari salmog'idan sezilarli darajada ustunlik qiladi"¹⁰.

Barcha OAV miqyosida olib qaralganda, gazeta funksiyaviy-mazmuniy jihatdan yetakchi o'rinda turadi. Har kuni, har soatda xabarlar yetkazish sur'ati yuqoriligi, turli, rang-barang xabarlarni qamrab olish imkoniyati cheksizligiga qaramay, elektron OAVga nisbatan gazeta ulardan bir jihati, ayni mana shu matnlarning yozma ekanligi bilan ustunlik qiladi. Chunki, matnni yozuvda aks ettirishiga ko'ra gazeta materiallarini qayta, ko'p marotaba ko'zdan kechirish, yetkazayotgan xabarini xotirjam mulohaza qilish, qiyoslash, baholash mumkin.

Og'zaki ommaviy nutq (OON) – radionutq, kinonutq, telenutq har biri og'zaki adabiy nutq bo'lsa-da, lekin, nutqiy tuzilishiga ko'ra nutqlar chatishmasi ekanligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, yozma nutq bilan ham uyg'unlashib ketadi. Chunki u rasmiy doiralarda, rasmiy vaziyatlardagi nutqiy muloqotda amalga oshadi, matni esa qaysidir darajada mazmuniy jihatdan oldindan tayyorlanadi yoki uni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'riladi. OONning ham shakli, ham mazmuniy tuzilishida ijtimoiy muloqotning barcha maqsad va vazifalari rasmiy-ishga aloqador, ilmiy, publitsistik uslubda ayonlashadi. Yana shuni aytish kerakki, OON – radionutq, kinonutq, telenutq – og'zaki nutq ham ma'naviy, ham uslubiy jihatdan matn bayoni jarayonida tugal shakllanadi.

Og'zaki nutq hamon nutq ijod etish jarayonida ham matniy, ham uslubiy jihatdan shakllanar ekan, demak, u qaysidir jihatdan tuyqundan

¹⁰ Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиотекстов. – Москва: 2000. – 36-б.

yuzaga kelganlik tavsifiga ham ega bo'ladi. Buni, ayniqsa, shaxslararo norasmiy muloqot chog'ida kuzatish mumkin.

Matnlar og'zaki ekanligi tufayli, ular nutqiy tuzilishida ayrim so'zlashuv nutqiga xos unsurlar uchraydi:

– jumla tarkibida ma'noviy yaqin so'z va so'z birikmalari takror keladi: *ko'p hollarda – deyarli doim, har kuni – kunda, ko'pincha – tez-tez, ataylab – qasddan;*

– o'z gapini o'zi uzib qo'yishi: *ba'zi o'qituvchilar dars o'tish o'rniga ... (u yog'ini o'zingiz topib olasiz ma'nosidagi pauza);*

– qaytariq: *bugun juda isib ketdi, isib ketdi; iqtisod, iqtisod deymiz-u, ... qarab turib, qarab turib, hayron bo'laman ...;*

– nutq davomida sintaktik konstruksiyani qayta tuzish: *aytmoqchi bo'lganlarim sizga bugun shundan iboratki, ... – bugun sizga aytmoqchi bo'lganlarim shundan iboratki ...; quvonchli xabardan yuzingizda tabassum paydo bo'ladi, deb o'ylayman – o'ylaymanki, quvonchli xabardan yuzingizda tabassum paydo bo'ladi – quvonchli xabardan, o'ylaymanki, yuzingizda tabassum paydo bo'ladi. Hech kimni ranjitmoqchi emasman – hech kimni ranjitish niyatim yo'q;*

– yangi so'zning yuzaga kelishini so'z qismlarini qo'shib ifoda etish: *ishning qaymog'i – ishning foydasi, To'xta opa – To'xtapa – shaxsi noma'lum gap o'rnida, shaxsi ma'lum gap: ko'rsatib o'tildi-ki – bu haqda men (sizga) oldinroq aytib edim;*

– yozma nutqdagi kabi konstruksiya: *bu haqda (siz) quyiroqda to'liq o'qiysiz – bu haqda (sizga) keyinroq to'liq aytaman.*

So'zlashuv nutqiga xos unsurlar og'zaki publitsistik nutq (OPN) (radionutq va telenutq)ning nutqiy tuzilishida sezilarli o'rinni egallaydi.

Og'zaki kitobiy nutq (og'zaki turlari) (adabiy nutqning funksiyaviy turlari)ning funksiyaviy-uslubiy o'ziga xosligini farqlash uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi:

– kitobiy uslub og'zaki ko'rinishlarida "yozma" uslublardan farqli o'laroq og'zaki nutq uslublari ular nutqiy tuzilishi bilan tabiiy uyg'unlikka ega;

– "yozma" uslubda og'zaki uslub unsurlaridan faqat maxsus maqsadlardagina foydalaniladi;

– og'zaki nutqga xos unsurlarning kitobiy og'zaki uslublarda uchrash shu nutqning o'zi og'zaki ekanligi bilan bog'liq;

– elektron OAV matnlariga OPNga xos funksiyaviy ta'sirning ahamiyati shundan iboratki, bu ta'sir natijasida, ya'ni og'zaki nutq unsurlari tufayli matn ta'sirchanligi ortadi;

– kitobiy nutqning turli og'zaki funksiyaviy ko'rinishi, tuzilishida so'zlashuv nutqiga xos muayyan intonatsiya-talaffuzga xos xususiyat, grammatik, asosan sintaktik, shuningdek leksik-frazeologik unsurlar ko'pgina uchraydi, gap qurilishida sezilarli ahamiyat kasb etadi.

“Aslida OPNga xos asosiy xususiyat – monolog hisoblanadi, og'zaki so'zlashuv vositalarining barchasidan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Lekin, vaziyat, mavzu taqozosiga ko'ra og'zaki so'zlashuv vositalaridan foydalanishni cheklashi, ular funksiyaviy ahamiyatini pasaytirishi, shuningdek, bu vositalarning jumla tuzishdagi o'ziga xos jihatlarini o'zgartirishi mumkin”¹¹.

Og'zaki nutq matni, u kimlar (tinglovchi, ko'ruvchilar)ga qaratilgan bo'lsa, ular uchun to'liq tushunarli bo'lishi shart. Buning uchun OPN quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– tinglovchi, ko'ruvchi avval aytilganga qaytishi mumkin bo'lmagani uchun og'zaki nutq bayoni mazmunan tushunarli, mantiqan aniq bo'lishligi;

– jumlani tashkil etuvchi so'z, so'z birikmalarining sintaktik birikishi, birikmaga kirishishi grammatika qoidalari doirasida aniq-tiniq bo'lishligi;

– terminlardan to'g'ri (tub ma'nosida) foydalanilganligi;

– har bir so'z, birikma, jumla tarkibida o'z o'rnida bo'lishligi;

– ko'chim (metafora, metanomiya, sinendoxa, ironiya) hamda boshqa tasviriy-ta'sirchan vositalardan o'rinli foydalanilganligi;

– matnning tashkil etuvchi barcha til unsurlari tushunarli, tinglovchi e'tiborini tortuvchi va faollashtiruvchi bo'lishligi;

– matn mazmuni ochiq-oshkora bo'lishligi va b.

Og'zaki publitsistik nutqda (boshqa har qanday og'zaki nutqda ham) intonatsiya (talaffuz me'yori), tovush va mantiq urg'usiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bu fonetik unsurlar tufayli iboralar, abzaslararo bog'liqlik, ma'noviy aloqa, abzas kontekstidagi yoki matndagi ifodalanayotgan fikrlar tartibi (ketma-ketligi) oydinlashadi. Abzas, matndan anglashiladigan asosiy mazmun-

¹¹ Лалтеева О.А. О языковых основаниях «выделения и разграничение» речевых единиц литературного языка // Вопросы языкознания, 1984. 6-сеп. –67-б.

mundarija va uni tashkil etgan tayanch soʻzlar yaqqollashadi (ajralib turadi), bundan tashqari ayrim soʻz, soʻz birikmasi, abzas, toʻliq matn maʼno va mazmuniga xos emotsional-ekspressiv boʻyoq namoyon boʻladi.

Ibora (faza), bu — maʼnoviy-fonetik birlik hisoblanadi, intonatsiyaviy tugallikka ega boʻladi (bu oʻrinda ibora deganda, odatda, qoʻshimcha gaplarga boʻysundirilgan, ergashtirilgan qism tushuniladi).

Xulosa qilib aytish mumkinki, ham ogʻzaki, ham yozma nutq ikki komponent (qism)dan tarkib topadi: ogʻzaki nutq — umumadabiy va ogʻzaki-soʻzlashuv nutqiy vositalaridan, yozma nutq — umumadabiy va kitobiy yozma nutqiy vositalardan.

OPN nutqiy tuzilishi, yaʼni radionutq, telenutq uch tarkibiy qismdan — umumadabiy, kitobiy-yozma nutqiy vositalar va soʻzlashuv nutqi unsurlaridan tashkil topadi.

3-§. Uslubiyat

Uslubiyat nima? Uning boshqa filologik fanlar bilan aloqadorligi qanday? Jurnalistika fakulteti talabalariga uslubiyat fanini oʻqitishdan maqsad nima? Fanning vazifasi qanday? Bu va boshqa savollarga biz quyida toʻxtalib oʻtamiz.

Uslubiyat nutqiy (ogʻzaki va yozma) muloqot vaqtida til (til birliklari va kategoriyalari)dan foydalanish haqidagi fandir.

Uslubiyatda, asosan, *“til birliklaridan foydalanish yoki “til birliklarining muayyan vazifani bajarishi”* haqida soʻz boradi. Ana shu vazifa bajarishligiga koʻra u funksiyaviy (vazifaviy) uslubiyat deb ataladi. Til vositalaridan foydalanishga tildan foydalanuvchi, yaʼni nutq egasi nuqtayi nazaridan qarash lozim.

Til vositalari muayyan vazifa bajarar ekan, nutq egasining maqsadiga koʻra maʼlum oʻzgarishlarga uchraydi. Bu oʻzgarishlar ayrim til birliklari, kategoriyalari, soʻzlar guruhi, grammatik shakllar, konstruksiyalar (tuzilmalar) va fonemalarda yuz beradi.

Uslubiyat tilshunoslik fanlari orasida alohida oʻrinni egallaydi. Boshqa tilshunoslik fanlari tilda *nima* borligini oʻrgansa, uslubiyat til birliklari va kategoriyalardan *qanday* foydalanishni tadqiq etadi. Nutq (ogʻzaki, yozma)da fikr, his-hayajon, fikr almashish, informatsiya yetkazish qanday kechadi, mana shular uslubiyatning mohiyatini tashkil etadi. Bir soʻz bilan aytganda, *harakatdagi* tilni oʻrganadi.

Tilda shakllangan birliklar va kategoriyalar nutqiy muloqot jarayonida quyidagilarga bog'liq ravishda muayyan funksiya (vazifa)ni bajaradi:

- xabarlar mazmuniga;
- matn (umumiy nutqiy muloqot)ga;
- nutqiy muloqot amalga oshirilayotgan sharoitlarga.

Tilning qanday vositalari birikmaga kirishishi, bir-birlari bilan bog'lanishi, bir-biriga moslashishi, muloqot sohasi, nutq shakli (og'zaki, yozma), matn mavzusi, muhokamaning mohiyati, "gaplashish" va h.k. ga ko'ra uslubiyat quyidagilarni aniqlashtiradi:

– tildan kishilarning birgalikda faoliyat olib borishlari, ish yuritishlari, umuman, turmush kechirishlari kabi jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishda qanday foydalanilishini;

- har bir til birligi qanday vazifani bajarishligini;
- muayyan matn tarkibida (yoki muayyan matn turida), u yoki bu muloqiy sharoitda til birliklari mutanosiblashishi yoki bir-biriga ta'sir etishligini.

Uslubiyat tildan foydalanish masalasini aniqlashtiradi, tadqiq etadi. Bu uning predmetini tashkil etadi. Uning tilshunoslikning boshqa fan sifatidagi mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Ana shunga ko'ra uslubiyat tilshunoslikning funksiyaviy-kommunikativ (vazifaviy-muloqot) turi hisoblanadi va nutq madaniyatini, ortologiya (to'g'ri nutq haqidagi fan)ni, til me'yorlari to'g'risidagi ma'lumotni, ijtimoiy lingvistikani, adabiy nutq nazariyasini o'z ichiga oladi.

Uslubiyatga oid mashg'ulotlarda quyidagilarni a'lo darajada bilish (o'rgatish) nazarda tutiladi.

1. Til "material"ini, kategoriyalarini, birliklarini – uning tizimini tashkil etuvchilarni;
2. O'zbek tili fonetikasi, leksikasi, grammatikasi (morfologiya sintaksis), frazeologiyasi, so'z yasalishi va b. ni;
3. Uslubga ko'ra ega va kesim moslashuvini;
4. Sodda va qo'shma gaplar tuzilishini;
5. Tildagi obyektiv va subyektiv munosabatni;
6. O'timli va o'timsiz fe'llarni;
7. Qaratqich va tushum kelishiklarining farqini;
8. Mavhum otlar, shakllar omonimiyasi va h.k. ni.

Uslubiyatda, avval, mikromatn, shuningdek, muallifning umumiy fikri, kontekst ta'siriga ko'ra tahlil etilayotgan matnda til birliklaridan

foydalanishdagi me'yordan chetlanish – sintaktik konstruksiyalardagi kamchiliklar, frazeologizmlarning xato qo'llanganligi, so'zlarning birikmaga noto'g'ri kiritilganligi, so'zning o'z ma'nosida qo'llanilmaganligi, ma'no bo'yog'idan noto'g'ri foydalanilganligi e'tiborga olinadi.

Havo bulut edi. Oq bulutlar bo'lganlikdan quyoshning nuri uncha kesilmagan, quyosh to'r ro'mol ichida o'tirgan kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi. (A.Qodiriy).

Tabiat manzarasini chizar ekan, adib *quyosh kelinlar kabi suzilib qarar edi* o'xshatish konstruksiyasini tuzadi.

Uslubiy nuqtayi nazardan bu konstruksiya e'tiborni o'ziga tortadi. Grammatika bo'yicha mutaxassisning fikricha, bu konstruksiya grammatik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Leksikolog esa, *suzilmoq* so'zini qo'llashda me'yordan chekinish bor, deydi.

Uslubiyat bo'yicha mutaxassis esa mazkur konstruksiyadagi me'yordan chekinishlikni aniqlay boshlaydi: nima uchun, nega? Matn uchun bu nima beradi, muayyan aniq ifodaga yana qanday yangi ifoda (ottenka) bag'ishlaydi.

Mazkur konstruksiya tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, aslida, *quyosh kelinlar kabi qaraydi*. Konstruksiya to'rt komponentdan tashkil topadi: *quyosh, kelin, kabi, qaraydi*. Bu konstruksiyada *quyosh, kelin* – ot, *kabi* – ko'makchi, *qaradi* – fe'l (o'tgan zamon). Ulug' adib quyoshning nur taratishini inson qarashiga o'xshatar ekan, qarashga xos ko'plab belgilar orasidan faqat bittasini tanlaydi: *suzilib*. Ana endi tasviriy tilshunoslikdan uslubiyatga o'tiladi: nega? Inson qarashiga turli belgilar xos: *kulib qarash, xo'mrayib qarash, bezrayib qarash, tirjayib qarash, jilmayib qarash, tumshayib qarash, tersayib qarash, ola qarash, irjayib qarash, sirli qarash, shubhali qarash, ishonqiramay qarash, ishonib qarash, chaqchayib qarash, baqrayib qarash, yovqarash, do'stona qarash, bo'zrayib qarash, iljayib qarash, yotsirab qarash, yig'lamsirab qarash* va h.k.

Nega yozuvchi qarashga xos ko'pgina belgilar ichidan faqat *suzilibni* tanladi. Ana shu tanlash ayni uslubni anglatadi.

Agar *suzilib* so'zi – ravishdoshning nominativ (atash) ma'nosiga e'tibor bersak, u insonga xos qarash belgisini anglatadi, ma'no bo'yog'i, tabiiyki, ijobiy. Bunday qarashga insonlar yoshi, jinsidan qat'i nazar, barchasi ham ega bo'lishi mumkin. Lekin ular barchasi birdek ijobiy emas. Adib yuqorida ayol zotiga mansub tur – *kelin*

qarashiga quyoshning *nur sochishini* o'xshatadi. Nega kelinning, nega qizlarning, nega katta yoshdagilar (kampirlar)ning? Vaholanki, ular ham ayol! Chunki qizlarning *suzilib qarashi* – *odobsizlik*, yoshi kattalarniki – *yarashmagan qiliq*. Kelinlarning bu xil qarashlari ham ma'lum davrda (yangi kelinlik davrida), shunda ham o'z jufti halollariga nisbatan bo'lsa, *ijobiy* sanaladi. Yuqoridagi parcha badiiy matn ekanligini hisobga olsak, unda muallif quyosh nurlarini oq bulut to'sib qo'rganligi va uning ham yorug'ligi xira tortgan, hovuri pasayganligi va bu kishiga yoqishlik darajasida ekanligini ta'kid etmoqchi bo'ladi va buni kelinlarning *suzilib boqishligi* yoqimlilikiga o'xshatadi.

Uslubiyat tildagi bu hodisani tadqiq etarkan, tasviriy tilshunoslik bilan o'zaro jips bog'liqdir, chunki u mohiyatan tilni tadqiq etishni nihoyasiga yetkazadi. Uslubiyat tilni tizimli-tuzilmaviy tahlil qilish vazifasi (tasviriy tahlil)dan o'tib, lingvistika qismlariga asoslangan holda quyidagilarni tadqiq etadi:

1. Fikrni ifoda etishning yondosh (parallel) usullaridan, til vositalari yordamida yuzaga chiqadigan his-hayajonlarni;

2. Turli maqsadlarda va nutqiy muloqot sharoitlarida til vositalarining turli yo'sinda birikuvi, qo'shiluvi usullari, tartibini;

3. Nutqiy muloqotda, yozma va og'zaki nutqda til unsurlari, kategoriyalarining amalda qo'llanilish qonuniyatlari va o'ziga xosliklarini.

U darvozaga yaqinlashayotgan edi, nimadandir cho'chib chetga burildi. Chunki darvozadan chiqib qolgan ikki kishini ko'rib, bularning birini qayin otasi bo'lib chiqmagidan hurkkan edi. (Abdulla Qodiriy).

Mazkur parchadagi jumlarlar grammatika nuqtayi nazaridan to'g'ri ekanligini hech bir tilshunos inkor etmaydi. Faqat leksikolog so'z qo'llash xususida me'yordan ma'lum darajada chetlashish borligini quyidagi etadi va shu bilan cheklanadi. Faqat uslubiyatchi mutaxassisgina birinchi jumlada *cho'chimoq*, ikkinchi jumlada *hurkmoq* so'zining qo'llanilganiga *nega* deya e'tibor beradi va uning tahliliga kirishadi, bunday ikki xil qo'llash mohiyatini ochib beradi.

Birinchi jumladagi *cho'chimoq* fe'lining genetik ma'nosi *kutilmagan holatdan xavotirga tushmoq* ifodasini beradi, ya'ni holat, harakat xavotir bilan bog'liq va bu holat ayni insonlarga xos.

Ikkinchi jumladagi *hurkmoq* soʻzining genetik maʼnosi jonivorlarga, ularning ham muayyan turi – ot, eshak, qora mol, tuyaga xos holat, harakat ifodasini beradi va bu holat, harakat *qoʻrquv* bilan bogʻliq boʻladi.

Yuqoridagi har ikki jumla grammatika qoidalariga muvofiq tuzilgani, yaʼni ega, kesim, ikkinchi darajali boʻlaklar oʻz oʻrnida, soʻzlarning birikmaga kirishuvi ham meʼyorida ekanligi tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan toʻgʻri, deya tan olinadi va bular uning oʻrganish obyekti hamda predmeti hisoblanadi.

Leksikologlar *choʻchimoq*, *hurkmoq* soʻzlarining bir-biriga sinonim ekanligi, faqat *choʻchimoq* soʻzining maʼno ifodasi betaraf, *hurkmoq* soʻzi maʼnosi (insonga nisbatan qoʻllanganda) boʻyoqqa egaligini taʼkidlash bilan kifoyalanadilar.

Uslubiyat boʻyicha mutaxassislar, boshqacha aytganda, semik tahlil bilan shugʻullanuvchi tilshunoslar esa, har ikki soʻz, garchi sinonim boʻlsa-da, nega qoʻllanildi, degan savolni qoʻyadi va leksik birliklar grammatik kategoriyalarni semik tahlil qilishga oʻtadi. Tilshunoslikdagi semik tahlil “Adabiy tahrir” fanida mantiqiy tahlil deyiladi – har ikki ibora teng maʼnoga ega. Tajribasiz muharrir (uslubiyat, semik tahlil, mantiqiy tahlildan xabarsiz) nega endi insonga xos holat, harakat belgisini jonivorlarga xos holat, harakat belgisini ifoda etuvchi soʻz bilan atash kerak, deya *hurkmoq* soʻzini *qoʻrqmoq* soʻzi bilan almashtirsa yoki konstruksiyani oʻzgartirsa, tasviriy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qoidadan tashqari hisoblanmaydi. Mikrotahrir nuqtayi nazaridan ham shunday. Ammo uslubiyat nuqtayi nazaridan qaralsa, boshqa holat ayon boʻladi.

Adib badiiy matn yaratishdan avval, albatta, uning kompozitsiyasi, oʻz maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishda tildagi vositalardan qanday foydalanish va boshqalar haqida chuqur mulohaza yuritadi. Natijada muallifning **individual** uslubi yuzaga keladi.

Abdulla Qodiriy birinchi jumlada *choʻchib* ravishdoshini qoʻllaganining boisi, uni choʻchitgan narsa, hodisa hali maʼlum emasdi. Ana shu nogahoniy taʼsirdan Otabek choʻchib tushadi. Albatta, choʻchishlikka qoʻrquv sabab boʻladi. Keyingi jumlada esa *hurkib* ravishdoshi – *choʻchib*ning sinonimidan foydalanadi. Nega? Uslubiyat ana shu negaligini tadqiq etadi va quyidagi xulosaga keladi:

– *choʻchib* soʻzi maʼno ifodasida hali *qoʻrqish* hissi yoʻq, u *xavotirlanish*, *sergaklanish* maʼno ifodasini beradi;

– *hurkib* soʻzi maʼno ifodasida esa qoʻrqish hissi maʼno ifodasi ayon seziladi;

– birinchi holatda xavotirga solgan, sergaklantirgan obyekt nomaʼlum;

– ikkinchi holatda qoʻrquvga sabab boʻlgan obyekt – ikki kishi maʼlum;

– ikki kishidan biri “qayin otasi boʻlib chiqmadi”.

Otabek, agar har ikki kishi begona ekanini avvaldan bilganda edi qoʻrqib oʻtirmasdi. Chunki ular Otabekka tanish boʻlmagan bir yoʻlovchi sifatida qarar va ahamiyat bermas, toʻqnash kelganda ham salom-alikdan nariga oʻtmasdi. Lekin, ikki kishidan biri qayin otasi boʻlsa-chi, ...

Ot, tuya ... lar uncha-munchaga hurkimaydi. Ularni hurkituvchi taʼsir, yaʼni qoʻrqinch kuchli boʻlishi kerak. Qayin otasi bilan uchrashib qolish Otabek uchun kuchli qoʻrqinch edi. Undagi ana shu qoʻrqinchni ifoda etish uchun Abdulla Qodiriy *hurkib* ravishdoshidan foydalanadi. Aslida *hurkib* soʻzini kishilar tushib qolgan holat va ularga xos harakat ifodasi uchun qoʻllash faqat salbiy maʼnoda boʻlishi mumkin. Lekin Abdulla Qodiriy oʻz ijobiy qahramoniga nisbatan qoʻllaydi va qayin otasidan dashnom olib, qattiq izza boʻlgani uchun bunday uchrashuv qay darajada ogʻir ekanini ifodalash maqsadida *hurkib* soʻzini – ijobiy maʼno boʻyogʻiga ega boʻlishga “majbur” etadi. Uslubiyat ana shuni tadqiq etadi, adib individual uslubini ochib beradi.

Biz yuqorida uslubiyat nutq madaniyati bilan jips aloqada degan edik. Zero, uslubiyat funksiyaviy kommunikativ fanlar sirasiga kiradi.

Bu fanlarni tilga boʻlgan umumiy asosiy yondashuv birlashtiradi. Mavzkur fanlar til egalarining nutqiy muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanishlaridagi oʻziga xoslik va qonuniyatni oʻrganadi.

Demak, uslubiyat, nutq madaniyati, ortologiya, ritorika til unsurlari va kategoriyalaridan adabiy nutq doirasida oqilona, meʼyorida foydalanishni tahlil etadi.

Nutq madaniyati haqidagi taʼlimda til birliklaridan kundalik nutqiy muloqotda, yozma va ogʻzaki tarzda adabiy jihatlar doirasida foydalanish koʻrib chiqiladi.

Nutq madaniyati deyilganda alohida olingan bir kishi va aholi nutq madaniyatining umumiy darajasi ham nazarda tutiladi.

Nutq madaniyati bo'yicha mutaxassislar amaldagi adabiy nutq me'yorlari tizimi nuqtayi nazaridangina emas, balki, individual hamda umumiy nutqiy madaniyatga uning qanchalik mantiqiy bayonidagi aniq-tiniqlik va ifodalilik (estetik) ekanligini ham nazarda tutadilar.

Adabiy me'yorlar nuqtayi nazaridan nutq madaniyatiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- til vositalaridan foydalanishning asoslangan bo'lishi;
- matn tuzilishi mantiqan izchillikka ega bo'lishi;
- bayon aniq-tiniq, tushunarli bo'lishi.

Shunday qilib, nutq madaniyati sohasidagi tadqiqot o'z ichiga faqat adabiy nutqnigina emas, balki xalq so'zlashuv tilini ham to'liq qamrab oladi, demak, oddiy og'zaki so'zlashuv unsurlari, xalq shevalari, jargonlar – jinoyatchilar argosidan tortib, to kasb-hunarga oid nutqdagi bilgan-bilmagan holda og'zaki, yozma nutqga, shu jumladan adabiy nutqga o'tadigan barcha-barcha unsurlar tahlil etiladi.

Ayni mana shu masalalar bilan shug'ullanishiga ko'ra nutq madaniyati uslubiyatga yaqinlashadi.

Uslubiyat esa nutq madaniyatidan farqli o'laroq asosiy e'tiborni adabiy nutqga qaratadi. Adabiy nutqga xos bo'lmagan hodisalarga ular tufayli erishilgan uslubiy samara nuqtayi nazaridan qaraydi va unga qanchalik erishilgani (yoki erishilmagani)ni, adabiy nutq me'yorlariga asoslangan matnga qancha o'rinli yoki o'rinsiz kiritilganini baholaydi.

Nutq madaniyati tadqiq etadigan adabiy nutqga xos bo'lmagan hodisalar doirasi uslubiyatdagidan kengdir. Buni kundalik nutqda me'yorlashmagan hodisalar cheklanmagan miqdorda uchrashi bilan izohlash mumkin. Hatto, shaxsiy yozishmalar ham bundan holi emas. Agar kundalik nutqiy muloqotda me'yorlashmagan nutqdan bevosita turmush tashvishlari xususidagi suhbatlarda, nutqiy muloqot vaziyatga ko'ra bo'lganda foydalanilsa, adabiy matnga ular muayyan uslubiy maqsadga ko'ra kiritiladi.

Individual nutq ham, umumiy nutqiy madaniyat ham til egasining saviyasiga, ijtimoiy ongga, adabiy nutq rivoji va uning hozirgi darajasiga bog'liq.

Abdulla Qodiriyning xoh katta, xoh kichik asarlaridagi obrazlarning, albatta, hayotda o'z prototiplari bo'lgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibulla Qodiriyning yozishicha, Toshpo'lat tajangning hayotda prototipi bo'lgan, u ham "... gapni xuddi Toshpo'lat kabi uzuq-uzuq, chertib-chertib so'zlar edi". (Otam

haqida. 45-b.). Polvon ismli bu shaxsning Qodiriy bilan suhbatdagi nutqiga e'tibor beraylik.

— *Shu, degin, Julqunboy uka, — hammayoqni qimorga boy berib, juda abgor bo'lib yurgan chog'im edi. Bir kun boshim qotib ko'chada borayotсам, yonimdan boyvachcha kiyingan yosh bir yigit o'tib qoldi. "To'xta", — dedim — "san boyvachchani yoningdagi pulingni bir sanab ko'raychi, qancha ekan", dedim ichimda.* (Otam haqida. 46-b.).

Abdulla Qodiriy Polvonning nutqi bilan Toshpo'lat tajangni so'zlatishdan maqsadi qahramoni tabiatini, qiyofasini o'quvchi ko'zi o'ngida yaqqol gavdalantirish maqsadida badiiy uslub talabiga ko'ra hajviy obraz yaratishdir. O'tgan asrning 20- 30-yillarida, jamiyatda ana shunday nutq egalariga ko'plab duch kelingan va ular zamonasiga mos edi.

Bugungi kun "toshpo'latlar"ining nutqi esa butunlay o'zgacha:

— *Shu, desang, bordim ... nima, gudid qilurasan, etgan gapingga atvechat qilasanmi, yo'q, atvechat qilasanmi? Korochchisi, boshqa gudid qima ... sanminan voobshe gaplashmiman, xo', tushundimi? Konchay ... Yo'q san, o'zing kimminan gaplashvotganini bilasanmi? Lyuboyini sindirib qo'yaman ...*

Har ikki nutqdan uning egasi kim, ongi, saviyasi, madaniyati qay darajada ekanligi jamiyatda qanday o'rin tutishligi ayon bo'ladi.

Demak, nutq madaniyati, aytish mumkinki, baholovchi fan hisoblanadi. U nutq asoslarini baholaydi, me'yoriylashganlik darajasini aniqlaydi. Muayyan nutqiy vaziyatda mazmunan o'rinli, o'rinsiz ekanligini tahlil etadi.

Uslubiyat nutq madaniyati sohasidagi tadqiqotlarga nazariy asos bo'lib hisoblanadi. O'rganilayotgan nutq unsurlari uslubiyat nuqtayi nazaridan aniq tavsifga ega bo'ladi.

"Til madaniyati yoki nutq madaniyati haqidagi fan ham nazariy, ham amaliy fan (yoki tadqiqot sohasi), til uslubiyati va nutq uslubiyati bilan turdosh hisoblanadi"¹².

Demak, nutq madaniyati fani bilan uslubiyat fanining tadqiqot obyekti yozma va og'zaki nutq hisoblanadi, nutqni baholash nutq madaniyatining, nutqni adabiy nutq, nutqning turli janrlariga qay darajada mosligi hamda adabiy nutq me'yorlaridan chetga chiqishliklar negatligini o'rganish uslubiyatning predmeti hisoblanadi.

¹² Виноградов В.В. Проблемы русского языка. —Москва: 1981. —175-б.

4-§. Uslubiyat va adabiy tahrir

Adabiy tahrir – filologiyaning amaliy fanlararo tarmoqlaridan biri. Bu fan uslubiyaatni, uning asosiy tuzilmaviy qismlarini, shuningdek nutq madaniyatini, asosiy tasviriy lingvistik fanlarni chuqur bilishni talab etadi.

Adabiy tahrir matn, qo'lyozma maqsadga muvofiqligi, aniq maqsadga qaratilganligi masalalari bilan ular intellektual,ekspressiv (ham estetik, agar matn badiiy bo'lsa), mazmuni, muallifning o'ylagani, muayyan matn, qo'lyozma nimaga mo'ljallanganligi, hammasi to'g'ri bo'lishligi masalalari bilan shug'ullanadi.

Mustaqil fan sifatida o'tgan asrning 50-yillarida shakllangan adabiy tahrir muharrirlik ishlovi berilishi lozim bo'lgan qo'lyozmalarga nisbatan o'z yondashuvini belgilab olgan. Shulardan asosiysi:

- tahrir – yaxlit ijodiy jarayon, matnni tekshirish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi;

- har bir matnni adabiy jihatda yaxlit matn sifatida tekshirish va unga tuzatishlarni kiritish.

Tahrirga tortilgan matn, qo'lyozmaga bir qator talablar qo'yiladi:

- keltirilayotgan ma'lumotlar, berilayotgan xabarlar ham ilmiy, ham asosli bo'lishi kerak;

- bayon etilayotgan nazariy fikrlar, farazlar yoki talqinlar, hodisalar, voqea va b.lar ilmiy yoki aqlan sog'lom bo'lishi lozim;

- muallif bayoni mantiqan ketma-ketlik (uzviylik)ka ega bo'lishi shart.

Qo'lyozmaga muharrir tomonidan ishlov berish deganda, matnga uslubiy jihatdan ishlov berib, uning adabiyiligini ta'minlash nazarda tutiladi. Bundan tashqari, uslubiy jihatdan ishlov berish bilan birga, qo'lyozma tarkibiy tuzilishi (kompozitsiyasi) ham aniqlanadi (to'g'rilanadi).

Adabiy tahrir fanida "matn, qo'lyozma tili ustida ishlash" degan ibora borligi sababsiz emas.

Tahrir qilinishi kerak bo'lgan qo'lyozmaga uslubiy ishlov berish faqat matndagi imloviy hamda tinish belgilari bo'yicha xatolarni tuzatishdan iborat emas, balki:

- sodda va qo'shma gaplarning ichki tuzilishi grammatik me'yorlarga mosligi tekshiriladi:

– funksiyaviy uslubiyat qonuniyatlariga to‘liq amal qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

Xullas, matn, qo‘lyozmani tahrir qilish jarayonida uslubiy talablarning barchasi so‘zsiz amalga oshirilishi shart.

Birinchi talab matnlar bayonidagi adabiy nutqning muayyan funksiyaviy turga xos izchilligi, ifodaviyligi, ikkinchisi – g‘ayriuslubiy unsurlarni qo‘llashning asosli ekanligi, uchinchisi – fikrni ifodalash shaklining mazkur uslubga mosligi, to‘rtinchisi – funksiyaviy taalluqligiga ko‘ra so‘zlar va iboralardan matn uslubi (yoki janr-nutq) ga mos holda foydalanilganligi, beshinchidan – rasmiy-ish yuritish, ilmiy uslublarda, so‘zlashuv nutqida, badiiy matnda matn shu tur asarlarga xos tuzilganligi.

Demak, matn, qo‘lyozmani adabiy tahrirdan chiqarish turdosh fanlar – tasviriy tilshunoslik (leksikologiya, frazeologiya, grammatika, punktuatsiya va b.), funksiyaviy uslublar (umuman uslubiyat), semantologiya, ortologiya va nutq madaniyati kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq ekan. Adabiy tahrir sifati shulardan chuqur bilimli bo‘lish bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tasviriy tilshunoslik va uning vazifasi.
2. Adabiy nutqning o‘ziga xos jihatlari va vazifasi.
3. Adabiy nutqning ikki ko‘rinishi, umumiy va farqli jihatlari.
4. Publitsistik nutq, uning amal qilish sohasi.
5. Uslubiyat va uning adabiy nutqdagi o‘rni va ahamiyati.
6. Yozma va og‘zaki nutq madaniyati.
7. Matn tahririda uslubiy tahlil.

2-BOB. USLUBLAR

REJA

1. Funksiyaviy turlar.
2. Funksiyaviy uslub ta'rifi.
3. Funksiyaviy uslublararo farq.
4. Funksiyaviy uslubning nutqiy tuzilishi.
5. Matn tuzishdan maqsad.
6. Ilmiy matn tahlili.
7. Badiiy matn tahlili.
8. Funksiyaviy-uslubiy soha.

1-§. Funksiyaviy uslub turlari

Hozirgi zamon uslubiyatida *funksiyaviy* (vazifa, faoliyat bilan bog'liq) *uslublar* degan termin qo'llanila boshladi. Xo'sh, uning nazariy ma'nosi qanday? Agar chet el adabiyotlariga, ayniqsa, rus uslubshunosligiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, mazkur terminga sinonim bo'lgan yana bir qator terminlarga duch kelinadi. Masalan, *funksiyaviy tur*, *funksiyaviy uslub*, *funksiyaviy-uslubiy soha*, *xos uslub* (*nutqiy janr*), adabiy nutq tizimida (*funksiyaviy-uslubiy*), *uslubni yuzaga chiqaruvchi omil*, *funksiyaviy tur nutqiy tuzilishi* va b.

Uslubiyatga bag'ishlangan ishlarda, funksiyaviy tur, bu – umumiy tushuncha, deya qayd etiladi va quyidagicha tushuniladi:

- adabiy nutqning funksiyaviy-uslubiy sohasi;
- funksiyaviy uslub.

Ilmiy adabiyotlarda «funksiyaviy tur» terminining bir qator sinonimlari uchraydi:

- funksiyaviy tur;
- funksiyaviy uslub;
- funksiyaviy-nutqiy uslub;
- nutqiy uslub.

“Funksiyaviy-nutqiy uslub ... bu – shunchaki, bilvosita tushuncha emas, balki ilmiy nazariy faraz, uni tushunish uchun turli-tuman til omillarini saralash va baholash talab etiladi”¹³.

Lekin bu ilmiy faraz amalda mavjud hodisani obyektiv tadqiq etishda, uni idrok etishda qo'l keladi.

¹³ Shmelov D.N. Rus tili funksiyaviy turlarda. – Moskva: 1974. – 29-b.

2-§. Funksiyaviy uslub

Funksiyaviy uslub («funktionalniy stil») rus tilshunosi V.V.Vladimirov tomonidan adabiy nutq funksiyaviy (funktseyaviy-uslubiy) turlarini ifodalash uchun birinchi boʻlib taklif etilgan. Bu termin haqiqatan ham atalayotgan nutqiy hodisalarga xos belgi, oʻziga xosliklarni umumlashtirgan holda “uslub” soʻzi maʼnosida ifoda etiladi.

Yana shunga alohida eʼtibor berish kerak boʻladi, chunki “uslub” soʻzi koʻp maʼnolidir. Tilshunoslikning oʻzida ham uning koʻp maʼnoliligini kuzatish mumkin.

1. Ijtimoiy hayotning eng umumiy sohalaridan biriga taalluqli nutq turi (koʻrinishi).

2. Ayni funksiyaviy uslub.

3. Umumqabul qilingan tarz, biror nutqiy turni yuzaga chiqaruvchi odatiy uslub, masalan: notiq (voiz) nutqi; gazetadagi bosh maqola; ilmiy (tor sohaviy emas) maʼruza; soʻzdagi nutq va b.

4. Individual tarz, muayyan nutq tuzilishi yoki asar, shu jumladan, adabiy-badiiy asar yaratilgan usul.

5. Tilning muayyan davrdagi uslubga koʻra (masalan, oʻzbek adabiy nutqining X–XI asrlar, XV–XIX asrlar, XX asr – hozirgi davrdagi) holati.

Funksiyaviy uslubga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha taʼrif beriladi:

Funksiyaviy uslub – til unsurlarining ijtimoiy nutqiy muloqotda muayyan vazifani bajarishiga koʻra birikkan ijtimoiy anglangan tizimi, ularni qoʻllash, tanlash, oʻzaro muvofiqlash, mutanosiblash usul va tamoyillari.

Albatta bunday taʼrifda uchta jihatga eʼtiborni qaratish lozim boʻladi:

1. “Ijtimoiy anglangan ...”. Xoʻsh, bu termin nimani anglatadi? Bu degani, uslubga individ nutqiy faoliyati, nutq soʻzlash tarzi mahsuli sifatida emas, balki individual boʻlmagan, ijtimoiy muloqotning muayyan maqsadlariga moʻljallangan (xizmat qiladigan) til unsurlarining alohida ichki tashkillangan tizimi sifatidagi hodisa, adabiy nutq, mazkur uslub, mazkur funksiyaviy tur barcha egalari jamoaviy anglanganligi natijasi sifatida qaraladigan qatʼiy qoidadir.

Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy jamoa (ijtimoiy ong, jamiyat) barcha aʼzolarining nutqiy muloqot tarzi.

2. "... ijtimoiy nutqiy muloqotda muayyan vazifani bajarishlikka ko'ra birikkan" iborasi ham izoh talab etadi.

Uning ma'nosi shunday: ular qandaydir til unsurlarining tasodifiy yig'indisi emas, balki qaysidir (ozmi, ko'pmi) darajada til unsurlarining tashkillashgan, tarixan shakllangan, alohida qo'llanadigan, o'zaro aloqador, muayyan belgilangan vazifa bilan bog'liq tizimdir. Boshqacha aytganda, mazkur uslub doirasida tuzilgan matnlar aniq vazifaga ega bo'ladi, ijtimoiy muloqotning ma'lum maqsadiga, masalan, siyosiy g'oyalarni ifodalashga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga (publitsistik uslub), ilmiy ma'lumot yetkazishga (ilmiy uslub) va b.ga qaratiladi.

Til vositalarining majmui, ularning tashkillanishi, tamoyillari, foydalanish usuli va tarzi, o'zaro birikuvi, muayyan matnda ularning bog'lanishi *funksiyaviy uslub funksiyaviy turlarning nutqiy tuzilishi hisoblanadi*.

3. Yuqoridagi ta'rifga ko'ra funksiyaviy uslub termini tarkibidagi uslub so'zi *bir xil belgilar majmuidan* iborat, degan tushunchani ifoda etadi. Albatta, har bir funksiyaviy tur ma'lum bir "o'z" majmuiga ega. Bu majmua, asosan, leksik-frazeologik vositalar, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklarga, ifoda tarzlariga ega. Masalan, rasmiy-ish yuritish uslubi ayrim turida, xususan, harbiy hujjatlarda geografik nomlar doimo bosh kelishikda yoziladi; ilmiy, rasmiy-ish yuritish uslubidagi matnlarda fe'l-otli birikmalardan foydalaniladi, bunda, asosan, keng qo'llaniladigan fe'llar va fe'ldan yasalgan otlar ishtirok etadi, ular harakatni belgilaydi: *tahlil qilmoq, hisob-kitob yuritmoq, tekshiruv o'tkazmoq, mablag' kiritmoq* va h.k.

Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, funksiyaviy turga xos xususiyatni alohida til vositalari majmui belgilab beravermaydi, balki til unsurlarining birikmaga kirishish, o'zaro bog'lanish usullari va tamoyillari, shuningdek, ayni bir turdagi til birliklari, ayni bir turdagi kategoriyalarni qo'llashlik ham funksiyaviy turni belgilovchi omillar hisoblanadi. Ana shunday qo'llash ular ma'nosining turli qirralarini ochib beradi, ular ifodaviyligining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Ayni bir tur birliklar, kategoriyalardan foydalanish, ularning boshqa til unsurlari bilan bog'lanishi har bir funksiyaviy uslubda turli tarzda kechadi (farq qiladi).

Funksiyaviy uslublardagi bu farqni nutqiy muloqotning maqsadi, muayyan uslubda matn tuzishdan maqsad, uning vazifasi, sharoiti har

xilligi bilan izohlash mumkin. Yana qo'shimcha qilib aytish mumkinki, ana shu har xillikka ularning funksiyaviy – ma'noviy, tasviriy imkoniyatlaridan foydalanishdagi turli sharoitlar ham sabab bo'ladi. Masalan, kishilik olmoshidan foydalanish nutqiy muloqot amalga oshirilayotgan sharoit va uning vazifasi bilan bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon nutqiy muloqotida, rasmiy-ish yuritish uslubi (shaxsiy chiqishlar)da *men* olmoshini qo'llash maqbul emas (qabul qilinmagan). Chunki kishilik olmoshini qo'llash nutqiy muloqot sharoiti va vazifasiga bog'liq. Agar so'zlashuv nutqida o'z fikrini qat'iy tarzda ifoda etishda 1-shaxs birlikdagi olmoshni qo'llash shartdir (*men shuni xohlayman, men shunday o'ylayman ... men o'zim chiqaman ...* (kutib olishga).

Rasmiy-ish yuritish uslubi (shaxsiy fikr bildirish)da *men* kishilik olmoshini qo'llash maqbul emas (qabul qilinmagan): ... *navbatdagi mehnat tinimiga chiqishimga ruxsat berishingizni so'rayman*.

Og'zaki publitsistik tarzdagi nutqda, umuman *men* olmoshini qo'llash joiz emas. Ilmiy anjumanda olim ma'ruzasi mobaynida quyidagicha so'zlaydi: *Bizning ... da shunday xulosaga keldik. Bizning fikrimizcha ...* Har ikki misolda *men* o'rnida *biz* qo'llangan (*men keldim, mening fikrimcha* emas. Bunda birinchi *men* – muallif, ikkinchi *men* – kamtarlik ma'no ifodasini beradi va u *biz* tarzida aks etadi). Ma'ruzachi tinglovchilarga bayon etilgan biror mulohazani, kuzatishlarni yakunlayotganda *bizdan* foydalanadi va go'yo auditoriya o'zi bilan birgalikda ishlashga jalb etilayotgan bo'ladi (shunday qilib, *biz* bildikki, ...). Bunda *biz* – *birgalik* ma'nosida). Ma'ruzalarda *biz* deyarli betaraf, ma'no ifodasi ekspressivlikdan mutlaqo holi. Lekin, so'zlashuvda, masalan, vrachning davolanuvchiga qaratilgan nutqida bu olmosh (*xo'sh, (bizning) ahvollarimiz yaxshimi?*)da ekspressivlik (hamdardlik) yaqqol namoyon bo'ladi va takallufsiz muomila ("biz – vrachona"), ikkinchi talqini – "birdamona"lik) ayon bo'ladi. Boshqacha aytganda, davolanuvchining ahvolini o'z ahvolidek ko'radi. Buning zamirida chuqur odamiylik hissi yotadi. Agar davolanuvchining ahvoli yaxshi, kayfiyati chog' bo'lsa, vrachning ham ko'ngli ko'tarilgan, kayfiyati chog' bo'ladi. Bu ayni tibbiyot sohasiga taalluqli funksiyaviy uslubga xos nutq ko'rinishi hisoblanadi.

Ayni bir xildagi uslubiy iboralar, qo'llash va yo'sinlar turli funksiyaviy uslublarda o'zgacha tarzda namoyon bo'lishi, har xil vazifani bajarishi mumkin. Masalan, vaqt-vaqti bilan ham rasmiy-ish

yuritish uslubida ham, publitsistik uslubda ham bu holatni uchratib qolamiz. Agar publitsistik uslubda ulardan matnning o'quvchiga ta'sir etishligini kuchaytirish maqsadida foydalanilsa, rasmiy-ish yuritish uslubida nutq bayoni kelishuvchi tomonlar maqsadiga ko'ra tartibga solish uchun qo'llanadi.

Funksiyaviy uslubning nutqiy tuzilishida til materiallari quyidagilarga bo'ysundiriladi:

- nutq egasining ijtimoiy muloqotdan asosiy maqsadiga;
- nutqiy muloqotning vazifasi va maqsadiga (ilmiy uslub – ilmiy ma'lumot berishga, ilmiy nazariyalarni bayon etilishiga va h.k.; publitsistik uslub – siyosiy g'oyalarni bayon etish, siyosiy tashviqot va targ'ibot olib borishga);
- muayyan funksiyaviy uslubning shakllanishini, uning til vositalarini tashkillashtiruvchi ba'zi bir umumiy o'ziga xosliklarni belgilovchi uslubni yuzaga chiqaruvchi ekstralingvistik (verbal bo'lmagan) omillarga.

Auditoriyaga to'g'ridan to'g'ri murojaat etish publitsistik nutqga notiq muloqotining og'zaki shakli ko'rinishini beradi (tinglovchiga qaratilgan so'zlovchi nutqi).

Radionutq, telenutq kabi nutqning og'zaki shakli matnni efirga uzatuvchi texnika vositalarining xususiyatiga ko'ra belgilanadi.

3-§. Uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar

Uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar nutq materiali tayyorlashning umumiy tamoyillari va ayrim tomonlariga muayyan funksional uslubning o'ziga xos jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'zlashuv nutqi, tuyqusdan (hech qanday tayyorgarliksiz) kechishi va u vaziyat bilan bog'liq bo'lishi bir tomondan, nutqiy muloqot og'zaki shakli yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi nutqiy muloqot ishtirokchilarining bevosita shaxsan ishtiroki (shaxslararo muloqot), ikkinchi tomondan, so'zlashuv sintaksisi (gap qurilishi)ni ko'p jihatdan belgilab beradi.

Uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar:

- biror funksiyaviy turda til vositalaridan foydalanish tamoyillariga;
- muayyan uslubdagi matnda til vositalaridan foydalanish usuli va yo'siniga;

– leksik birlik, grammatik kategoriyanı faollashtirishga, masalan, maʼlum funksiyaviy turda (ilmiy uslubda terminlar alohida ahamiyat kasb etadi) va b. ga taʼsir qiladi.

Publitsistik uslub uchun ekspressivlik va andozaviylikning tuzilish tamoyilining almashinib turishi uslubni yuzaga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Mazkur omil ushbu uslubda vositalarni qoʻllashning asosiy yoʻnalishini belgilab beradi; soʻzlashuv nutqining dialog tarzidaligi soʻzlashuv nutqidagi matnlarda (dialogda) elliptik konstruksiya¹⁴lar keng tarqalishiga imkon beradi.

Nutqiy muloqotda muayyan funksiyaviy turning asosan nima maqsadga qaratilganligi, tildan foydalanish shakli (yozma, ogʻzaki nutq), muloqot turi uslubni yuzaga chiqaruvchi omil boʻlishi mumkin. Ana shu omil doirasida muayyan uslub namoyon boʻladi.

Muloqot turi quyidagicha boʻlishi mumkin:

- ommaviy;
- guruhii;
- shaxslararo va h.k.

Quyida turli funksiyadagi matnlar qiyosiy tahliliga eʼtiboringizni qaratamiz. Matnlar ayni bir “narsa”ga taalluqlidir. Soʻzlarni qoʻllash, ular qatnashgan matn tuzilishida funksiyaviy uslubdan qanday foydalanilgan, matn tuzishdan maqsad va matnlash vazifasiga qanchalar aloqador ekanligi yaqqol koʻrinadi.

Birinchi ilmiy matn – Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasidagi maqola, ikkinchisi – badiiy asar tili namunasi – hikoyaning bir qismi.

1. *Kashalot (Phuseter catodon) – tishli kitlar kenja turkumiga mansub sut emizuvchi suv hayvoni. Uz. urgʻochisi 13 m. gacha, erkagi 21 m. gacha, ogʻirligi 30–70 t. Kallasi juda katta, tanasining uchdan bir qismini tashkil etadi. Tanasining old qismi toʻmtogʻ. Ingichka va uzun pastki jagʻida 18–30 juft tishi bor, yuqori jagʻida tishi yoʻq. Terisi qalin (2 sm gacha). K qoʻngʻirdan toʻ toʻq jigarrang tusda. Okean va ochiq dengizlarda tarqalgan. Baʼzan Barens dengizi va Kamchatka sohillari yaqinida uchraydi. K. – poligam hayvon, 5 yoshida voyaga yetadi. 50 yilcha yashaydi. Kalmarlar va baliqlar bilan oziqlanadi. Oziq topish uchun 2 km gacha chuqurlikka shoʻngʻiydi, suv ostida 1,5 soatgacha turishi mumkin. Iqtisodiy ahamiyati katta. Bitta K.dan 9–10 t. yogʻ olinadi. Ovlash man etilgan.*

¹⁴ Elliptik konstruksiya – soʻzlashuv vaqtida gap tarkibidan tushib qoladigan biror qism, boʻlak.

2. *Ana shu bir zumdalikda, termilib ularga, ular harakatlani-shidan, ular tana ko'rinishidan nimanidir ilg'ab olishga ulgurib – ulardagi g'ayritabiilikka, yovvoyi go'zallikka angraygancha boqib qoldim ... Ular ibtidoiy – ko'r, misoli qandaydir tuproq rang yer osti chuvalchangiga o'xshar, chunki, ko'zlari orqaroqda, yon tomonda, oldida esa faqat o'limtik, hech qanday hayotiy nishonsiz, to'mtoq peshona. Yana ularda suv kaltakesaginikiga o'xshash nimadir bor edi. Suv ostidan ular ketma-ket, shitob bilan, dengiz bo'yi odamlarining aytishicha, o'pkasini havo bilan to'ldirish uchun bosh chiqarar va yana bir zumda zangori dengiz qa'rida g'oyib bo'lardi. Ana shunda, suvga sho'ng'ish chog'ida ularning egilgan nimasidir salamandranga xos qirrador bukrisi mo'jizaviy tuyuladi, menga. Quruqlikda ham, suvda ham yashay oladigan bu jonivorlar qachonlardir suvga g'arq bo'lgan yerda, yolg'iz yashaganlar.*

Har nima bo'lganda ham ular ajoyib edi. Terisi ipakdek silliq, qayishqoq. O'z zalvari va harakatida, garchi tanbal ko'rinsa-da, shiddatli ...

Birinchi matn ilmiy-axboriy mazmunda va kashalot haqida eng kerakli, ahamiyatga molik ma'lumotlar berilgan. Ularning hayvonot tizimidagi o'rni ko'rsatilgan. Tashqi ko'rinishi, yosh xususiyatlari, yashash tarzi, oziqlanishi, ummondagi makoni va xo'jalikdagi ahamiyati aytilgan. Matn tuzishda adabiyot turi (ensiklopediya) talabiga ko'ra, deyarli asos materiallar – terminlar hamda aniq-tasviriy tavsifdagi atamalardan foydalanilgan: *uzunligi, og'irligi, teri, jag', tish, tana, tus, poligam, kalmar, to'q jigarrang, qo'ng'ir, yog', tarqalgan, oziq, ov va b.*

Barcha so'z (termin)lardan o'z (tub) ma'nosida foydalanilgan. Sifatlar axboriy vazifani o'taydi, ya'ni faqat narsa belgisi va xossasini ifoda etadi. Matndagi jumlar tuzilishi (sintaksis) ensiklopedik janrga xos: Asosan sodda, shuningdek, qo'shma (qismlararo sanab o'tish tartibidagi) gaplardan iborat. Matnda ega tushib qolgan to'liqsiz gaplar uchraydi, lekin egani gapning mazmunidan oson tiklash mumkin: *Kalmar va baliqlar bilan oziqlanadi. Okean va ochiq dengizlarda tarqalgan. 50 yilgacha yashaydi.*

Sintaksis ham, so'z ham atov (nonimativ) tavsifda, ya'ni so'zlar tub, nom ma'nosida qo'llangan. Ular narsa, harakat, tushunchani ataydi, ularning belgisi, xossasini ifoda etadi. Bu ilmiy bayonning obyektiv ekanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ensiklopediyaning

maqsad va vazifasiga mos keladi. Quyidagilar ilmiy uslubdagi alohida janr hisoblangan eksiklopediyaning maqsadi va vazifasi hisoblanadi:

- aniq ma'lumot yetkazish;
- qat'iy ilmiy asosda bayon etish;
- ilmiy asosda tushuntirish;
- tushuncha, hodisa, voqea va b.ni izohlash, ta'riflash.

Ikkinchi matnda ham so'z kashalot haqida boradi. Matn tuzishdan maqsad kashalot haqida ilmiy ma'lumot berish emas. Bunda muallif chiroyli, ulkan tanasi, qandaydir yerda "uchramaydigan" yaratilgan davridan buyon o'zgarishsiz, ilk ko'rinishini o'zgartirmagan jonivor haqidagi taassuroti, hayratini bayon etadi. Tabiatga shoirona ko'z bilan qaraydi va unga bo'lgan chuqur hayajonli insoniy munosabatini ifodalaydi.

Muallif so'z yordamida obrazli nutq yaratadi. Ta'sirchanlik (avvalgi matnga qiyoslanganda), muallif fikri rivojlanib borishi, his-hayajoni ortishini ifodalovchi jumlarlar tuzilishi (sintaksis)da, bir qadar, morfologiyada yuzaga chiqqan.

Muallif qo'llagan ko'pgina so'zlar aniq ifodaliligi va ekspressivligi bilan ajralib turadi. Masalan, muallif *zum* so'zini qo'llaydi (*ana shu bir zumdalikda, yana bir zumda*), garchi uning o'rnida *qisqa vaqt ichida, bir daqiqada* singari so'z birikmalaridan foydalanishi ham mumkin edi. Lekin *zum* so'zi kashalotlar tezligini, ular harakatidagi shiddatni, ular sho'ng'ib chiqqan daqiqalarning yaqqol tasvirini yetkazadi. Yana shunisi borki, *zum* so'zi ko'plikda kelmaydi, umumqabul qilingan (*zum+lar*) me'yorga to'g'ri kelmaydi, shunga ko'ra ot turkumidagi bu so'z faqat birlikda qo'llanadi. Uning faqat badiiy nutqda va oddiy so'zlashuv nutqidagina qo'llanishi muallifning, nutq egasining maqsadi, niyati bilan bog'liqdir. Shu o'rinda yana bir holatga to'xtalib o'tish kerakki, ilmiy matndagi ko'plik shakliga ilmiy nutq uslubidagi ichki me'yor sifatida qaralsa, badiiy nutqda me'yordan chetlashish, muallif niyati, maqsadi, vazifasi bilan izohlanadi. *Kashalotlar daqiqalar* tarkibidagi ko'plik qo'shimchasi o'z nutqiy vazifasida, ya'ni o'zi qo'shilib kelgan so'z ma'nosidan anglashilgan narsa, voqea, hodisaga ko'plik ma'no ifodasini beradi. Lekin *suvlar, dadamlar* so'zlari tarkibida, birinchi holda *tur*, ikkinchisida *hurmat* ma'no ifodasini beradi. Agar ilmiy matnda *dengiz suvlarini* qo'llash me'yordan chekinish hisoblansa, badiiy matnda qo'llash muallif maqsadi, niyati bilan bog'liq va

mumkin hisoblanadi: *Bu yerda dengiz suvlari mudom ko'tarilib va pasayib turadi.*

Yuqoridagi misolda *-lar* ko'plik qo'shimchasi alohida ta'kid ma'no ifodasi beradi, ifodani kuchaytiradi, *termilib*, *yovvoyi*, *angraymoq*, *o'limtik*, *to'mtoq*, *qa'r* kabi so'zlarning ma'nosi betaraf sinonimlaridan foydalanishi mumkin edi. Lekin ayni mana shu so'zlar (o'z ma'no bo'yog'iga ko'ra) matn ohangdorligini oshiribgina qolmay, balki mazmunni, ifodani kuchaytiradi.

Termilmoq so'zi, shunchaki *qaramoq* (*orqaga qaramoq*, *atrofga qaramoq*, *yonga qaramoq*, *tepaga qaramoq*, *pastga qaramoq* va b.) emas, balki ko'z qirini tashlash bilan obyektни butun borlig'icha ilg'ab *olmoq* ma'no ifodasini beradi; *angraymoq*, bu – faqat “ajablanmoq” emas, balki uning eng kuchli ifodasidir; *yovvoyi* so'zining *go'zallik* so'zi bilan birikmaga kiritishdan maqsad, kashalotni asli qandayligini (ya'ni qo'lga o'rgatilmagan, xonaki emasligini) aytish emas, balki unga bo'lgan belgi (chiroy) tabiiy hamda o'xshashi yo'qligini ta'kid etishdir; *o'limtik* so'zining tub ma'nosi – *jonsiz*, lekin muallifning bu so'zni qo'llashdan maqsadi kashalot “yuzi” (tumshuq qismi)ning tusi o'likniki singari rangsiz ekanligini ta'kid etishdir; *to'mtoq* so'zi genetik ma'nosi – biror, uzunchoq narsaning uch tomoni nayzasimon emasligini anglatadi. Odatda, baliqlar ko'p turining kalla qismi suyri bo'ladi, bu ularga suvni yorib, tez suzish, harakatlanish imkonini beradi. Lekin kashalotlarning kallasi qaysidir darajada suyri, ammo *do'ng* bo'ladi. Muallif ana shu *do'ng tumshuq* ma'nosida *to'mtoq* so'zini qo'llagan; *qa'r* so'zini qo'llashdan maqsad, uning *tub* so'zi ma'nosidan ko'ra kuchli darajadagi ifodaga egaligidir, *o'ta chuqur* ma'no ifodasini beradi. Vaholanki, kashalotlar ikki kilometrgacha chuqurlikka sho'ng'iy oladi. Bu, endi, haqiqatan ham dengiz qa'ri hisoblanadi va u hamisha sirli, xavf-xatar bilan bog'liq, shu bilan birga o'ziga rom etadi. Xalq og'zaki ijodida qo'llanadi, obrazlilikka ega, dengiz suvining yutib yuboruvchilik xususiyati, dahshatlilik xislatidan darak beradi.

Zumdalikda so'zi g'ayritabiiy tuyuladi (chunki, bunday so'z tilda yo'q, lekin u tilda mavjud so'z yasovchi vositalar yordamida hosil qilingan). Muallif *bir daqiqa*, *qisqa vaqt*, hatto *bir zumda* kabi so'z birikmalaridan foydalanishi mumkin edi. Ammo, ular odatiy, umumiste'molga xos. Garchi *-da*, *-lik*, *-likda* kabi qo'shimchalar

morfologik bo'lsa-da, lekin ularni qo'llash boshqacha, individual, bir martalik, oddiy takallufsiz so'zlashuvga xoslikka egadek ko'rinadi.

Bu – badiiy matnda mumkin.

Matnda tasviriylilikni yuzaga chiqaruvchi vositalar borki, ular kamdan kam uchraydigan nutqiy hodisa sanaladi. Masalan, *o'limtik* (tumshuq) sifati. U *hayot nishonasi ko'rinmaydigan peshona* ma'nosi ifodasini beradi. Bunda ham holat, ham tus nazarda tutilgan. *Qayishqoq (teri), shiddatli (harakat), zangori (dengiz)* kabi sifatlash – epitetlar mavjud. Oksomorani (mantiqan bir-biriga zid tushunchalarni birlashtirish) hamisha matnga aniq paradokslik (ajabtovurlik) bag'ishlaydi. Matnda ikki o'rinda uchraydi va juda o'rinli qo'llangan: *yovvoyi go'zallik, ... tanbal ko'rinsa-da shiddatli*.

Tagdor, nimagadir qat'iy ishora qilish, umumiy kayfiyat bilan bog'liq mavhum ifoda vositasidan foydalaniladi; noma'lumlik mavjud ma'noli olmosh yordamida ifoda topadi: ... *misoli qandaydir tuproq rang yer osti chuvalchangiga o'xshar...*; *nimasidir salamandrga xos...*; *qachonlardir suvga g'arq bo'lgan yerda yolg'iz yashaganlar*; – *iga qo'shimchasi hamda buyruq fe'liga -r yasovchi qo'shimchasi qo'shib yasalgan ot yordamidagi qiyoslash chuvalchangiga o'xshar*) kabi konstruksiyalar ifodaviy, tasviriyligi bilan ajralib turadi. So'z birikmalari (sintaksis)dagi o'ziga xosliklar – inversiya ham ko'zga tashlanadi: *ko'zlari ularning, tuyuldi menga*; so'zlarning faollashtiruvchi tartibi muallifga ma'noviy urg'uni kerakli o'rinda berish va ibora emotsionalligini kuchaytirishga yordam beradi (*yana, ularda, suv kaltakesaginikiga o'xshash nimadir bor edi. Har nima bo'lganda ham, ular, ajoyib edi*). Quyidagi so'z, so'z birikmalari, gaplar ham qo'shimcha tasviriylilik, emotsionallikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi: *silliq, qayishqoq teri, shiddatli, o'z zalvori va harakatida garchi tanbal ko'rinsa-da ...*

Kiritma konstruksiya hikoya (rivoyat), xalq og'zaki ijodiga xos xususiyat bag'ishlaydi (*Suv ostidan ular ketma-ket, shitob bilan, dengiz bo'yi odamlarining aytishicha, o'pkasini havo bilan to'ldirish uchun bosh chiqarar va yana bir zumda zangori dengiz qa'rida g'oyib bo'lardi*).

Kiritma konstruksiyalar, badiiy narsa publitsistikada keng tarqalgan ekspressiv sintaksis usul hisoblanadi va ular gapning asosiy qismi bilan birlikda mantiqiy (ichki) tahlil etilayotgan bo'lakni yaxlit, jo'shqin, ta'sirchan sintaktik-leksik birlikka aylantiradi.

Yuqoridagi matn hikoya tarzida tuzilgan, unda soʻz birinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Muallifning bayoni matndan toʻligʻicha anglashiladi va u badiiy matnning uslubiy oʻziga xos tavsifi uchun juda muhim. Agar matn ilmiy yoki rasmiy-ish yuritishga oid matn bilan qiyoslansa, keyingi ikki tur matnda badiiy matndagi konstruksiyalar boʻlishi mutlaqo mumkin emas.

Albatta, badiiy matn bayoni qanday boʻlishligi aniq belgilangan emas. Matn, koʻpincha uchinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Badiiy asar tili nihoyatda turli-tuman, unda muallifning individual rujusi, xayoloti, matn tuzishdagi xilma-xil konstruktiv-nutqiy shakllar yuzaga chiqadi. Shu jihatlarga koʻra ilmiy (ayniqsa, rasmiy-ish yuritish) uslublari “qatʼiy belgilanganlik”ka koʻra jumla tuzilishida va bayon tarzida keskin farqlanadi.

“Birinchi shaxs tili”dan bayon qilish fikrni erkin ifoda etishga, hikoya qilishda oddiy soʻzlashuvga xos unsurlardan foydalanish, sintaktik konstruksiyalar oʻzgaruvchan, ekspressiv boʻlishiga imkon beradi.

4-§. Funksiyaviy-uslubiy soha

Agar funksiyaviy uslub adabiy nutq egalarining ijtimoiy muloqotidagi maxsus vazifa (masalan, siyosat, fan) bilan bogʻliq boʻlsa, funksiyaviy-uslubiy soha ijtimoiy muloqotning bir qator vazifasini qamrab olishi mumkin (yoki koʻlamdor muloqot sohasini, masalan, norasmiy) va bir qator funksiyaviy uslublarni birlashtiradi (masalan, kitobiy nutqda).

Kitobiy nutqning tarixan shakllangan tasnifi (alohida ajralib turuvchi rasmiy-ish yuritish, ilmiy, publitsistik uslublari badiiy asar tili, ogʻzaki publitsistik nutq, radionutq, kinonutq, telenutq). Funksiyaviy uslub” va “funksiyaaviy-uslubiy soha” tushunchalari nisbiy ekanligini yaqqol koʻrsatadi.

Funksiyaviy-uslubiy sohani uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar birlashtirgan baʼzi bir funksiyaviy uslublari guruhi tashkil etishi mumkin, masalan, nutqning namoyon boʻlish shakli umumiylikiga koʻra – yozma (ogʻzaki) nutq.

Demak, ommaviy muloqot sharoitida amalga oshuvchi funksiyaviy turlar (publitsistik uslub, radionutq, kinonutq, telenutq), nutqiy kommunikatsiyaning bir xildagi, bir tarzidagi sharoitida funksiyaviy-uslubiy, ommaviy-axboriy sohaga birlashadi. Ana shu

funksiyaviy uslublar, adabiy asar tili va ogʻzaki publitsistik nutq birgalikda taʼsir oʻtkazuvchi funksiyaviy-uslubiy sohani tashkil etadi va h.k.

Shunday qilib, adabiy nutqning funksiyaviy-uslubiy sohasi, bu — umumeʼtirof etilgan til unsurlari, ularni tanlash usullari, tashkillashtirilishi, ichki bogʻlanishlardir. Bu bogʻlanishlar bir tomondan, muayyan vazifani bajarishlik, nutqiy muloqotning keng koʻlamdagi ijtimoiy vazifasi sababli amalga oshsa, ikkinchi tomondan, nutqiy muloqot sharoitiga koʻra yuz beradi.

Endi uslub ichidagi **kichik uslub** haqida toʻxtalib oʻtamiz. Ilmiy adabiyotlarda kichik uslub **nutqiy janr** deb ham ataladi. Bu funksiyaviy uslubning turi hisoblanadi. Mazkur kichik uslublar matnlarni guruhlab tahlil qilish asosida ayonlashadi. Ularni mavzuning umumiyliigi, mavzuning ochib berilishi, mazmunni ifodalash, shuningdek, oʻxshash jihatlariga ega uslub va kompozitsiya birlashtiradi. Masalan, ilmiy uslubda sof ilmiy (akademik); oʻquv adabiyotlar; ilmiy-ommabop adabiyotlar kichik uslublari ajralib turadi.

Ilmiy uslub kitobiy nutqdagi funksiyaviy uslublardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida yana **rasmiy-ish yuritish** uslubi, **publitsistik**, **badiiy** uslublar boʻlib, bular alohida funksiyaviy uslub sifatida taʼriflanadi. Mazkur uslublar bosma matnlarda, *yozma shaklda* namoyon boʻladi. Ularni belgilashda, avvalo, ular bajarishi lozim boʻlgan vazifalar eʼtiborga olinadi, inson faoliyatining asosiy sohalari (huquq, ish yuritish, ilm-fan, siyosat, soʻz sanʼati) kitobiy funksional uslub sohalari sanaladi. Nomi qayd etilgan uslublar adabiy nutq egalari ijtimoiy muloqot olib boruvchi sohalar negizida shakllangan va ular har birining amalda boʻlishi ijtimoiy aloqa-aralashuv, muloqotning tegishli sohalaridagi vazifalar bilan bogʻliqdir.

Uslubning funksiyaviy turi haqida soʻz borganda, nutq *ogʻzaki shaklining* namoyon boʻlishi haqida toʻxtalib oʻtish kerak boʻladi. XX asr oxiri — XXI asr boshlari radio- va telenutq jadal rivojlangan oʻn yilliklar boʻldi. Yozma soʻzning hukmronligi ancha susaydi. Yozma nutq bilan ogʻzaki nutq oʻrtasida raqobat kuchaydi. Ogʻzaki publitsistik nutq — radionutq, kinonutq va telenutqlarning rivoji uslubiyat uchun nisbatan yangi hisoblangan muammolar bilan bogʻliq. Uni mustaqil funksiyaviy uslub sifatida tadqiq etish boshlanganiga uncha koʻp boʻlgani yoʻq.

Ogʻzaki publitsistik nutq quyidagi turlarga ega:

- siyosiy ma’nodor nutq (tashviqotchi nutqi, mitingdagi nutq, parlamentdagi nutq);
- akademik nutq (konferensiyadagi ilmiy ma’ruza, nutq);
- ma’muriy-huquqiy nutq (asosan, suddagi nutq).

Ko‘rinadiki, og‘zaki publitsistik nutq bilan yozma nutqning asosiy vazifasida aloqadorlik mavjud. Lekin, og‘zaki publitsistik nutq mustaqil funksiyaviy tur hisoblanadi, bunga uning og‘zaki shaklda yuzaga chiqishligi asos bo‘ladi, ya’ni uning matnlari og‘zaki tuziladi, o‘qib berilmaydi, faqat *talaffuz* etiladi, ayni matn shu talaffuz jarayonida tuziladi.

Og‘zaki publitsistik nutqni yozma nutq (“tayyorlangan” matn borligi monolog tarzdaligi) bilan og‘zaki nutqning (matnning so‘zlashuv nutqiga xos tuyqudan yuzaga kelishi) chatishuvi ekanligi uning uslubiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda ommaviy muloqotning yangi turi global miqyosda jadal rivojlanmoqda. Jahon axborot tarmog‘i – internet matni yozma. Shunga ko‘ra jamiyatning bugungi kundagi hayotida yozma nutqning ahamiyatini oshirmoqda. Internetdan foydalanuvchilar soni oshib borishligi bilan kasbiy nutqning alohida turi – internet sleng (jargon)i shakllanmoqda. So‘nggi vaqtlarda internetda **bloglar** paydo bo‘ldi, unga sabab, **blogerlar** deb atalmish shaxslar mustaqil ravishda internetda turli mavzuda xabarlar berib bormoqda. Bu ham yozma nutqga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, ta’bir joiz bo‘lsa, slengga o‘xshash yana bir nutq ko‘rinishi yuzaga kelmoqda. Blogerlik faoliyati – ijtimoiy tarmoqda qanchali ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi, buni kelajak ko‘rsatadi.

Xullas, so‘zlashuv nutqi adabiy nutq doirasidagi og‘zaki nutq hisoblanadi (noma uslubi bundan istisno). Milliy tilning adabiy bo‘lmagan barcha shakli og‘zaki namoyon bo‘ladi, bular – shevalar, jargonlar, oddiy so‘zlashuv nutqi. Yozma nutq sohasini rasmiy ish yuritish, ilmiy, publitsistik uslublar, badiiy asar tili (kitobiy nutq) va noma uslubi tashkil etadi. Noma uslubi so‘zlashuv nutqining yozma shaklidir.

Demak, funksiyaviy turlar ayrim umumiy belgilarga ko‘ra birlashadi:

- so‘zlashuv nutqi, og‘zaki publitsistik nutq, radionutq, kinonutq va telenutq – barchasi adabiy nutqning og‘zaki sohasini tashkil etadi;

– publitsistik uslub, radionutq, kinonutq va telenutq ommaviy muloqot uslublari sifatida birlashadi;

– publitsistik uslub, badiiy asar tili, radionutq; kinonutq, telenutq, siyosiy nutq va suddagi nutq (og‘zaki publitsistik nutq qismlari sifatida) ta’sir o‘tkazuvchi nutq hisoblanadi;

– kitobiy nutq yozma uslubi va so‘zlashuv nutqining noma uslubi – adabiy nutqning yozma ko‘rinishi.

Shunday qilib, funksiyaviy turlar bilan bir qatorda, turli belgilarga ko‘ra ularning turli guruhleri ham kuzatiladi.

Matn tahriri bilan shug‘ullanuvchi funksiyaviy uslub, funksiyaviy-uslubiy soha, funksiyaviy tur va tur ichidagi guruhleri yaxshi idrok eta bilishi maqsadga muvofiq bo‘lar ekan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Funksiyaviy tur deganda nimani tushunasiz?
2. Funksiyaviy uslublarni ta’riflang.
3. Uslublararo farqlar haqida nima bilasiz?
4. Funksiyaviy uslublar nutqiy ko‘rinishini bayon qiling.
5. Matn tuzish muallif maqsadi bilan bog‘liqmi?
6. Ilmiy matn bilan badiiy matnni qiyosiy tahlil qiling.
7. Qanday funksiyaviy uslubiy sohalar bor? Ularni ta’riflang.

3-BOB. SO‘ZLASHUV NUTQI

REJA

1. So‘zlashuv nutqining adabiy nutq tizimidagi o‘rni.
2. So‘zlashuv nutqining ko‘rinishlari.
3. Rasmiy so‘zlashuvga xos xususiyatlar.
4. Norasmiy so‘zlashuvning o‘ziga xos jihatlari.
5. So‘zlashuv nutqining tasniflanishi.
6. Kundalik turmushdagi nutq.
7. Betaraf-oddiy, takallufsiz va oddiy-so‘zlashuv nutqi.

So‘zlashuv nutqi adabiy nutqning funksiyaviy-uslubiy sohasi hisoblanadi. Adabiy nutq egalarining og‘zaki muloqoti chog‘ida bevosita yuzaga chiqadi. Asosan, kundalik turmush sharoitida tanish-bilish, do‘stlar, oila a‘zolari, kursdoshlar, o‘rtoqlar, ulfatlar, jamoa a‘zolari va b. o‘rtasida dialog tarzida namoyon bo‘ladi. Mavzu asosan turmush tashvishlari haqida, kasbga, xizmatga deyarli aloqasiz, nutqiy muloqotda qatnashuvchilar, dialog ishtirokchilarining rasmiy bo‘lmagan uchrashuvlari sharoitida, takallufsiz tarzda bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqi adabiy nutq tizimida kitobiy nutqga qiyoslanadi va unga qarama-qarshi qo‘yiladi. So‘zlashuv nutqining kitobiy nutqga qiyoslanishi va unga qarama-qarshi qo‘yilishi bir qator funksiyaviy jihatlarga ko‘ra ayonlashadi.

1-§. So‘zlashuv nutqining funksiyaviy tavsifi

Funksiyaviy chegarasini izohlash so‘zlashuv nutqining va kitobiy nutqning asosiy vazifasini aniqlash imkonini beradi.

Bu kitobiy nutq turlari bo‘lgan rasmiy ish yuritish, ilmiy, publitsistik uslublar, badiiy asar tili, og‘zaki ommaviy nutq, radionutq, kinonutq va telenutqlarga xos xususiyatlarni farqlashda muhim ahamiyatga egadir.

So‘zlashuv nutqi ikki ko‘rinishga ega. Birinchisi – rasmiy, ikkinchisi – norasmiy. Muloqotning rasmiy vaziyati bayon (so‘zlash) ning jiddiy (ko‘pincha uni mantiqli deb ta’kid etadilar), nutqiy muloqot ishtirokchilarining muloyim, odobli bo‘lishini taqozo etadi, boshqacha aytganda, nutqiy odobga rioya etishni nazarda tutadi.

Nutqiy odob, bu – so‘zlovchining nutqi.

Rasmiy nutqga quyidagi xislatlar xos:

- adabiy me'yorlarga rioya qilish, asoslanganlik;
- aniqlik, til birliklari – soʻz, grammatik shakl, soʻz va soʻz shakllari talaffuzining tanlanganligi, sintaktik konstruksiyaning me'yoriligi;

- nutqning qisqa, aniq, * iboralarning aniq ma'noviy bogʻlanganligi, ularning mantiqiy izchilligi;

- nutqning bosiq, xotirjam ohangdaligi;

- soʻzlash tarziga koʻra nutq sur'atime'yoriy, tezlashgan, sust.

Norasmiy nutqga quyidagi belgilar xos:

- adabiy nutqga rioya etilmaydi;

- muayyan maqsadsiz;

- mavzular aniq belgilanmagan;

- me'yorlashmagan birliklar qoʻllaniladi (oddiy soʻzlashuv, jargonlar, lahjalar);

- uslubiy xoslanmagan unsurlar;

- til birliklari – soʻzlar, grammatik shakllar aniqmas (taxminiy);

- talaffuz erkin (tabiiy);

- sintaktik konstruksiyalar me'yorlashmagan (uzuq-yuluq, toʻmtiq, gap boʻlamlari tartiblanmagan);

- nutq tuzilishi: sintaktik jihatdan yaxshi tashkillashtirilmagan, xususan, ma'noviy jihatdan, soʻz tanlash tartibsiz, soʻzlarning bogʻlanishi, soʻz birliklari gap tarkibida grammatik qoidadan chetlashgan holda keladi.

- nutq joʻshqin yoki emotsional;

- nutq uzuq-yuluq, takallufsiz, tortinishsiz, quruq rasmiyatchilikdan iborat;

- tinglovchiga hurmat ifodasi rasmiylikka boʻysunadi: notiqlik, koʻrsatuv olib boruvchining tashqi koʻrinishi, adabiy nutq me'yorlari nuqtayi nazaridan nutqning sifati (elektron OAVdagi nutq, ogʻzaki ommaviy nutq matni) nutq madaniyati talablari darajasida boʻlishi kerak.

Yozma nutq (bosma OAVdagi, ish yuritishga aloqador, ilmiy, badiiy va b.)ga ham shunday talab qoʻyiladi.

Matnni yaratishda vaziyatning rasmiy tavsifdaligi tufayli shuni yodda tutish kerakki, uning ekspressiv, his-hayajonlilik, shuningdek, uslublashmagan, adabiy me'yorlar doirasiga kirmagan nutq vositalari matn ta'sirchanligini oshirishga yoxud uni "jozibala", "jonli" boʻlishini ta'minlaydi.

Muayyan guruh doirasidagi muloqot (notiqning nutqi, ma'ruzasi, ilmiy mavzudagi chiqish) hamda ommaviy muloqot (matbuot, radio, televideniye, kino) barchasi (og'zaki, yozma) ommaviy tavsifda va rasmiy vaziyatda o'tadi. Nutq ko'pchilikka qaratilgan bo'ladi. So'zlovchi bilan tinglovchilar o'rtasidagi qaytma muloqot juda sust. Guruhiy muloqot bevosita qaytma muloqot – auditoriyaning fikr-mulohaza bildirishi, tinglovchilarning luqma tashlashi, savol berishlari – barchasi notiq, ma'ruzachi o'z chiqishini tugatgandan so'ng yuz beradi. Bular, albatta, yuzma-yuz amalga oshadi. Ommaviy muloqotda esa qaytma muloqot bilvositadir, ya'ni telefon orqali gaplashiladi, pochta xat jo'natiladi, tahririyatga, muallifga peyjer, faks, elektron pochta orqali jo'natiladi va h.k.

Shaxslararo muloqot "yuzma-yuz" so'zlashuvni taqozo etadi, suhbatdosh tayin, bunday vaziyatda qaytma muloqot zudlik bilan, ochiq-oydin kechadi, dialog ishtirokchilari bir-birlarining nutqini tezda qabul qiladi va aks munosabat bildiradi.

Tuyqusdan yuzaga kelgan nutq so'zlash jarayonining o'zidayoq fikrlash oqibati hisoblanadi, hech qanday tayyorgarliksiz tilda (so'zda) shakllanadi, fikrga aylanadi.

So'zlashuv nutqida fikrning shakllanish va nutqga aylanish jarayoni o'z-o'zidan, oldindan o'ylanmagan tarzda kechadi. Fikr uzuq-yuluq, tugallanmagan (tinglovchining o'zi aytilmaganni idrok etishi mumkinligi tufayli), "til ostida tilcha" tarzida bo'ladi.

Kitobiy nutqda esa har ikki jarayon, ya'ni ham fikrlash, ham uni tilga chiqarish dabdurustdan emas, ongli ravishda, atroflicha o'ylangan tarzda yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra birinchisi – tayyorlanmagan, ikkinchisi – tayyorlangan nutq ataladi.

Kitobiy va so'zlashuv nutqi uchun ularning nutqiy tuzilishi, ya'ni matn tuzilishi nazariy ahamiyatga molikdir.

Matn tuzilishi ikki xil – monolog va dialog ko'rinishida bo'ladi.

Monolog (yun.*monos* – bir, *logos* – so'z, nutq), **monologik nutq** – nutq ko'rinishi. Mazkur tarzda muloqotda tinglovchining shu zahoti so'z bilan munosabat bildirishi nazarda tutilmaydi.

Monologik nutq uchun matnning qismlari hajmiga ko'ra uzun bo'lishligi xosdir. Qismlar bir-biri bilan mantiqan, mazmunan (ma'noviy) jihatdan, shuningdek, sintaktik bog'langan jumalalarda barcha sintaktik qismlar ishtirok etadi (ya'ni, gapning asosiy darajali bo'laklari zarur hollardagina ishtirok etadi). Sodda gaplar murakkab

kesimli (sifatdoshli, ravishdoshli) tuziladi. Qo'shma gaplar ham murakkab sintaktik tuzilishga ega bo'ladi.

Dialog (yun. *dialog* – so'zlashuv, suhbat), **dialogik nutq** – nutq ko'rinishi. Dialogda so'zlashuv suhbat ishtirokchilarining fikri almashinib turadi, ular bir-birlarining nutqi vaqtida gap qistirib, luqma tashlab qo'yadilar. Bunga og'zaki muloqotning norasmiyligi sabab bo'ladi.

"Luqma (replika)lar deyarli qo'shimcha gaplardan tashkil topmaydi ... tovush tushib qolishi, kutilmagan shakl yasalishi g'ayrioddiy so'z yasalishi, ayrim so'zlarning quloqqa erish tuyulishi, nihoyat sintaktik me'yorning buzilishi luqmalarga xosdir"¹⁵.

Demak, shaxslararo muloqot sharoitida kechadigan, norasmiy, dabdurustdan yuzaga keladigan dialog tarzidagi so'zlashuv nutqining tavsifi uning asosiy vazifasini ham anglatadi va bu vazifaviy jihatlar quyidagicha:

- so'zlovchi va tinglovchining nutq jarayonida bevosita ishtirok etishi;
- nutqiy muloqotning takallufsiz ekanligi;
- og'zaki shakldaligi;
- dialog tarzidaligi;
- nutqning aniq shaxsga qaratilganligi;
- to'g'ridan to'g'ri, bir zumdagi qaytma muloqot mavjudligi;
- vaziyatga bog'liqlik, ya'ni dialog kechadigan vaziyatga asoslanganlik (yo'nalishli taksi kutib o'tirgan buvaning nabirasiga aytgani – "O'g'lim, damas!");

Buvaning nabirasidan "O'g'lim, damas" iborasida nabira ular kutayotgan, boradigan manziliga qatnayotgan, o'zlari uchun kerakli "damas" (boshqa har qandayi emas) tushuniladi. Bu nutq ko'rinishi ilmiy adabiyotlarda **appersepsiya** deyiladi.

Appersepsiya – zehnda saqlanib qolgan tasavvurlarni eslash asosida buyum va hodisalarni tanish, aniqlash, bilish; shaxsiy tajriba; nuqtayi nazar. Demak, yuqoridagi misoldan ko'rinadiki, buva mavjud tajriba asosida qisqagina "o'g'lim, damas"deya qoladi. Nabira esa bu ibora nimani anglatishini idrok etadi, chunki, avvalgi vaziyatlardan u so'z nima haqda ekanligini zehnga olib qolgan. Ana shu zehnda qolgan har keyingi galda qayta tiklanadi.

¹⁵ Шерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. –Москва, 1986.–115-б.

Bunga yana bir misol keltiramiz. Bizning xalqimizda “Xo‘sh qalay”, degan savol bor. Bunday savol bilan har kimga ham murojot qilinmaydi. Faqat, savol nima uchun berilganini idrok eta biluvchigagina shunday murojaat etiladi. Quyidagi javoblarga e’tibor bering:

– *A’lo* (imtihon topshirganda, muayyan topshiriq, yumush, vazifa va h.k. bajarilganda);

– *O’ziga kelib qoldi* (kimdir betob bo’lganda);

– *Bitdi* (ishi bajarilganda);

– *Yaxshi* (barcha holatlarda natijda ko’ngildagidek bo’lganda);

– *Epladim* (ishni uddalaganda);

– *Zo’r* (natija kutgandan ortiq ijobiy bo’lganda).

Yuqoridagi holatlardagi javob, albatta, ijobiy.

Tabiiyki, vaziyatga ko’ra javoblar salbiy bo’lishi mumkin:

– *Pachava* (natija ko’ngilsiz bo’lganda);

– *Bo’lmadi* (natija chiqmaganda);

– *Yaxshimas* (to’liq amalga oshmaganda);

– *Yiqildim* (imtihondan o’ta olmagan) va h.k. va h.k.

Bunday savol-javoblar (nutq ko’rinishi muayyan til, madaniyatga ega yoki muayyan hududda yashovchi, qaysidir bir ishxonada ishlovchi, ta’lim muassasasida o’quvchi, biror klub, to’garakda ishtirok etuvchi shaxslararo muloqotda yuzaga chiqadi.

2-§. So‘zlashuv nutqining tasnifi

So‘zlashuv nutqi kitobiy nutqga nisbatan *yig’iq* (ixcham), turlari orasidagi farq aniq emas, bir-biri bilan qo‘shilib ketgan. Ularning tasniflanishi (tabaqalanishi) ham kitobiy nutq qatlamlanishiga ko’ra boshqacha.

So‘zlashuv nutqining tasniflanishi, fikrni ifodalovchi vositalar ekspressiv, his-hayajonliligi, norasmiy muloqot sharoitidagi nutq qaratilgan predmet (obraz)ga munosabat bilan bog‘liqdir.

So‘zlashuv nutqida so‘zlovchining nutq qaratilgan narsa (obyekt) voqea-hodisaga, holatga munosabati, ya’ni his-hayajonli baholash munosabati nutqiy vaziyatga ko’ra to’xtovsiz o’zgarib turadi. Betaraf ma’noli so‘zning so‘zlashuvda keltiriladigan sinonimlariga misol keltiramiz: *Ochko‘z*, *yeb to‘ymas*, *mechkay*, *yuho*, *suqatoy*, *mesh qorin*, *nafsi buzuq* va b. *Gapirmoq*, *so‘zlammoq*, *vaysamoq*, *valdiramoq*, *aljiramoq*, *ming‘illamoq*, *ting‘illamoq*, *shivirlamoq*, *pichirlamoq*, *shipshimoq*, *vaqillamoq*, *vishillamoq*, *bijirlamoq*, *bijillamoq*,

chug‘illamoq, to‘ng‘illamoq, do‘ng‘illamoq, jerkmoq, pishillamoq, g‘o‘ldiramoq, nutq irod etmoq, akillamoq, vakillamoq, irillamoq, chiyqillamoq, g‘ing‘illamoq, g‘iyqillamoq, shaqillamoq, karillamoq, kar-kar qilmoq, shap-shap qilmoq, bir narsa demoq, babillamoq va b.

Yuqoridagi sinonimik qatorda faqat *ochko‘z, gapirmoq, so‘zlamog* betaraf ma’noli, qolganlari sof nutqiy hodisa – disfemistik metafora. Uning hosila ma’nosi salbiy bo‘yoqli. Nutq egasining obyektga bo‘lgan munosabati bunga sabab bo‘lgan.

So‘zlashuv nutqining tasnifi haqida so‘z borganda uning birliklari ikki sinfini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. So‘zlashuv nutqi qismlari qanday ekspressiv-emotsional vaziyatda va qanday kommunikativ maqsadda nutq egalarining og‘zaki muloqoti norasmiy o‘tayotganiga bog‘liq holda farqlanadi.

2. So‘zlashuv nutqi tasniflanayotganda ekspressivlikning “mavjudligi”, “ishtiroki” va nutq birliklari ekspressiv bo‘yog‘ining “kuchsizlanishi” hisobga olinadi.

“Ekspressivlikning “kuchsizlanishi” deganda, ekspressivlikning ortishi bilan birga kechuvchi ifodadagi erkinlik va tortinmaslik tushuniladi”¹⁶.

Nutq egasining obyektga bo‘lgan munosabati, nutq birligi ma’nosidagi baho bo‘yog‘i kuchsizlanishi, kuchayishi, salbiy bo‘lishi shart emas, balki ijobiy bo‘lishi ham kuzatiladi. Masalan: *kuchli, baquvvat, zabardast, tog‘ni ursa talqon qiladi, polvon, pahlavon*;

So‘zlashuv nutqi birliklaridagi ta’sirchanlik darajasi (ko‘rsatkichi) bo‘yicha belgilanadi, ya’ni ma’nosi betaraf so‘zga nisbatan aniqlanadi. Masalan, *yuz* so‘zining yuqori ta’sirchan ifodasi *ruxsor, oraz* so‘zlari ma’nosida aynlashadi, bu ijobiy ma’noda, ta’sirchanlikning ortishi salbiy ma’noda ham kuzatiladi, bu – *aft, bashara, turq* so‘zlari ma’no ifodasida yaqqol seziladi. Shunday qilib, so‘zlashuv nutqi funksiyaviy-ta’sirchan darajaga ajraladi.

Tasnifiga ko‘ra so‘zlashuv nutqining ikki darajasini farqlash mumkin: kundalik-maishiy va oddiy so‘zlashuv. Kundalik-maishiy nutq quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi:

– suhbatdoshlar o‘zaro munosabatda og‘ir-vazmin bo‘lganlaridagi vaziyatda, muloqotda, qandaydir masalani muhokama (hal) qilishda xotirjam va jiddiy kayfiyatda bo‘lganlarida;

¹⁶ Матвеева Т.В. Лексикология экспрессивности в языке. – Свердловск: 1986, – 224-б.

– dialog ishtirokchilari o‘z suhbatdoshiga suhbat boisiga, dialog bilan birga kechuvchi vaziyat va h.k.ga nisbatan jiddiy (shu bilan birga yetarlicha his-hayajonli) va/yoki hazil-mutoyibali, yengil piching-uchirqli, do‘stona takallufsiz munosabatda bo‘lgan vaziyatlarda.

Kundalik-maishiy nutqga quyidagi jihatlar xos:

1. Ta’sirchanlik nuqtayi nazaridan betaraf nutq unsurlari: biror qismi tushib qolgan (elliptik) gaplar (*Qayoqqa? – Kinoga*). Aslida, *Sen qayoqqa ketyapsan? – Men kinoga ketyapman*. Grammatik shakllar so‘zlashuvga mos bo‘ladi (*odam tumonot-u, uyga-ku*), ma’noni ta’kid etuvchi so‘z (*mulla jiring, mudramoq, to‘rva-xalta, yemish, dov-dastak va b.*).

2. “Uy-ro‘zg‘or” nutqiga, do‘stlarning, tanishlarning, dialog ishtirokchilari uchun odatiy bo‘lgan xotirjamlikda miriqib o‘tadigan qizg‘in suhbatlariga xos turli subyektiv baho bo‘yog‘iga ega nutq unsurlari. Gap qistirish, luqma tashlashlar. Luqmalar tabiiy his-hayajonga ega bo‘ladi. Kishilik olmoshiga -ku yuklama qo‘shiladi (*Bu sen-k., Uh, san, zo‘rsan-ku*). Voy undovi alohida, takror qo‘llanadi: *Voy keldingmi? Voy-voy, nima deyapsan. Voy, o‘lmasam*. Birinchi misolda voy kutilmagan holat, ikkinchi misolda takror voy-voy suhbatdoshidan biror narsa, voqea, hodisa haqida xayoliga kelmaganini eshitgandagi holat, uchinchi misolda sarosima, talvasaga tushgandagi holat anglashiladi. O‘ziga xos murojaat: *Dilo... , Baho... , qariya, yoshulli, aka, doda, qadrdonginam, jonim mani, do‘stginam*.

Oddiy so‘zlashuv nutqi g‘ayriodatiy vaziyatlarda haddan ortiq qizishib ketish (g‘azablanish, jahl chiqishi, tutoqish) natijasidagi nutqda yuzaga chiqadi. Bunda ikki yoki undan ortiq nutq ishtirokchilari yuqori salbiy ko‘tarinki, qiziqqonlik holatida bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi nutqda turli ta’sirchanlikdagi ma’no bo‘yog‘iga ega nutq vositalari – qo‘pol, takallufsiz, hatto haqoratomuz, shaloq (so‘kish, qarg‘ish) so‘zlar uchraydi: *xumpar, so‘tak, qishanglamoq, bo‘yning uzulgur, kimsa, harif, qovoqbosh, to‘ng‘iz qopgur, go‘rso‘xta, bez, likildoq, lakalov, qirchiningdan qiyilgur, sho‘rtumshuq, yo‘qol, daf bo‘l, kazzob, otangga la‘nat, poraxo‘r, ho‘kiz, mol, joning chiqqur* va h.k.

Ta’sirchanlik nuqtayi nazaridan so‘zlashuv nutqini tashkil etuvchi birliklar quyidagi qismlarga ajratiladi: betaraf-so‘zlashuv (betaraf-odatdagi) nutq, takallufsiz nutq, oddiy-so‘zlashuv nutqi.

Betaraf-so‘zlashuv nutqiga quyidagilar xos:

– ma‘noni ta’kid etuvchi so‘zlar – *tirgovich, ilintiradigan, tirqish, yomon, omonat* va b.

– ko‘rsatuvchi (ishora qiluvchi) sintaktik konstruksiyalar (*mana shu mening kitobim. Bu o‘sha kimsa*). Fe’llarni juftlab keltirish (*Bor, olib kel bir piyola sovuq suv. Bor kel sendan nima ketyapti*).

Qo‘shimcha konstruksiyali (*Juda xushbichim ekan, men uni birinchi ko‘rishim. Yaxshi dam oling, zerikib qolmang*). Bir taxlitdagi konstruksiyalar (*Baxt uyi, Xush kelibsiz! Men erta turdim, izg‘iriq edi*).

– Ismlarning xonaki shakli (*To‘lqin – To‘lqinjon, Sevara – Sevaraxon*), qarindoshlik nisbasiga qo‘shimcha qilish (*xolaposhsha, kelinposhsha*).

Takallufsiz nutqga fikrni, hissiyotni, suhbatdoshga, suhbat nima haqidaligiga munosabat ifodasi yuqori darajada erkinlik xosdir. U do‘stona takallufsiz va qo‘pol takallufsiz bo‘ladi.

Do‘stona takallufsiz nutqga “muloyim” ta’sirchanlik, dialog ishtirokchilari luqmalarida so‘z ma’nosidagi baho bo‘yog‘i “yumshoq” bo‘ladi. Quyidagilar shunday nutq turi hisoblanadi:

– yuqori his-hayajonli (emfatik) nutq (*E-e! Nima devossan o‘zing. Nima ham qila olarding!*);

– fe’lning takror shakli (*Kutdim, kutdim kelmading. So‘radim, so‘radim, oxiri topdim*);

– ta’sirchanligi yuqori fe’l: *deпти* (qiyos: *aytmoq*), *kavshamoq* (qiyos: *yemoq*), *sudralmoq* (qiyos.: *yurmoq*);

– yarim-yorti ismlar: *Dimot* (*Dilmurod*), *Luppi* (*Lutfilla*), *Sano* (*Sanobar*), *Shohi* (*Shohida*);

– kichraytiruvchi-erkalovchi so‘zlar: *qushchagina, ariqcha, jindakkina, oppoqqina, bolagina, pichoqcha, kitobcha, qo‘lcha, oyoqcha*;

– murojaat va erkalanib atash: *otaginam, onajonginam, Shakaroy, singilcha, ukajon*;

– kamsitish-erkalash: *puchuvvoy*, (*puchuq burun*), *qaqildog* (*ko‘p gapiradigan*), *quloqvoy* (*qulog‘i katta*).

Qo‘pol takallufsiz nutqdagi nutq birliklari kamsitish, pastga urishga qaratilgan yoqimsiz, dag‘al ta’sirchanlikka ega bo‘ladi, ma’no ifodasida salbiy munosabat ayonlashadi. Shaxsga, narsalarga, harakatga nisbatan subyektning munosabati salbiy, shu bilan birga obyektga berilgan baho ancha oshirib yuborilgan bo‘ladi. Lekin salbiy

ta'sirchan baho achchiq-tiziqsiz, xolisona va/yoki do'stona ohangda, achinishlik aralash his-hayajonli, hurmat o'rniga qo'yilgan tarzda bo'ladi. Quyidagi nutq unsurlari mazkur tur nutqda ko'pgina uchraydi:

— o'zi qo'shilib kelgan so'z ma'nosiga bahoni pasaytirib kamsitish, shuningdek, oshirib kamsitish ma'no ifodasini beruvchi qo'shimcha muayyan so'zga qo'shiladi (*aqlsiz, uquvsiz, sergap, dimog'dor, go'shtdor* va b.);

— miqdorni qiyoslab ozaytirib, kamaytirib ko'rsatish (*jichcha, tirnoqcha, ushoqcha, bir burda*);

— salbiy-baholi ekspressiya (*boshimga bitgan balo bo'lding, g'irt bosh og'rig'isan-ku, tashvishdan boshqa narsa emassan*);

— ogohlantiruvchi tahdid ma'nosidagi iborali nutq o'rami (*ko'zingni ochib yur, bola! Qadamingni o'ylab bosgin, xo'pmi?*);

— juft ravishdoshli nutq o'rami (*ishingni bilib-bilib qil! Gapirganimda o'ylab-o'ylab gapirgin! Chopib-chopib yurgin!*);

— ta'sirchan bo'yoqli so'roq shaklidagi nutq o'rami (*Nega sen bunaqasan! Voy, seni qara-yu! Shunaqa ham bo'lasanmi? Namuncha uquvsiz bo'lmasang?*);

— dag'al-keskin pichingli ta'sirchan so'z va so'z birikmali murojaat (*qarib quyulmagan, chillak oyoq, novcha ahmoq, ho'kiz mijoz, qiltiriq maxsum, quruq sovlat, tovuq mijoz, echki soqol* va b.).

Do'stona takallufsiz nutq betaraf so'zlashuv nutqiga yaqin turadi. Qo'pol-takallufsiz nutq esa oddiy-so'zlashuv nutqiga yaqin. So'zlashuv nutqi bilan takallufsiz nutq orasida aniq chegara yo'q. Kimnidir tavsiflashda yoki kimgadir murojaat qilishda (baho berishda) qo'pol takallufsiz nutqda dag'al so'z (haqorat so'z)lar qo'llanadi, bu so'zlar oddiy so'zlashuv nutqiga xos bo'ladi. Ular o'z genetik ma'nosida (aynan) qo'llanmaydi, balki, ko'chma kengaytirilgan) ma'noda keladi. Shunga ko'ra keskin salbiy baho, haqoratomuz ta'sirchanlik go'yo "kuchsizlanadi", vaziyat esa so'zlashuvchining xolis, do'stona ohangdagi nutqi tufayli yumshaydi va "tinchgina" suhbat jarayoniga aylanadi: *Ha shum (g'irrom, shayton) bola, mani chuv tushuripsan!*

Oddiy-so'zlashuv nutqi yuqori his-hayajonliligi bilan ajralib turadi. Ta'sirchanlik tavsifga ko'ra mazkur nutqni tashkil etuvchi unsurlariga ko'ra qo'pol takallufsiz nutq bilan ko'pgina quyidagi umumiy tomonlarga ega: keskin pastga urish tavsifli yuqori ta'sirchanlikdagi nutqiy vositalar qo'llanadi, keskin salbiy baho

bo'yog'iga ega dag'al so'z va ifodalardan foydalaniladi; bir xil yoki o'xshash sintaktik konstruksiyalar uchraydi. Masalan, oddiy – so'zlashuv nutqida quyidagi shakllardagi sintaktik konstruksiyalar uchraydi:

– buyruq (dag'al-salbiy baho bo'yog'ili) fe'l + birlikdagi 2-shaxs, ko'pincha ijozat, ruxsat, rozilikni kuchaytiruvchi buyruq, undov ma'no ifodasi kuchaytiruvini beruvchi *ha* bilan birga qo'llanadi: *Ha, ye, bo'kib o'lmaysanmi! Qayoqqa suqilasan! Ha, namuncha bo'kiraman! Ha, daf bo'! Ha, muncha chiranmasang!*

– buyruq fe'l + birlikdagi 2-shaxs *qani* (buyruq ma'no ifodasili): *Qani, chetga o't! Qani, qoyil qilganing! Qani odamgarchiliging! Qani, bir ko'rayin!*

– *Hey, san* singari murojaat + ot turkumidagi so'z (birikma): *Hey, san qovoq kalla!* (bosh). Mazkur nutq qismidan keskin salbiy munosabat (haqorat) yaqqol seziladi.

Albatta, bunday paytda oddiy-so'zlashuv nutqi yuzaga chiqayotgan vaziyatni hisobga olish kerak. Uning yuqorida qayd etilgan va yana boshqa xususiyatlarini nutqning o'ziga xosligi, vaziyatning g'ayriodatiy (kuchli his-hayajonli, asabiy, keskin) ekanligi bilan izohlash mumkin. Dialog ana shunday vaziyatda o'tadi, dialog ishtirokchilaridagi ichki holat qizishgan, tajovuzga moyil, hatto, bir-birlariga dushmanona bo'ladi.

So'zlashuv nutqining *qamtiligi*, tezlashganligi, uzuq-yuluqlik, ya'ni dialog ishtirokchilarining nutqi orasidagi, nutq qismlariaro chegara va tasniflanish tavsifi ikki sababga ko'ra izohlanadi. Birinchisi, so'zlashuv nutqi, amalda, to'liq ravishda jarangdor (shovqinli), og'zaki. Yozma shakli – noma uslubi yoki shaxsiy yozishmalar – so'zlashuv nutqining oz qismini tashkil etadi. Ikkinchisi, so'zlashuv nutqi norasmiy muloqotda, ya'ni shaxslararo muloqot sharoitida dialog tarzda yuzaga keladi. Uning yuzaga kelishiga turli-tuman maishiy, tirikchilik, turmush tashvishlari bilan bog'liq omillar sabab bo'ladi.

Oddiy so'zlashuv nutqi ichida yana bir qatlam bor, o'zbekona so'zlashuvga xos, u ham bo'lsa, adabiy nutq ichidagi oddiy so'zlashuv nutqidir. Mazkur nutq turi xalqona so'zlashuv nutqi lahja, sheva, jargon va b.dan olingan so'zlardan tashkil topadi. Bular adabiy nutqdagi matnga alohida uslubiy maqsadda kiritiladi. Ular personaj nutqiga alohida xususiyat bag'ishlaydi, uni "xalqona", "jonli" qiladi,

kitobiy (yozma, og‘zaki) matnini “bezaydi”, publitsistik matn, badiiy asar muallifining nutqi ta’sirchanligini oshiradi. Bu so‘zlar keskinlik, kamsitishlik, takallufsizlik, ochiq baholash shaxs, “narsa”, hodisa va sh.k. larni tavsiflovchi uslubiy belgilarga ko‘ra birikmaga kirishadi (birlashadi).

Adabiy nutqga kiritiladigan oddiy so‘zlashuvga xos so‘zlar ona tilidagi “tug‘ma” nutqdan olinganligi, ochiq ta’sirchanlik, his-hayajonlilik tavsifiga ko‘ra, doim qo‘llanilishiga ko‘ra alohida ajralib turadi. Quyidagi so‘zlarni shunday tavsifdagi so‘zlar qatoriga kiritish mumkin:

– ma’nosi salbiy baho – subyektiv munosabat ifodasini beruvchi so‘zlar: *go‘l, ovsar, valdir-vuldir, ming‘ir-ming‘ir, qo‘shmach, takasaltang, satang, g‘o‘daygan, xo‘ppoz, pandavaqi, yalamsir, sulloh;*

– ma’nosi salbiy baholi iboralar: *ammamning buzog‘i, tepsa tebranmas, ichi qora, qashqatayoq, dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmas;*

– ma’nosi ijobiy baho bo‘yog‘iga ega so‘zlar: *qo‘zichog‘im, shirintoy (gina), tasadduq, qoqindiq;*

– ma’nosi ijobiy baho bo‘yog‘iga ega iboralar: *qo‘li gul, tili shirin, istarasi issiq, oyoq-qo‘llikina, ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq;*

– ta’kid etuvchi ma’noli so‘zlar: *akagina, singiljonim, bo‘paloq, kampirjon;*

– adabiy nutqda uchramaydigan dehqonchilik va boshqa kasb-hunarga oid so‘zlar: *xanjuvar, bliska, kelma, jaspak, yumirtqa.*

Shunday qilib, *adabiy oddiy-so‘zlashuv nutq birliklari* o‘zining ta’sirchan-baholovchi xususiyatiga ko‘ra oddiy-so‘zlashuv va takallufsiz (do‘stona, qo‘pol takallufsiz) nutqga oid bo‘lishi mumkin.

Oddiy so‘zlashuv nutqida ishora va imo (mazmun, his-hayajonni ifodalovchi ishora)lar ma’lum ahamiyat kasb etadi: *Nechchi?* (qo‘l soatni ko‘rsatib, unga ko‘rsatkich barmoq bilan ishora qilinadi). *Qayoqqa?* Javob so‘zsiz, qo‘l bilan osh oshalagandek ishora. *Menga torting. Qancha?* (Ikkita barmoq ko‘rsatiladi).

So‘zlashuv nutqida sintaktik konstruksiya (butunlik)ning biror qismi tushib qoladi. Tushib qolgan qism turli vaziyat bilan bog‘liq. Ba’zan uni tushuntirishga to‘g‘ri keladi: *Menga obnovvot bering. Qizilurug‘ olmayman, menga yoqmaydi* (qovun).

Funksiyaviy turlar xususida yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqadiki, demak, funksiyaviy-uslubiy tizim ichki tuzilishga ko'ra ko'p jihatli ekan. Ular turli-tuman bo'lganlari bilan qandaydir umumiy belgilarga ko'ra birlashishi mumkin. Masalan: so'zlashuv nutqi, og'zaki ommaviy nutq, radionutq, kinonutq, telenutq adabiy nutqning og'zaki sohasini tashkil etadi; publitsistik nutq, radionutq, kinonutq, telenutq ommaviy muloqot uslubi sifatida birlashadi; publitsistik uslub, badiiy asar tili, radionutq, kinonutq, telenutq, siyosiy so'zamollik, suddagi nutq (og'zaki ommaviy nutq qismi sifatida) ta'sir o'tkazuvchi nutq hisoblanadi; kitobiy nutq yozma nutq va so'zlashuv nutqi nomaviy uslubi adabiy yozma nutq sohasidir.

Shunday qilib, funksional turlar bilan bir qatorda turli belgilarga ko'ra ularning har xil guruhleri ham ko'zga tashlanadi. Bu hol funksiyaviy-uslubiy tizimni yanada murakkablashtiradi.

Matn tahriri bilan shug'ullanuvchi uchun til va uslub bo'yicha chuqur bilim talab etadi. Tabiiy til tizimidan, ya'ni undagi unsurlar, kategoriyalardan, funksiyaviy uslub turlari va bu turlar ichidagi har xil guruhlardan, ularning tur va guruhga bo'linishidagi ilmiy qonuniyatlardan yaxshi xabardor bo'lish har bir matn tahriri bilan shug'ullanuvchi uchun ham farz, ham qarzdir. "Agar muharrir tahlil va tahrir jarayonida shularga to'liq amal qilsa, jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymay, o'z vazifasini aniq hamda yaxshi bajargan hisoblanadi"¹⁷. Aks holda nashriyotlar, ommaviy axborot vositalari tizimida "o'ralashib" yurishlikdan mantiq yo'q!

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Adabiy nutq tizimida so'zlashuv nutqining o'rni va ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
2. So'zlashuv nutqining muloqltdagi ko'rinishlarini ta'riflang.
3. Ikki xil – rasmiy va norasmiy so'zlashuvning umumiy va farqli jihatlarini aniqlang.
4. So'zlashuv nutqi fanday tasnifga ega?
5. Oddiy so'zlashuv va uning boshqa so'zlashuv nutqlaridan farqi nimada?
6. Uslubiy betaraf, erkin, tortinibsiz so'zlashuv xususida nimalarni bilasiz?

¹⁷ Taxirov Z. Tahrir mantiqi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2016. – 187-b.

4-BOB. RASMIY-ISH YURITISH USLUBI

REJA

1. Rasmiy-ish yuritish uslubining andozaviyligi.
2. Rasmiy-ish yuritish uslubida foydalaniladigan soʻzlar.
3. Rasmiy-ish yuritishda nutq tuzilishi.
4. Rasmiy-ish yuritishga xos sintaktik konstruksiyalar.
5. Emotsional-ekspressiv nutqiy vositalardan foydalanish.
6. Rasmiy-ish yuritish uslubida faol qoʻllanadigan soʻz va iboralar.

1-§. Umumiy taʼrif

Adabiy nutq funksiyaviy turlaridan asosan ijtimoiy maqsadlarda foydalaniladi. Nutqiy muloqot, muloqiy shartlar ana shu funksiyaviy turlar doirasida amalga oshiriladi.

Maʼlumki, funksiyaviy turlarning ayrimlari, soʻzlashuvda va asosan kitobiy nutqda baʼzi jihatlari va tamoyillariga koʻra umumiylikka egadir. Funksiyaviy turning har bir guruhi oʻz ichida tabaqalanadi, bular birin-ketinlikda koʻrib chiqiladi va tavsiflanadi.

Kitobiy nutqda esa turlar aniq belgilangan yozma va ogʻzaki shaklga egadir.

“Kitobiy nutqning yozma turi — rasmiy-ish yuritish, ilmiy, publitsistik uslub, badiiy nutq — ular uchun umumiy boʻlgan shaklga, yaʼni nutqning namoyon boʻlishi (yozuv), rasmiylik vaziyatiga koʻra birlashadi”¹⁸.

Asos materiallar talqini (talqin etuvchi, yaʼni muallif talqini)ning ahamiyati yozma koʻrinishda tadrijiy surʼatda oshib boradi. Buning ahamiyati ilmiy uslubda koʻproq oshadi, lekin publitsistik uslubda undan ham oshib boradi. Badiiy nutqda esa oʻziga mustaqil, oʻzi uchun ahamiyatli boʻladi. Chunki, badiiy asar (ijod)da asos (dalil) material talqinchi-muallif tomonidan, taʼbir joiz boʻlsa, chetga surib qoʻyiladi. Bizni birinchi galda muallif, uning nuqtayi nazari, asos (dalil)ni talqin etishi qiziqtiradi. Yozma uslublarning nisbatini quyidagi chizmada koʻrish mumkin.

Asos materialdan foydalanish va uning talqini 1-asos material; 2-talqin. Publitsistik ogʻzaki nutqda, uning asosiy koʻrinishlari (siyosiy nutq, akademik soʻzamollik)da ham yuqoridagi holat kuzatiladi. Asos

¹⁸ Дунаевская О.В. Современная деловая речь. — Москва: 1987. —6-б.

materiallar tegishli uslubga aloqadorlikda mavjud bo‘ladi. Albatta bu nutqiy muloqot hamda ba’zi nutqiy vositalarga bog‘liqdir.

2-§. Rasmiy-ish yuritish uslubining vazifasi

Qonunchilikda, ish yuritishda (ishga aloqador yozishmalarda, huquqiy munosabatlar sohasida * rasmiy-ish yuritish uslubidan foydalaniladi. Mazkur uslubda xabar (darak) vazifasi o‘z ifodasini topadi.

Rasmiy-ish yuritish uslubi andozaga aylangan deyish mumkin. Chunki u yillar davomida amalda qo‘llanib keladi, shaklan deyarli o‘zgarmaydi. Masalan, ishga joylashish, ishdan bo‘shash haqidagi ariza, tarjimai hol, tushuntirish xati va b. Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlari, yuridik terminlar, davlatlararo shartnomalar o‘nlab yillar mobaynida takomillashib borgan.

Quyidagilar rasmiy-ish yuritish uslubining vazifalari hisoblanadi:

- 1) ma’lum dalil, hodisa, shaxs to‘g‘risida haqqoniy xabar berish;
- 2) ishning (ahvolning) mohiyati va asosli tomonlarini to‘la-to‘kis holda yetarlicha tafsilotli bayon qilish;
- 3) aniq, xolisona, mantiqan izchil va iloji boricha lo‘nda bo‘lishlik;
- 4) bitimlar, qonunlar, turli qoidalar, yo‘riqnomalar, tayinlovlar, ularning yuridik sharhlari aniq-tiniq va barcha uchun birday tushunarli bo‘lishligi.

Demak, yuqorida aytilganlarga qaraganda, quyidagilarga erishish lozim: obyektivlik; umumlashtirilganlik; bayonning mantiqiy izchilligi; ma’naviy aniqlik; bir xildalik; ochiq aytilganlik; dalillanganlik va b.

Rasmiy-ish yuritish uslubida mantiqiylikni ta’kid etuvchi bayondan aniq, puxta ishlangan ifoda shakllaridan, barqaror konstruktiv tuzilmalardan, andozaga aylangan qolip iboralardan faol foydalaniladi.

Andozaviy qolip iboralarning zarurligini quyidagicha izohlash mumkin:

- muayyan vaziyat xususida so‘z borsa-da, uning ancha umumiy vaziyatga aloqador ekanligi;
- umumiy vaziyat me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgani;
- huquqqa oid va ish yuritish amaliyoti talablariga bog‘liqligi;

– huquqiy “aloqada” amaldagi huquqiy me’yorlar hamda ma’muriy tartiblarga aloqador ekanligi.

Yuqoridagi xususiyatlardan tashqari, mazkur uslubda shakllangan soʻz birikmalari, sintaktik konstruksiyalar rasmiy-ish yuritish uslubining oʻziga xos jihatlari yaqqol koʻrsatib beradi.

Mazkur uslubning oʻziga xos yana bir jihati shundaki, vaziyatlarning takrorlanish (masalan, ariza, tushuntirish xati, dalolatnoma, tarjimai hol va b.da), bildirilgan fikrdan maqsad va yana bir qator masalalarda – yuridik vakolat, mavqe, shaxslararo huquqiy munosabat, tashkilotlararo munosabat, davlatlararo munosabat, grajdanlar va jamiyat oʻrtasidagi munosabatda koʻrinadi va b. muloqotning aniq koʻrinib turgan rasmiylik vaziyati bilan, yana yozma tarzdaligi bilan bogʻliqdir.

Nutq vositalarining qatʼiy tanlanganligi, ular cheklanganligi goʻyo nutqning sunʼiy shaklini yuzaga chiqaradi. Lekin biz uni oʻzlashtirishga majburmiz. Aslida ham bu alohida nutq koʻrinishi. Haqiqatan ham tarjimai hol yozishda, *Men*, (familiya, ism, ota ismi, agar boʻlsa) *Asadov Rasul Murodovich 1980-yil 21-martda Toshkent viloyati, Toshkent tumani Hasanboy qishlogʻida oʻqituvchi oilasida tugʻildim*, shaklida yoziladi (*Men ... 21-mart, 1980-yilda Toshkent viloyatidagi, Toshkent tumanining Hasanboy qishlogʻidagi oʻqituvchi xonadonida tugʻildim*, tarzida emas). Ishga kirishdagi ariza, *Meni 2018-yili 29-avgustdan jurnalistika fakulteti uslubiyat va tahrir kafedrasiga, 0,5 stavkaga, oʻrindoshlik asosida katta oʻqituvchi lavozimiga qabul qilishingizni soʻrayman*, tarzida yoziladi (*2018-yil 29-avgustdan jurnalistika fakulteti uslubiyat, tahrir kafedrasiga 0,5 stavkaga oʻrindoshlik asosida katta oʻqituvchilikka ishga qabul qilishingizni iltimos qilaman*, tarzida emas).

Rasmiy-ish yuritish uslubida soʻz qoʻllash borasida qatʼiy cheklanganlik mavjudligiga bir qator misollar keltiramiz:

- *borilmagan, olinmagan* kabi soʻzlar qoʻllanilmaydi;
- geografik nomlar aslida qanday boʻlsa shunday qoʻllanadi (*Novosibirsk, Nyu-York, Almaty, Ashigabad va b.*);
- terminlar shakli oʻzgartirilmaydi va sinonimi bilan almashtirilmaydi;
- soʻz birikmasi tuzishda shuni eʼtiborga olish kerakki, soʻz yozma nutqda faqat bitta soʻz yoki cheklangan soʻzlar guruhi bilan birikmaga kirishiadi (*buyruq – chiqariladi, lavozim maoshi belgilanadi, nazorat qilish – zimmasiga* (kimningdir) yuklanadi yoki

(kimningdir tomonidan *amalg*a oshiriladi, *xayfsan* – *e'lon* qilinadi, *falonchi* – *ogohlantiriladi*, *dakki* – *beriladi* va h.k.

Nutqdagi andozaviylik deganda, undagi tayyor ifoda vositalari tushuniladi. Bular bir xil vaziyatning takror-takror qaytarilib turishi jarayonida hosil bo'ladi, shunga ko'ra kundalik nutqiy muloqotda umumqabul qilingan va foydalanish uchun qulaydir.

"Ularning nutqda namoyon bo'lishi ortiqcha diqqat talab etmaydi, matn, nutq, adresantning ishini osonlashtiradi va tezlashtiradi, kerakli so'z, ifoda izlashga ortiqcha urinishga hojat qolmaydi"¹⁹.

Nutqdagi tayyor nutqiy vositalar, agar ularning funksiyasi vazifasi hisobga olinadigan bo'lsa, ulardan muayyan vaziyatlarda yozma va og'zaki kontekstda asosli foydalana bilish zarur.

Rasmiy-ish yuritish uslubida andozaviy nutqiy vositalarning ko'plab uchrashi shu uslubdagi matn qat'iy belgilangan kompozitsiyaga ega bo'lishligi bilan izohlanadi. Ishga aloqador matnlar qanday bo'lishligi to'g'risida maxsus talablar mavjud. Ularda so'zlarni qo'llashga oid ko'rsatmalargina emas, balki so'zlarning satrlarda to'g'ri va aniq joylashuvi ham belgilangan. Shu ma'noda, obrazli qilib aytadigan bo'lsak, har bir ish yurituvchi lavozimdor shaxs matnni yozmaydi, balki tuzadi. Hujjat, ish qog'ozi (hisobot, ma'ruza, ma'lumotnoma, mutaxassis xulosasi, tushuntirish xati va b.) tuziladi. Rasmiy yozishmalar muayyan rejaga, rejaning bndlari, shakl, jadval va boshqalarga ko'ra tuziladi. Ko'rinadiki, rasmiy-ish yuritish doirasida ifoda vositalari, yuqorida qayd etilgan vaziyatlarga ko'ra yanada faollashadi va zamon hamda makonda kamdan kam o'zgarishga uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, andozaviy nutqiy vositalarning funksiyaviy qat'iy cheklanganligi matn tuzishni osonlashtiribgina qolmaydi, balki uning bir xildaligi va tushunarlilikini ham ta'minlaydi.

3-§. Rasmiy-ish yuritish uslubidagi ish qog'ozlari va ularga xos jihatlar

Rasmiy-ish yuritish uslubidagi nutq tuzilishi janriy xilma-xilligiga andozaviylik ta'sir etmaydi. Mazkur uslub uchun takror turlichaligi xos bo'lib, ular quyidagilarga ajraladi:

¹⁹ Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. – Москва: 1974.

– konstitutsiya, qonun, grajdanlik hujjati, farmon, kodeks, turli nizomlar va b.;

– ma'muriy hujjatlar, ko'rsatmalar, yo'riqnoma, farmoyish, buyruq, bitim, mehnat yoki jamoa shartnomalari va h.k., ishga aloqador yozishmalar, devon hujjatlari;

– xalqaro bitim (shartnoma)lar, konvensiya, nota (bayonot), bildirish, deklaratsiya, kommyunike (rasmiy bayonnoma), memorandum (eslatma xat) va b.

Rasmiy ish yuritish uslubida yana shunday jarayonlar borki, ularning matnlarini ayni bir turga ajratish qiyin, ularning matni bir necha turga xos uslubda bo'lishi mumkin. Ularda muayyan uslubga xoslik bilan bir qatorda, shunday nutqiy vositalar, ulardan foydalanish usullari, sintaktik konstruksiyalar uchraydiki, bular publitsistik uslubga xos bo'ladi.

Quyidagi hujjatlar ana shunday aralash janrlardagi hujjatlar hisoblanadi.

1. Prezidentning har yilgi Oliy Majlisga, jurnalistlar va b.ga yo'llanmasi.

2. Oliy Majlis (parlament)ning murojaati.

3. Davlat boshlig'ining mamlakat aholisiga murojaati.

4. Boshqa davlatlarning parlamenti va hukumatiga murojaatlar.

5. Davlatlararo bitimlarning umumiy kirish qismi.

6. Hukumat va parlamentlar, xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari.

7. Xalqaro tashkilotlarning jamoatchilikka, hukumatlarga va b.ga murojaati.

8. Partiya va harakatlarning qarorlari va b.

Rasmiy-ish yuritish uslubidagi matnlarda publitsistik tavsifdagi nutqiy vositalarning uchrashi, bir turdagi nutq birliklarining qo'llanishi, aralash janrdagi rasmiy hujjatlar, bular barchasi turli funksiyaviy uslublararo qat'iy chegara mavjud emasligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari shuni aytish joizki, O'zbekistonda davlat tilida ish yuritishga rasman "Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan so'ng jiddiy kirishildi. Shu bois, rasmiy-ish yuritish uslubi shakllanishi va takomillashishi jarayonini boshdan kechirmoqda. Uning takomilga erishuvi tilshunoslar, publitsistik

hamda rasmiy hujjatlarni tuzuvchilar va matn tahriri bilan shug'ullanuvchilardan yuksak bilim, malaka va ko'nikma talab etadi.

4-§. Rasmiy-ish yuritish uslubida sintaktik konstruksiyalash

Rasmiy-ish yuritish uslubida soʻdda va qo'shma gaplar ishtirokida murakkablashgan jumlar tuzish ko'plab uchraydi. Bunga sabab ish bilan bog'liq vaziyatning, biror shartnomaning barcha jihatlarini hisobga olishga, yuridik faoliyat sabablari va mohiyatini aniqlashga, sharoitni, vaziyatni, maqsadni, sababni, oqibatni va boshqalarni ancha to'liq tasavvur etishga bo'lgan zaruratdir.

Ma'muriy — farmoyish tarzidagi hujjatlar uslubida quyidagi sintaktik konstruksiyalardan faol foydalaniladi:

— Bo'lishsizlik konstruksiyalar. *Ishlab chiqarilgan va taqdim etilsin ...; ... ishlab chiqarishda ko'zda tutilsin; shakllantirishda ...; ... ajratish ko'zda tutilsin; stipendiya fondi ... belgilansin va h.k.*

— Harakat nomi ishtirok etgan konstruksiyalar. *Ta'limni rivojlantirish fondi tuzilsin; grajdanlar imkoniyatlarini oshirish maqsadida ... alohida ajratib, sanab ko'rsatish uchun mo'ljallangan sintaktik konstruksiyalar (shaxslar, xodimlar, lavozimlar, ish turlari va b. darajasi).*

— Uyushuq bo'lakli gaplar. *Bitta o'quvchi, tarbiyalanuvchi, talabani o'qitish va ta'minlash uchun ...*

— Infinitiv konstruksiyalar uyushuq bo'lakli gaplar bilan birga keladi. *O'rtacha oylik maosh ... oshirilsin:*

professor-o'qituvchilar tarkibining ... — ikki barobar ... o'qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarning ... dan kam bo'lmagan ... o'quv-yordamchi xodimlarning ... hisobidan. Odatda bunday murakkab konstruksiyalarda tayanch so'zlar bo'ladi va ular asosiy mazmunnii ifoda etadi. Bular *o'qitish, ta'minlash, ikki barobar, kam bo'lmagan, hisobidan.*

Rasmiy-ish yuritish uslubidagi matnlarda bir qator tayanch so'zlar uchraydi: *buyuraman, qaror qilaman, taqdim etilsin, ko'zda tutilsin, axborot uchun qabul qilinsin, ishlab chiqilsin, ta'minlansin, belgilansin, qayd etilsin, e'tiborga olinsin, e'lon qilinsin, yoritilsin, ta'sis etilsin.* Ta'limga oid mavzulardagi rasmiy matnlarda: *ta'lim, tarbiya, talaba, o'quvchilar, yoshlar, bolalar, pedagoglar, muassasa, bakalavriant, magistrant, bakalavriantlar, magistrantlar, stipendiyasi, ish haqi* kabi tayanch so'zlar qo'llaniladi.

Uzun jumlarlar, murakkab sintaktik konstruksiyalar huquqqa, ishga aloqador hujjatlarni tuzatishda aniqlikka putur yetkazmasligi kerak.

Qonun matni, avvalo, aniqlikni talb etadi, ayrim, alohida olingan konstruksiyadan koʻzda tutilganidagidan boshqacha maʼno chiqarish mumkin boʻlmashligi lozim.

Rasmiy-ish yuritish uslubida lavozimlarni, muassasalarni, hududlar qismlarini, ehtimoli bor yuridik holatlarni, yuridik va maʼmuriy xatti-harakatlarni, xizmatga oid tartiblarni ifoda etuvchi soʻzlar (shu jumladan, abbreviaturalar) koʻplab uchraydi. Masalan: *Jinoyatni ogʻirlashtiruvchi holatlardagi qotillik; ogʻir tan jarohati; sogʻlikka xavf solmaydigan tan jarohati; aybsizlik prezumpsiyasi; qasddan qilingan jinoyat* va b.

Mazkur uslubda bulardan tashqari, yana rasmiylik ayon seziladigan qator iboralar ham mavjud. Ular xizmatga aloqador vaziyatlar, turli-tuman rasmiy tadbirlar, tartiblar va ularni oʻtkazish, ishga aloqador hujjatlarga havolalar va hokazolar. Masalan: (buyruqni, farmoyishni) *bajarish maqsadida; yaxshilash maqsadida; oshkor boʻlganligi munosabati bilan*. Bular barchasi devonda yuritiladigan ish qogʻozlarida uchraydi. Rus tilidagi sohaga oid adabiyotlarda ular *kanselyarizmlar* deb ataladi. Devondagi ish qogʻozlarda “hosil boʻlgan” bu soʻz va soʻz birikmalari ish qogʻozlaridagi andozalangan nutqiy vosita sifatida qogʻozdan qogʻozga, hujjatdan hujjatga (buyruqlar, farmoyish, hisobotlar, bayonnomalar, dalolatnomalar, arizalar, maʼlumotnomalar va b.) koʻchib yuradi. Masalan: *...zimmasiga yuklansin, buyuraman, ... amalga oshirilsin, ... koʻrib chiqilsin (buyruq); hisobga olish topshiriladi; ... tadbir oʻtkaziladi, ... topshiriladi (farmoyish); quyidagi ishlar bajariladi, ... oʻtkaziladi, oʻtgan (yil, yarim yil, uch oylik) ... rejasi yuz foiz bajariladi (hisobot); kun tartibi, qatnashdi, qaror qilindi, ... axborot uchun qabul qilindi, eshitildi (bayonnoma); Biz quyida imzo qoʻyuvchilar, ... maʼlum qilamizki, Men Ahmedov Rustam Rahimovich, ... mening nomimga yozilgan, ... buxgalteriyasidan, tuzdik, ... shu haqdakim (dalolatnoma); ... -ga, ... -dan qoʻshimchali atoqli otlar, meni – egalik qoʻshimchali kishilik olmoshi, ... lavozimga, ... likka – shaxs otiga qoʻshilib keladigan qoʻshimcha, ... qabul qilishingizni, soʻrayman (ariza); berildi, -ga, shu haqda (kim), haqiqatda, boʻlib ishlaydi, oʻqiydi, amaliyot oʻtadi, qatnashadi, bajardi (maʼlumotnoma).*

Devonda amalda bo'ladigan rasmiy-ish yuritish doirasidagi so'zlarni chetlab bo'lmaydi, balki ular maqbuldirlar. Chunki, ular hujjatlarni tuzish jarayonini tezlashtiradi, xizmatga aloqador va boshqa rasmiy matnlarni tuzish hamda tushunishni osonlashtiradi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqorida keltirilgan so'zlar, so'z birikmalari ishtirokidagi konstruksiyalar boshqa barcha uslubdagi matnlarda, ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda hajviy samara beradi.

Xalqaro munosabatlarga (diplomatiyaga) oid yozishmalarda so'z birikmalarining alohida guruhi mavjud: *har ikki tomon uchun manfaatli ...; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili; chegaralar daxlsizligi ...; har qanday nizomli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish ... diniy murosasozlik; tinch-totuv yashash* va b.

Bu rasmiy-ish yuritish usulining yagona turiki, undan publitsistik uslubda, og'zaki publitsistik nutqda, ijtimoiy fanlar ilmiy uslubida, ommaviy muloqot vositalarida (asosan xalqaro mavzudagi materiallarda) keng foydalaniladi.

Diplomatiyaga oid yozma hamda og'zaki nutqda emotsional-ekspressiv ma'no bo'yog'iga ega nutqiy vositalardan foydalaniladi: *do'stlarimiz bizning; siyosatdonlar; ba'zi doiralar; rasmiy doiralar; teskari kuchlar.*

Bunday so'zlar va iboralarning qo'llanishiga diplomatiyaga oid hujjatlarning funksiyaviy jihatga egaligi, diplomatik yozishmalar tomonlarning o'zaro munosabatlaridagi "yumshoqlik" yoki "keskinlik" bilan ham bog'liq. Munosabat ancha yumshoq, do'stona bo'lsa, ijobiy bo'yoq ustun bo'ladi, agar munosabat keskinlashgan bo'lsa, salbiy bo'yoq quyuqlashadi, piching, kesatq uchiriq kabi nutqiy hodisalar ustunlik qiladi, hatto shu darajaga borib yetadiki, bunda tomonlar bir-birini haqorat qilishgacha borib yetadilar. Masalan, KXDR bilan AQSH o'rtasidagi munosabat AQSHning har jihatdan dunyoda gegemon bo'lishdek qabih maqsadi, boshqa hech bir mamlakatni, millatni tan olmaslik siyosati bois o'ta keskinlashadi (ayniqsa, 2017-yil o'rtalariga kelib).

AQSH prezidenti Tramp 2017-yil 19-sentabrdagi BMT 72-assambleyasida yuksak minbardan turib KXDR rahbarini "kichkina raketa" deya mazax qiladi. Bunga javoban KXDRning BMT dagi vakili jurnalistlarga bergan intervyusida Trampning bu chiqishini "itning akillashi" va "it itligini qiladi" deya izohlaydi.

Rasmiy-ish yuritish uslubida quyidagi kitobiy soʻz va iboralar ancha faol qoʻllanadi:

– ekspressivlikka ega kitobiy terminlar, umumilmiy soʻzlar: *tamoyil; xulosa; vaziyat, kutilmagan (holat, voqea, hodisa), sabab, mulqo, gʻayriinsoniy, mantiqsiz va b;*

– devonga oid, maʼmuriy soʻzlar: *vakolat, elchi, vakil, attashe, bayonot, chaqirib olish, tashrif, shartnoma, bitim, kelishuv, muzokara, mulqot, yuqori doira, janob, oliy va b;*

– umumkitobiy soʻzlar: *mazkur, munozara, almashuv, muxtor, haqiqiy, mintaqaviy, samarali, foydali, ijobiy, xabardor qilmoq, yetkazmoq, tashvishlanmoq, xabar, xabardor, ishlab chiqarmoq, maʼlum qilmoq va b;*

– tantanavor, “yuqori” (asosan nutq matni ichida uchraydi), diplomatiya etikasi talabiga koʻra xabar, yozma, ogʻzaki nutqda qoʻllanadigan soʻz va iboralar: *yuksak hurmat-ehtiro, kelishuvchi oliy tomonlar, oliy mehmon, zoti oliylari, oliy maqom va b;*

Albatta bunday soʻz va soʻz birikmalari, iboralarni qoʻllash diplomatiyaga oid hujjatlar ahamiyatliligi, davlat vakillari yuridik xatti-harakati rasmiyligi, xalqaro munosabatlardagi qoidalar, shartlar, diplomatik mulozamat hamda axloq bilan bogʻliq. Masalan, *elchi ishonch yorligʻini berdi* emas *topshirdi*, *prezident xotini* emas *turmush oʻrtogʻi* (rafiqasi), ... *lik yuksak mehmon* “*Hazrati imom*” majmuasiga *bordi* emas *tashrif buyurdi*, *tashrif vaqtida*, *paytida* emas *chogʻida* va b.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Adabiy nutq funksiyaviy turlaridan qanday maqsadda foydalaniladi?
2. Rasmiy-ish yuritish uslubining leksikasi, sintaktik konstruksiyalaridagi oʻziga xos jihatlar nimalarda koʻrinadi?
3. Rasmiy-ish yuritish uslubidagi andozaviylikni izohlang.
4. Qanday hujjatlar matni rasmiy-ish yuritish uslubida boʻladi?
5. Rasmiy-ish yuritish uslubidagi matnlarda qanday tayanch soʻzlar uchraydi?
6. Rasmiy iboralar, kanselyarizmlarni taʼriflang.
7. Diplomatiyaga oid hujjatlarda qoʻllaniladigan soʻz, soʻz birikmasi va iboralarni izohlang.

5-BOB. ILMIY USLUB

REJA

1. Ilmiy uslubning funksiyaviy vazifasi.
2. Ilmiy uslubda ta'rif va terminlar.
3. Ilmiy uslubda janr va tur.
4. Ilmiy-o'quv adabiyotlari uslubidagi o'ziga xosliklar.
5. Ilmiy uslubning ilmiy-ish turlari.
6. Ilmiy-ommabop bayon: maqsad va vazifasi.
7. Ilmiy uslubda sintaktik konstruksiyalarning tuzilishi.
8. Shaxssiz gap turi, so'z birikmalari.
9. Ilmiy matnda kirish so'zlar, kiritma so'zlar va ularning ahamiyati.
10. Ilmiy uslubda umumiste'moldagi va umumadabiy so'zlarning qo'llanilishi.

1-§. Umumiy ta'rif

Ilmiy uslub publitsistik va rasmiy ish uslublari bilan bar qatorda kitobiy uslub tarkibiga kiradi. Har bir uslubning o'z funksiyaviy vazifasi bo'lgani singari ilmiy ma'lumotni aynan yetkazishni ta'minlash ilmiy uslubning funksiyaviy vazifasi hisoblanadi. Mazkur uslubdagi matn xabar yetkazishdek vazifani bajarishida o'ziga xoslik mavjud.

Ilmiy uslub o'z funksiyaviy vazifasiga ko'ra adabiy nutqdagi so'z, ibora va grammatik vositalarni ilmiy xabar (ma'lumot) yetkazishga moslashtiradi, safarbar qiladi, tushunchani belgilash, fikrni ifoda etishning o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Ilmiy uslubda ilmiy xabar (ma'lumot) aniq, obyektiv, mantiqan izchil, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishiga erishiladi. Alohida umumlashganlik va mantiqan ta'kidlanganlik ilmiy uslubdagi bayonga xosdir.

Ilmiy uslubning o'ziga xosligi uni badiiy nutqga taqqoslanganda, ayniqsa yaqqol ko'rinadi.

Misol uchun quyidagi ayni bir hodisaning ikki uslubdagi bayonini keltiramiz:

Ilmiy uslubda

U [Umarshayx mirzo] kaptar uchirish vaqtida kaptarxona b-n birga jarga qulab halok bo'ldi.

O'zME, 9-j., 92-b.

Badiiy uslubda

– Marg‘ilonga uch, qanotli choparim! – deb shivirladi.

Tagidan nurab turgan jar shu asnoda birdan o‘pirildi. Kabutarlar qo‘nadigan ayri yog‘och “shaq” etib pastga uchib ketdi... Tomning o‘rtasida turgan Umarshayx mirzo chang-to‘zon ichida qattiq bir chayqaldi-yu, galdiraklab yiqildi. Uning jon achchig‘i bilan qichqirgani vahimali qarsillash va gursillashlarga qo‘shilib eshitildi. U yiqilib tushayotganda qo‘lidagi kabutarni qo‘yib yuborgan edi. Chinni kabutar chang-to‘zon orasidan yulqinib chiqib, osmonga qarab otildi. Mirzoning o‘zi esa tom yog‘ochlariga, somon suvoqlariga, jartuproqlariga aralashib, uch terak bo‘yi pastga qulab ketdi. (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. 1981.31-b.).

Ilmiy uslubni badiiy nutq bilan qiyoslashdan shu narsa ayn bo‘ldiki, ilmiy uslubda tushuncha, hodisa, narsa ifoda etiladi (bildiriladi, ma’lumot beriladi).

Badiiy uslubda esa asosiy maqsad – badiiy obraz yaratishdir.

Ilmiy uslub uchun isbotlash (dalillash)ning qat’iy kompozitsiyaviy tuzilishi xosdir. Bundan tashqari tasvir, muayyan shaklga keltirilgan (ishlangan), ta’rif (definitsiya) ham ilmiy uslubdagi kompozitsiyaning asosiy unsurlaridan hisoblanadi.

Ta’rif ilmiy, ilmiy-ommabop matnlarda, shuningdek o‘quv adabiyotlari matnida uchraydi. Ensiklopedik asarlar, izohli lug‘atlarda esa asosiy kompozitsiyaviy tuzilish hisoblanadi. Ta’rifning bir necha shakli qat’iylashgan, quyidagilar eng ko‘p uchraydigan shakl hisoblanadi:

– “+ tire” yoki “, bu+ tire”. Masalan: *konvergensiya – birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir tovushga birikib ketishi.*

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq, bu – so‘z ma’nosidagi qo‘shimcha mucha.

Birinchi misolda termin (ot turkumidagi so‘z) izohlanuvchi, ravishdoshli birikma izohlovchi.

Ikkinchi misolda aniqlovchi + aniqlanmish tarkibli birikma *bu* ko‘rsatish olmoshi orqali izohlanmoqda, ya’ni *emotsional-ekspressiv bo‘yoq ma’no* ifodasi *bu* olmoshida ayonlashgan.

Yana bir misol: *Har qanday matn nimaningdir ifodasi, lekin, har qanday ifodada bo‘lganidek, undagi ikki jihat farqlanadi: bunda nima ifodalanmoqda, bunda, qanday ifodalanmoqda.*

Bu misol yuqoridagi ikki misoldan bir qadar farqlanadi, ya'ni qolip shaklidan o'zgacha, ammo, ta'rif (definitsiya)ning sintaktik asosi saqlangan.

– + *deb ataladi*. So'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o'tishi *konversiya deb ataladi*. Bunda harakat nomi ot turkumidagi so'z bilan izohlanmoqda.

Ilmiy uslubda ta'rif (definitsiya) tarkibida asosan umumilmiy so'zlar, ya'ni terminlar ko'pgina uchraydi (fan, hodisa, narsa, voqea ifoda, qurol va b.), "kitobiy" so'zlar ham ko'pgina (*tavsiflanadi, hisoblanadi, ataladi, nomlanadi, uchraydi, tashkil etadi, berilgan, -ga muvofiq va h.k.*).

Ilmiy uslubga definitsiya va uning mantiqiy izohi [ta'rif – tanish bo'lmagan termin (so'z)ning ma'no (mazmun) tanish bo'lgan termin (so'z) yordamida ochib berishi]dan iborat konstruksiya (tuzish) xosdir. Mazkur tuzilma ilmiy uslubni yuzaga keltiradi va ilmiy matn tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu hol ayniqsa o'quv materiallari, ilmiy-ommabop matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki, ular o'zida matn mazmunining muhim qismini ifoda etadi hamda matn tuzilishining muhim unsuri hisoblanadi. Demak, definitsiya va uning izohidan iborat tuzilma matn tuzilishi va mazmunni shakllanishida muhim omil sanaladi.

Definitsiyaning izohi o'quvchi (tolib va toliba)ni tushunganini idroklash, anglash, o'zlashtirishga tayyorlaydi yoki muayyan tushunchani qismlarga ajratib tushuntiradi. Mazkur konstruksiya ensiklopedik asarlar, izohli lug'atlar hamda o'quv adabiyotlari uchun xosdir. Ilmiy-ommabop asarlarda esa mazkur usul matnni ommaviylashtirishga xizmat qiladi.

2-§. Ilmiy uslubning janriy-nutqiy turlari

Ilmiy uslub janriy-nutqiy jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ilmiy (akademik).
2. Ilmiy-o'quv.
3. Ilmiy-ish.
4. Ilmiy-ommabop.

Ilmiy akademik uslub bayondagi qat'iy ilmiylik bilan boshqalaridan farqlanadi. Mazkur akademik uslubdagi matnlar mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi. Matn bayoniga qat'iy mantiqiylik, isbotlash tizimi, ilmiy dalillar va hodisalar ilmiy tizimlanganligi, yuqori darajada axboriy (ma'lumotga ega)ligi, fanda

ma'lum bo'lgan hamda yangi tushunchalar xosdir. Yangi ilmiy natijalar yangi terminlarni yuzaga chiqaradi, ma'lumlarida ma'no kengayishi yoki torayishiga olib keladi. Sof ilmiy uslubda, asosan, faqat mutaxassislargagina odatiy bo'lgan leksik-frazeologik vositalar (maxsus terminlar, terminlardan tashkil topgan birikmalar, kasb, ixtisoslikka oid nutqiy qurilma-sintaktik konstruksiyalar) ko'plab uchraydi. Masalan: tibbiyotda – *tampon, klinik o'lim*; tilshunoslikda – *semema, pragmatik sema*; fizikada – *neytrino, yadroviy zaryad*; ximiyada – *katalizator, mis oksidi*; zoologiyada – *qanotlilar, mushuksimonlar oilasi*.

Ilmiy uslub fan sohalariga ko'ra farqlanadi: aniq, tabiiy, ijtimoiy (gumanitar), filologik, tibbiy-kimyoviy, fizik-matematik va b.

Mazkur uslubdagi asosiy janrlar – monografiya, maqola (ilmiy jurnallarda).

Monografiya:

Assimilyatsiya so'zidagi ma'lum bir tovush ikkinchi bir tovushni ma'lum nuqtani nazar yoki nuqtayi nazarlarga ko'ra o'zi bilan bir xil qilib olishidir. (O'zbek tili fonetikasi).

Ilmiy maqola:

Ommaviy aloqa vositalaridan biri sifatida televideniye ni tadqiq etishda quyidagi uchlikka e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: nutq – tasvir – tovush. ("O'zbekiston matbuoti" jurnalidan).

Ilmiy uslubning ilmiy-o'quv turidagi adabiyotlar (boshqa tur nashrlar) bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan bo'ladi. Bular, asosan, darslik, qo'llanma, uslubiy qo'llanma va b.dir. O'quv adabiyotlari matnining nutqiy tuzilishida isbotlashning yoyiq tizimi uchraydi, bundan maqsad fanda ma'lum bo'lganni asoslashdir.

O'quv adabiyotlari qaysi tur ta'lim tizimiga mo'ljallanganligiga ko'ra bayonda farqlanadi. Shunga ko'ra o'quv materialini aniq maqsadli tarzda tizimlashtiriladi, muayyan fanni o'quvchi, tolib tushuna olishi ko'zda tutiladi, tushuncha (definitsiya) keng izohlanadi (ta'riflanadi), yangi terminlar avvaldan ma'lum termin (so'z)lar yordamida sharhlanadi.

Darslik:

Assimilyatsiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa *assimilyatsiya* deyiladi.

Lug'at:

Assimilyatsiya. (lot. *Assimilation* — o'xshab ketish). Biror tovushning boshqa bir tovush ta'sirida unga o'xshashlik (bir xillik) tomon o'zgarishi: toshshi / toshni; ishshi / ishni. (Lingvistik terminlarning izohli lug'ati).

Ilmiy-o'quv adabiyotlarining matni ilmiy (akademik) uslubdagi matnlardan quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanadi:

- materiallar aniq maqsadli tizimlashtirilishiga ko'ra. Bunda hukm ichki tushunchaviy tabaqalanishi ochib beriladi, talabaga muayyan ilmiy fan tili o'rgatiladi;

- tushuncha har tomonlama keng izohlanadi;

- ilgari surilayotgan (taqdim etilayotgan) tushuncha, definitsiya izohi, shuningdek, o'quvchi, talaba uchun yangi (notanish) bo'lgan termin ma'nosi o'zlashtirilishiga ko'ra.

Mazkur uslubda matnga kiritilayotgan termin aniq ifodalangan, yetarlicha to'liq idroklandigan hamda bayoni tushunarli bo'lishi muhimdir. Misollar keltiramiz.

Qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan juda tor doiradagi kichik-kichik ijtimoiy guruh va to'dalar, o'zlariga xos dillari va talablari yoki ichki zaruriyat hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z nutqlarida ba'zan umumqo'llanishdagi so'zlardan farqli bo'lgan alohida so'z va iboralarni ishlatadilar. Bunday so'z va iboralar jargonlar deyiladi. (O'zbek tili leksikologiyasi).

Suv (vodorod oksid) N_2O , tiniq, suyuq modda, $+4^\circ$ da 760 mm bosimda 1ml suv 1 g keladi. Qaynash nuqtasi $100^\circ S$, erish nuqtasi esa 0° deb qabul qilingan; suvning tarkibi (og'irlik jihatidan): 11,11% N, 88,89% O; Oddiy formulasi N_2O ; suv bug'i 1000° dan yuqorida oz-ozdan dissotsialana boshlaydi, kritik temperaturasi $364,3$; kritik bosimi $194,6$ mm; kritik molekular hajmi $0,055$ l; tabiatda juda ko'p tarqalgan, lekin tabiiy suv toza bo'lmaydi; toza suv elektr tokini o'tkazmaydi; barcha suyuq va qattiq moddalar ichida eng ko'p issiqlik sig'imiga ega bo'lgani suvdur. Kimyoviy toza suv distillangan suv deb ataladi, suvni bug'latib, hosil bo'lgan bug'ni sovutish orqali toza suv olinadi. (Kimyo).

Pul — barcha tovarlar muqobili vazifasini bajaruvchi alohida tovar, ayriboshlov stixiyali rivojlanishining mahsuli. (Iqtisod).

Mulohaza o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra murakkab bayon. Jurnalist hamisha ham voqealar hikoyasi yoki ular tasviri bilan

cheklanib qola olmaydi. Muayyan daqiqalarda u ko'rgan yoki his etganlariga munosabat bildiradi. (Adabiy tahrir).

Yuqorida biz eng ko'p uchraydigan sharh-ilovalarga misollar berdik.

Ilmiy-o'quv uslubida nutqiy vositalar sof ilmiy uslubdagiga qaraganda mantiqan ancha yuqori darajada ta'kid etiladi. Chunki, o'quv jarayonida o'quvchi yoki tolibning diqqat-e'tiborini faollashtirish, ularning fikran ishlashini yo'naltirilgan holda tashkillashtirish talab etiladi.

Ilmiy uslubning ilmiy-ish turi patentlar, referativ nashrlar hamda turli annotatsiyaviy matnlarda uchraydi. Matnda ko'pgina ma'lumot jamlanadi, bayon qilish usuli tizimlangan bo'ladi. Konstruksiyalar uyushiq bo'lakli gaplardan iborat bo'ladi, bundan tashqari bog'lovchisiz bog'langan murakkab gaplar ko'plab qo'llanadi.

Har bir kitob, monografiya va maqolada albatta annotatsiya uchraydi.

Annotatsiya lotincha so'z bo'lib, *qayd etaman* ma'no ifodasini beradi va quyidagicha ta'riflanadi: bosma asar yoki qo'lyozma mazmunining qisqacha tavsifi. Unda kitob – broshyura, monografiya, maqola va b.da gap nima haqidaligi o'z muxtasar ifodasini topadi. Ba'zan qisqa annotatsiyalar ham uchraydi, u birgina jumla (shaxssiz gap) dan iborat bo'ladi.

Bunday annotatsiyalar adabiyotlardagi bibliografik ro'yxatlarda uchraydi. Ancha yoyiq annotatsiyalar o'quv va ilmiy-ommabop adabiyotlarga xosdir.

Referat lotincha so'z bo'lib, *xabar qilaman* ma'no ifodasini beradi. Ilmiy ish, adabiyotni mavzu bo'yicha mazmunini yozma tarzda yoki ommaviy ma'ruza shaklida qisqacha bayoni referat deb ataladi. Unda matndan anglashiladigan mazmun ancha qisqa va shu bilan birga o'zi ilova etilgan material asosiy mazmunini aynan bayon etadi. Uning vazifasi quyidagilardan iborat: axboriylik; axborot-qidiruv tizimida izlashlik; ma'lumotnomalik; axborot ayirboshlash jarayonida ko'rsatkichlik. Qisqa qilib aytganda, asardagi yangilikni, ahamiyatlilikni ilg'ab oladi. Referatlarni xalqaro tasnifga ko'ra ikkiga ajratish mumkin: axboriy (referat-konspekt); indikativ (ko'rsatkichli, tasviri).

Birlamchi materialni tasvirlashda tayanch so'zlarga asoslanish kerak. Tayanch so'z deganda terminlar nazarda tutiladi, ular

referatlanayotgan matndagi markaziy mazmunni, asosiy nuqtayi nazarni ifoda etadi. Terminlarning sinonimlaridan foydalanilmaydi.

Referat matni asosan sodda gaplardan iborat bo'lishi kerak, so'zlar (gap bo'laklari) qat'iy grammatik tartibda joylashtiriladi. Sodda gaplarda fikr mustaqil ifoda topadi, ayni bir narsa, hodisa xususida aniq ma'lumot yetkaziladi. Matndagi jumalarning asosiy qismini bir tarkibli (shaxsi aniq, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, shaxssiz, nominativ) gaplar tashkil etadi:

Bizning qo'limizdagi materiallar shuni ko'rsatadiki, ekspressiv-uslubiy bo'yoq, faqat muayyan bir leksik ma'no orqali ayonlashadi.

Referatlarda bog'lovchisiz bog'langan murakkab gaplar, uyushiq bo'lakli gaplar, aralash ergash gapli qo'shimcha gaplar deyarli uchramaydi. Ilmiy uslubning ilmiy-ommabop turiga xos bayonda mutaxassisligi bo'lmaganlarga oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy ma'lumotni yetkazish nazarda tutiladi. Bunda ilmiy bilimni almashtirish usuli asosiy o'ringa chiqadi. Shunga ko'ra ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi turli vositalardan, badiiy-tasviriy omillardan foydalaniladi. Maqsad – muayyan bilim sohasiga taalluqli tushunchani (ilmiy tushuncha va hodisani to'liq ilmiy ishonchliligi hamda aniq, ravshan bayon etishni saqlagan holda) mazkur sohadan mutaxassis bo'lmaganlarga yetkazishdan iborat. Mazkur tur uslubdagi matnlar turli janrda – ensiklopedik, bellestirik va b. bo'lishi mumkin.

3-§. Ilmiy-uslub sintaktik konstruksiyalar

Ilmiy uslubning o'ziga xosligi, nutqiy tuzilishi asosan sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi. Mazkur uslubdagi matnlar doirasidagi jumlar, ularni tashkil etgan tarkibiy qismlarning bir-biri bilan bog'liq yoki murakkab sintaktik yaxlitlik boshqa uslublardagidan alohida ta'kid etilgan mantiqiylikka ko'ra farqlanadi. Matndagi sintaktik birlik, iboralararo bog'liqlik va munosabat ilmiy uslubda umumlashgan-alohidalangan bayonda hamda ta'kidlangan mantiqda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ilmiy uslubdagi matnda *sodda gaplar* ko'plab uchraydi. (85–90%). Bu tur jumalarda gapning ikkinchi darajali bo'laklarining keng yoyilgan tizimi, gapning uyushiq bo'laklari butun boshli turkumi (sifatdosh va ravishdoshli o'ramlar) ishtirok etadi. Bulardan tashqari kirish so'z, kiritma konstruksiyalar keng qo'llanadi. Masalan: *Qadimgi Rim va Yunonistonda papirusdan foydalanish yozuvning va shu bilan birga kitobatning jadal rivojiga turtki bo'ladi. Rimda ham,*

Yunonistonda ham yangi yozuv – qirrasiz, yumaloq shaklga keltirilgan, yozish uchun qulay va avvalgisidan ko‘ra chiroyliroq va nafis – unsial, shuningdek, tez yozish imkonini beradigan o‘ng tomonga bir oz yotiq (kursiv) yozuv paydo bo‘ladi (Z.Taxirov. Tahrir mantiqi, 6-b.).

Matnda muallifning bizi umumiylik tavsifiga ega bo‘ladi. Bu uning shaxssiz gap bilan sinonim ekanligini anglatadi: *Shunday qilib, biz quyidagi xulosaga keldik: ... Shunday qilib xulosa chiqarish mumkin ...* Ko‘rinadiki, shaxsi ma‘lum gap bu uslubda o‘rinli emas, chunki mazkur uslub bayonda shaxsi noma‘lum tarzga intiladi, shunga ko‘ra birinchi, ikkinchi shaxs tilidan bayon uchramaydi, bu hol, faqat, ilmiy munozaraga xos.

Ilmiy uslubda ko‘pincha fe‘l kesimli, 3-shaxs ko‘plikdagi shaxsi aniqmas gaplardan foydalaniladi. Bunday kesimlarda umumqabul qilingan hodisa, dalillar, qonuniyatlar ifodalanadi: *Adabiy tahrirning ikki turi farqlanadi. Yuqorida qayd etganimizdek ... quyida alohida to‘xtalamiz ...*

Birinchi shaxs hozirgi va kelasi zamonda ko‘plikda kelgan fe‘l kesimli shaxsi umumlashgan gaplar ko‘pgina uchraydi: *Endi, umumiy ta‘rif beramiz; Barcha raqamlarni qo‘shamiz va umumiy yig‘indiga ega bo‘lamiz; So‘z ma‘nosini tashkil etuvchi mucha (sema)larni aniqlaymiz va b.*

Ilmiy uslubdagi matnlarda shaxssiz gaplarning uch turi uchraydi:

1) fikrning aniqligi yoki aniqmasligini ifodalovchi modal so‘zlar ishtirok etadi: *Albatta, bu haqda alohida to‘xtalib o‘tish kerak; Ehtimol, bizning xulosamiz bahsli bo‘lishi mumkin. Tabiiyki, muharrir matn ustida ishlash mobaynida nihoyatda faol, hushyor, diqqat-e‘tiborni bir joyga to‘plagan bo‘lishi kerak.*

2) tuslanishsiz fe‘l yoki tuslanuvchi fe‘lning tuslanmaydigan shakli kesim bo‘lib keladi: *Yoshlar tarbiyasiga oid ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni kuchaytirish talab etiladi;*

3) ravish kesimli: *Gilam tanigan odam ikki millionga indamay oladi.*

Ilmiy uslubda sodda konstruksiyalar murakkab konstruksiyalarga qaraganda ancha ustunlikka ega. Bu harakat subyektga hech bir ishora etmagan holda bayonni obyektiv va umumlashgan tarzda bo‘lishiga intilish tufayli yuzaga keladi: *Masala birinchi marta ko‘rilmoqda. Abituriyentlar qo‘shimcha qabuli bo‘lmoqda. Yig‘ilish tasdiqlangan kun tartibiga ko‘ra o‘tkaziladi.*

Ilmiy uslubdagi matnda bog'langan qo'shma gaplarga nisbatan ergashgan qo'shma gaplar ko'proq uchraydi. Chunki, sabab, shart oqibat, munosabat ilk bora ifoda etilayotgan bo'ladi (bunday jumlar ilmiy bayon uchun o'ta muhim hisoblanadi). Shu bilan birga, ilmiy uslubga ko'p tarkibli sintaktik qurilmalar ham xosdir. Ularda tobelik bilan bir qatorda, bog'lovchili bog'langanlikni ko'rish mumkin. Masalan: ... *muallif savodli, yorqin va aniq yozishi, lekin qisqa, lo'nda bo'lmasligi, qandaydir uzoqdan boshlaydi, ko'p so'zli bo'ladi, muharrir esa, aksincha, qisqa, lo'nda, ta'sirchanlikni yoqtiradi* (Tahrir mantiqi, 192-b.).

Ilmiy uslubda sintaktik birikmalar orasida yasama sifat +ot dan tashkil topganlari anchagina uchraydi: *unumli mehnat; ilmiy tadqiqot; ilmiy ma'lumot; iqtisodiy geografiya, jarangli undosh* va b. Qaratqich +qaralmish munosabatidagi birikmalar: *ishning mohiyati; ishning qimmatli tadqiqot natijasi; suv tanqisligi* va b. Bunday tanlanganlik ilmiy uslubga xos bo'lib, mavjud ahvol haqida aniq ma'lumot berishga mo'ljallangan. Zero, ilm tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy qonuniyatlar, aniq dalillar haqida obyektiv ma'lumotlar olish bilan shug'ullanadi, tahlilga asoslanib tushunchani qismlarga ajratadi, tasniflaydi.

Ilmiy uslubda qo'llaniladigan so'z birikmalari tuzilishiga ko'ra turli-tuman. Tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'p tarkibli so'z birikmalari alohida e'tiborga molik. Bular ilmiy tahlil etishga xos bo'lgan tushunchani darajalarga ajratish tufayli yuzaga chiqadi: *ikki komponentli o'xshatish konstruksiyasi; so'z ma'nosining bo'yog'i*.

Ilmiy uslubdagi matnlarda qaratqich, tushm kelishigi qo'shimchasi, egalik qo'shimchasi ko'plab uchraydi: *Ishning obyekti bo'lib ...; Tinglovchini biror narsa, hodisa haqida ma'lumot berishga qo'zg'atuvchi ifoda*.

Ergashgan qo'shma gaplar ilmiy matnda bog'langan qo'shma gaplardan farqli o'laroq qismlariaro bog'liqligiga ko'ra aniq, rang-barang, darajalangan bo'ladi. Uyushiq bo'lakli gaplar (bog'lovchisiz bog'langan gaplar) qismlararo murakkablik hokim – tobe bog'lanishlikga ega, shunga ko'ra ifoda ancha cho'ziq, qismlararo mantiqiy aloqadorlikni ilg'ash qiyinlashadi.

Ilmiy matnda kirish so'zlar (*birinchidan; ikkinchidan, bir tomondan, ikkinchi tomondan, demak, xullas, shunday qilib*), kiritma konstruksiyalar (*birinchi bobda qayd etilganidek, bu haqda quyiroqda so'z boradi, yuqorida aytib o'tganimizdek*) ko'plab uchraydi.

O'quvchi, tinglovchining diqqatini tortish maqsadida savol-javob shaklidan, ritorik so'roqdan foydalaniladi:

Muharrirning nashr jarayonidagi ishtiroki, o'rni va ahamiyatini ko'rsatishdan oldin nashr jarayoniga to'xtalib o'tamiz. Nashrning o'zi nima? Nashr jarayoni deganda nimani tushunish kerak? Muharrir kim? Muharrir o'zi kerakmi? Bu va shular bilan bog'liq boshqa bir qator savollarga ushbu bo'limda javob berishga harakat qilamiz.

Qat'iy mantiqiyligi, fikrlar bog'liqligi, bayonidagi tadrijiylikka ko'ra mazmun o'z ifodasini topishi ilmiy matnga o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Ilmiy uslub sintaksisi uchun nutqning, matnning mantiqiylikni ta'kid etuvchi turli vositalarga boylik xosdir.

Ilmiy matn muallifining maqsadi – matn mazmunidagi asosiy mulohaza (fikrni) ikkinchi darajalilardan ajratish, alohidalash, tezisni aniq belgilashdan iborat. Biz bu masala, tezisni har tomonlama chuqur tahlil etdik. Endi *keyingi masalaga o'tamiz* tarzidagi nutq oboroti yordamida bir masala ko'rib bo'linganiga va keyingi masalaga o'tishlik to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi.

Ilmiy uslubga xos yana bir xususiyat o'quvchi e'tiborini navbatdagi masala, tezisga qaratishdir: *tartib nuqtayi nazaridan, avval, sifat substantivatsiyasini ko'rib chiqamiz.*

Matndagi jumllalararo ma'noviy bog'liqlikka bayonni tashkillashtiruvchi ko'plab sintaktik usullar yordamida erishiladi. Ana shunday usullardan biri – takror: Yuqoridagi misrada – *lab leksemasi odam ma'nosi ifodasini bergan. Bunda a'zo bilan odam atalgan.*

Fe'ling shaxs shakli uchinchi shaxs bilan cheklangan bo'ladi: *Tahrir sohasini, muharrirlik faoliyatini mantiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi.*

4-§. Ilmiy uslubda so'zlarning qo'llanilishi

Ilmiy uslubda foydalaniladigan so'zlar haqida gapirishdan avval, terminlarga to'xtalish joizdir. Terminlar ilmiy uslubni yaqqol namoyon etuvchi til vositasidir. Matnda terminlarning ko'plab ishtiroki, uning ilmiy uslubga xosligini yaqqol namoyon etadi, chunki ular definitsiyaviy ekanligiga ko'ra matnda asosiy vazifani bajaradi. Mutaxassislarning fikricha har bir sohaga oid ilmiy matn tarkibidagi terminlar miqdori 70–75 %ni tashkil etar ekan²⁰.

²⁰ *Qarang:* Митрофанова О.Д. Язык научно-технической литературы. –Москва: 1983.

Ilmiy uslubdagi nutq asosini, adabiy nutqning funksiyaviy har bir turidagi kabi umumiste'moldagi yoki umumadabiy so'zlar tashkil etadi. Bular yangi terminologik birliklar hosil bo'lish manbai hisoblanadi.

Umumiste'moldagi so'zlardan ilmiy uslub doirasida foydalanish ba'zi bir o'ziga xosliklarga egadir:

– boshqa funksiyaviy turlarda kam uchraydigan so'zlar ilmiy uslubda faol qo'llanadi: *hisoblanadi* (*Gapdagi ega va kesimdan boshqa unsurlar gapning ikkinchi darajali bo'laklari hisoblanadi*; *Yer kurrasi quyosh tizimidagi hayot mavjud bo'lgan yagona sayyora hisoblanadi*). Boshqa uslublarda ham qo'llanadigan ko'p ma'noli so'zlar faqat bir semasi bilangina ilmiy uslubda qo'llanadi (*Fonetika sohasida chuqur izlanish ketmoqda*).

Ayrim so'zlar ilmiy uslubda qo'shimcha ma'no kasb etadi (*Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida asosiy e'tiborni semik tahlilga qaratish mo'ljallanmoqda*; jumladagi *mo'ljallanmoqda* so'zi faoliyat yo'nalishi ma'no ifodasini beradi). Kontekst taqozosiga ko'ra umumiste'moldagi sinonim so'zlar ilmiy uslubga ham xosdir: *deb hisoblaymiz*; *deb o'ylaymiz*; *deya olamiz*, *faraz qilamiz*, *deyish mumkin*, *deb bilamiz*.

Ilmiy uslubdagi matnda ayni bir so'z (termin) qayta-qayta takror keladi, bu ilmiy uslubga xos yana bir jihat hisoblanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ilmiy uslubning vazifasi qanday?
2. Ilmiy matnda ta'rif va terminlarning o'rni va ahamiyati nimada?
3. Ilmiy uslubdagi matnlar tuziladigan janrlar hamda tur haqida ma'lumot tayyorlang.
4. O'quv adabiyotlarining uslubiga ta'rif bering.
5. Ish qog'ozlarining yuritilishi, ularning turi va uslubini izohlang.
6. Ilmiy bayondan ilmiy-ommabop bayonning farqi nimada?
7. Ilmiy matnda uchraydigan sintaktik konstruksiyalarga misollar keltiring.
8. Shaxssiz gap turini misollar yordamida tahlil qiling.
9. Ilmiy matnda uchraydigan kirish so'z, kiritma so'z va kiritma konstruksiyalarni izohlang.
10. Ilmiy matnda qo'llanadigan umumiste'moldagi va umumadabiy so'zlar qisqacha lug'atini tuzing.

6-BOB. PUBLITSISTIK USLUB

REJA

1. Publitsistika – faoliyat turi.
2. Publitsistikaning vazifasi va maqsadi.
3. Publitsistikadagi asosiy janrlar.
4. Publitsistikaga xos soʻzlar, birikmalar va iboralar.
5. Publitsistik nutqda foydalaniladigan leksik-semantik vositalar.
6. Publitsistik asarda andozaviy vositalardan foydalanish.
7. Zamonaviy publitsistikada tayanch soʻzlar, maʼno kengayishi.

1-§. Umumiy taʼrif

Publitsistik uslub haqida soʻz yuritishdan oldin Publitsistika oʻzi nima ekanligini aniqlash maqsadga muvofiq boʻladi. Izohli lugʻatlarda Publitsistikaga quyidagi taʼriflar beriladi:

Publitsistika [lot. *Piblicus* – ijtimoiy] – vaqtli matbuotda va ayrim nashrlarda siyosiy va ijtimoiy masalalarni yorituvchi adabiyot tarmogʻi. (Slovar inostrannix slov. 535-b).

Publitsistika [lot. *Piblicus* – jamiyatga, jamoatchilikka oid, ijtimoiy] 1. Davr (zamona)ning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda jamiyatning kundalik hayotiga bagʻishlangan adabiyot turi. 2. Shu janrga xos asar yoki asarlar (maqola, ocherk, pamflet, feleton va sh.k.) mavjud. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati, Sh j., 319-b).

Publitsistika [lot. *Piblicus* – ijtimoiy], jamiyatning kundalik hayotiga oid dolzarb muammolar va hodisalarga bagʻishlangan asar turi. (Ensiklopedicheskiy slovar. 1027-b.).

2-§. Publitsistik uslubning vazifaviy tavsifi

Demak, Publitsistika siyosat sohasiga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi – jamoatchilik (jamiyat aʼzolari) fikriga taʼsir etish, uni shakllantirish. Publitsistikaning asosiy vazifasiga muvofiq tarzda publitsistik uslubning nutqiy tuzilishi siyosiy gʻoyalarni, faol siyosiy nuqtayi nazar, grajdanlik nuqtayi nazarini ifoda etishga siyosiy targʻibot, siyosiy partiyalar guruhlararo qizgʻin munozaraga, kundalik turmushga oid hodisa, voqealarni yoritishga, jamoatchilik, siyosiy tashkilotlar, rasmiy muassasalar faoliyatini baholashga, siyosatchilar, jurnalistlar, davlat, madaniyat arboblarning xatti-harakatlari, bayonotlarini baholashga qaratiladi.

Publitsistik uslubdagi nutq tuzilishida ta'sir etishlik maqsadi birinchi o'ringa chiqadi. Bu aslida, nutqning ijtimoiy vazifasi hamdir, mazkur vazifani bajarish jarayonida ma'lumot va xabar berish uyg'unlashib ketadi. Jamiyat a'zolari (jamoatchilik) fikriga nutq orqali ta'sir etish uchun dolzarb hodisalar, kundalik hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy, ma'naviy, iqtisodiy va h.k.larga xos ma'lumotlarni yetkazish so'zlarga tayanib amalga oshiriladi.

Publitsistik matn o'z nutqiy tuzilishiga ko'ra nimadir xususidagi dolzarb, ahamiyatli ma'lumotdan va shu ma'lumot mazmunining talqinidan tashkil topadi. Talqin o'z navbatida yuqori ta'sirchanlik va his-hayajonli uslubda bo'ladi.

Publitsistik asar muallifi kundalik hayotdagi odamlar, dalillar, hodisalar haqida ma'lumotlarni yoki kundalik hayotda ishtirok etuvchi ijtimoiy, siyosiy kuchlardan darak berar ekan, albatta bularga g'oyaviy, siyosiy tus beradi, his-hayajonli baholaydi. Bundan maqsad matn qaratilgan auditoriyaga, uning dunyoqarashiga, ongi, kayfiyatiga, publitsistik materialni idrok etishga kuchli ta'sir o'tkazuvchi nutq sohasiga taalluqli hisoblanadi. Shu jihatdan u siyosiy nutqga yaqin turadi. Radio, kino va televideniye nutqlari (uchlik) bilan birga ommaviy axborot uslubini tashkil etadi.

Publitsistik matn o'z nutqiy tuzilishiga molik nimadir haqida xabar (ma'lumot) beradi va uni talqin etadi. Talqin, odatda, ancha ta'sirchan bo'ladi hamda uslubiy jihatdan emotsional-ekspressiv munosabat ifoda topadi.

Publitsistik uslubning funksiyaviy tabiati nutqiy ichki tuzilishi gazetaga xos publitsistik uslubda, boshqacha aytganda, "gazeta tili"da ayniqsa to'liq va tadrijiy sur'atda namoyon bo'ladi.

Ommaviy (publitsistik) jurnallar nasriy matnlaridagi publitsistik uslub andozaviylik, emotsional-ekspressivlik xos bo'lgan til vositalari bilan "o'qlangan" bo'ladi. Kundalik turmushdagi dolzarb – o'ta noxush, "og'riqli" masalalarga bag'ishlangan muammoli maqolalarda bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Ommaviy jurnallar nasriy matnlarida ikkita janr alohida ajralib turadi:

- muammoli-tahliliy;
- badiiy-publitsistik.

Publitsistik uslub doirasida til vositalaridan foydalanishda, bir tomondan, ularning ijtimoiy baholashdek vazifani bajarishligi tamoyili

asosiy ta'sirga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, til vositalari andozaviyligi va ekspressivligining chambarchas bog'liqligi, publitsistik uslubni belgilovchi omillar hisoblanadi.

Til vositalarining ijtimoiy baholash tamoyili G.Ya. Solganik taklifiga ko'ra "dalillar, hodisalar, voqealarni, avvalo, ijtimoiy bahosini ifoda etishga qaratilgan til vositalarini tanlashni ko'p jihatdan belgilab beradi"²¹.

Publitsistik uslubda baholash hukmi ma'nosi ekspressiv bo'yoqqa ega til vositalari yorlamida yuzaga keladi, bunda, albatta, subyektning obyektga bo'lgan munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi (*vahshiyona, g'ayriinsoniy, ikkiyuzlamalik, subutsizlik, surbetlarcha, pastkashlik* va b.).

Ayrim so'zlar publitsistik jumla (konstruksiya) ta'sirida ijtimoiy baholash xossasiga ega bo'ladi (*mahalliychilik, shahar ko'rgan, ketvorgan, jangari, ommaviy madaniyat* va b.).

Baholash tamoyili, ayniqsa so'z va frazeologizmlarda yaqqol seziladi (*to'da, mafiya, siyosiy bo'tqa, siyosiy o'yin, qattiq qo'l, qonun ustuvorligi, soliq zalvori*).

Ijtimoiy baholash so'z yasovchi vositalar, yangi so'z hosil qiluvchi unsurlar tufayli ham yuzaga chiqadi (*o'ta o'ng unsur, loqaydlik, amalparast, burni ko'tarilgan, xishinib ketgan, tamagir, poraxo'r*).

Boshqa tildan o'zlashgan so'zlar vositasida ham "baho" beriladi (*korruptsiya, nomenklatura, yevrostil, supper* va b.), yana okkozional so'zlar vositasida yuzaga chiqadi (*biznesmen – bezbetmen, gaichi – gaykachi, prokuror – pulkuavr, soliqchi – soqqachi* va b.). Ekspressiv-baho bo'yog'iga ega ma'noli grammatik vositalar yordamida ham yuzaga keladi (*Yoshlar oldida vazifalar turibdi. Ulkan. Buyuk kelajakni barpo etish. Ezgu; ayricha ta'kid (Yigirma birinchi asr talabasi. U qanday?)*).

Publitsistik uslubda andozaviylik bilan ekspressivlik almashinib turishini V.G. Kostomarov "til vositalarining tashkillashuvi"ning "yagona tuzilish tamoyili" gazeta nutqida uchraydi"²², deb ta'kidlaydi.

Demak, baholash hukmi publitsistik uslubda boshqacha uslublardagidan ko'ra ancha faol ekan.

²¹ Солганик Г.Я. Лексика газеты. –Москва, 1981. 11-б.

²² Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. Москва: – 57-б.

3-§. Publitsistik uslubning leksik tarkibi

Publitsistikaning ijtimoiy funksiyasini soʻzlar, soʻzlarning maʼno xususiyati, emotsional-ekspressiv tavsifi, bundan tashqari publitsistik uslubga xos iboralar belgilaydi.

Mazkur uslub lugʻat tarkibida ijtimoiy-siyosiy nutqga ekspressivlik baxsh etuvchi soʻz va terminlar muhim oʻrin tutadi (*senat, davlat, parlament, Oliy Majlis, prezident, bosh vazir, mahkama, davlat, oshkoralik, axborot erkinligi, soʻz erkinligi, koʻp fikrlik, tashqi siyosat, globallashuv, axborot maydoni, interfaol, ijtimoiy tarmoq, muloqot, mediamatn, hokimiyat tarmogʻi, inson huquqlari, tok shou, iqtisodiy hamkorlik, konstitutsiya* va b.).

Ijtimoiy-siyosiy soʻzlar qatorida sof siyosiy maʼno ifodasiga ega boʻlganlari ham uchraydi, bular terminlar hisoblanadi (*korruptsiya, terrorchi, millatchi, neofashist, neofashizm, ogʻmachi, muxolifat, yurtparvar* va b.).

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng mamlakat hayotida faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy tizim ham tubdan oʻzgardi, mafkuraviy tushunchalar, ularni idroklash, ular yordamida baholash butkul boshqacha tus oldi. Ayrim soʻzlar kontekstda butkul oʻzgacha “baho”lash uchun qoʻllana boshladi. Ijtimoiy tuzumda sinfiylik tamoyili barham topdi. Quyidagi soʻzlarning maʼnoviy-baholash ifodasiga boshqacha qarala boshladi: *fermer, xususiy mulkdor, xususiy mulk, xususiy doʻkon, millioner, hokim, bozor iqtisodiyoti, davlat tasarrufidan chiqarish*, bular bir tomondan, *diktatura, proletar, sotsializm, ateist, bosmachi, planli, sotsialistik musobaqa* va b., ikkinchi tomondan.

“Gʻoyaviy-baholash jihatiga koʻra quyidagi tushunchalar oʻrin almashdi, qutblilik belgisi oʻzgardi: *sodiq leninchi, kommunist, komsomol, pioner*”²³.

Publitsistikada keng doiradagi dolzarb masalalar xususida muhokama yuritishligi tufayli tahliliy materiallarda turli mohiyat-mavzuni yoritishda rang-barang leksik-semantik vositalardan foydalaniladi. Matnning nutqiy qurilishida ular ommaviy soʻzlar bilan, shuningdek, yana maʼnosi uslubiy boʻyoqqa ega soʻzlar bilan munosabatga kirishadi va shu yoʻl bilan ular publitsistik uslubga “jalb” etiladi.

²³ Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой массмедия.—Москва: 1994.—109–110-б.

Publitsistik uslubdagi matnda adabiy nutqning boshqa funksiyaviy turlaridagi kabi umumiste'moldagi so'zlardan keng foydalaniladi: *ma'lumki, ish, vaqt, davr, zamon, turmush, hayot, har bir, har kim, yangi, yil, boshqa, ulkan, mintaq, bermoq, inson, manfaat, qadr, e'zoz, kuch, qudrat* va b.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zgargandan so'ng (1990-yillarda) publitsistik matnlarda (asosan gazeta sahifalarida) quyidagi sohalarga oid so'z, terminlar ko'plab qo'llana boshladi:

- bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan iqtisod;
- moliya-bank, savdo, tadbirkorlik faoliyati (deyarli terminlar);
- ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish texnologiyalari (asosan electron texnologiyaga oid terminlar);
- biznes, sport yangi turlar va b.

Barcha terminlar, ishlab chiqarish, kasb-hunarga oid so'z, so'z birikmalari o'z tub ma'nolarida qo'llanadi. Ular orasidagi anchagina qismi radionutq va telenutqda ham faol qo'llana boshlaydi. Masalan: *sayt, portal, davlat tasarrufidan chiqish, erkinlashtirish (narxni), valyuta, valyuta ayirboshlash, axboriy xuruj, homiy, birja, broker, xufya ... kompakt-disk, slayd, klop, faol, displey, kartrij, videokasseta, tranzit, megabayt, tazyiq* (iqtisodiy, siyosiy va b.), *xit, shou, pleyer, skaner, printer, auksion, aksiya, imij, reyting, test, assistent, login, parol, elektron pochta, kredit, sertifikat, modem* va b.

Publitsistika lug'atini, asosan, voqea, hodisa, vaziyat, shaxsni baholash ma'no ifodasiga ega so'zlar tashkil etadi. Muallif mazkur tur so'zlar yordamida hodisa, voqea, vaziyat, shaxsga nisbatan o'z munosabatini ifoda etadi. Albatta, muallif o'zi mansub bo'lgan siyosiy guruh (to'da) nuqtayi nazaridan munosabat bildiradi. Ular nutqi (matni)dagi so'zlar ma'nosida baho ifodasi yaqqol seziladi: *vatanni asrash, mard o'g'lonlar, buyuk kelajak, yuksak ma'naviy, vahiylilik, ma'naviy qashshoq, amalparast, subutsiz, og'machi, o'yin (siyosiy), g'o'r, ko'r (siyosiy)* va b.

Albatta, publitsistik matnda qo'llanadigan so'zlar tarkibidagi umumiste'moldagilari, ma'nosi uslubiy bo'yoqqa egalari hamda baholash ma'no ifodasiga egalarini farqlash lozim.

Publitsistika lug'at boyligi turli leksik-uslubiy qatlamlardagi birliklardan shakllanadi. Unda yuqori uslubiy (tantanavor) birliklar ham uchraydi: *muloqot* (xalq bilan), *inson manfaatlari, ajdodlar o'giti, buyuk tarix, buyuk kelajak, jannatmakon, vatan sharafi, yurt qayg'usi*.

Oddiy soʻzlashuvga xos soʻz, soʻz birikmalari ham publitsistik matnda koʻrinib qoladi: *baraka, narx-navo, insof, bardavom, komil, mahalla-koʻy, guzar, posbon* va b.

Publitsistik uslubda iboralar (xalq ogʻzaki ijodi namunalari)dan ham unumli foydalaniladi. Masalan: *qilmish-qidirmish, hisobini bilmagan...*, *mehnatning tagi rohat, qoʻli gul* va b.

Publitsistik matnda koʻchma maʼnoli, uslubiy betaraf soʻzlar, terminlar – barchasi uchraydi. Bunday soʻzlar, odatda, boshqa soʻzlar bilan birikmaga kirishadi hamda maʼno boʻyogʻiga ega boʻladi. Yaqin oʻtmish publitsistikasida bunday qoʻllash ancha faol boʻlgan. *Oq oltinni oltin qoʻllar yaratadi, qora oltin, sut bulogʻi, birodarlashgan shaharlar, dala malikasi, zangori kema* va b.

4-§. Publitsistik uslubda andozaviy ifoda vositalarining qoʻllanilishi

Publitsistik uslubda nutqiy emotsional vositalar bilan bir qatorda ifoda etishning andozalangan vositalari ham uchraydi. Bular namuna-jumla, namuna-abzas, kiritma konstruksiyalar, oddiy taʼriflar, namunalar va b.

Publitsistik matnlarda rasmiy-ish yuritish uslubiga xos nutqiy iboralardan ham faol foydalaniladi (*qabul qilinadi, chora koʻriladi, ishlab chiqiladi, ishonch bildiriladi, taʼkidlab oʻtiladi* va b.).

Bugungi kun publitsistikasida tayanch soʻzlar ishtirokida bir qator konstruksiyalar shakllangan boʻlib, ular muayyan mavzuga ishora qiladi yoki hodisa, faktlarning bayonini belgilab beradi. Masalan: *maydon (axborot maydoni, xalqaro maydon, raqobat maydoni); miqyos (davlat miqyosida, viloyat miqyosida, tuman miqyosida, mahalla miqyosida); doira (qomun doirasida, hamdoʻstlik davlatlari doirasida, xalqaro shartnoma doirasida, oila doirasida); daraja (davlat siyosati darajasi ... va b.); chiqish (norozilik chiqishi, namoyishkorona chiqish); toʻlqin (emigrantlar toʻlqini, norozilik toʻlqini)*. Mazkur soʻzlar nimagadir ishora qiladi va maʼno boʻyogʻiga ega boʻlishi mumkin.

Shunday qilib, publitsistik uslubning oʻziga xos jihatlarini tushunish uchun, bir tomondan, mazkur uslubga taalluqli matnlarda “ekspressivlik” va “andozaviylik” (“standart”) almashinib kelishini, ikkinchi tomondan, “ijtimoiy baho” tamoyili ham tadrijiy surʼatda amalda ishtirok etishini nazarda tutish lozim.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Lugʻatlarda publitsistikaga qanday taʼrif berilgan?
2. Publitsistik mavzu va janrlarni taʼriflang.
3. Publitsistik matnda qanday tayanch soʻzlar va iboralar uchraydi?
4. Publitsistik matn tuzing, unda leksik-semantik va andozaviy vositalardan foydalaning.

7-BOB. PUBLITSISTIK OG‘ZAKI NUTQ

REJA

1. Og‘zaki shakldagi funksiyaviy nutq turi.
2. Og‘zaki nutqdagi sintaktik konstruksiyalar.
3. Publitsistik og‘zaki nutqda qo‘llaniladigan ergashgan qo‘shma gaplar.
4. Publitsistik og‘zaki nutqning leksik birliklar tarkibi.
5. Og‘zaki nutqda frazeologizmlardan foydalanish.
6. Ommaviy kommunikativ og‘zaki nutq.
7. Radionutq, telenutq va kinonutq kommunikativligi.
8. Og‘zaki nutqda intonatsiyaning o‘rni va ahamiyati.

1-§. Umumiy ta’rif

Kitobiy nutq sohasiga taalluqli yana bir ommaviy nutq turi publitsistik og‘zaki nutqdir. Mazkur nutq guruhiiy muloqot chog‘ida muayyan ijtimoiy jamoa doirasida namoyon bo‘ladi. Muayyan tilda so‘zlashuvchilar jamoasi qandaydir mashg‘ulot, biror ish bilan umumiy tarzda shug‘ullanuvchi, manfaatlar birligi, bir xil vaziyatda bo‘lishligi tufayli birlashgan bo‘ladi, masalan, maktab o‘quvchilari, talabalar, firma xodimlari, bir xil kasb egalari, qurilish ishchilari, parlament a‘zolari, namoyish, miting, saylov, referendum ishtirokchilari va b.

Mazkur funksiyaviy nutq turi og‘zaki shaklga egadir. Publitsistik og‘zaki nutq matni auditoriya oldidagi chiqish ko‘rinishida, ommaga qaratilgan, ijtimoiy dolzarb mavzu, masalaga bag‘ishlanadi (vaziyat rasmiy tusda bo‘ladi: oliy ta’lim muassasasida – auditoriya; parlament; miting; namoyish; sud va h.k.).

Shuni ta’kidlash joizki, publitsistik og‘zaki nutqning vazifasi va maqsadi ijtimoiy muloqotdir, bu – publitsistik, ilmiy, rasmiy-ish yuritish yozma uslublariga ham xos.

Publitsistik og‘zaki nutq doirasida quyidagi tur nutq ko‘rinishlari alohida ajralib turadi:

– siyosiy so‘zamollik (siyosiy nutq: mitingda, parlamentda, kongressda, anjumanda, matbuot konferensiyasida, syezdda, milliy, xalqaro, jamoatchilik tashkilotlarining forumlari va b. da);

– ilmiy so‘zamollik (ilmiy nutq: ilmiy konferensiya, ma’ruza, semenardagi ma’ruza, ilmiy munozarada qatnashish va h.k.);

– ma’muriy-huquqiy so‘zamollik (sud nutqi, ayblovchi nutqi, advokat nutqi, sudlovdagi nutq; ma’muriy-xo‘jalik mavzuidagi nutq, ishga aloqador so‘zlashuv va b.).

Ma’lumki nutqning og‘zaki turi o‘qilmaydi, so‘zlanadi, so‘zlash jarayonida uzil-kesil yaratiladi.

Bugungi kungacha ancha to‘liq tadqiq etilgan og‘zaki nutq turi – og‘zaki ilmiy nutq hisoblanadi.

2-§. Publitsistik og‘zaki nutqdagi sintaktik konstruksiyalar

Publitsistik og‘zaki nutqda sodda gaplar ko‘pgina uchraydi. Mazkur sodda gaplarda fe’l zamonlaridan foydalanish yozma nutqdagiga qaraganda ancha faol. Yozma nutqda 2-shaxs shakli va *sen*, *siz* olmoshlaridan deyarli foydalanilmasa, 1-shaxs birlikdagi shakl juda kam uchrasa, faqat 3-shaxs shakli va *u* olmoshi ko‘proq uchrasa, og‘zaki nutqda bu shakllarning barchasidan (2-shaxs birlik va *sen* olmoshi bundan mustasno) faol foydalaniladi. Masalan: *men ... taklif etaman, ... hamda sizning ijozatingiz bilan, men ham barchangizni ... tabriklayman.*

Agar yozma nutqda *biz* “biz birgalikda” ma’no ifodasini bersa, shuningdek, kamtarlik, muloyimlik ma’nosida qo‘llanilsa, og‘zaki nutqda esa muayyan subyektini anglatadi, 1-shaxs ko‘plikda keladi, *biz* qandaydir mavhum auditoriya emas, balki “... nutqni tinglayotgan auditoriya”²⁴ dir.

Ikkidan ortiq kesimli birlikni birlashtirgan konstruksiyada so‘nggi gap bog‘lovchi vositasida o‘zidan oldingi gapga bog‘langan shakl ko‘p uchraydi.

*Xulosa qilib aytish joizki, so‘zlar bir turkumdan boshqa turkumga o‘tishi natijasida boshqa turkum vazifasini bajarar ekan, o‘sha turkum vazifasini o‘tovchi muchasi ko‘chimni yuzaga chiqaradi va unda quyidagi subyektiv munosabatlar ifoda topadi*²⁵.

Bog‘langan qo‘shma gaplar orasida va bog‘lovchisi yordamida bog‘langan gaplar alohida ajralib turadi, keyingi gap oldingi gap mazmunini yanada chuqurlashtiradi, kengaytiradi. Masalan, *Keyingi*

²⁴ *Qarang:* Современная русская устная речь. – Москва: 1994.

²⁵ Taxirov Z. Badiiy nutq. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2017. –26-b.

konferensiya Anjumanlar saroyida bo'lib o'tishi kelishib olinadi va u bugungi kun jurnalistikasining dolzarb masalalariga bag'ishlanadi.

Publitsistik og'zaki nutqda ergashgan qo'shma gaplardan faol foydalaniladi. Tarkibidagi predikativ birliklar bosh va ergash gap holatida bo'ladi, biri ikkinchisini aniqlab, to'ldirib keladi. Bunday vazifani ergash gap bajaradi. U bosh gapni yoki uning biror bo'lagini, qaysidir jihatdan aniqlab, belgilab keladi. *U jurnalistika hamda publitsistika o'rtasidagi farqli jihatlarini alohida ta'kidlamog'chi ekan, bu bilan u mazkur masala xususidagi, bugungi kunda mavjud turlicha qarashlarni birxillashtirmog'chi bo'ladi.*

Mazkur jumlada olmosh takror qo'llangan, yozma publitsistik nutq uchun bu xos emas. Chunki, kishilik olmoshida ifodalangan bosh gapdagi eganing ergash gapdan keyin takror kelishi yozma nutqda me'yordan chetlashish hisoblanadi.

Ergashgan qo'shma gaplarni og'zaki publitsistik nutqda qismlarga ajratish ham kuzatiladi. Bundan maqsad og'zaki nutqni, ta'bir joiz bo'lsa, luqma holda tinglovchiga yetkazish. Bu nutq egasi uchun, bir tomondan, nutqni shakllantirishni, ikkinchi tomondan, tinglovchi idrok etishini osonlashtiradi.

Publitsistik og'zaki nutqda bosh gap va ergash gapni ajratish uchun ular orasiga leksik vositalar kiritiladi.

Adabiy tahrir ilmidan chuqur xabardor bo'lish uchun, ya'ni matn tahririni mukammal bilish uchun til va uslubni puxta egallash, yana ularni amalda qo'llay bilish talab etiladi.

Yuqoridagi jumladagi *uchun* ko'makchisining takror kelishi, *ya'ni, yana* leksik vositasining qo'llanishi yozma nutqda qo'llash me'yoriy hol emas, bu – faqat og'zaki nutqda uchraydi.

Quyidagi publitsistik og'zaki nutqda uchraydigan ergashgan qo'shma gaplarga bir qator misollar keltiramiz:

1. *Shunisi achinarliki, bugungi kungacha mazkur masalaga deyarli e'tibor qaratilmayapti.*

2. *Hamma gap shundaki, "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning amalga oshirilishida hamon loqaydlik sezilmoqda.*

3. *Siz tadqiqotning qaysi usullaridan foydalangan bo'lsangiz, men ham o'sha usullar bilan tanishman.*

4. *... siz shuni yaxshi bilingki, kitobning o'rnini hech bir manba bosa olmaydi.*

5. *Mirishkor bog‘bonlar kech kuz pallasida, mevali daraxtlarga shakl beradilar.*

6. *Qayerda ilm va ilmlilar qadrlanmasa, u yerda nodonlik va johillar qadr topadi.*

7. *Amudaryo va Sirdaryo suvidan ilmiy asosda foydalanilmagani uchun Orol dengizining sathi nihoyatda pasayib ketdi.*

8. *Talabalar savodliligini oshirish uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish lozim bo‘ladi.*

9. *Qayerda ongli intizom bo‘lsa, shu yerda mehnat unumi yuqori bo‘ladi.*

10. *Turmush mashaqqatli bo‘lsa-da, inson kelajakka umid bilan boqadi.*

11. *Uning fikri shu darajada chuvalashib ketdiki, oqibat nima deyayotganini o‘zi ham bilmay qoldi.*

12. *Qushlarning chug‘ur-chug‘uriday, bolalarning qiy-chuvi avjiga chiqardi.*

13. *Vaqt o‘tgan sari, ahvol yanada og‘irlashar edi.*

14. *Toshkentda biror ishi o‘ngidan kelmay, biror maqsadi yuzaga chiqmay, yosh umri samarasiz o‘tdi, ketdi.*

Yuqorida ergashgan qo‘shma gaplar tarkibidagi tobe komponent, bosh gapga ergashib, uning yoki uning biror qismini aniqlash, belgilash vazifasini bajaradi. Ana shunday sintaktik konstruksiyadan iborat 14 tur ergashgan qo‘shma gapning har biri publitsistik og‘zaki nutqda uchraydi. Ular publitsistik yozma nutqqa ham xos. Biroq, nutq egasining individual nutqiy mahorati (tildan foydalanish iqtidori)ga ko‘ra yuqoridagi 14 shakl har bir turi publitsistik og‘zaki nutqda (og‘zaki nutq matni shakllanishi jarayonida) me‘yordan chetga chiqishi kuzatiladi. Bunday holatda publitsistik yozma nutqda me‘yoriy bo‘lmagan til vositalari ishtirok etadi: *yana; tag‘in; bilasizmi; bilingki; tejab-tergab; albatta* va h.k. Sinonim unsurlar ketma-ket qo‘llanadi: *chuvalashib, chalkashib; savodliligi, bilimdonligi; og‘irlashar, mushkillashar; ilmiy, oqilona* va h.k. Til birligining shakli o‘zgartiriladi, takror yuzaga keladi: *qadrlanmasa, qadr topmasa; intizom, intizomlilik* va h.k.

Matn tahririda publitsistik og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan til unsurlari, albatta, publitsistik yozma matnda qisqartiriladi, sinonimlardan mantiqan maqbuli qoldiriladi.

Publitsistik og‘zaki nutqning yana bir o‘ziga xos jihati, nutq egasi, agar zarurat bo‘lsa, birinchi jumla asosiy mazmunini ifoda etganidan so‘ng qo‘shimcha ilova etishidir. *Har bir talaba muntazam kitob o‘qib borar ekan, ayniqsa o‘quv adabiyotlarini, shubhasiz malakali mutaxassis bo‘lib yetishadi.* *

3-§. Publitsistik og‘zaki nutqning lug‘at tarkibi

Mazkur qismda publitsistik og‘zaki nutqdagi leksik birliklar asosiy tarkibi (avvalo, terminologik, nomenklaturaviy leksikalar) haqida so‘z boradi. Bular “yozma” uslub uchun ham ahamiyatli hisoblanadi. Zero, “og‘zaki shakl maxsus terminologiya va nomenklaturaviy leksikaning qimmatini sezilarli pasaytirmaydi”²⁶.

Bitta leksikadan iborat terminlarga emas, balki, publitsistik og‘zaki nutqda, ikki va undan ortiq so‘z birikmasidan tashkil topgan terminlar ham qo‘llanadi. Masalan, *mantiqiy tahlil, badiiy uslub, kasalga chidamli nav, mablag‘ aylanishi, daromad solig‘i* va b.

Publitsistik og‘zaki nutqda uslubiy cheklangan, so‘zlashuvga xos ma’nosi uslubiy bo‘yoqdor leksik-frazeologik birikmalarning qo‘llanishini so‘zlovchining nutqi kimlarga qaratilganligi bilan izohlanishi mumkin. Notiq tinglovchi uni tushunayotganligi, bayon etayotgan fikrni chalg‘itmasdan idrok etayotganligi, uning xulosalariga, mulohazalariga qo‘shilayotganligiga amin bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, notiq auditoriyaning tayyorlanganlik darajasi, yoshi, kayfiyati, ma’lumotlilik darajasi va b. ni hisobga olishi kerak.

Bular barchasi, birinchi galda tinglovchi o‘zini “jon qulog‘i bilan tinglashlariga erishish uchun intilish (siyosiy nutq sharoitida tinglovchini o‘ziga rom etish istagi) yozma nutqdagi andozaga aylanib ulgurgan shakllardan farqlanuvchi emotsional-ekspressiv nutqiy shakl va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

Og‘zaki matndagi ta’sirchan emotsional-subyektiv baho ifoda etuvchi ekspressiv vositalar leksik-frazeologik birliklar bo‘lib, ular ijobiy hamda salbiy baho ifodasiga egadir.

Bunday leksik hamda frazeologik birliklar ham kitobiy nutqda, ham so‘zlashuv nutqida birdek qo‘llanilishi mumkin. Masalan, kitobiy nutqda: *hayratomuz, aql bovar qilmaydigan, aqlga sig‘maydigan, ko‘z*

²⁶ Лаптева О.А. О языковых основаниях выделения и разграничения разновидностей современного русского литературного языка//Вопросы языкознания, 1984, 6-сон. – 60-б.

ko'rib, quloq eshitmagan daho (fanda), *soxta, oliy maqom, taniqli* va b.; so'zlashuv nutqida: *zo'r, gap yo'q, aldakasim, ketvorgan, yaxshi narsa* (shaxs), *jinni-sanqi* va b.

Publitsistik og'zaki nutqda ko'chimlardan, xususan, ko'chim turi bo'lgan metaforadan ancha faol foydalaniladi. *Har ikki partiyaning raqib partiya ichida o'z qulog'i bo'ladi.*

Men sizlarni ogohlantirgan edim, ichimizda *g'alamis bor, doimo hushyor bo'ling!* Og'zaki nutqda frazeologizmlar ham ko'pgina uchraydi. *Siyosiy muxoliflarimiz so'nggi paytlarda quyushqondan chiqib ketdilar ... G'arb ommaviy axborot vositalari Tramp raqiblarining tegirmoniga suv quymoqdalar ...*

Ko'chimlar hamda frazeologizmlardan foydalanish siyosiy so'zlamlik doirasida uchraydi. Siyosatdonlar omma oldidagi chiqishlarida tinglovchilar ongiga, hissiyotiga, jamoatchilik fikriga ta'sir etishga intiladilar.

Demak, og'zaki shakl publitsistik og'zaki nutq negizi hisoblanadi, uning matni guruhviy muloqot sharoitida shakllanadi.

4-§. Ommaviy axborotning og'zaki uslubi

XXI asr – axborot asri, axboriy inqiloblar jadallashgan davr. Mazkur davr kundalik turmushda ommaviy xabar tarqatishga, ma'lumotlarni zudlik bilan yetkazishga, millionlab kishilarni o'z domiga tortishga xizmat qilish uchun keng quloqchilik yoygan muloqotning turli-tuman texnikaviy vositalar kundalik hayotda tobora o'z hukmronligini mustahkamlayotgan davrga aylandi.

Ommaviy kommunikatsiya XX asrning ikkinchi yarmida nutqdan foydalanilishning yangi sohasi sifatida jadal rivojlanishni boshladi va bosma matn sanoati va madaniyatiga soya sola boshladi.

Bosma hamda elektron ommaviy axborot vositalarining, yangi kompyuter axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi va keng yoyilishi, ularning dunyo bo'ylab hech bir to'siqsiz tarqalishi, jahon axborot maydonining globallashuvi, shubhasiz verbal (so'z yordamida) matn yaratish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Albatta, bularning barchasi yangi nutqiy muloqotning, nutqning yangi shakllari yuzaga kelishiga, oxir-oqibatda, muayyan milliy til rivojiga ta'sir etmay qolmaydi.

Ommaviy axborot lingvistikasining dolzarb masalalarini tadqiq etuvchilar fikricha “ommaviy axborot matni yoki mediamatn bugungi kunda eng tarqalgan iste’molda bo’lish shakllaridan bo’lib qoladi”²⁷.

Ommaviy muloqot negizida 20-asrning 2-yarmida adabiy nutq rivojida sezilarli o’zgarishlar yuz beradi. Adabiy nutqda yangi funksiyaviy uslubiy birliklar shakllandi: radionutq, telenutq, kino (hujjatli) nutq. Mazkur funksiyaviy turlar kitobiy nutq og’zaki sohasiga taalluqli bo’lib, publitsistik og’zaki nutq bilan umumiy xususiyatlarga ega. Avvalo, og’zaki amalga oshiriladi, ommaviy muloqotda amalda bo’ladi. Rasmiy-ish yuritish ilmiy, publitsistik yozma nutqlar bilan umumiylikka ega. Nutqiy muloqotda qayd etilgan uslubiy uch turning birortasi bilan ham aniq ayniylik kasb etmaydi, bu hol ma’muriy-huquqiy, akademik, siyosiy so’zamollik turlarida kuzatiladi. Nutqiy tuzilishiga ko’ra og’zaki nutq sifatida alohida o’rin tutadi, buni yozma nutqga qiyosan yaqqol ko’rish mumkin. Mazkur tur publitsistik nutqda boshqa funksiyaviy turlarga xos kuchli ta’sirchanlik unsurlari albatta ishtirok etadi.

Ommaviy axborotda qo’llanuvchi funksiyaviy turlardan publitsistik og’zaki nutq farqlanuvchi jihatlar ham mavjud, bular quyidagicha:

1. Ommaviy muloqotda: o’z ekstralingvistik negiziga ko’ra;
2. Funksiyaviy-muloqiy tavsifiga ko’ra, shu jumladan, matn tuzish hamda bayon etilishiga ko’ra;
3. Bir qator o’ziga xos konstruktiv jihatlar, matn tuzilishiga ko’ra.

Yangi funksiyaviy uslublarning o’ziga xosliklarini ommaviy muloqotda nutq yordamida axborot uzatish elektron vositalarining texnikaviy xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Bu na xat, na og’zaki nutq, bevosita bog’lanishli muloqot emas, balki, maxsus texnikaviy vositalar yordamida uzatiladigan og’zaki nutq, xolos. Ana shu texnikaviy vositalar matn tuzilishining o’ziga xos sharoitini, til vositalaridan foydalanish tarzini belgilaydi.

Ommaviy axborot uzatishning texnika vositalaridagi og’zaki nutq, uning uslubi, nutqning yuzaga kelish sharoiti, shakllanishi, konstruktiv jihatlar alohida mavjud hisoblanadi va bu haqda keyingi bobda so’z boradi.

²⁷ Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов. —Москва: 2000. —7-б.

Ogʻzaki nutq matnlari ommaviy axborot uchun moʻljallangan boʻladi. Bu nutqning yuzaga kelishi, ifoda etilishi va nutq hamda matnning muloqiy sharoiti va maydonini belgilovchi omil hisoblanadi.

Nutq, nutq egasi bilan auditoriya, mutlaqo, bir-biridan ayri holda boʻlgan sharoitda yuzaga keladi.

Nutq qaratilgan auditoriya Olimpiada oʻyinlari, jahon birinchiligi uchun sport musobaqalari (futbol, boks va b.) vaqtida ommaviy, soni millionlab boʻladi. Bunday sharoitda tezkor qayta aloqa mavjud emas. Soʻzlovchi bilan tinglovchi oʻrtasidagi qayta aloqa vaqtida bogʻliq internet, telefon yoki OAV tahririyatiga xat yuborish yoʻli bilan oʻrnatilishi mumkin.

Matnni uzatish elektron vositalarining texnikaviy tomoni radio, televideniye va kinonutqning boshqa unsurlar bilan birgalikda amalga oshirishga imkon beradi.

Masalan, radionutq soʻz va tovush qatori, televideniyedagi matn hamda kinomatn soʻz, tovush va tasvir qatori bilan uzatiladi.

Radionutq – ommaviy axborotning ogʻzaki funksiyaviy uslubi. Uning tuzilishi nutq vositalarini tanlash asosiy tamoyillari (intonatsiya – fonetika, grammatik – asosan, sintaksis, leksika-frazeologiya) ulardagi oʻzaro bogʻlanish, birikish bilan bogʻliq. Bu bogʻliqlik radioeshittirishda nutqni texnikaviy uzatish xususiyati hamda nutq ommaviy auditoriyaga qaratilganligi bilan oʻziga xoslik kasb etadi. Radiomatndagi asosiy shakl – monolog. Radiodagi zamonaviy jurnalistika nutqda interfaollikka intilsa-da, keng ommaga qaratilgan boʻlsa-da, oʻzining kommunikativligiga koʻra, tabiatan monologligicha qoladi.

Interfaollik ommaviy axborot ogʻzaki matnini tuzishda “tomonlar ishtiroki albatta boʻlishini taqozo etadi hamda mazmundor nutqiy oʻzaro faollikni talab qiladi. Natijada, matnning bunday tuzilishida dialog nutq unsurlari tuzuvchilik vazifasini bajaradi. Zamonaviy ommaviy axborot elektron vositalarida, xususan, radioda ham keng qoʻllanadigan janrlar – intervyu, suhbat, “doira stol”, munozara (siyosatga oid dolzarb masalalar xususida), mutaxassislar ishtirokidagi turli mavzularga bagʻishlangan eshittirishlar, radiotinglovchilar berilib tinglaydigan oʻyinlar, reportajlar, radiotinglovchilarning fikr bildirishlari, hodisa ishtirokchilarining guvohliklari va h.k. bunga yaqqol misol boʻladi.

Matn tuzuvchi, nutq ijod qiluvchi (ijrochi, radiomikrofon oldida soʻzlovchi) matnni tinglovchiga “yaqinlashtirish”ga uni qiziqtirishga, ishontirishga, uning ongiga taʼsir etishga, his-hayajon uygʻotishga intiladi. Bu radionutqning funksiyaviy maqsadiga toʻla mos keladi.

Radionutqning samaradorligini oʻshiruvchi nutqiy vositalardan biri *dialogdir*, radiotinglovchilarga murojaat, elliptik konstruksiyalar tuzish, soʻz-gap (atov gap), maʼnosi va intonatsiyaga koʻra alohida taʼkidga ega sintaktik konstruksiyalar shunday nutqiy unsurlar hisoblanadi. Masalan, *Istiqbolda, maqsadlarimiz koʻp. Juda ulkan. Omonov, u hamisha faol-ku!*

Radionutqda *inversiya*, *sinonimlar*, emotsional-ekspressiv boʻyoqqa ega soʻzlar, iboralar, soʻzlovchining narsa, hodisaga subyektiv munosabatini ifoda etuvchi subyektiv munosabatini ifoda etuvchi sintaktik konstruksiyalar kabi til vositalari faol qoʻllanadi.

Fonetik hodisa – intonatsiyaning radionutqda ahamiyati katta. Har bir tur ogʻzaki nutqda boʻlgani kabi radionutqda ham intonatsiya hayajonni, baholashni (ayni soʻzlashuv nutqidagi kabi) yagona ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Intonatsiya radionutqda qoʻshimcha, verbal boʻlmagan, xabar yetkazadi va bu bilan aytilganni chuqur idroklashga imkon yaratadi.

“Ogʻzaki nutq yozma nutqdan, avvalo, intonatsiyaga koʻra farqlanadi”²⁸, – degan fikrga toʻla qoʻshilish mumkin. Agar intonatsiyasiz nutq nimani ifoda etadi, degan savolga javob bersa, intonatsiyali nutq “nima”ni qanday ifodalaydi, degan savolga javob beradi. Shu maʼnoda radionutqda boshqa funksiyaviy nutq turlaridagiga qaraganda orfoepiya va intonatsiya alohida oʻrin tutadi. Chunki ana shu nutqiy hodisalar soʻz va iboralarning, sintaktik konstruksiyalarning aniq va jarangdorligini taʼminlaydi. Albatta nutq vositalari aniqligi deganda soʻzlar, iboralar (frazologizmlar), grammatik shakllar, sintaktik konstruksiyalar, nutq ohangdor-musiqiyligi, intonatsiyali konstruksiyalar va b. xabarni, biron-bir maʼlumotni aniq-tiniq, ifodali, taʼkidlangan maʼnoli holda emotsional-ekspressiv taʼsirchan shaklda yetkazadi.

Omofonlar radionutqda (umuman, soʻzlashuv nutqida ham) ogʻzaki nutqni aniq farqlashni qiyinlashtiradi. Bunga sabab omofonlardagi oʻzaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada boʻladi,

²⁸ *Qarang:* Андроников И.Л. Устное слово в эфире. – Москва: 1981.

lekin bu fonemalar talaffuzda bir-biriga juda yaqin turadi, shunga ko'ra ular bir xil talaffuzli bo'ladi: *tub – tup, yod – yot, qarab – qarap, tanbal – tambal, ta'qib – ta'qip, kitob – kitop, obod – obot*.

Og'zaki nutqda shunday omonim so'z birikmalar uchraydiki, intonatsiya tufayli hech kutilmagan ma'no ifoda yuzaga chiqadi. Masalan, Soat nechchi bo'ldi? O'nta kam bir – O'nta kampir; Hafsalasi pir bo'ldi – Xapsalasi pir bo'ldi (pir so'zi – urg'usiz *i* bilan *qari* ma'nosi ifodasini bersa, urg'u bilan *ustoz* ma'no ifodasini beradi). Intonatsiyaga ko'ra so'z tarkibidagi jarangli tovushning jargonsizlanishi natijasida umuman boshqa ma'no ifodasiga ega so'z hosil bo'ladi: *sudxo 'r – sutxo 'r*.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, matnning tovush tomoni alohida ahamiyatga ega ekan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Og'zaki funksiyaviy nutqning qanday turi bor?
2. Og'zaki nutqda jumla tuzish qanday kechadi?
3. Publitsistik og'zaki nutqda qaysi tur qo'shma gap ko'proq uchraydi?
4. Og'zaki publitsistik nutqdagi tayanch so'zlarga misollar keltiring.
5. Og'zaki nutqda frazeologizmlar qanday funksiyani bajaradi?
6. Ommaviy muloqot olib boriladigan og'zaki nutqni ta'riflang.
7. Uch tur OAV nutqi qanday xususiyatga ega.
8. Og'zaki nutqda talaffuzning o'rni va ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

8-BOB. TIL VOSITALARIDAN USLUBIY FOYDALANISH

REJA

1. Soʻzning leksik va grammatik maʼnolari.
2. Soʻzlarning maʼnoga koʻra turlari.
3. Omonimlar, omograflarning uslubiy imkoniyatlari.
4. Sinonimlarning uslubiy funksiyasi.
5. Sinonimlardan badiiy nutqda uslubiy foydalanish.
6. Antonimlar va ularning uslubiy imkoniyatlari.
7. Talaffuzi oʻxshash, maʼnosi farqli soʻzlardan uslubiy foydalanish.
8. Oʻz tilga oʻzlashgan soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi.
9. Nutq jarayonida jargonlar va argonlardan uslubiy maqsadda foydalanish.
10. Frazologik birliklar uslubiy vosita sifatida.

1-§. Umumiy taʼrif

Soʻz nutq vositalaridan biri sifatida tilning lugʻat boyligini tashkil etadi. Soʻz leksik hamda grammatik maʼnoga ega. “Soʻzning obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat haqidagi maʼlumoti leksik maʼno deyiladi”²⁹.

Leksik maʼno umumlashgan tasvirga ega, chunki, u aniq bir narsa, belgi-harakatni ifoda etmay, bir tur boʻlganlar barchasini ifoda etadi. Masalan, *oʻqituvchi* deganda, bir muayyan bir shaxs emas, balki, taʼlim sohasida dars berishga ixtisoslashgan har shaxs koʻzda tutilgan boʻladi. Tarkibli nomlar, shu jumladan, terminlar ham leksik birlik sanaladi. Masalan, *ommaviy axborot*, *oʻquv adabiyotlari*, *ommaviy axborot vositalari*, *soʻz turkumlari*, *axborot elektron vositalari*, *nashriyot-matbaa ijodiy uyi*. Albatta bunday tarkibli nomlar sintaktik jihatdan ajralmasdir. Bular gap tarkibida uning bitta qismi vazifasida keladi. Masalan, *ommaviy axborot vositalari kishilar ongiga katta taʼsir oʻtkazmoqda*, jumlasida *ommaviy axborot vositalari* ega vazifasida kelgan.

Leksik birikmalardan uslubiy foydalanishda ularga xos boʻlgan turli jihatlar sabab boʻladi:

— ularning maʼno ifodasi;

²⁹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. —T.: Oʻqituvchi, 1980. —104-b.

- kelib chiqishi;
- oʻtmishdagi va hozirgi tilga munosabati;
- qoʻllash sohasi;
- emotsional-baholash imkoniyati;
- birikmaga kirishishi va h.k.

2-§. Bir maʼnolik va koʻp maʼnolikdan uslubiy foydalanish

Soʻzlar bir maʼnoli va koʻp maʼnoli boʻladi. Terminlar, odatda, bir maʼnoli hisoblanadi: *lingvistik* (*abbreviatura* – murakkab qisqartma soʻz), *matematika* (*maxraj* – kasr son boʻluvchisi), *fizika* (*gers* – tezlanish tezligini oʻlchash birligi). Umumisteʼmolda ham bir maʼnoli soʻzlar koʻpgina uchraydi: *doʻppi*, *muz* va b.

Tilning lugʻat tarkibida ikki, uch va undan ortiq maʼnoli soʻzlar ham koʻpgina: yoriq (*tirqish*, *mur*), koʻr (feʼl, sifat), oʻtkir (*kuchli*, *keskir*, *aqlli*) va b.

Badiiy nutqda bir va koʻp maʼnoli soʻzlardan soʻz oʻyinida foydalaniladi. Masalan, *U qotib uxladi*; *Bu haqda koʻp bosh qotirdim*; *U, shubhasiz, ishni qotiradi*; *Men juda sovuq qotdim*; *Bir soʻz deyolmadim, tilim qotdi*; *Koʻzlarimga ishonmay qotib qoldim*; *Vaqtida quyib ulgurilmasa, qorilgan beton qotib qoladi*.

Qotmoq soʻzi birinchi misolda *kuchli*, ikkinchi misolda *oʻylamoq*, uchinchi misolda *yaxshi bajarmoq*, toʻrtinchi misolda *harakatlanmay qolmoq*, beshinchi misolda *hushsiz holat* maʼno ifodasini bergan. Faqat beshinchi misolda oʻz genetik maʼnosida kelgan.

Oʻzbek tili tub (denotativ) maʼnoli soʻzlardan tashqari, qoʻshimcha (konnotativ) maʼnoli soʻzlarga juda boy, bunday maʼnolar his-hayajon ifodasiga, baholash, bir tushuncha bilan boshqa tushunchani ifodalash va uslubiy xususiyatlarga ega.

Soʻz maʼnosidagi bunday muchalar asosiy maʼnosini qoʻshimcha emotsional-ekspressiv ifoda bilan toʻldiradi. Bunday soʻzlar maʼnosi boʻyoqdor soʻzlar, deb ham ataladi. Konnotativ mucha leksik maʼnoga soʻzlovchining xususiyati (mentaliteti) taʼsirida boʻyoqdorlikni “yuqtiradi”, bunga atrof muhit, vaziyat, jumla qurilishi ham sabab boʻladi. Konnotativ mucha soʻzda hech bir kutilmagan hollarda yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *Mayin esgan shabbodada terakning barglari ohista shivirlaydi. Notiq soʻzlarini zal vujudi quloq boʻlib tinglardi*.

Yuqoridagi birinchi misolda tovushga taqlidan yaproqlarning ohista shildirashi insonning *so'zlashi (shivirlashi)*ga o'xshatilgan. Ikkinchi misolda *zal* so'zi orqali zalni *to'ldirib o'tirgan odamlar* nazarda tutilgan.

3-§. Omonimlardan uslubiy foydalanish

Ma'lumki, omonimlar ma'nosi turlicha, talaffuzi o'xshash so'zlardir, ular grammatik jihatdan ham, yozilishida shakliga ko'ra ham bir xillikka ega: *haq (evaz); haq (chin); haq (yaratgan); auditoriya (darsxona), auditoriya (nutq qaratilgan omma)*. Ko'p ma'noli so'zlardan farqli o'laroq (bular ma'nolari bir-biriga bog'liq bo'ladi) omonimlarning ma'nolarida hech qanday umumiylik yo'q, garchi bir so'z turkumiga mansub bo'lsalar-da.

Omonimlarga ikki til hodisasi yaqin turadi. Biri omofonlar (o'xshash tovushli), ikkinchisi omograflar (o'xshash yozilishli): *boq* (qara), *boq* (yedirmoq); *aksiya* (qimmatdor qog'oz), *aksiya* (harakat), *jildirmoq* (joydan qo'zg'atmoq), *jildirmoq* (ishdan ketkazmoq), *ko'tarmoq* (yerdan uzmoq), *ko'tarmoq* (chidamoq) va b.

Omograflar garchi bir xil yozilsa-da, **ma'nosi va talaffuzi farqlanuvchi til hodisasidir: akademik** (ot), **akademik** (sifat).

Yozuvchilar, notiqalar omofon va omograflardan omonim turi sifatida, ulardan ta'sirchanlik vositasi sifatida foydalanadilar. Masalan, so'z o'yini qilishda, ko'ngilochar hangomada, askiyada. Omonimlar nutqga jonlilik, joziba, so'zlovchi uslubiga individuallik bag'ishlaydi.

Biror shaxsga qaysidir narsaga, jonivorga o'xshash jihatiga ko'ra taqalغان laqabdan farq qilib, o'zbeklarda uchraydigan ayrim ismlar ma'no ifodasida ijobiy yoki betaraf munosabat ayonlashadi: *Men kecha (Bo'ri)ga to'qnash kelib qoldim*. Mazkur misolda kim kimga/nimaga to'qnash kelgani ayn emas. Buni faqat talaffuzga ko'ra anglash mumkin. Agar *bo'ri* so'zi talaffuzida qo'rquv, vahima ohangi ishtirok etsa, demak, jonivor anglashiladi. Mabodo xotirjamlik ohangi bo'lsa, bo'ri ismli shaxs tushiniladi. Albatta, obyektga bo'lgan munosabat, shu obyektga nisbatan odatiy bo'lsa. Agar jonivor nomi talaffuziga xos ohang shaxs ismi talaffuziga hamohang bo'lsa, unda munosabat salbiyligi ayon bo'ladi. Demak, subyektning obyektga bo'lgan munosabati ijobiy emas. Ko'rinadiki, omonim va uning turlarining ham nutq jarayonida uslubiy imkoniyatlari yuzaga chiqar ekan.

4-§. Sinonimlardan uslubiy vosita sifatida foydalanish

Ma'nosiga ko'ra aynan yoki yaqin bo'lgan so'zlar sinonimlar deyiladi. Ayni bir xil ma'no'larga terminlar kiradi: *defis* – *chiziqcha*: *ko'tara* – *ulgurji*; *avans* – *bo'nak*; *chashma* – *buloq* va b. Bunday to'liq sinonimlar ilm sohasida, badiiyatda uchraydi, garchi bu maqbul bo'lmasa-da. Oddiy so'zlashuvda ham to'liq sinonimlar uchraydi: *solnoma* – *yilnoma*; *kiyim* – *engil*; *uzoq* – *olis*; *ozg'in* – *xipcha* va b.

Ma'nosi yaqin (ma'noviy va uslubiy farqlanuvchi) so'zlar ikkinchi guruh sinonimlarni tashkil etadi: *eshitmoq*, *tinglamoq*; *kulmoq*, *jilmaymoq* va h.k.

Sinonimlar sinonimik qatorni tashkil etadi. Har bir qator, odatda, keng tushunchaga ega, uslubga, emotsional-ekspressivlikka ko'ra betaraf bo'lgan so'zdan boshlanadi, bu so'z qatordagi asosiy (bosh) so'z hisoblanadi. Masalan: *Avvalgi tuzum davrida unga maddohlik qilganlar, uning mafkurasini qo'llab-quvvatlab ijod qilganlar mustaqillikka erishilgandan so'ng uni mutloq inkor eta boshladilar.*

Mazkur misol tarkibida kelgan *avvalgi* so'zi sinonimik qatordagi so'zlar ichida asosiy hisoblanadi, ya'ni *avvalgi*, *oldingi*, *ilgarigi*, *burungi*, *qadimgi*, *sobiq*.

Mazkur sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar "*o'tgan*" ma'no ifodasiga ko'ra birlashgan (qatorni tashkil etgan).

"*Oldingi* – so'zlashuv uslubiga xos. *Avvalgi*, *oldingi* so'zlari yaqinda bo'lib o'tgan, yaqin o'tmishga oid harakat-hodisalarga nisbatan qo'llanadi. *Ilgarigi* so'zida o'tmishi *avvalgi*, *oldingi* so'zlaridagiga nisbatan uzoqroq bo'ladi. *Burungi* – ilgarigi so'ziga nisbatan ham uzoqroq, o'tmishni bildiradi. *Qadimgi* so'zida o'tmish ma'nosi *burungi* so'zidagiga nisbatan ham uzoqroq bo'ladi"³⁰.

Sobiq so'zi asosan publitsistik uslubda qo'llanadi: *Sobiq tuzum*, *sobiq siyosatchi* va b.

Mohiyat va hodisa ekanligiga ko'ra sinonimlar farqlanadi. Tildagi sinonimlar mohiyatiga ko'ra tilga taalluqli, til birligi hisoblanadi. Ular amalda mavjud qatorni tashkil etadi va bu qatorda til tizimi belgilab bergan o'rini egallaydi. Bunga yuqorida keltirilgan sinonimik qator yaqqol misol bo'ladi.

Nutqiy (hodisa) sinonimlar faqat muayyan kontekstda uchraydi. Ular nutq egasi (muallif)ning ijod mahsuli bo'lib, tilda mavjud so'zga

³⁰ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: Fan, 1963. –20-b.

nisbatan sinonim hisoblanadi: *kutubxona* – *nurxona*; *ta'lim muassasasi* – *ziyo maskani*; *paxta* – *oq oltin* va b.

Ma'nosiga ko'ra turlicha bo'lgan so'zlar so'zlashuv yoki yozuvchining semantik yaqinlashtiruvi natijasidagi kontekstual sinonimlar nutqiy sinonimlarga yaqin turadi: *Menga bir xayol hech tinchlik bermaydi: poraxo'rlik, tamagirlik, manmanlik, surbetlik va boshqa imkonsizliklar qachon yo'qolib bitar ekan!*

Albatta, *poraxo'rlik, tamagirlik, manmanlik, surbetlik* kontekstdan tashqari olib qaralsa, sinonim hisoblanmaydi. Lekin, ular yuqoridagi kontekstda umumiy bo'lgan salbiy, g'ayriinsoniy, g'ayriijtimoiy ma'noga ko'ra kontekstual sinonimik qatorni tashkil etadi.

Ba'zan eshitib yoki o'qib qolinadi, kimningdir ismi nimanidir sinonimi bo'lib qoladi. Masalan, uning ismini kim ham bilmaydi? Bu ism ... *korruptsiya, poraxo'rlik, buzug'lik* sinonimi bo'lib qolgan. *Stalin* – *qatag'on*; *Brejnev* – *turg'unlik*; *Gorbachev* – *qayta qurish, paxta ishi*; *Nishonov* – *qulupnay*; *Gdlyan* – *markazning iti* va h.k. Albatta, muayyan kimsaning familiyasi chindan ham *qatag'on, turg'unlik, qayta qurish, paxta ishi, qulupnay, markazning iti* kabi so'z va so'z birikmalarining haqiqatdan ham sinonimi emas. Bu holatda gap obrazli ifodada, bir tasavvurning boshqa tasavvurni tug'dirishida. Yuqorida qayd etilgan familiyalar jamiyat ongida yurtimiz tarixining muayyan davrida qoldirgan tasavvuri mahsulidir. Jahon jurnalistikasi tarixida ham bunday holatni kuzatish mumkin: *jurnalistlar* – *qo'riqchi itlar*; *jurnalist* – *axlat tituvchi*; *jurnalistlar* – *qonunchilikni saqlovchilar*; *jurnalistika* – *to'rtinchi hokimiyat* va b.

Sinonimlarning uslubiy funksiyasi turli-tumandir. Avvalo, ulardan nutqda bir xillik bo'lmasligi, ayni bir so'z qayta takrorlanmasligi – taftologiyaga yo'l qo'ymaslik uchun foydalaniladi.

Ma'lumki, so'zlovchi ham, yozuvchi ham ko'pincha jumla oxirida *kerak* to'liqsiz fe'lini qo'llaydi. Bu shakl harakat bajarilishining talab etilishini, talabdagi holatda ekanini bildiradi: *ishlash kerak, o'qish kerak*. Bugungi kun matbuotida ham, adabiy asarlar matnida ham *kerak* so'zini takrorlamaslik maqsadida ketma-ket kelgan jumalarda u *lozim, zarur* so'zlari bilan almashtirilgani kuzatiladi. Ulardan sinonim sifatida foydalanish, asosan, takrorga yo'l qo'ymaslik maqsadiga qaratiladi. Vaholanki, harakatni bajarilishi talab etilishi nazarda tutilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Sinonimlar subyektning obyektga bo'lgan munosabatini ham ifoda etadi. Munosabat ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin: *urush itlari*. O'zga yurtlarda yollanib urush harakatlarida ishtirok etuvchilar — yollanganlar. *Bulbulchadan o'rgilay, biram ovozi shiraliki! Bulbulcha — yosh qo'shiqchi*.

Sinonimlar tushunchani aniqlashtirishga, fikrni ravshanlashtirishga xizmat qiladi. Bu holni rasmiy hujjatlarda ham, oddiy so'zlashuvda ham ko'rish mumkin.

Elektr energiyasidan foydalanuvchi shaxslar (iste'molchilar) to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmasalar, ularga nisbatan qonunda belgilangan tartibda chora ko'riladi. Agar ota-onasining aytganini xohlamayotgan bo'lsa, unda ko'z ostiga olgani (sevgani) bordir.

Sinonimlar matn, nutq mazmuniga hazilomuzlik bag'ishlaydi:

— *Xo'sh, sizni shakkoklikda ayblamoq uchun ularda hech asos bormi? — so'radi Navoiy kulib Sultonmuroddan. (Oybek).*

Badiiy nutqda sinonimlar yuqori ta'sirchanlikka erishishni ta'minlaydi. "... otasi o'g'liga termulib qaradi; ... u termulib boqishi bilan allanimalarni tushuntirmoqchi bo'ladi. Bu misollarda ayni bir tushunchani ifodalovchi so'zlar biri ikkinchisining belgisini ifoda etolmaydi, lekin badiiy nutqda shunday qo'llanish uchraydi.

Xullas, sinonimlar tilning boyligini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Ular nutqda "... fikrni aniq ifodalashga, subyektning o'zi ifodalayotgan fikrni aniq ifodalashga, subyektning o'zi fikr yuritayotgan obyektga munosabatini aniq ko'rsatib berishga katta imkon tug'diradi va, aksincha, sinonimlarni to'g'ri farqlay olmaslik, ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llamaslik fikr ifodasining chigalligiga, hatto, noto'g'ri bo'lishiga sabab bo'ladi"³¹.

Badiiy asarlarda aytilmoqchi bo'lgan fikr ifodasiga yuqori darajada ta'sirchanlik bag'ishlash maqsadida til va nutqdagi sinonimlarni tizib chiqish usulidan foydalaniladi.

*... Dilrabolardin yamonliq keldi mahzun ko'nglima,
Kelmadi jonimg'a hech oramijondin yaxshiliq.
Ey ko'ngil, chin yaxshidin ko'rding yamonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmoq ne, ya'ni har yamondin yaxshiliq?!*

³¹ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha izohli lug'ati.—T.:Fan, 1963. — 8-b.

*Bori elga yaxshiliq qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,
Kim degaylar, dahr aro qoldi falondin yaxshiliq.
Yaxshiliq ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdir, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshiliq.*

(Bobur)

G'azal misralaridagi ta'kid etilgan *oromijondin, yaxshidin, yamondin, falondin, ahli jahondin* so'z va so'z birikmalari intertekstual sinonimik qatorni, ularni birlashtiruvchi umumiy – inson ma'nosiga ko'ra tashkil etadi.

5-§. Antonimlardan uslubiy vosita sifatida foydalanish

Zid ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. Sifat belgisi ifodasini beruvchi so'zlar zid munosabatda bo'lishi mumkin: *qo'rs* (dag'al muomalali) – *shirish* so'z (xush muomalali); *yengiltak* (yuzaki fikrlovchi; o'ylamay so'zlovchi, xatti-harakatlar sodir etuvchi) – *vazmin* (chuqur fikrlovchi, shoshilmay xulosa chiqaruvchi, xatti-harakat sodir etuvchi), *manqurt* (o'zligini unutgan, so'zsiz itoat etuvchi, qarindosh-urug', millati bilan butkul aloqani uzgan) – *yurtparvar* (eli-yurtiga sodiq).

Ayrim so'zlar o'z ma'nosini tashkil etuvchi biror muchasi bilan boshqa bir so'zga antonim bo'lishi mumkin: *Qattiq yerdan qatqalab chiqqan boychechak ...* – *qattiq odam* (*pishiqlik, qurumsok, ziqna, qizg'anchilik*).

Yuqorida keltirilgan turli o'zakli antonimlardan tashqari, bir o'zakli antonimlar ham uchraydi. Masalan, *tinch* – *notinch*; *qulay* – *noqulay*; *aqlli* – *aqlsiz*; *suqli* – *suvsiz* va b. Albatta yuqoridagi so'zlar tub ma'nosiga ko'ra antonimlik munosabatiga kirishmaydi, balki so'z yasovchi qo'shimcha tufayli inkor ma'no ifodasiga ega bo'lgan o'zak bilan antonimlik munosabatiga kirishadi. Boshqacha aytganda, hosila ma'noli o'zak leksik ma'nosiga ko'ra emas, so'z yasovchi qo'shimchalar tufayli zid ma'nolar yuzaga chiqadi. *-no*, *-li*, *-siz* shunday qo'shimchalar hisoblanadi.

Bir so'z ikki yoki undan ortiq sinonim so'zlar bilan antonim bo'lishi mumkin. Masalan: *ixcham* – *qo'pol*, *beo'xshov*; *qotma* – *yo'g'on*, *semiz*, *xo'ppoz*; *qo'rqqoq* – *botir*, *dovyurak*, *dadil*, *jasur*, *yurakli*.

Antonimlar, hamon ma'nodagi zidlikka asoslanar ekan, bu hodisa faqat bir turkumdagi so'zlar doirasi bilan cheklanadi: *do'st – dushman, bormoq – kelmoq, yuqori – past, issiq – sovuq; ijobiy – salbiy, och – to'q*.

Belgi bildiruvchi so'zlar (sifat, ravishlar) antonimlikni yuzaga chiqaradi. Ot hamda fe'l turkumi doirasidagi sanoqli so'zlarga, shunda ham faqat belgilaridagi zidlikka ko'ra antonimlarni yuzaga keltiradi. Masalan, *kun – tun* (yorug'lik va qorong'ulik belgisi); *kelmoq – ketmoq* (yo'nalish qarama-qarshilik belgisi) kabi³².

Bir-biriga antonim bo'lgan so'zlar haqida gap borganda so'zning barcha ma'nolari emas, balki birgina muchasi nazarda tutiladi. Masalan, *havo sovuq* (iqlimga xos belgi), *turqi sovuq* (odamning yuz ko'rinishiga xos belgi); *havo issiq* (iqlimga xos belgi), *istarasi issiq* (odamning yuz ko'rinishiga xos belgi). Bunda faqat iqlimga xos belgi ifoda etuvchi so'zlar – *sovuq* va *issiq*, inson qiyofasiga xos belgi ifoda etuvchi *issiq* va *sovuq* so'zi antonim bo'la oladi. Iqlimga xos belgini ifoda etuvchi *sovuq* so'zining tub ma'nosi insonga xos belgi ifoda etuvchi *issiq* so'z ma'nosiga antonim bo'la olmaydi. Chunki, insonga nisbatan *issiq* so'zi ko'chma ma'noda qo'llanadi. *Sovuq* so'zida ham xuddi shunga o'xshash holatni ko'ramiz. Demak, so'zlar tub ma'nolari bilan ular ko'chma ma'nolari bir-biriga zid bo'la olmas ekan. Yana misol keltiramiz: *Bugun havo ancha iliqlashdi. Har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabat ancha iliqlashdi*. Har ikki misolda *iliqlashmoq* fe'li qo'llangan. Birinchisi to'g'ri ma'noda (harorat belgisi), ikkinchisi ko'chma ma'noda (munosabat belgisi). Harorat belgisi ifodasini beruvchi so'z, ayni shu haroratga xos belgi ifodasiga ega so'z (*sovuqlashdi*) ga antonim bo'la oladi, munosabat belgisi ifodasini beruvchi so'z (*sovuqlashdi*) ga esa antonim hisoblanmaydi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar o'z ma'nolari ziddini ifoda etuvchi boshqa sinonimik qatordagi so'zlarga antonim hisoblanadi: *botir, dovyurak, dadil, jasur, qo'rqq, yuraksiz, botinolmas, jur'atsiz*.

Antonimlar ham sinonimlar singari tildagi va nutqdagiga farqlanadi. Til tizimiga kirgan va maxsus lug'atlarda jamlangan antonimlar tildagi antonimlar deyiladi, ulardan xohishga ko'ra barcha birdek foydalanadi. Nutqiy antonimlar esa faqat nutq egasining

³² *Qarang:* Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1980. –119-b.

ma'noga ko'ra ziddini ifodalashi yoki matnda kelishi mumkin, nutq va matndan tashqarida esa mutlaqo antonimlikka ega bo'lmaydi. Masalan: *Bu yerga qancha kuch, vaqt, mablag' sarf bo'ldi, yaxshi bo'lsin deb, lekin hech narsa o'zgarmadi, hammasi avvalgidek.* Mazkur gapda yaxshi so'zi avvalgidek so'ziga antonim qilib qo'yilgan. Tilda bu so'zlar mutlaqo bir-biriga zid ma'noli emas.

Tildagi hamda nutqiy antonimlar maqol, matal va hikmatlar, shuningdek, iboralarida zidlikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

1. *To'q bola och bola bilan o'ynamaydi.*
2. *To'rtovlon to'da bo'lsa, tepadagin undirar,*
Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar.
3. *Oltin, kumush tosh ekan,*
Arpa bug'doy osh ekan.
4. *Bu – do'stlik bo'lmaydi,*
Bu – qasdlik bo'ladi.

Birinci misoldagi to'q va och so'zlari tilning leksik tizimiga xos antonimlar. Ikkinchi misoldagi undirar, oldirar so'zlari faqat maqol tarkibidagina antonimlar, undan tashqarida mutlaqo zidlikka ega emas. Uchinchi misoldagi tosh va osh so'zlari ham, to'rtinchi misoldagi do'stlik, qasdlik so'zlari faqat maqol tarkibida hamda nutq jarayonida antonimdir. Lavozimga tayinlanish va lavozimdan ozod qilish vakolati ... ga berilgan va b.

Til tizimiga kirgan frazeologizmlar ham bir-biri bilan antonimik munosabatga kirishadi: *Chehrasi ochiq – qovog'idan qor yog'adi;* *Ko'cha xandon – uy zindon;*

Til tizimidagi so'z shu tizimdagi ibora bilan antonim bo'ladi: *sodda – ilonmi yog'ini yalagan;* *bo'shang – yerga ursang ko'kka sapchiydi;* *sxhiy – qishda qor so'rasang bermaydi;* *baxil – qo'li ochiq;*

Til tizimida talaffuzi o'xshash, ma'nosi farqli so'zlar uchraydi, bular **paronim** ataladi: *afzal – abzal,* *parq – farq,* *amr – amir,* *fakt – pakt* va b. Bugungi kunda ko'plab chet tillarga oid so'zlar o'zlashmoqda, ular orasida paronimlar ham uchraydi: *lizing – listing,* bu ikkinchisining o'zagi boshqa-boshqa: *lizing* – inglizcha lease – ijaraga bermoq; nimanidir ijaraga, qarzgga asta-sekin uzishlik sharti bilan bermoq; *listing,* bu ham inglizcha – ro'yxat tuzmoq, qimmatdor qog'ozlarni birjaga chiqarmoq. Adabiy nutqda paronimiya talaffuz me'yorini yaxshi bilmaslik oqibatida uslubiy xatoga sabab bo'ladi.

Paronimlardan kesatiq maqsadida foydalaniladi: *xizr* – *xinzr*; *xizr* – diniy aqidaga ko‘ra insonlarga quruqlikda homiylik (yaxshilik) qiluvchi; *xinzr* – *to‘ng‘iz*. Ana shunday birgina tovush farq qiluvchi, ammo talaffuzda farqlovchi tovush tushib qoluvchi so‘zlar ham mavjud: *bo‘sa* – *bo‘lsa*. *Bo‘sa* – ot turkumiga xos, *o‘pich* ma‘no ifodasini beradi; *bo‘lsa* – fe‘l turkumiga xos, *bo‘lmoq*, –*sa* qo‘shimchasi yordamida shart maylidagi fe‘l yasalgan. Oddiy so‘zlashuvda farqlanmaydi, shunga ko‘ra so‘zlashuv uslubiga xos.

6-§. O‘zlashgan qatlamga oid so‘zlardan uslubiy foydalanish

Til tizimida chet tillardan o‘zlashgan bir qator so‘zlar mavjudki, ular faqat o‘z denotativ ma‘nosida emas, balki uslub talabiga ko‘ra ko‘chma ma‘noda ham qo‘llanadi: *Qimirlasang-chi, ha zarbdor, tering qo‘llar tolmasin* (T. Yo‘ldosh). Bu gapdagi *zarbdor* so‘zi *ishyoqmas* ma‘nosida qo‘llangan, u fors tilidan o‘zlashgan. “Suyunchi” filmining boshqa qahramoni “... *mening onam general*”, deydi. *General* – fransuzcha bosh, *boshliq* ma‘no ifodasini beradi. O‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashgan. Harbiyga hech bir aloqasi yo‘q insonga nisbatan qo‘llangan. *Xonimga arzim bor*. Saroy qiziqchisining hukmdorga murojaati. Bunda *xonim* so‘zi negiz emas, balki, o‘zak so‘z tarzida nazarda tutilgan, *xon* – hukmdor emas, balki, *xonim* – ayol ma‘no ifodasiga urg‘u berilgan, kulgi chiqarilgan. *Molaga qo‘ygan tasqaraga o‘xshab turishiga qara-ya!* Bu misoldagi *tasqara* so‘zi fors tilidan o‘zlashgan, *ho‘kiz* so‘zi ma‘nosini anglatadi. Xullas, chet tillardan o‘zlashgan so‘zlardan nutq ta’sirchanligini oshirish uchun uslubiy maqsadda qo‘llanadi hamda ular so‘zlashuv uslubiga va badiiy uslubga xos bo‘ladi, ulardan badiiy-publitsistik uslubda ham foydalanishlik kuzatiladi.

Boshqa tilga xos so‘zlar, ayniqsa, oddiy so‘zlashuvda tez-tez uchraydi: *Mening qizim Yunsavatdagi katta domda turadi. Yaqinda uyimiz buziladi, shunda bizaga domdan uy berisharmish*. Birinchi va ikkinchi misoldagi *dom* so‘zi *ko‘p qavatli turar joy binosi* ma‘no ifodasini beradi, ikkinchi misoldagi birinchi *uy* so‘zi *hovli-joy* ma‘no ifodasini, ikkinchi *uy* so‘zi *xona (kvartira)* ma‘no ifodasini beradi.

7-§. Jargonlardan uslubiy maqsadda foydalanish

Kasbiga ko‘ra yoki jamiyatdan ajralib turish maqsadida birlashgan bir guruh shaxslar foydalanadigan so‘z va so‘z birikmalari jargonlar

ham nutq jarayonida uslubiy maqsadda qo'llaniladi. Ular ijtimoiy dialektlar deb ham ataladi. Kundalik oddiy nutqdagi, ya'ni so'zlashuv yoki oddiy so'zlashuvdagi leksik birliklar hisoblanadi. Ekspressivlik, emotsionallik, baholash kabi jihatlar tufayli do'stona, hech bir mulozamatsiz vaziyatda muayyan hissiyotni ifoda etishda foydalaniladi.

Muayyan ijtimoiy guruhga taalluqli jargonlarni yozuvchilar obraz yaratish, muayyan muhitni ifoda etish, aholining u yoki bu guruhining nutqini namoyon etish, urf-odatini ko'rsatish maqsadida qo'llaydi.

Jargonlar o'zbek tilidagi o'z qatlamiga, ba'zan o'zlashgan qatlamga oid so'zlardir! Jamiyatdagi muayyan guruhlarining ayirmaligini ko'rsatadi.

Abdulla Qodiriyning "Kalvak mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi" va boshqa hajviyalarida jargonlardan mohirona foydalanilgan. Masalan: *uch ta – uch tanga – oltmish tiyin; solma – xalfana* (soliq solib ziyofat uyushtirish); *bosma – mol o'g'irlab, so'yib ulfatchilik qilish; limon – million* (hozirgi zamon boylari nutqida); *bardavom – davomli, xosatan – xususan, samoviy – osmondagi, aroziy – yerdagi* (din vakillari nutqidan) va h.k.

Yoshlar orasidagi xulq-atvori, dunyoqarashiga ko'ra ajralib turuvchi ayrim guruhdagilar nutqida chet (rus) tilidan o'zlashgan, jargonga aylangan so'zlar uchraydi: *korochchisi – qisqasi; apparat – yengil avtotransport; gudit qilmoq – qo'ng'iroq qilmoq* va b.

Jargonlar orasida argolar alohida ajralib turadi. Argolar yoshlari, qiziqishlari, mashg'ulotlari bir xil bo'lganlar, juda tor doiraga (guruhga) mansub kishilar nutqida uchraydi va shu guruhni tashkil etuvchilargagina tushunarli bo'lgan so'zlardir. Bunday so'zlar garchi umumxalq tilida mavjud esa-da, lekin barcha uchun birdek tushunarli bo'lmaydi. Shu jihatiga ko'ra argolar jargonlarga o'xshaydi:

– bezorilar nutqida: *ment, musor* (militSIONER), *zamri* (jim tur yoki qimirlama), *atas, atanda* (qochib qol), *stukach* (chaqimchi, gap yetkazuvchi), *xarip* (yuvvosh, bo'shang, ishonuvchan);

– mol bozoridagi dallol (jallob)lar nutqi: *kapara* (olti ming so'm), *sar* yoki *sari piyoz* (ming so'm), *saru nimsar* (bir yarim ming so'm);

– o'g'ri, jinoyatchilar nutqida – *obshak – qamoqxona, pulkar – militsiya, biska – xotin, malyava – xat, kum – zona boshlig'i, lepila – doktor, tovuq – o'ynash*; jargon iboralar: *quloqqa lag'mon osmoq,*

quloqqa tepmoq – har ikkisi *aldamoq* ma’nosida, *og’ziga pashsha qo’ndirmoq* – *laqma*, *go’l* ma’nosida, *ilmoq* – *aydor qilmoq* va b³³. Bunday leksik birikmalar argo deyiladi.

Badiiy adabiyot va publitsistikada argolarning vazifasi o’xshash, so’zlovchining nutqiy jihatini tavsiflaydi, shaxslar, asosan, o’tmishi qora shaxslardir. Ayrim hollarda argolardan harakat sodir bo’layotgan vaziyatni tasvirlashda, ba’zan yuqori darajada ta’sirchanlikkak erishish maqsadida foydalaniladi.

8-§. Frazeologizmlarning uslubiy imkoni

Til tizimidagi birliklardan biri frazeologik birliklardir, shunga ko’ra ular ikki va undan ortiq so’zdan tarkib topadi hamda bir ma’no anglatadi.

“Frazeologizmlar birdan ortiq so’zdan tashkil topishi bilan so’z birikmasi yoki gap shaklida bo’lsa-da, lekin ular nutq birligi bo’lgan bu birikmalardan tamoman farqlanadi va lug’aviy birlik sifatida ko’p jihatdan so’zlarga yaqin turadi”³⁴.

Frazeologizmlar tuzilishiga ko’ra so’z birikmasi, gapga teng bo’ladi, ma’noviy jihatdan yaxlit, umumlashgan ma’no anglatadi, ular nutq jarayonida yaratilmaydi, balki nutqga til tizimidan tayyor holda olinadigan lug’aviy birlikdir.

Frazeologizmlarning tarkibidagi komponent (qism)lar ma’noviy bog’liqligiga ko’ra quyidagi turlari bor:

– frazeologik birlik – turg’un birikmalar, obrazli ko’chma ma’noga ega bo’ladi: *tomdan tarasha tushgandek, sichqonning ini ming tanga, dimog’idan qurt yog’adi, burni ko’tarildi*;

– frazeologik butunlik – ma’nosini tarkibidagi so’zlarning ma’nosi orqali izohlash mumkin bo’lgan frazeologizmlar: *ko’zi o’ynaydi, joni chiqdi, xamir uchidan patir*;

– frazeologik chatishma – ma’nosi tarkibidagi so’zlar ma’nosidan kelib chiqmaydi, hatto zid bo’ladi: *oyog’ini qo’liga olmoq, biti to’kilmoq, ammaning buzog’idek*;

– frazeologik qo’shilmalari – tarkibidagi so’zlarning leksik ma’no mustaqilligi saqlanadi, biri ikkinchisining bog’li ma’nosini ayonlashtiradi, kontekst vazifasini o’tovchi sintagma.

³³ Misollar Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” asaridan olindi.

³⁴ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. 1-qism. –T.: O’qituvchi, 1980. –137-b.

Masalan: *til* soʻzining “*sir*” maʼnosi frazeologik bogʻli maʼno boʻlib, faoliyatni anglatuvchi soʻzlar bilan bogʻlanishida ayonlashadi. Masalan, *tokning tili, dehqonchilikning tili, kosibchilikning tili* va b.

Frazeologizmlar ham soʻzlar singari quyidagi xususiyatlarga ega boʻladi:

1. **Bir maʼnoli:** *qoʻli ochiq* – saxiy; *ichi qora* – baxil, *koʻrolmaydigan, yeng ichida* – yashirin, *turgan gap* – albatta, *uchchiga chiqqan* – ayyor.

2. **Toʻgʻri va koʻchma maʼnoda:** *qoʻli qichidi, koʻzi ochildi, qoʻli qisqa* (qoʻli kalta).

3. **Koʻp maʼnoli:** *Eskini yamaguncha esing ketadi. Maqtay-maqtay esi ketadi. Kasal goh oʻziga kelib, goh bexush yotadi. Ana endi oʻzingga kelding.*

Frazeologizmlarda ham leksikologiyada boʻlgani kabi omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar mavjud.

O m o n i m l a r: *Kimda kim yurtni ulugʻlasa, yurt uni boshiga koʻtaradi. Oʻquvchilar chugʻurlashib, sinfni boshiga koʻtarishdi ... kun choshgohga ogʻganda, yoʻl changini boshiga koʻtargan bir mashina koʻrindi.*

S i n o n i m l a r: *hafsalasi bir boʻldi, tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi; taʼbi tirriq, kayfi buzug, peshanasi tirishgan.*

A n t o n i m l a r: *ogʻzi qulogʻida* (xursand) – *tumshugʻi osilgan* (xafa); *koʻkka koʻtarmoq* (maqtamoq) – *yerga urmoq* (qoralamoq); *oshigʻi olchi* (ishi yaxshi); *ahvoli pachava* (ishi yomon).

Frazeologizmlar lugʻaviy birlik sifatida soʻzlar bilan sinonim boʻla oladi: *tomdan tarasha tushgandek* – *toʻsatdan*; *koʻngil bermoq* – *sevmog, quling oʻrgilsin* – *ajoyib*; *joni chiqdi* – *gʻazablandi*; *oyogʻini qoʻliga oldi* – *yugurdi*.

Frazeologizmlar bir sinonimik qatorni tashkil etadi: *qahri qattiq, koʻngli qattiq, tosh yurak, bagʻri tosh; ochiq yuz, koʻngli ochiq, alifni kaltak deymaydi; ogʻzing qani desa qulogʻini koʻrsatadi.*

Tildagi frazeologizmlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ularning koʻp qismi umumisteʼmoldagilardir. Masalan, *ikki qoʻli bir tepa boʻlib qoldi; biti toʻkildi; xamirdan qil sugʻurganday; tegirmoniga suv quymoq, ipidan ignasigacha; gʻalvirni suvdan koʻtarmoq, pichog borib suyakka yetdi, kalavasining uchini yoʻqotmoq.*

Lahjalaridagi frazeologizmlar cheklangan hisoblanadi, chunki ularning qo'llanish sohasi chegaralangan. Masalan: *tilini yutmoq, toqi qoqmoq, burnidan buloq qilmoq, tandirni qizig'ida yopmoq*.

Demak, frazeologizmlar ham so'zlar kabi uslubga nisbatan betaraf yoki uslubning biror turiga xoslangan bo'ladi. Lekin ularning ko'pchiligi uslublararo hisoblanadi, xususan, *boshi qotmoq, tili bir qarich, ko'zi to'q, yo'ldan urmoq, esini yemoq, o'takasi yorilmoq, aqlini yemoq* – bular uslubga nisbatan tarafsizdir.

Uslubga xoslangan frazeologizmlar ozchilikni tashkil etadi: *quling o'rgilsin, qo'tbola* (oddiy so'zlashuvda); *barq urmoq, yastanib yotmoq* (badiiy uslubda); *amalga oshirmoq* (rasmiy uslubda).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. So'zning ma'no xususiyatlarini misollar asosida izohlang.
2. Omonim, sinonim, antonim, omograflarning uslubiy imkoniyatlari haqida to'liq ma'lumot bering.
3. O'zbek adabiy nutqiga o'zlashgan so'zlardan ko'chma ma'noda foydalanish uslublararo qanday?
4. Jargon, argolardan asosan qaysi uslublarda, qanday maqsadda foydalaniladi?
5. Frazeologizmlardan uslublararo foydalanish darajasi qanday?

9-BOB. SO‘Z YASALISHINING USLUBIY IMKONIYATLARI

REJA

1. So‘z yasalihi usullari.
2. Yasama so‘zlarning uslubiy imkoniyatlari.
3. Uslubiy hollangan va uslubiy betaraf so‘z yasovchi qo‘shimchalar.
4. Kitobiy uslubga xos yangi so‘zlar.

O‘zbek tilida so‘z yasalihiining bir necha usuli bor:

1) **affiksatsiya usuli.** Bu usul so‘z yasalihiida eng mahsuldor hisoblanadi va bir qator xususiyatlarga ega. So‘z yasovchi affikslar o‘zbek tilida asosan suffiks tavsifida bo‘ladi, o‘zak oxiriga qo‘shiladi. O‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda o‘zak oldiga qo‘shiluvchi affikslar ham uchraydi.

Ba‘zi affikslar bir xil ma‘nodagi so‘zlarni yasasa (*kemasoz, soatsoz*), ba‘zilari turli ma‘nodagi so‘zlarni (*sportchi, qo‘shiqchi, chaqimchi*). Ba‘zi affikslar bir turkumga oid (*o‘qchi, hujumchi*) so‘zlarni yasaydi, ba‘zilari esa har xil turkumga oid (*da‘vosiz* – sifat, *tinimsiz* – ravish) so‘zlarni yasaydi;

2) **semantik usul**, bunda tilda bor bo‘lgan so‘z ma‘nosining o‘zgarishi tufayli yangi so‘z hosil bo‘ladi (*ko‘r* – sifat, *ko‘r* – buyruq fe‘li; *ich* – ot, *ich* – buyruq fe‘li);

Zahiriddin Muhammad Boburning *bor* radifli g‘azalida shunday bayt bor:

*Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zimdan qon ravon qildi,
Nega holim yomon qildi, meni ondin so‘rorim bor.*

Baytning ikkinchi misrasidagi *so‘r* so‘zi ikki ma‘no ifodasini beradi: *so‘r* (so‘ramoq) – buyruq fe‘li (rang ko‘r, hol so‘r); *so‘r* (so‘rmoq) – buyruq fe‘li (lablarga qo‘yib yoki lab orasiga olib, siqib ichga tortmoq);

3) **fonetik usul**, bunda tovush o‘zgarishi natijasida yangi so‘z hosil bo‘ladi. (*ko‘r* – ko‘z; *yoriq* – *yorug‘*).

4) **sintaktik-leksik usul**, bunda so‘z birikmasi vaqt o‘tishi bilan bir so‘zga aylanadi, ya‘ni bir leksik ma‘noni ifoda etadigan bo‘lib qoladi. Masalan, *xomashyo, buzoqboshi, sadarayhon, xumkalla* kabi

qo'shma so'zlarni hosil qilgan komponentlar o'rtasida sintaktik aloqa yo'qolgan. Shunga ko'ra so'z birikmasi qo'shma so'zga aylanadi.

5) kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'zlar hosil bo'lar ekan.

Bunday usulda so'z hosil bo'lishi ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli morfemalar tufayli yuz beradi. Masalan, *yurtsevar*, *chinnigul*, *tuyaqush*, *shohsupa*.

O'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan va o'sha tillarga xos o'zak oldiga qo'yilgan affiksli so'zlar ham bor: *befarq*, *bekor*, *noxush*, *noma'lum* va b. Lekin bular o'zbek tili nuqtayi nazaridan yangi so'z (yasalgan) hisoblanmaydi, chunki ular bizning tilga tayyor holda o'zlashgan, o'zakka teng hisoblanadi. Ayrim hollarda bunday so'zlarga ketidan o'z tilga xos yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi va bular yangi so'z hisoblanadi: *bekor* – *bekorchi*, *bekorchilik*; *aravakash* – *aravakashlik* va b.

Qo'shma so'z va so'z birikmasi bir-biridan farq qiladi. Qo'shma so'z komponentlari o'rtasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, yaxlit bir leksik ma'no bildiradi (*sadarayhon*, *tuyaqush*). So'z birikmasini hosil qiluvchi komponentlar o'z mustaqilligini saqlaydi, sintaktik aloqa ham bo'ladi [(*erta tong*, *katta hovli (uy)*, *qora shlyapali (kishi)*].

So'z yasash turlari va shakllari tufayli so'z yasaliishi yuz beradi. So'z yasash turi, bu – o'ziga xos tarz. Bunda yasama so'z nutqning istalgan qismidagi hosila so'z va so'z yasovchi unsurdan tashkil topadi. Masalan, qo'shimchali (*temirchi temir* so'zidan, *aqlli aql* so'zidan va h.k.). So'z hosil qiluvchi shakl hosil qiluvchi so'z va yasovchi qo'shimchadan iborat bo'ladi (*o'quvchi* o'quv so'zidan, *to'quvchi to'quv* so'zidan va b.).

So'z yasash usullaridan abbreviatsiya boshqa usullardan ko'ra ko'proq kesatiqqa sabab bo'ladi. Masalan, *ommaviy axborot vositalari* – *OAV*; *Xalq demokratik partiyasi XDP*. *OAVchilar*, *XDPchilar*, aslida abbreviaturalarga qo'shimcha qo'shib so'z yasalmaydi. Bunda kesatiq, istehzo ma'nosida ana shunday yasalmaga yo'l qo'yilgan, nutq egasining munosabati aks etgan. Bunday nutqiy hodisa, asosan publitsistikada tanqidiy tahliliy matnlarda hamda badiiy nutqda uchraydi, ta'sirchan vosita hisoblanadi.

Ayrim so'z yasovchi qo'shimchalar uslubiy hollangan, ayrimlari uslubiy betarafdir. Masalan, *toycha* (+*choq*, +*loq*), *bola+cha*. Bular ham kichraytirish, ham erkalash ma'no ifodasini beradi. *Xum+cha*, *ko'rpa+cha*, *supa+cha* bular faqat kichraytirish ma'no ifodasiga ega.

Oddiy soʻzlashuvda qoʻshimchalardan uslubiy foydalanish ancha faol uchraydi. Masalan, *uka – ukacha*. *Uka* soʻzi genetik jihatdan kichiklik maʼno ifodasiga ega. Bunda *-cha* qoʻshimchasining kichraytirish maʼno ifodasidan yanada kichikroq ekanlikni taʼkid etish (kesatiq) maʼnosida foydalanilgan. *Aka+cha* (*O'sha, boshingni quruq va dalar bilan aylantirib yurgan akachangga aytib qo'y...*), bu misolda kichraytirish maʼno ifodasi kesatiq, mensimaslik maʼno boʻyogʻiga ham ega.

Agar *bolajon, otajon* soʻzlari tarkibidagi *jon* his-hayajon maʼno ifodasini bersa, unga qoʻshimcha *+gina* (*+kina, +qina*) qoʻshimchalari emotsiyani yanada kuchaytiradi (*bolajongina, otajongina*). Bunda *+m* yasovchi qoʻshimchani qoʻshish bilan emotsionallikka qoʻshimcha tarzda *ko'ngilga o'ta yaqinlik* maʼno ifodasini ham beradi (*bolajonginam, otajonginam*). *Otajonginam* da *erkalash, suyush* dan tashqari yana dildan *hurmat, bosh egish* kabi qoʻshimcha ottenkalar bor.

Biror shaxs yoki narsaga xos xususiyatni ifoda etuvchi qoʻshimcha ham betaraf, ham uslubiy maʼno ifodasiga ega boʻladi. Masalan, *shiqildoq, likildoq*. Birinchisida *shiqilla* buyruq feʼliga qoʻshilganda – *doq* qoʻshimchasi betaraf maʼnoli, ikkinchisida esa *likilla* buyruq feʼliga qoʻshilib keladi va shaxs oti (*qiz, bola*) bilan birikmaga kirishib, baho boʻyogʻiga ega boʻlgan, shunga koʻra uning baholash maʼno ifodasi salbiydir.

Baho boʻyogʻiga ega ayni bir qoʻshimcha oʻzi qoʻshilib kelgan soʻz maʼnosiga ham salbiy, ham ijobiy ottenka bagʻishlaydi: *muttahamgarchilik, odamgarchilik*.

Kitobiy uslubga xos yangi soʻzlarni hosil qilishda, ayniqsa boshqa tillardan kirib kelgan va kirib kelayotgan soʻzlardan, oʻz tilidagi koʻpgina yasovchi qoʻshimchalardan samarali foydalaniladi. Masalan, *xokkey+chi, basketbol+chi*, bu soʻzlar rus tili orqali oʻzlashgan, ruschada *xokkeist, basketbolist* tarzidadir. *-ist* qoʻshimchasi *-chi* – oʻz qatlamdagi yasovchi qoʻshimcha bilan almashtirilgan, yasama soʻzlar kitobiy uslubga xos boʻlgan. Yana misollar keltiramiz: *chasovshik – soat+soz, aptekar – apteka+chi, buldozerist – buldozer+chi, kranovshik – kran+chi, gores – tog'lik* va b.

Kitobiy uslubga xoslikda *-chi, -soz, -lik* kabi yasovchi qoʻshimchalar oʻzlashgan soʻzlarni adabiy nutq lugʻatiga kiritishda oʻz qatlamga xos yangi soʻz yasashda foydalaniladi.

O'zbek tilida sinonim bo'lgan yasovchi qo'shimchalar ham mavjud. Masalan, *-li* va *-dor* qo'shimchalari garchi sinonim bo'lsa *+da* o'zi qo'shilgan so'z ma'nosi uslubiy bo'yog'ini yuzaga chiqaradi. Masalan, *pul-li* – *pul+dor*, *g'azab+li* – *g'azab+dor*, *dimog'+li* – *dimog'+dor*, *hosil+li* – *hosil+dor* va h.k. Mazkur so'zlar tarkibidagi *-li* – sifat yasovchi qo'shimcha *ot* turkumidagi so'zlarga qo'shilib yangi so'z – sifat yasaydi, uning ma'no ifodasi betaraf, o'zi qo'shilgan so'z ma'nosiga belgi ifodasini beradi; *-dor* qo'shimchasi garchi *-li* qo'shimchasiga sinonim bo'lsa-da, lekin, *-li* ga nisbatan uslubiy bo'yoq – orttirma daraja ifodasiga ega.

O'zbek tilida erkalash ma'no ifodasini beruvchi bir qator qo'shimchalar borki, ular bir-biriga sinonim bo'lsa-da, lekin, ma'no ottenkasiga ko'ra o'ziga xos uslubiy bo'yoqqa egadir. Masalan, *-jon*, *-gina*, *-ginam*, *-jonginam*: *bola+jon*, *bola+gina*, *bola+ginam*, *bola+jon+gina* *bola+jon+ginam*; *uka+jon*, *uka+gina*, *uka+ginam*, *uka+jon+gina*, *uka+jon+ginam*.

Shunday qilib, qo'shimchalar uslubga ko'ra quyidagi xossalarga ega:

- *uslubiy*, bunda ular uch guruhga ajraladi, ya'ni betaraf, so'zlashuvga xos va kitobiy;
- *baholovchi*, nutq qaratilgan subyekt (narsa, voqea, hodisa)ga ijobiy yoki salbiy munosabat ifodasili;
- *ekspressiv*, so'z ma'nosidagi emotsional ta'sir kuchini ifoda etuvchi.

Baholash va ekspressivlik sifati so'zlashuv uslubi doirasidagi qo'shimchalarga xosdir. Qo'shimchanning emotsional-ekspressiv xossasi faqat muayyan emotsiya (his-hayajon)ning ifodasi bilan bog'liqdir.

Albatta, qo'shimchalarning uslubiy, baholash va emotsional-ekspressivligini farqlash lozim, shuningdek ayrim so'zlarning qo'shimcha vositasida yuzaga chiqadigan ko'rinishlarida nutq qaratilgan narsa, xususiyatlarini ham aniqlay bilish kerak. Masalan, *odam*, *xotin*, *bola*, *yigit* so'zlari uslubga ko'ra betaraf hisoblanadi. *-chi* qo'shimchasi qo'shilishidan ular ma'nosi uslubiy xoslanadi: *odamcha* (kichraytirish), *xotincha* (kesatiq), *bolacha* (erkalash), *yigitcha* (baholash).

Shuni aytib o'tish joizki, *-cha* qo'shimchasi ko'rinishlarida nutq qaratilgan narsa, sifat turkumidagi so'zga qo'shilib, ot turkumiga xos so'z yasaydi, *qizil-cha* (lavlagining bir turi) – dialektal.

Ayrim qo'shimchalar yordamida hajv maqsadida so'zlashuv nutqida yangi so'z yasaladi: *sakl+doq (sakilla)*, *likil+doq (likilla)* *bijil+doq (bijilla)*. Birinchi so'z *maqsadsiz* + *samarasiz yurmoq*, ikkinchi so'z *yengiltak* uchinchi so'z *o'rinli*, *o'rinsiz ko'p* so'zlamog ma'no ifodasini beradi.

Xullas, turli nutq, voqea va hodisaga bo'lgan subyektiv munosabat ifoda topadi va u betaraf, uslubiy, baholovchi, ekspressiv bo'lar ekan. Qo'shimchalarning uslubiy imkoni, asosan, so'zlashuv nutqida yuzaga chiqadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. So'z yasalishining qanday turlari bor?
2. Qo'shimchalardan foydalanish qaysi uslublarga xos?
3. Qo'shimchalar sinonimiyasi va ulardan uslubiy foydalanishga misollar keltiring.
4. Kitobiy uslubda yuzaga kelgan yangi so'zlarni misollar keltirib izohlang.

10-BOB. USLUBIYATNING FONETIK VOSITALARI

REJA

1. Fonetikaning soʻz qurilishi va shakl tuzilishidagi oʻrni va ahamiyati.
2. Urgʻu va uning uslubiy imkoniyati.
3. Intonatsiyadan uslubiy foydalanish.
4. Tovush almashishi hodisasi va uning uslubiy imkoniyati.
5. Matndagi yozuvchi izohi – baholash imkon.
6. Ritorik soʻroq, pauza va tovush davomiyligi uslubni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida.

Fonetika (yun. – tovush) – til haqidagi fanning boʻlimi, uning nutq vositalarini – tovush va ularning birikish qoidalari, urgʻu va intonatsiyani oʻrganadi hamda oʻrgatadi. Tovush nutqning eng kichik, boʻlinmas birligidir. Tovushlar koʻpgina sifatlarga ega: ohang balandligi; choʻziqlik, kuchlilik, yoʻgʻonlik, ingichkalik va b. Tovushlarni talaffuz etish insonning individual xususiyatiga bogʻliq.

Fonetika leksikologiya va grammatika bilan chambarchas bogʻliq. Tovushlar soʻz qurilishi uchungina emas, balki ular shakl tuzilishi uchun ham xizmat qiladi.

Agar soʻz tarkibida bitta tovush almashtirilsa, butkul boshqa maʼnodagi soʻz hosil boʻladi: *koʻz – koʻr, chop – qop, gasht – dasht, hil – xil* va b. Soʻzga bitta yoki ortiq tovush qoʻshilishi uning grammatik shaklini oʻzgartirishi mumkin: *qoʻr – qoʻra, kitob – kitoblar, dala – dalada* va b.

Soʻz maʼnosining yoki shaklining oʻzgarishiga sabab boʻluvchi tovushlar tilshunoslikda fonemalar deb ataladi.

Urgʻu – soʻzning biror boʻgʻinini ovozni kuchaytirib alohidalash, yaʼni turli fonetik vositalar bilan kuchli talaffuz etish.

Urgʻu maʼno farqlash xususiyatiga ega. Bu – ayniqsa, oʻzlashgan qatlarga oid soʻzlarda yaqqol seziladi: *aka+de-mik, aka+de+mik*.

Uslubiy jihatdan gap tarkibidagi biror soʻzni taʼkidlab aytilishi muhim ahamiyatga molikdir. Bunday urgʻu tilshunoslikda gap urgʻusi yoki intonatsiyaviy urgʻu (mantiq urgʻusi) deb nomlanadi. Intonatsiyaviy urgʻu soʻzlovchining maqsadiga (uslub talabiga) koʻra gapdagi istalgan soʻzga tusha oladi, shuningdek, soʻzdagi istalgan

bo'g'inga ham tushadi. Masalan, **To'lqin bordi** (boshqa hech kim emas, To'lqin bordi degan ma'noni bildiradi): *To'lqin bordi* (To'lqin bormadi emas *bordi* ma'nosini bildiradi).

Ayrim vaziyatlarda urg'u so'z tarkibidagi bo'g'inni tushirib qoldiradi. Masalan, so'zlovchi biror hol sodir bo'lganini bildiradi: *Himoya bo'ladi* deya so'zlovchi *bo'ldi* so'zini alohida ta'kid etadi. Lekin tinglovchi malakaviy bitiruv ishi himoyasi bo'lganligiga ishonqiramaganidan yoki taajjublanganidan *bo'ldimi* so'zining oxirgi bo'g'inini qisqartirib so'raydi: *bo'ldi?* Bunda odatda *mi* bo'g'ingiga tushadigan urg'u *-di* ga tushib, uning o'rnini bosadi.

So'zlarda asosiy urg'udan tashqari yordamchi (ikkinchi darajali) urg'u ham bo'ladi. Asosiy urg'u so'zning oxirgi bo'g'ingiga tushsa, yordamchi urg'u ikkinchi yoki so'z o'rtalaridagi bo'g'inga tushadi. Urg'u tushgan bo'g'indagi unli tovush asosiy urg'u tushgan unli dan kuchsizroq talaffuz etiladi va bu tilshunoslikda reduksiya deyiladi, unli esa reduksiyalangan unli ataladi.

Masalan, *talaba+miz*. Asosiy urg'u so'zning oxirgi bo'g'ini *-miz* ga, yordamchi urg'u esa *-ba* bo'g'inga tushadi va aksincha, urg'u uchinchi bo'g'inga, yordamchi urg'u to'rtinchi bo'g'inga tushishi mumkin.

Intonatsiya — muayyan ma'no va ifoda berish uchun gapning asosiy tovush tomoni, ovoz kuchi va cho'ziqligining o'zgarishi. Jumla ayni bir tarkibdan iborat bo'lgani, so'zlar qatori o'zgarmagan holda intonatsiyaga ko'ra so'zlovchining fikri, xohishi va his-hayajoni ifoda topishi mumkin: *O'qish uchun bir yillik to'lov sakkiz million so'm* (oddiy xabar ma'nosidagi jumla); *O'qish uchun bir yillik to'lov sakkiz million so'm?* (savol); *O'qish uchun bir yillik to'lov sakkiz million so'm!* (xabar, qo'shimcha ekspressivlik bilan).

Badiiy nutqda ayrim tovushlari bir xil yoki ohangdosh so'zlardan foydalanib she'r yozish usuli mavjud:

*Labing ba'rimni qon qildi, ko'zimdan qon ravon qildi,
Nega holim yamon qildi, men ondin bir so'rorim bor.*

Bu bayt Zahiriddin Muhammad Boburning *bor* radifli *qaro zulfing firoqida* deb boshlanuvchi g'azalidan olindi. Unda *qon*, *ravon*, *yomon* so'zlari ohangdosh bo'lib, ular tovush ta'sirchanligini kuchaytiradi. Bunday usul misralarning yodda qolishligini osonlashtiradi. Mazkur

usul — alliteratsiya deb ataladi va undan she'riyatda ko'proq foydalanadi.

Ushbu g'azaldan yana bir baytni keltiramiz:

*Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.*

Yuqoridagi bayt tarkibida ham ohandosh so'zlar tizilgan: *g'am, alam, ham.*

Bolalar folklorida ayni bir xil tovush bilan boshlanuvchi so'zlar tizmasidan jumla tuzish — so'z o'yini usuli bor:

Turg'un traktorchi tirillab turgan traktorining tormozini tortib turibdi.

Sasigan sabzini sotgan Salim savdogarga sakson sakkiz so'm soliq solindi.

Ayni bir undosh tovushning takrorlanishi nutqga yuqori ta'sirchanlik bag'ishlabgina qolmaydi, balki musiqiy ohangdorlik ham bag'ishlaydi.

Ikki she'riy satr (bir bayt) oxiridagi ayrim so'zlar, qo'shimchalar, bo'g'in (hijo)larning bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi, "... she'rning tovush tuzilishida, ohang tarkibida, intonatsiyada, sintaktik-semantik bog'lanishida, band tuzilishida ... she'riy nutqni ohangdor va ta'sirli qilishga xizmat etadi, misralarning esda saqlanib qolishini osonlashtiradi"³⁵.

Quyidagi to'rtlikning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralaridagi so'zlar ohangdoshligiga e'tibor beraylik:

*Kim bor anga ilm tolibi — ilm kerak,
O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!
Men tolibi ilm-u tolibi ilm yo'q,
Men bormen ilm tolibi — ilm kerak.*

Yuqorida qayd etilgan misralarda to'rtta so'z ohangdoshdir. Satrlar tarkibidagi takror so'zlar qofiya (rifma) hisoblanadi. Qofiya so'zlar tarkibidagi tovushlar bir-biriga to'liq mos keladi. Bunday

³⁵ Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. —T.: O'qituvchi, 1979. — 261–262-b.

qofiyadosh satrlar almashinuvi ruboiy (she'r) ohangi (ritmi)ni yuzaga chiqaradi. Agar his-tuyg'u shoir qalbi bo'lsa, unda qofiyalar she'rning libosidir. Chunki shoirlarning o'z she'riani ana shunday libosga o'rashdan maqsad uni jozibador, boshqa birorta asarga o'xshamagan bo'lishligini ta'minlashdir.

So'zni tashkil etuvchi tovushlardan (yoki harfdan) birining almashishi so'z ma'nosini yoki leksik birlik shaklining keskin o'zgarishga olib keladi, masalan, *Sinch uyim*, *tinch uyim* (Xalq maqoli).

*Ne og'zimga sig'ar bu so'z, ne tilg'a,
Ki behad o't tushubtur jon-u dilg'a.*

(Lutfiy).

O'zbek tiliga ruscha, rus tili orqali boshqa chet tillarga xos so'zlar XIX asr so'nggi choragidan kirib kela boshladi. Ilm, fan, texnika sohasida ular jadal o'zlashtirila boshladi va ular talaffuzi deyarli o'zgarmagan holda saqlandi. Lekin oddiy so'zlashuvda ular buzib talaffuz etilar va bundan shoirlar hajv maqsadida foydalanadilar. Muqimiyning "Moskovchi boy ta'rifida" asarida bu holni yaqqol ko'ramiz.

*Chiqib yangi maskovchidan boylar,
Sinar o'tmayin ba'zisi oylar.
... Olib sulsini aqchasin xo'jayin,
Berib mol kontorga qildi tayin.
... "Ko'tarmakka yuk deb, malay saqlasam,
O'ziga degay ishlaturlar akam".
Topib mardikorini: "Seychas yuring,
Pajolista, — der erdi, — emdi turing".
Dubora yana bordi bir ishga shul,
So'kib "net, — dedi, — kelma, durrak, poshyol!"*

Chet so'zlarni buzib talaffuz etishdan maqsad kulgi chiqarish va shu bilan birga, atayin nutqda oddiy so'zlashuvga xos xususiyat baxsh etishdir.

O'zbeklarda uchraydigan chet ismlar talaffuzida ham bo'g'inlar atayin ajratiladi va bu bilan so'zlashuvchining obyektga bo'lgan salbiy

munosabati yuzaga chiqadi, masalan: *Abd+ul+ahad* – *Abdu+lahad*; *Abdu+murod* – *Apti+murod*.

Ayrim she'riy satrlarda qo'shimcha bo'g'in (hijo) uchraydi. Masalan:

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngil,
Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Boburning *topmadim* radifli g'azalidagi bu baytning birinchi satri o'n to'rt hijoli, ikkinchi satri o'n uch hijoli, ya'ni birinchi satrdagi *eshigiga* so'zi (e+shi+gi+ga) to'rt hijoli, ikkinchi satrdagisi ham shunday, ammo, o'qishda birinchi satrdagisi qisqartirib (eshi+gi+ga) uch xijoli o'qiladi, ikkinchi satrdagisi to'rt hijoli o'qiladi. Fonetik jihatdan shunday o'qilishi natijasida satrdagi umumiy hijolar soni bir-biriga teng (13 tadan) hisoblanadi.

O'zbek tilidagi ayrim so'zlarni tashkil etuvchi tovush (harf) yoki bo'g'inning kuchli yoki kuchsiz talaffuz etilishidan so'z shakli o'zgarmagan holda ma'nosi butkul o'zgarishi mumkin. Masalan, *kul* so'zidagi oxirgi *-l* tovushning kuchli talaffuzi *kul* (*moq*)ni anglatadi, kuchsiz talaffuzi *kul* (*xok*, *yog'och*, *qog'oz* va boshqalar yonishidan hosil bo'lgan qoldiq) ni anglatadi.

So'z bo'g'inlarida ham shunday holni kuzatish mumkin: *ko'ng+il*; agar *urg'u* ikkinchi bo'g'in (+*il*)ga tushsa, ot turkumidagi so'z hisoblanadi, birinchi bo'g'in (*ko'n*+)ga tushsa, buyruq fe'liga aylanadi, ma'no butkul o'zgaradi. Yana bir misol: *sing+il*, *sin+gil*. Har ikki so'zda ham +*q* va *-n* tovushlari bo'g'in va ma'no farqlovchi hisoblanadi.

Ma'lumki, og'zaki nutq intonatsiya va intonatsiyaviy tovlanuvchanlik xususiyatiga ega. Yozuvda muayyan intonatsiyaviy ohangni alohida ajratib ko'rsatuvchi maxsus belgilar yo'qligi sababli yozuvchilar personajlar nutqidagi ayrim so'z va iboralarni izohlab o'tadilar. Chunki, nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, ko'p nuqta jumla oxirida kelib, faqat asosiy ohangni ayonlashtiradi, nutqdagi barcha intonatsiyaviy imkoniyatni ifoda eta olmaydi.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan misol keltiramiz, unda yozuvchining izohi personajlarning ichki dunyosini, ovoz maromini, fikrlashi, niyatini o'quvchiga baholash imkonini beradi:

... Agar bu ishning oldi olinmasa, hukumat va mamlakat uchun natija qo'rqinchlidir, taqsir!

— Majlis kimnikida edi?

Homid tarafidan kutilmagan bir savol! Homid o'ziga berilgan bu savol qarshisida taraddudlanib qoldi. Chunki majlis o'rnini aytsa, pochchasi bilan jiyani Rahmatning ham qo'lga tushishlari aniq va buning bilan u o'z oyog'iga bolta qo'ygan bo'ladi. Shu mulohaza yuzasidan u tutiliqdi:

— Majlis o'rni yodimda yo'q taqsir.

Mantiqsiz bu javobga qarshi qo'rboshi achchig'i bilan baqirdi:

— Yodimda yo'q?

Homid garangsindi va bir xil **siniq tovushda:**

— Esimda bo'lsa ham nozik bir joy edi, taqsir, — dedi.

— Nozik bir joy edimi! — deb qo'rboshi **zaharxanda qildi**. Agar aytmasang, o'sha muttahamlar tiqiladigan chuqurga sen ham tashlanasan!

— Kechiringiz taqsir!

Qo'rboshi yirtqichlardek **bo'kirdi!**

— Kechirish yo'q.

Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo'q edi — cho'ntak kovlashga tutindi va yuz mashaqqat bilan yonchig'ini chiqardi. Yonchiqdan o'nga yaqin oltinlarni sanaqsizcha olib qo'rboshiga uzatdi:

— Taqsir ... sizga atagan nazrimiz edi ... Homid kavlane boshlagandayoq qo'rboshining ustidan sovuq suv sepilgan edi ... so'zlar ham **muloyim tortdi**.

— Demak, nozik joy edi degin, Homidboy!

Yozuvchilar og'zaki jonli nutqdagi intonatsiyani ifodalashning turli usullaridan foydalanadilar. Bunday usullar bilan tanishish talaffuz etish va tinglash madaniyatini rivojlantiradi, bu esa, o'z navbatida badiiy asarni yanada chuqurroq tushunish, personajlar tabiati bilan yaqinroq tanishish imkonini beradi. Shunga ko'ra Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi personajlar — Homid va qo'rboshi qanday shaxs ekanliklari ular nutqidagi intonatsiyadan yaqqol seziladi: Homid — hasadgo'y, axloqan tuban, o'z g'arazli maqsadi yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydi; qo'rboshi — ikkiyuzlamachi, poraxo'r, amaldan o'z shaxsiy manfaati yo'lida maksimal foydalanadi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, Nizomiddin Amir Alisher Navoiy ijodida intonatsiyadan uslubiy foydalanish, ya'ni o'qilish ohangiga musiqiylik baxsh etish usuli yaqqol seziladi:

*Mehr ko'p ko'rgazdim, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.*

Mazkur baytdagi qofiyadosh so'zlar – *mehribon, jon* so'zlari oxirida -e tovushning orttirilishiga xizmat qiladi, ya'ni shuni aytish kerakki, mazkur tovush faqat musiqiy ohangnigina ifoda etibgina qolmay, balki, ta'kidni kuchaytiradi, *bitta, birorta* so'zlari ma'no ifodasini beruvchi *yoyi xovvas* vazifasini o'taydi.

Yozuvchilar badiiy maqsadda *ritorik so'roqdan* foydalanadilar. So'roq ohangidagi bu gapga javob talab etilmaydi.

– *O'tiring, qochmoqchisizmi?* – *kinoyali kulgi bilan tikiladi Majiddin. To'g'onbek yana og'ir cho'kdi.* (Oybek).

– *Ha, qayda sen, cho'loq qarg'a?* *Kalitni ber!* – *qichqirdi u Nurboboga.* (Oybek).

Birinchi ritorik so'roq gap ohangini adib izohlaydi, unda piching ohangi seziladi. Ikkinchi jumlada *haqorat, kasmitish* so'roq va undov belgilari yordamida ayonlashadi.

Og'zaki publitsistik nutqda ham ritorik so'roqdan tez-tez foydalaniladi. Albatta, nutq jarayonida qayta bog'lanish (aloqa) bo'lmaydi. Auditoriya o'ziga qaratilgan ritorik so'roqqa javob qaytarmaydi, (masalan, miting, radionutq, telenutq va b.da) javob qaytarish talab ham qilinmaydi.

Badiiy matnlarda mualliflar pauza hamda tovush davomiyligi singari intonatsiyaviy vositalardan ham foydalanadilar:

– alohida ahamiyat berish maqsadida so'z bo'g'inlarga ajratib talaffuz etiladi (*bo-la-la-lar, sa-lom*);

– muallif maxsus to'xtamli (pauza) qiladi;

ya'ni hamrohlim bor, deganim, mendan qo'rqmang deganim ...

Otabek yana tushunmadi:

Hamrohingiz ... (A.Qodiriy).

– muallif atayin ta'kidlagan tovush uzunligi va davomiyligi:

– *Yo'-o'q, – dedi u xatni qaytarib berar ekan. – Buni men yozmaganman.*

Qo'l meniki emas. (T. Malik).

Uning xirildoq ovozi Dilmurodga arang eshitildi.

– *Aka ...a...a!* (T. Malik).

Xullas, o‘quvchiga, ta’sir etuvchi badiiy vosita sifatida intonatsiyaning barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin: asosiy ton (tovush un paychalarining ritmik tebranish chastotasi bilan belgilanadigan sifati³⁶); tovush tembri (tovushning asosiy toniga qo‘shiladigan yordamchi ton – obertonlarga bog‘liq holda yuzaga keladigan, o‘ziga xos sifati³⁷); so‘zning bo‘g‘inlarga ajralishi; pauza; tovush sadosining davomiyligi. Albatta, yozma nutqda og‘zaki nutqni yuzaga keltiruvchi intonatsiya yangramaydi. Lekin, badiiy so‘z san’atkorlari jumla qurilishida, so‘zlar tartibida, chuqur ma’nodor so‘zlarda “jarang”lashga “majbur” qila oladilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tovush qanday sifatlarga ega?
2. Og‘zaki nutqda urg‘u qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Intonatsiya va uning nutqdagi mohiyatini tushuntiring.
4. Tovush almashinish hodisasiga misollar keltiring.
5. Muallif matnga izohlarni nima maqsadda kiritadi?
6. Pauza, tovush cho‘ziqligi, ritorik so‘roqlardan uslubiy foydalanishga misollar keltiring.

³⁶ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 93-b.

³⁷ O‘sha joyda.

REJA

1. Morfologiyadagi uslubiy vositalar.
2. Otlarni uslubga ko'ra gap tarkibiga joylashtirish.
3. Ot turkumidagi juft va takroriy shakllardan uslubiy foydalanish.
4. Otlarning sifatlashishi.
5. Sifatlarning morfologik xususiyatlari va ularning uslubga ko'ra qo'llanishi.
6. Sifat turkumidagi so'zlarning uslubga ko'ra ot turkumiga ko'chishi.
7. Sonlarning uslubiy o'ziga xosligi.
8. Olmoshlarning uslubiy vazifani bajarishi.
9. Fe'llarning uslubiy imkoniyati.

1-§. Umumiy ta'rif

Morfologiya, avvalo, so'z shakli yasovchi vosita hamda qoida, ikkinchidan, mazkur shakllarning o'ziga taalluqli grammatik kategoriyalar bilan vazifa bajarish tizimi.

“Morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalarini, so'zning formalar sistemasi va shu formaning hosil bo'lish yo'llari hamda hosil qiluvchi vositalarini o'rganadi. Demak, morfologiya so'zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. Grammatik birlik sifatida so'z grammatik ma'nosi va grammatik formasiga ega bo'ladi”³⁸. So'z shakli (grammatik shakl) so'zning morfologik turi, turlanganda yoki tuslanganda leksik ma'nosini saqlab qoladi, lekin yangi grammatik ma'noga ega bo'ladi.

So'z muayyan turkumga mansub bo'ladi, uning shakli ifodalaydigan ma'no *grammatik ma'no* deyiladi.

Grammatik ma'no deganda, umumlashgan ma'no tushuniladi. Bunday xususiyatga bir qator so'zlar, so'zshakllar, sintaktik konstruksiyalar ega bo'ladi hamda muntazam nutqiy ifoda hosil qiladi. Ayni mana shu grammatik ma'no uni biror turkumga mansubligini ko'rsatadi hamda shu turkum doirasida muayyan grammatik kategoriya, masalan, sonda kelishikda ekanligini belgilaydi. Bulardan

³⁸ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1-qism. –T.: O'qituvchi, 1980. –206-b.

tashqari, soʻzning gapdagi boshqa boʻlaklar bilan birikmaga kirishish imkonini beradi. Mustaqil maʼnoga ega har bir soʻz, odatda, grammatik maʼnolar ifodasini beruvchi shakliy koʻrsatkichga ega boʻladi. Masalan, soʻzshakl – *ishlashyapti harakat* uchinchi shaxsga taalluqliligini, koʻplik sonida va hozirgi zamonda ekanligini bildiradi.

Soʻzshakllar ikki – oddiy (sintemik) va murakkab (analitik) turga ajraladi. **Oddiy shakl** qoʻshimcha bilan jips bogʻliq asosga ega boʻladi hamda oʻziga xos biror grammatik maʼnoni ifoda etadi. Masalan, *oʻqidim, oʻqiyapman, fakultetga* va h.k. **Murakkab shakl** mustaqil maʼno anglatuvchi va yordamchi soʻz birikmasidan hosil boʻladi. Masalan, *oʻqib chiq, olib koʻr, kutib tur* va h.k.

Oʻzbek tilidagi soʻzlar ikki katta guruhga ajraladi, holat ularga xos grammatik maʼno (kategoriya) bilan bogʻliq, mazkur maʼno esa ular shakli orqali ifoda topadi: Birinchi guruhni mustaqil maʼnoli soʻzlar, ikkinchi guruhni esa yordamchi soʻzlar tashkil etadi. Undov soʻzlar alohida oʻrinda turadi, ulardan ham uslubiy maqsadda foydalaniladi.

2-§. Otlar va ular shakllarining uslubiy imkoniyati

Turdosh va atoqli otlar shunchalar oʻziga xoski, mualliflar eʼtiborini oʻziga jalb etmay qoʻymaydi va mualliflar ulardan oʻquvchining diqqatini tortish uchun foydalanadilar.

Turdosh otlarni adib ongli ravishda tanlaydi va uslubiy maqsadda ism sifatida foydalanadi:

Obid ketmon Abdulla Qodiriyda, bunda turdosh ot – *ketmon* atoqli otga aylangan.

Mualliflar turdosh otlarni alohida ajratib taʼkidlash uchun katta harf bilan yozishlari mumkin. Bu maʼnoni kuchaytiradi, oʻquvchiga taʼsirini oshiradi: *U kishi olim, shunchaki olim emas, balki chin Olim! Ularning olimliklariga allaqanday qogʻozlar emas, qator-qator darslik, qoʻllanmalar, ilmiy maqolalar guvohlik beradi.*

Ot turkumidagi soʻz gapning istagan boʻlagi vazifasida kela oladi. Bu grammatik hamda mantiq nuqtayi nazaridan boʻlishi mumkin. Otlarning mantiqqa koʻra gap tarkibiga joylashtirilishi uslub bilan bogʻliqdir.

Shuni aytish joizki, turdosh otlar atoqli otga aylanishi mumkin. Masalan, *Rayhon, Charos, Anor, Lola* va h.k. Mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi otlar – belgi, xususiyat nomlari koʻplikda qoʻllanmaydi, yaʼni koʻplik qoʻshimchasini olmaydi: *tuygʻu, orzu, tashvish, gʻam,*

azob va h.k. Bular ba'zan ko'plik shaklda qo'llanganda ham ko'plik ma'nosini emas, balki qo'shimcha ma'no ottenkasini ifoda etadi: *tuyg'ular, orzular, tashvishlar, g'amlar, azoblar*.

Otlarda birlik va ko'plik ma'nolari va bu ma'nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimi mavjud. Mazkur son kategoriyasi ikki xil bo'ladi: grammatik son, mantiqiy son. Bular o'zaro mos kelavermaydi. Masalan, *Bog'imizga olma, o'rik eedik*. Bunda *olma, o'rik* vaziyat hamda kontekstga ko'ra bitta *olma, o'rik* ko'p *olma, o'rik* ko'chatini ham ifoda etishi mumkin. Bu ular amantistikasiga va u bilan bog'liq uslubga bog'liq.

Kishi otlari yakka shaxs ifoda etadi (masalan, Tursunoy, Sherali). Ammo bu otlar bir necha shaxsni ham nomini anglatishi mumkin: *Tursunoylar, Sheralilar*. Bunda ular turdosh otga aylanadi va kichik harfda yoziladi.

Ba'zi otlar birlik shaklida bo'ladi, lekin ba'zi narsalarning to'dasini anglatadi: *gala, bug'doy, xalq, olomon*. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deyiladi. Ayrim birlik shakldagi otlarga – *lar* qo'shimchasi qo'shilganda miqdor emas, balki xil ifoda etiladi: *suv – suvlar*.

Atoqli otlar – *Toshkent, Mirzacho'l* (geografik nom) *-lar* qo'shimchasi bilan qo'llansa, shu ot bildirgan joyni ham o'z ichiga olgan keng (katta) hudud ma'nosini ifodalaydi: *Toshkentlarni ko'ramiz; Mirzacho'llar yo'q endi*.

O'zi bir dona narsani bildirish so'z *-lar* qo'shimchasi bilan qo'llansa, ko'plikni bildirmaydi, ma'noni kuchaytiradi: *boshlarim qotti, tillarim og'rib ketdi, ko'ngillarim sust ketdi*.

Uslub talabiga ko'ra ayrim so'z turkumlari otlashganda son kategoriyasi ifoda topishi mumkin:

– olmosh otlashadi: ***Bularning niyati yaxshi emas. O'sha yana o'ralashib yuribdi.***

– sifatosh otlashganda: ***O'qigan o'zar, o'qlmagan to'zar.***

Nutq jarayonida birinchi va ikkinchi shaxs egalik shakllari uslubiga ko'ra semantik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Aslida birinchi va ikkinchi shaxs birlik shakli bir ma'nolikdadir: *ishim, ishing*. Shu shaxslarning adabiy nutqiga xos ko'plik shakli ko'p ma'nolik kasb etadi: *fikrimiz – bizning fikrimiz; fikrimiz – mening fikrim; fikringiz – sizning fikringiz; fikringiz – sening fikringiz*.

Ikkinchi shaxs *-nglar, -larning* bir ma'noli. Lekin bularning birinchi shakli – *yozinglar* adabiy nutq me'yoriga xos bo'lib, ikkinchisi – *yozlaring* jonli so'zlashuvga xos.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi natijasida hosil bo'lgan shakllari ham uslubiy o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Bosh kelishikdagi ot o'zidan keyin keladigan jumla tarkibiga taalluqli bo'lmaydi. U faqat ta'kid etadi, e'tiborni qaratadi, xolos: *Suv. Men bilaman. Suv – hayot.*

Agar muallif mavzu ustida mulohaza qilishga chorlasa, bosh kelishikdagi tasavvur ko'p nuqta bilan tugaydi: *Iymon ... Bugungi kunda ko'pchilik egami, yo'qmi ekanligini o'z-o'zidan so'rab ko'rishi lozim bo'lgan insonga xos xislat ekanligi barchaga ayon.*

Bosh kelishikdagi ot ma'no ifodasi his-hayajonli baho bo'yog'iga ega bo'lishi mumkin. Agar nutq egasi mulohaza qilishga da'vat etmoqchi bo'lsa, undov belgisidan so'ng ko'p nuqta qo'yadi: *Tog'lar! Tog'lar!... Kimlardir uni oshib o'tishga, kimlardir aylanib o'tishga o'zin chog'lar.*

Bosh kelishikdagi ot sifatlovchi vazifasida keladi: *oltin damlar; po'lat tomirlar.*

Bosh kelishikdagi ot nominativ gap vazifasida keladi: *Tun. Ko'klam!*

Undalma vazifasida keladi: *Qilichingiz sindi, qalqoningiz teshildi, domla, sichqon bo'lib kovakka kirib ketayotibsiz.* (A.Qahhor).

– *Shoshma, shoshma, hoy kuyov! – dedi sovchim.* (A. Qodiriy).

– *Xudoga topshirdim, Kumush, qazom yetib ko'rolmay o'lsam, mendan rozi bo'!* (A.Qodiriy).

Agar ot turkumidagi so'z o'zidan keyingi olmosh bilan jips bog'lansa va intonatsiyaga ko'ra kuchsiz deyarli pauza bo'lmasa, ular orasiga vergul qo'yiladi: *Nomoz, u o'sha, xalq qahramoni.*

Demak, turdosh va atoqli otlar bosh kelishikda kelar ekan, nutq jarayonida uslubiy vazifani ham o'tashi mumkin.

“Qaralmishdan anglashilgan predmet yoki belgi shu kelishikdagi so'z anglatgan predmetga qarashli ekanini, xosligini ifodalovchi kelishik”³⁹ qaratqich kelishigi deb ataladi.

Mazkur kelishik *-ning* qo'shimchasi vositasida shakllanadi. Masalan, *gulning tikoni, qovunning to'ri, rayhonning guli* va h.k.

³⁹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985. –118-b.

Badiiy ijodda — nazm va nasrda qaratqich kelishigining qo‘shimchasi boshqacha shaklda ham uchraydi. Masalan, *-n* shaklida: *ko‘zin qarosi, so‘zin ma‘nosi, dardin davosi, qalbin nidosi* va b.

Oddiy so‘zlashuvda (jonli nutqda), shevalarda qaratqich kelishigining qo‘shimchasi *-ni* shaklda ham uchraydi. *Foydasi yo‘q hozir gapirishni* (O‘.Umarbekov). Oddiy so‘zlashuvda yuqoridagi holni ko‘plab uchratish mumkin: *ishni ko‘zini biladi; o‘qishni qadriga yetmadi*.

“Qaratqich kelishigi qo‘shimchasining yana *-ing* shakli ham bor bo‘lib, birinchi, ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining birlik shakliga qo‘shiladi: *men+ing, sen+ing*”⁴⁰. Yozilishi *mening, sening* tarzida. Bunga sabab *men* va *sen* olmoshlari *n* tovushi bilan tugallanganligidir. Vaholanki, boshqa birorta ham *i* tovushi bilan tugallangan otlarda bunday hol kuzatilmaydi. Kelishik qo‘shimchasi o‘z shakli *-ning* ni saqlaydi.

“Tilshunoslikdan ma‘lumki, qaratqich kelishigi *-ning* ni olgan so‘z egalik qo‘shimchasini olgan boshqa so‘z bilan sintaktik aloqaga kirishadi”⁴¹.

O‘zbekistonning bayrog‘i, universitetning binosi, ajdodlarning yorqin xotirasi, sabrli bo‘lish — insonning yuksak fazilati.

Misollardan ko‘rinadiki, *-ning* qaratqich qo‘shimchasini olgan so‘z *qaratuvchi*, egalik qo‘shimchasini olgan so‘z esa *qaralmish* dir.

Qaratqich—qaralmish sintaktik aloqasi ikki ko‘rinishda bo‘ladi, u *belgili* va *belgisiz* deb ataladi.

Agar ot, ya‘ni qaratuvchi vazifasidagi so‘z qaratqich kelishigi qo‘shimchasili bo‘lsa, belgili hisoblanadi va aniq qarashlilikni ifodalaydi. Masalan, *Shayxulislomning jahli chandon bo‘ladi, lekin xaloyiq oldida u bilan adi-badi aytishib o‘ltirishni o‘ziga ep ko‘rmadi...*” (B. Ahmedov). *Bundan tashqari Dildor yaxshi chevarlardan biri hisoblanib, kiyim-kechakka zeb beradigan nozik oilalarning kiyimlarini tikar edi.* (Oybek).

Agar qaratqich kelishigi qo‘shimchasi tushib qolsa, unda kelishik *belgisiz* bo‘ladi. *Saodatlar uyi ortiq torliq qila boshlaganlikdan shu hovlini ... hozirgi qo‘shnimizdan sotib olishga muvaffaq ham bo‘ldim.* (A.Qodiriy).

⁴⁰ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. —T.: O‘qituvchi, 1980. — 228-b.

⁴¹ O‘sha joyda.

Yuqoridagi jumlada uy aniq birgina Saodatga tegishli emasligi, balki, umuman oilaga qarashli ekani anglashiladi.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasining tushib qolishi yoki otga qo'shilib kelishi morfologiya qonun-qoidalari hamda uslub bilan bog'liq. Qaratqich kelishigi quyidagi hollarda albatta qo'shimcha (belgi)li bo'ladi.

Usta Olim yuz-qo'lini artib Otabekning qo'lini olib ko'rishmoqchi bo'lgan edi, ko'zi o'ralgan dokaga tushdi. (A. Qodiriy). Yuqorida qaratqich kelishigidagi so'z shaxs ismi (ot). Agar shaxs otiga qo'shilib kelayotgan —*ning* qo'shimchasi tushib qolsa, qaratqich-qaralmish munosabatiga ko'ra hosil bo'lgan birikma ifoda etgan ma'no o'zgarib ketadi. Ana shu mantiqiy talabga ko'ra qaratqich kelishigi albatta qo'shimchali bo'ladi. Qiyoslang: *Otabekning qo'li — Otabek qo'li. Sabohiddin singlisining qismatini o'ylab, yurak-bag'ri ezilib ketdi.* (T. Malik). Qiyoslang: *Sabohiddin singlisining — Sabohiddin singlisi.*

Badiiy uslubda, ayniqsa she'riyatda kelishik qo'shimchasi hijo talabiga ko'ra tushirib qoldiriladi.

*Ishlar bori ko'nglungdagidek bo'lg'usidir,
In'omu vazifa bori buyrulg'usidir.
Ul g'allau muhmalki, deb erding, bildim,
Muhmalg'a bo'yu, g'alladin uy to'lg'usidir.*

Kelishik qo'shimchasi qaratish ma'nosini Bobur alohida ta'kidlash maqsadida qo'llaydi.

So'nggi yillarning mudhish, mudhish voqealarini ko'rib, qalbmni bir vahm titratur. (P. Qodirov).

Kelishik qo'shimchasini olgan so'z otlashgan sifat bo'ladi.

— *Tahoratning sababi yodingizdan ko'tarildi, shekilli!*

— *Ko'tarilgani yo'q, Otabek, yomonning janozasidan, yaxshining hikoyasi foydali ko'rinadur ...* (A.Qodiriy).

Qaratqich kelishigidagi so'z otlashgan ravish bo'ladi: *Bu orada boshqalarning bola-chaqasi ko'chib chiqishdi.* (S.Ahmad).

Otlashgan sifatdosh ham kelishik qo'shimchasini oladi: *Bizga xayrixoh bo'lganlarning ham xayri jazolarini berar, — dedi.* (A.Qodiriy).

Yuqorida keltirilgan misollar tahlilidan ko'rinadiki, qaratqich kelishigining belgili yoki belgisiz qo'llanishi semantik, uslubiy

talabga, bulardan tashqari kontakt yoki distant holda qoʻllanishiga bogʻliq ekan.

Tejamkorlik maqsadida nutq jarayonida qaratuvchi tushib qolishi mumkin: *Sizning uyingiz – uyingiz.*

Xullas, nutqda qaratqich va qaralmish hamisha egalik qoʻshimchasi bilan qoʻllanadi. Qaratqich kelishigi shaklidagi soʻz jumla tarkibida aniqlovchining bir turi, yaʼni qaratuvchi boʻlib keladi: *U koʻpchilik oldida Boburga tan berganday boʻlib, aslida uni yoqlagisi kelib bosh egdi.* (P.Qodirov). Mazkur jumlada qaratqich kelishigidagi soʻz ot koʻmakchi bilan munosabatga kirishadi hamda koʻmakchi soʻz bilan analitik shakl hosil qiladi va jumlada bitta sintaktik vazifani bajaradi. Yana misol keltiramiz: ... *Umida jinni ham biron narsadan xafa boʻlar, deb sira oʻylamagan edi. Shu sabab hujra oʻrtasida oʻtirgan Devonaning bu qilmishidan choʻchib, orqasiga tisarildi.* (T. Malik).

Yuqoridagi misollarda qaratqich kelishigi belgisiz qoʻllandi.

Agar qaratqichli birikma butunning qismini anglatsa, albatta, belgili boʻladi: *Gapingizdan eski urf-odatlarning, anavi Abulqosim domlalarining hidi kelib turibdi.* (Oʻ. Umarbekov).

Shunday jumlar boʻladiki, ular tarkibida *-ning* qaratqich kelishigi qoʻshimchasini olgan soʻzlar ikki va undan ortiq uchraydi:

Bahor quyoshi koʻkning tiniq feruzasida Hirotning "Gavharshod" madrasasining haybatli peshtoqlarining naqshlari shuʼlalarda jonli, havoii bir chamanzor kabi, turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qoʻnib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq oʻynashar edi. (Oybek).

Yuqoridagi parchada qaratqich kelishigining ikki koʻrinishi jamlangan:

– belgili – *koʻkning ... feruzasida; Hirotning madrasasi, madrasaning ... gumbazi, gumbazning ... peshtoqlari, peshtoqlarining naqshlari;*

– belgisiz – *bahor quyoshi, gumbazi ustida, gumbaz tevaragida.*

Demak, qaratqich kelishigi *-ning* qoʻshimchasi vositasida shakllanadi.

Agar qaratqich kelishigi *-ning* affiksi bilan shakllansa, aniq qarashlilikni ifoda etadi. Qaratqich kelishigi qoʻshimchasi tushib qolsa, umuman tegishlilikni ifoda etadi:

Tushum kelishigi qo'shimchasini olgan ot gapdagi ish harakatni o'ziga qabul qilgan predmetni anglatadi⁴². Mazkur kelishik qo'shimchasi *-ni* bo'lib, bu qo'shimchani olgan ot faqat fe'l bilan birikadi. Masalan: *olmani terdi, yerni haydadi*.

She'riyatda ba'zan *-ni* qo'shimchasi *-n*, *-ye*, *-i* shaklida ishlatiladi.

Meni men istagan o'z suhbatida arjumand emas.

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

(A. Navoiy).

Barchinoyning bunday ko'nglin bo'lmagin.

(Alpomish).

Mehr ko'p ko'rgazdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido oromi jone topmadim.

(A. Navoiy).

Adl qulog'i-la eshit holimi,

Zulm qilur baski menga zolimi.

(Muqimiy).

Oddiy so'zlashuv, shevalarda *-ni* qo'shimchasi *-di*, *-ti*, *-mi* shaklida ham qo'llanadi: *boddi davosi*, *Yoqutti ukasi*, *Ko'zimmi qarosi*.

Tushum kelishigidagi so'z ham qaratqich kelishigidagi kabi belgisi va belgisiz bo'ladi. *Ko'nglini g'am qilib turgan tushni unutganday bo'ldi*. (O'. Umarbekov). *Bir kishi ariq qazydi, ming kishi suv ichadi*.

Xullas, tushum kelishigidagi so'zning belgisi yoki belgisiz bo'lishida tushum kelishigi shakliga kirayotgan so'z ot turkumida bo'lishi asosiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari, so'z egalik qo'shimchasini olish yoki olmasligi, boshqaruvchi bo'lak bilan kontakt yohud distant holatda bo'lishi ham kuzatiladi. Masalan: *Sultonmurod titroq qo'llarini chekkasiga tirab, hxushsiz kabi tingladi*. (Oybek). *Bobur Samarqandni olgandan keyin hammasi uning tomoniga qochib o'tib ketdi*. (P. Qodirov).

Chiqish kelishigi harakatning chiqish (boshlanish) nuqtasini ifoda etadi. Kelishik *-dan* qo'shimchasi vositasida shakllanadi, sabab,

⁴² *Qarang*: Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1980. – 231-b.

qiyoslash, payt, manba va obyekt ma'nolarini ifodalaydi. *-dan* qo'shimchasi oddiy so'zlashuvda, shevalarda, og'zaki ijod, yozma yodgorliklarda, mumtoz adabiyotda *-din, -tin, -tan, -nan* tarzida ham uchraydi.

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.*

(A. Navoiy).

*Takalluf har necha suratda bo'lsa, ondin ortuqsen,
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen.*

(Bobur).

Jafo tig'i bul kun jondin o'tadi.

(Alpomish).

Agar *-dan, -din* asosan adabiy-badiiy nutqda qo'llansa, *-tin, -tan* va *-nan* faqat shevalarda, oddiy so'zlashuvda uchraydi: *Urguttin oldim, vaqtan beri. Ottan baland, ittan past. (Topishmoq). Alag'-chalog' tush ko'rgannan beri o'zimga kelomiman.*

Jo'nalish kelishigining shakli *-ga* qo'shimchasi vositasida yuzaga keladi. Badiiyatda, oddiy og'zaki so'zlashuvda *-a* shaklida uchraydi. Bundan tashqari o'zi qo'shilgan so'zning oxirgi tovushi ta'sirida *-qa, -ka* shakllariga ega bo'ladi. Masalan, *Siz u yona, biz bu yona.*

— *Mahmud kelyapti!*

Qizlar yalt etib otliqqa qarashdi. (O'. Umarbekov).

— *Zulfiya, eshityapsanmi? Sobir. Ammo Zulfiya o'zini eshitmaslikka oldi. (O'. Umarbekov).*

Mumtoz she'riyatda *-g'a* shaklida ham keladi:

*Bu telbau madhush dilu jong'a ne xushtur,
Gah qahru itobi bila, gah ishvau nozi.*

(Bobur).

Oddiy so'zlashuvda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi chiqish kelishigi shaklidagi so'zlarga ham qo'shilib keladi:

... *bir kilosini ming so'mdanga kelishdi: bir sentnerdanga; ikki qopdanga. Sifatdoshga qo'shiladi: o'qigan — o'qiganga. Undov*

so'zlarga qo'shiladi: *ura+ga, voyiga*. Juft yoki takror so'zlarga qo'shiladi: *shov-shuvga, dod-voyga*. Bunda -ga qo'shimchasi keyingi komponentga qo'shiladi.

Uslubga ko'ra ayrim hollarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasining vazifasini ko'makchilar bajaradi: *Zulfiya shunday deb qishloq tomon yurib ketdi*. (O'. Umarbekov).

Jo'nalish kelishigi ayrim hollarda tushum, o'rin-payt, chiqish kelishigi vazifasida ham kelishi mumkin: *sada tagiga to'plandi – sada tagida to'plandi; bo'lib o'tgan ishga tushuna olmadi – bo'lib o'tgan ishni tushuna olmadi; do'stining sirini oshkor etishga iymandi – do'stining sirini oshkor etishdan iymandi*.

O'rin-payt kelishigidagi ot ish-harakatning o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'nolarni ham ifodalaydi⁴³. Kelishik shakli –da qo'shimchasi vositasida yasaladi va ikki tur vazifani bajaradi: ish-harakat bajarilish o'rnini ifodalaydi – *tomda, dalada, xonada*; payt ma'nosini ifodalaydi – *tongda, kuzda*. Payt ma'nosi ifodalanganda ayrim hollarda belgisiz bo'ladi: *Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda*. (Maqol).

Shevada, oddiy so'zlashuvda -da o'rin kelishigi qo'shimchasi vazifasini -ga jo'nalish kelishigi o'taydi: *poyezdda keldim – poyedzga keldim; kitobda o'qidim – kitobga o'qidim*.

O'rin kelishigidagi ot o'zida ish-harakat ham bajarilish o'rnini, ham vaqtini anglatadi: *uloqda, bazmda, konsertda, to'yda*.

Otlarning qo'shimchalar yordamida hosil bo'luvchi shakllari o'z ma'no ifodasi va nutqdagi vazifasiga ko'ra bir necha turga bo'linadi.

1. Erkalash: *bolajon, bulbuljon, kaptarjon, oyijon, singiljon, akajon, dadajon; Noibaxon, Muharramxon: Qimmatoy, Rohatoy; chaqaloq, qizaloq, bo'taloq, toyloq*.

2. Kichraytirish: *uycha, ko'rpacha, yigitcha, qizcha, Xomidcha, Qo'zichoq, toychoq, tugunchak, kelinchak*.

3. Hurmatlash: *Ammo men bo'lsam bu gapga qarshi tushib, sizlarning bu fikrlaringiz yanglishdir, biz uch yil bo'yi janobi O'taboy qushbegining qo'l ostilarida yashab hech bir zulm ko'rmadik ...* (A. Qodiriy).

Yuqoridagi jumalalarda egalik qo'shimchasi otga -lar qo'shimchasidan so'ng qo'shilgan. Agar -lar tushib qolsa, (fikrlari,

⁴³ *Qarang*: Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. –T.: O'qituvchi, 1980.–239-b.

ostlari) hurmat ifoda topmaydi. Egalik qo'shimchasidan keyin kelsa (*yo'zlaring*) ko'plik, oldin kelsa (*yo'zlinglar*) hurmat ifodasi yuzaga chiqadi.

Ayrim hollarda *-lar* qo'shimchasi piching ma'no ifodasida ham qo'llanadi: *Shunga ham aqllari yetmadimi, ukajon*.

4. O'xshatish: bu shakl *-dek (day)* qo'shimchasi yordamida yasaladi va biror narsa, voqea, hodisani *-dek* qo'shimchali so'z anglatgan narsa, voqea-hodisaga o'xshatadi.

Badiiy ijodda tasvir vositasi sifatida qo'llanadi.

Kumush bibi ham ixtiyorli, ixtiyorsiz bu kulgilikka tortilib, uning yovvoshgina iljayishidan yoqutdek lablari ostidan sadaf kabi oq tishlari bir oz ko'rinib qo'ydi. (A. Qodiriy).

Ammo men yigirma yillab shuning uyida qolib, sira ham Homidning ichidagiga tushuna olmas edim va hamisha ko'zimga dimlangan qorong'u o'radek qo'rqinchli ko'rinar edi, — dedi ... (A. Qodiriy).

Yuqoridagi har ikki parchada *-dek* qo'shimchasini olgan ot turkumidagi so'z — *yoqut* hamda *o'ra* qo'llangan, ular o'xshatish obyekti hisoblanadi. Bulardan birinchisida *lab yoqutga*, ikkinchisida insonning *ichi*, dili, qalbi *o'raga* o'xshatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, birinchisida obyektga nisbatan munosabat ijobiy, ikkinchisida esa salbiy.

Bunday konstruksiya badiiy uslubga xosdir.

Mashina uning yonidan o'qday uchib o'tdi-da, muyulishga borib chapga burildi. (O'.Umarbekov).

Ot turkumida juft va takroriy shakllar ham borki, ulardan ham uslubiy foydalanish kuzatiladi. Juft otlarning ba'zilar ma'noni kuchli o'ttenka bilan ifodalaydi.

Xudoyo xudovando, o'zing ularni har qanday balo-qazodan asragin. (O'.Umarbekov).

Uning har bir asari mehnatkash xalqning og'ir turmushidan nolish, amaldorga, xalqning qonini so'rib huzur-halovatda yashayotgan boylarga chuqur nafrat bilan sug'orilgan "Xapalak" she'rini albatta yod olinglar. (O'.Umarbekov).

Demak, ot turkumi doirasidagi so'zlar uslub talabiga ko'ra turli shakl va ma'nolarda qo'llanar ekan. Natijada otlar boshqa turkumga o'tishi, kelishik qo'shimchalari vositasida turlanishi, funksiyaviy shakllar yasalishi uning uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini

ko'rsatadi. Otning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish, ayniqsa, badiiy ijodda, oddiy so'zlashuvda yaqqol ko'rinadi. Bu imkoniyatlar nutq ta'sirchanligi, jozibadorligini oshiradi.

3-§. Sifatlarning uslubiy imkoniyati

3.1. Sifatning morfologik xususiyatlari

Sifatlar narsa belgisini bildirib keladi: *yaxshi, shirin, ko'k, oq, yumshoq, issiq* va b. Sifatlar harakat belgisini ham bildirib kelishi mumkin: *qo'pol so'zlar, sovuq qaradi, qisqa yo'taldi, uzoq esnadi* va b. Albatta harakat belgisini ayrim sifatlargina bildiradi, xolos, ularning asosiy xususiyati narsa belgisini bildirishdir. Sifatlarga xos xususiyat shular bilan cheklanib qolmaydi, balki ularda ham morfologik, ham sintaktik xususiyatlar bor bo'lib, bular uslubiyatga ham bog'liqdir.

Otga bog'lanib kelgan sifat o'z shaklini o'zgartirmaydi: *zangori osmonning, zangori osmonni, zangori osmonda*. Ot esa turli so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni oladi. Otga bog'lanishda hech qanday o'zgarishga uchramaslik sifatning o'ziga xos bo'lgan morfologik xususiyatidir.

Sifatlardagi morfologik xususiyatlardan yana biri daraja belgisidir.

3.2. Sifatning darajasi va ularning nutqda qo'llanishi

Sifatlarning daraja shakli uch xil: oddiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

Oddiy daraja belgining ortiq yoki kamligini ifoda etmaydi, hech qanday daraja ifodalovchi vositalarga ega bo'lmaydi: *oq, yo'g'on, uzun, suyuq, inoq*. Bunday sifatlar barcha uslublarda birday qo'llanadi.

Oddiy daraja shaklidagi sifatlar ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, *Bola tug'ma **garang** edi; Bola ota-ona nasihatiga mutlaqo **garang** edi. Bola nima qilarini bilmay **garang** edi.*

Yuqoridagi misollarning birinchisida *garang* so'zi oddiy (me'yoriy) darajada, ma'no ifodasi betaraf. Ikkinchi misolda garchi eshitish qobiliyatiga ega bo'lsa-da *garang* so'zi bolaning *gapga quloq solmasligi* ma'nosida uslubiy qo'llangan. Uchinchi misolda butunlay boshqa belgi nazarda tutilgan. Bunda bolaning *nima qilishini bilmay qolgan* holati belgisi ifoda topgan. Bunda *nima qilishni bilmay qolishlik*, garanglikdagi *hech narsani eshitmaslikka*, ya'ni bir holat belgisi boshqa bir holat belgisiga o'xshatilgan.

Badiiy ijodda, oddiy soʻzlashuvda belgining meʼyordan ortiq, kuchliligi ifoda etiladi. Lekin tilda belgi ortiqligini koʻrsatuvchi, yaʼni orttirma darajani ifoda etuvchi morfologik koʻrsatkich yoʻq. Shunday maʼno fonetik va leksik usulda yuzaga chiqadi. Orttirma darajaning fonetik usulda yuzaga chiqishi, asosan, ogʻzaki nutqda, tovush tembriga koʻra sodir boʻladi. Yozma nutqda esa urgʻu va bosh boʻgʻin yoki bosh qismni olib, sifat oldidan qoʻllash bilan belgining ortiqligi ifodalanadi: *achchiq, nordon, muloyim; dum-dumaloq, tep-tekis, qip-qiysiq*.

Achchiq orttirma sifat birinchi tovushi *-a* ga urgʻu orttiriladi, *nordon* soʻzida esa urgʻu birinchi boʻgʻindagi unliga tushadi.

Dum-dumaloq shaklda esa *dumaloq* soʻzining bosh qismi *dum* – olinib, *dumaloq* soʻzi oldiga qoʻshiladi. *Tep-tekis* soʻzining birinchi boʻgʻini *te*– olinadi, unda *p* tovush orttiriladi hamda *tekis* soʻzi oldiga qoʻshiladi. Baʼzan *m* tovush orttiriladi: *yam-yashil, koʻm-koʻk*. Bosh qismidagi unli kuchli talaffuz etiladi. Badiiy ijodda bunday qoʻllash his-hayajon (emotsiya)ni ifoda etadi.

Belgining ortiq darajasi maxsus soʻzlar yordamida ifoda topadi: *Juda tez, juda salqin, gʻoyat goʻzal, gʻoyat shirin, oʻta baland, oʻta sovuq, gʻirt ahmoq, gʻirt nodon, gʻirt savodsiz*. Yuqoridagi maxsus soʻzlar ichida bittasi (gʻirt) faqat salbiy belgilarga nisbatan qoʻllanadi.

Belgining kuchsiz darajasi ikki usulda ifoda topadi. Birinchisi leksik usul boʻlib, bunda maʼno meʼyordan kamligi (kuchsizligi) oddiy daraja belgili soʻzlarga ayrim soʻzlar qoʻshilib kelishi yordamida hosil boʻladi. *Bir oz tuzuk, sal yaxshi, xiyol yorugʻ*.

Ikkinchi usul morfologik usuldir. Bu usulda darajaning kuchsizligi *-roq* qoʻshimchasi yordamida yuzaga chiqadi: *qizilroq, koʻproq, qorongʻiroq, yaqinroq, kattaroq, horgʻinroq*.

Badiiy ijodda, oddiy soʻzlashuvda har ikki usul birga qoʻllanishi uchraydi: *xiyol kattaroq, sal uzunroq, bir oz torroq*.

Demak, *xiyol, sal, bir oz* kabi leksik vositalar *-roq* qoʻshimchasi anglatgan belgining meʼyoriy holatdan kuchsiz darajasini eʼtiborga olmaslik mumkinligi ifodasini beradi.

Belgining meʼyoriy holdan past darajasi morfologik vositalar (*-ish, -(i) -mtir*) bilan ham ifodalanishi mumkin: *qizgʻish, sargʻish, koʻkimtir, qoramtir*. Sifatga *-roq* affiksi ham qoʻshilishi mumkin: *qizgʻishroq, sargʻishroq, koʻkimtirroq, qoramtirroq*.

Bunday qo'llash, albatta, subyektning obyektga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir, bu holat esa albatta nutq egasining individual nutqiy uslubi, ruhiyati bilan bog'liq.

Rang-tus bildiradigan ayrim sifatlar qo'shib keluvchi *-ish*, *-(i)mtir* qo'shimchalari aslida belgining kuchsiz darajada ekanligini bildirmaydi, ular sifat bildirgan rang-fusga yaqinligini anglatadi.

Badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda belgining kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi boshqa vositalar ham bor: *oq sariq, qora qizil, nimpushti, nimtati, nimrang, nimqorong'i*. Bulardan badiiy ijodda personajga xos nutq yaratishda foydalaniladi.

Juft sifatlar ham badiiy ijodda faol qo'llanadi, ular umumlashtiruvchi ma'no ifodasiga ega bo'ladi: *past-baland dalalar, uzun-qisqa ko'chalar, ochin-to'qin odamlar, yosh-qari aholi, katta-kichik bolalar*.

Takror sifatlar ko'plik shaklida qo'llanadi: *yosh-yosh, katta-katta, uzun-uzun, shirin-shirin*. Mazkur takror sifatlar aniqlab kelgan ot ham ko'plik qo'shimchasini oladi: *katta-katta tarvuzlar, uzun-uzun teraklar, yosh-yosh qizlar*.

Badiiy nutqni yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri, sifatlarining otlashuvidir. Albatta, sifatlarining gapda ot o'rnida kelishi badiiy uslub va oddiy og'zaki so'zlashuv uslubi bilan bog'liq. Sifat turkumidagi so'zlarning otga ko'chishida, shunga asos bo'lgan semasida, albatta subyektiv munosabat yuzaga chiqadi. Buning uchun sifatlar quyidagi semantikaga ega bo'lishi kerak:

1. Sifat rang bildiruvchi ma'nolariga ko'ra otga ko'chadi. *Uxla o'g'lim, kenja toyim, oppog'im, Umringning mard posboni shovvozi bor. (G'.G'ulom). Hali yoshsan bilmaysan oq-u qaroni.* (Hamza).

2. Sifat holat bildiruvchi ma'nosi vositasida otga ko'chadi. *Bu dunyoda bor bo'lsa-ya, bag'ri butun. Qag'ozdan qozon qilay, guldano'tin.* (G'.G'ulom).

3. Sifat xususiyat bildiruvchi ma'nosi ifodasi bilan otga ko'chadi. *U bu bedavolarni qishloq guzaridan qanday qilib olib o'taman, degan xayol bilan band edi.* (S.Ahmad). *Afsus, o'g'il egilmadi ... qotgan tayoq, Ulfatlari bo'ldi uch-to'rt sayoq.* (T.Yo'ldosh).

Sifat muhim belgi ifoda etuvchi ma'nosi vositasida otga ko'chadi. *Eshvoy Mo'minov! E, bu o'sha baqaloq-ku!* (O.Yoqubov).

Xullas, sifat turkumiga oid soʻzlar rang bildiruvchi, holat bildiruvchi, xususiyat bildiruvchi, belgi ifoda etuvchi maʼnolari vositasida otga koʻchadi hamda otning vazifasini bajarishi kontekstda, nutq jarayonida ayonlashadi va bu holat uslubga koʻra yuzaga keladi. Kontekst va nutq momentidan tashqarida sifat hech qachon otga aylanmaydi.

4-§. Sonlarning uslubiy imkoniyati

Sonlarning uslubiy oʻziga xosligi. Sonlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi: miqdor, tartib va sanoq. Miqdor sonlar tarkibiga kasr sonlar, bundan tashqari, aniqmas miqdoriylar ham kiradi. Masalan 3,4 (*uch butun oʻndan toʻrt*), 2,5 (*ikki butun oʻndan besh yoki ikki yarim*); koʻk, oz va h.k. Miqdor sonlar tuzilishiga koʻra oddiy (*besh, oʻn*) va murakkab (*besh yuz, oʻn bir*) hamda tarkibli, yaʼni oddiy va murakkab (*qirq birinchi*) boʻladi.

Miqdor sonlar narsaning belgisini sanash, donalash, taqsimlab va taxminlab (chamalab), jamlab koʻrsatadi. Miqdor sonlar koʻpincha *-lar* qoʻshimchasini olib, taxminiy miqdorni anglatadi (*toʻqqizlarga yaqin, toʻrtlarda*).

Sanoq sonlar narsalarni sanash, donalab koʻrsatish hamda taqsimlash maʼno ifodasini bildiradi. *Choʻchib oʻrnidan turgan ikki yigit oʻsha zahoti tosh boʻlib qotdi.* (T.Malik).

Maʼno jihatdan biror narsani *uch, besh, olti, toʻqqiz* deb sanash bilan *uchta, beshta, toʻqqizta* deb donalab sanashning deyarli farqi yoʻq: *uch qop, uchta qop; toʻrt doʻkon, toʻrtta doʻkon*. Biroq, *uch kishi* deyish mumkin, lekin *uchta kishi* deyish, yaʼni insonlarni donalab sanash bir oz hurmatsizlikdek tuyuladi, *uch nafar* deyish odob doirasida hisoblanadi. *Uchta kishi* shakli oddiy soʻzlashuvga xos.

Ayrim hollarda donalab koʻrsatishda qoʻllanadigan hisob soʻzlar oʻrnida *-ta* qoʻshimchasi qoʻllanadi: *ikkita lola – ikki dona lola; toʻrtta oʻqituvchi – toʻrt nafar oʻqituvchi* (oddiy soʻzlashuvda).

Ayrim hollarda sanoq son feʼl oldidan kelganda *-ta* qoʻshimchasi tushib qoladi: *Bir gapirib oʻn kuldi – Bitta gapirib oʻnta kuldi*. Birinchisida yoqishlik, ikkinchisida yoqinqiramaslik munosabati ayonlashadi.

Baʼzan *-ta* qoʻshimchasi *bir* soʻziga qoʻshilib *bitta* shaklida keladi, *-r* tovush *-t* ga aylanadi va harakat-holat ifoda etadi: *bitta qaramadi, bitta koʻrindi*. Ayrim hollarda *bitta* soʻzidan soʻng *ham* soʻzi

qo'llanadi: *bitta ham gapirmadi, bitta ham jilmaymadi. Bitta so'zi o'rni*da *hech so'zi ham qo'llanadi: hech ham gapirmadi, hech ham jilmaymadi. Bitta so'zi tushib qolganidek, ham so'zi tushib qolishi* mumkin: *hech gapirmadi, hech jilmaymadi.*

Sanoq son fe'l oldidan kelib ifoda etgan harakat-holat badiiy uslub va oddiy so'zlashuv uslubida boshqa shaklda ham ifoda etiladi: *bir gapirib qo'ymadi ham, bir jilmayib qo'ymadi ham.* Bunda ma'no o'zgarmagani holda, qo'shimcha o'ttenkaga ega bo'ladi. Ikkinchi misoldan anglashilgan ma'noni yanada bo'rttirib, kuchaytirib ifoda etishda ibora qo'llanadi: *tishining oqini ko'rsatmadi.* Ma'no o'ttenkasini yanada kuchaytirish maqsadida *hatto so'zi ham qo'llanadi: xatto tishini oqini ko'rsatmadi.* Mazkur konstruksiyada *ham so'zi* uchraydt, u kesim oldidan, kesimdan so'ng kelishi mumkin: *Hatto tishini oqini ham ko'rsatmadi – Xatto tishini oqini ko'rsatmadi ham.*

-*ta* qo'shimchali sanoq son birikma tarkibida keladi hamda ba'zi hollarda butunning qismi yoki bo'lagini ifoda etadi:

– *Ayt-chi, Homidboy, muttahamlar kimlar edi?*

– **Bittasi** – *toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek! ...*

Qo'rboshi yozdi:

– *Ha, ha! Hali Yusufbek hojining o'g'li degin! ... muttahamlar, ikkinchisi?*

– *Shu kunlarda Otabekka qizini bergan marg'ilonlik Mirzakarim.*

– *Pes-pesni qorong'uda topgan ekan, uchinchisi?*

– *Otabekning quli Hasanali.*

– **To'rtinchisi?**

Homid bir oz o'ylanib javob berdi:

– *Bilmadim ... Hozir Marg'ilondami, yo'qmi, andijonlik Akrom hoji! (A. Qodiriy).*

-*ta* qo'shimchasini olgan sanoq songa narsani ayirib, donalab ko'rsatish uchun -*gina* (-*qina*, -*kina*) qo'shimchalari qo'shiladi. *Mening yorim Farg'onada bittagina. (Qo'shiqdan). Kelaturib yo'ldan ikkitagina non oldim. (H.Nazar).*

Sanoq sonlar ichida *bir* soni alohida farqlanib turadi. Buni uning qo'llanishi, ma'nosi va vazifasiga ko'ra aniqlash mumkin. Bu sonni anglatuvchi so'z tub so'z sifatida, ba'zi qo'shimchalarni olgan yoki juft holda qo'llanishi mumkin.

Tub so'z shaklida qo'llanganda:

– sanoq ma'no ifodasini anglatib, narsaning miqdorini bildiradi:

Vafosizlik qadar qabih badnomlik yo'qdir. Tangri bir, so'z bir! (Oybek).

Ha, bu ish siz va men, yana Alloh taolodan o'zgalarga maxfiy qolur.

Mehnatingiz va qadirshunosligingiz ajrini to tirikman, mendan behad ko'rursiz. Ma'qulmi, birodar? So'z bir – Alloh bir! (Oybek).

– *Do'stlarim, oramizda sir yo'q – sekin, ammo qat'iy qilib gapirda Majdiddin. – Maqsad va muddaomiz ma'lum. Men bir masalani sizning muhokamangizga havola qilmoqchiman.* (Oybek).

– *ot oldidan formant bo'lib keladi va noaniqlikni ko'rsatadi: ...*

Shahobiddin uni asta turtidi: “Bog'i eram-a? Alloh taoloning karami keng, baxt ato qilsa, kichkina, lekin latofati barq urgan bir bog' sizga ham muyassar bo'lur”, dedi. (Oybek).

Yuqoridagi misolda bir so'zi ham miqdorni, ham noaniqlikni ifoda etadi.

– *Bir so'zi harakatning belgisini bildiradi: – Yo'q, aslo! Men o'z mulohazamni so'zlaymen. Isbot va dalil hojatmi, chaqiring yurtning san'atkorlarini! – dedi keskinlik bilan Sultonmurod va xuddi munozaraga g'ayrati toshib ketganday, o'rinda bir chayqalib qo'ydi.* (Oybek).

Katta hovlida sho'ppayib bir men qoldim. Bu misolda bir so'zi kishilik olmoshi oldidan kelib, aniq miqdorni ifodalaydi.

– *Istak-xohish ma'nosini ifodalaydi: Nega ertalab shaharni bir aylanib kelmayin, deb chiqib ketgan va tushlik oshga yetib kelish uchun va'da ham bergan edi.* (A. Qodiriy).

– *Sifat bilan birga gapda aniqllovchi vazifasida keladi: Bobur ikki tomonni ham tinchitadigan nozik bir siyosat yurgizayotganini begim endi sezdi.* (P. Qodirov).

– *Fe'l qo'shilib, harakatning belgisini bildiradi: Arava bir chayqaladi-da, yana tekis yurib ketdi.* (H.Nazar).

– *Ma'noni kuchaytiradi: Pahlavon Olam bilan Molon Pahlavonning kurashini uning oldida bir o'yinchoq deyaber!* (Oybek). *Sultonmurod titroq ovoz bilan, “Salomatmisiz, singlim, ko'p yashang” deb, bir zumda oyoqlari tamom holsizlangandek kalovlanib, Arslonqul boshlagan xonaga kirdi.* (Oybek).

– *Birikmaga noaniqlik ottenkasini beradi: Sultonmurod jiddiy, yirik, o'tkir ko'zlari bilan do'stiga zimdan tikilib, uni tashvishga solgan bir dardni sezdi.* (Oybek).

– To‘satdan bo‘ladigan voqeani ifoda etadi: *Hafsalasi birdan pir bo‘ldi ...* (P.Qodirov).

– Noaniq shaxs ma‘nosini bildiradi: *birov o‘tgandek bo‘ldi*. Ba‘zan shevalarda aniq shaxsni anglatadi: *Kelmasa, taqdirimdan ko‘rayin, so‘ngra men ham birovimgan bo‘layin*. (Alpomish).

– Chegaralash ma‘nosini ifodalaydi: *To‘yga birgina siz kelmadingiz*.

Bu misoldagi *birgina* so‘zining ma‘no ifodasi *faqat* so‘zining ma‘no ifodasiga teng keladi: *To‘yga faqat siz kelmadingiz*.

– Noaniqlik ma‘nosini anglatadi, bunda *nima, narsa* so‘zlari bilan birga keladi: *Qulog‘imga bir nimalarni shivirlaydi* (S.Ahmad). *Unda kutilmagan bir narsa paydo bo‘ladi*. (S.Ahmad).

– Takror keladi va ravishga ko‘chadi: ... *to‘planganlarga bir-bir qarab chiqadi*. (O‘Umarbekov).

Nutq jarayonida *ilk* so‘zi o‘rnida *bir* so‘zi qo‘llanadi: ... *ularni ilk marta (bir marta) ko‘rayotgandek qiziqish va hayajon bilan kutib oldi*. (Oydin). *Bir* so‘zi yana *yakka, yolg‘iz, yagona* so‘zlari o‘rnida ham qo‘llanadi: *yakka o‘zi – bir o‘zi; yolg‘iz o‘zim – bir o‘zim; yagona uy – birgina uy. Yakka, yolg‘iz, yagona* so‘zlari son emas, balki son – *bir* so‘zi ular vazifasini bajarib keladi.

Narsaning soniga ko‘ra belgisini ifoda etuvchi sanoq sonlar ayrim hollarda narsalarning hisobini ko‘rsatuvchi hisob so‘zlari bilan birga qo‘llanadi. Hisob so‘zlarning nutqda qo‘llanish doirasi juda keng va turli-tumandir, ular ko‘pincha ot turkumida bo‘ladi.

Bunday so‘zlarning ayrimlari badiiy nutqda, oddiy so‘zlashuvda ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi, shuningdek, qo‘shimcha ma‘no otenkasiga ega bo‘ladi.

Og‘iz. Tub ma‘nosi juda qisqa vaqt davom etuvchi jarayonni anglatadi: *Bir og‘iz shirin so‘z nondek arzanda*. (G‘.G‘ulom). *Bir og‘iz gapim bor, shuni aytaman-u, ketaman*. (S.Ahmad).

So‘zlashuv nutqida: *Bir-ikki og‘iz bir nima degin. Oling, nega sustsiz, bir-ikki og‘iz yeng, ovqat sovuyapti*.

Shingil. Tub ma‘nosi – bir bosh uzumning eng kichik qismini ifoda etadi. *Oila a‘zolari bog‘laridan bir shingil uzum uzishdan mahrumlar*. (S.Ahmad). Ko‘chma ma‘noda: *Har sohadan bir shingil*. (Gazeta rukni). *Bir shingil hazil eshiting*.

Qatra. Juda oz miqdordagi suyuqlik: *Ko‘zida bir qatra yosh ko‘rinmadi*. Ko‘chma ma‘noda: *Qatra xandalar*.

Chimdim. Ikki yoki uchta barmoq uchida olish o'Ichovi: *Tog'am bir chimdim nosvoyni olib hidladi.* (Oydin). Ko'chma ma'noda: *Har sohadan bir chimdim, bir chimdim.*

Gala. Tub ma'nosi jonivorlar, parrandalar miqdorini anglatadi: *Kuzda turnalar galasi janub tomon arg'imchoq solib uchib o'tadi.* Ko'chma ma'noda: *Bir gala bola ko'cha changitib, shataloq otganча o'tib ketdi.* (G'.G'ulom).

Juft. Tub ma'nosi ikki narsa — juft hisobini ko'rsatadi. *Yaraqlagan bir juft kalishni menga uzatdi.* (Oydin). Bitta-bittalab sanaladigan narsa, shaxslarni juftlab hisoblashda qo'llanadi: *Bir juft sada ostidagi supada odam qalin.* (H. Shams). *Bir juft bola yong'oq o'ynardi. Sherigi, umr yo'ldoshi ma'no ifodasini beradi: Har kim o'z jufti bilan qo'sha qarisin. Har kim o'z jufti bilan raqs tushsin. Hech kim jufti halolidan ayrilmasin.*

Yakka narsalarni juftlab hisoblash uchun qo'llanadi: *Bir juft kaptar ko'kda charx urdi.* (Oydin).

Qop. Tub ma'nosi ro'zg'or buyumi. ... *qopni og'zini yana burab qo'ydi.* (A.Qahhor). *Bo'sh qop tik turmas. Qoping bo'lsa bo'lsin xaltang bo'lmasin.* (Maqol).

Ba'zan juft qo'llanadi: *Bu yerda qop-qop arpa, bug'doy ... kelib turardi. Gap desang, qop-qop, ish desang Samarqanddan top.* (Maqol).

Qoshiq. Tub ma'nosi — ro'zg'or buyumi: *yog'och qoshiq, kumush qoshiq.* Ko'chma ma'noda — ozg'in: *Bechora qoshiqdek bo'lib qolipti. Quruq qoshiq og'iz yirtadi.* (Maqol).

Piyola. Tub ma'nosi — ro'zg'or buyumi. *Ovqatdan keyin O'rmonjon ikki piyola choy ichdi.* (A.Qahhor).

Taxminiy miqdor va vaqt ma'no ifodasini beradi: *Zaynab unga ikki piyola choy ichirgandan so'ng so'radi* (A.Qodiriy). "... o'g'lingni o'linga olib borayotganim yo'q, nihoyati bir piyola choy ichadi-yu, keladi! — dedim". (A.Qodiriy). *Bir piyola choyga marhamat qiling* (Kamtarona takalluf). *Bir piyola choy ichguncha ishni bitirdi. Oradan bir piyola choy ichar vaqt o'tganча qaytib keldi.*

Do'ppi. Tub ma'nosi — bosh kiyim. O'Ichov birligi: *Bir do'ppi o'rik terib keldi.*

Tandir. Tub ma'nosi — non, somsa yopiladigan maxsus qurilma. *Uyida chiqsa uni yo'q, tom boshida qo'sh tandir. Qo'shni tandirining tishi bor.* (Maqol). Taxminiy miqdor ifodasini beradi. *Bir tandir non.*

Tandir to'la non. Juft holda ham qo'llanadi. *To'y-hashamlarda tandir-tandir non yopiladi. Omborda doning bo'lsa, tandirda noning bo'ladi.* (Hikmatli so'z).

Quloch. Tub ma'nosi – yelka balandligida kerilgan har ikki qo'lning o'rta barmoq uchlari orasidagi masofa (O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild, 370-b.). Xalq og'zaki ijodi, badiiy nutq va oddiy so'zlashuvda uzunlik o'lchovi sifatida qo'llanadi. *Otgan toshlari ming quloch yerdan ham o'z nishoniga tegadi.* (Ertakdan). *Bir quloch arqonni olib uydan chiqib ketadi.* (Oydin). *Uzun ma'no ifodasini beradi: Tili bir quloch.*

Qarich. Tub ma'nosi – yozilgan kaftning bosh barmoq bilan jimjiloq uchlari orasidagi masofa. *Arslonqul qilichini bir qarichcha sug'urib, po'latiga tikildi-da, yana suqdi.* (Oybek). *Olti qarich kenglikda uzundan uzoq tor ko'cha, tor ko'cha boshida kichkinagina bir eshikcha edi.* (A. Qodiriy).

Uzunlik o'lchovi uchun qo'llaniladigan hisob so'z – *qarich*. Badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda ayrim so'zlar bilan qo'llanib, belgi, holatni kuchaytirib ifoda etishga xizmat qiladi. *Men seni bir qarichligingdan tarbiyalab, yedirib-ichirib, kiydirib katta qildim.* (N.Safar). *Namuncha qovog-tumshug'ingni bir qarich osiltirib olding! Qilg'iliqni qilib qo'yib, tag'in nega tilingni bir qarich qilasan!* (H.Nazar).

Tutam. Tub ma'nosi – kaftda siqimlab ushlaganda bosh va ko'rsatkich barmoq orasidan jimjiloq bilan kaft qismi orasigacha bo'lgan uzunlik, miqdor. *Yoqubbek soqolini tutumiga olib,..* (P.Qodirov). *Ko'chma ma'noda – juda qisqa: Yoz kechalari bir tutam.* (R.Fayziy). *Inson umri bir tutam, ko'z ochib yumguncha kech kiradi. Soqolini tutamladi. Sochini tutamladi. Afandi otning changida qolib, alamidan soqolini tutamladi ... biroq qo'lga soqol ilinmapti.* (Latifa).

Jamlovchi son bir turdagi narsalar yig'indisini ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday sonlar o'ndan oz bo'lgan sonlarga maxsus qo'shimchalar qo'shilishidan hosil bo'ladi.

– *Ov* qo'shimchasi qo'shiladi va jamlik ma'nosi anglashiladi: *ikkov, uchchov, beshov, to'rtov, oltiov.* Ba'zan *-ov* qo'shimchasi – *ovlon* shaklida keladi va jamlikni ko'rsatadi: *Oltiovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon to'da bo'lsa, tepadagin undirir.* (Xalq maqoli).

-*ala* qo'shimchasi ayrim sonlarga to'g'ridan to'g'ri qo'shiladi, ba'zan o'zakka qo'shilmay, donalik ifodasini beruvchi -*ta* qo'shimchasidan keyin keladi: *uchalasi, to'rtalasi, ikkalasi; yettitalamiz, o'ntalamiz, beshtalamiz*. Ayrim hollarda (uslubga ko'ra) ma'noni kuchaytirish maqsadida -*ov*, -*ala* qo'shimchasini olgan sonlardan oldin *har* so'zi qo'llanadi: *har ikkalasi, har ikkovi, har ikkala tomon*. Oddiy so'zlashuvda *har ikkalang, har uchchalang* shakli ham uchraydi. Badiiy nutqda, shevada, oddiy so'zlashuvda -*ov+la+b*, -*ov+la+sh+ib* qo'shimchalari jamlovchi son hosil qiladi: *ikkovlab, uchchovlab; ikkovlashib, uchchovlashib*. To'liq bilan *Sadr ikkovlashib bir xonani ijaraga olishdi. To'sinni uchovlashib zo'rg'a ko'tardik*.

Demak, son turkumiga mansub so'zlar nutqda faqat o'z genetik ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda ham qo'llanar ekan. Bunga son turkumidagi so'zlar uslubiy imkoniyatga egaligi sabab bo'ladi. Son turkumiga oid so'zlarning uslubiy imkoniyatlari badiiy nutqda, shevalarda, shuningdek oddiy so'zlashuvda yaqqol ko'rinadi. Og'zaki publitsistik nutqda ham qisman uchraydi. Ilmiy nutqda esa deyarli qo'llanmaydi.

5-§. Olmoshlarning uslubiy imkoniyati

Kishilik olmoshlari o'ziga xos uslubiy jihatlari bilan boshqa tur olmoshlardan ajralib turadi. Ular, odatda, muayyan shakldagi fe'llar bilan birga qo'llaniladi:

Faqat bu kun kishilarning og'zidan eshitib bildikki, siz uni Toshkentdan isyon chiqargani keluvchi, deb gunohkor qilur ekansiz. Onam bilan manim baxtinga, kutmagan joydan mo'jizadek bu maktub topildi-da, men xizimatingizga yugurdim ... – Bu senmi qizim? (A. Qodiriy).

Birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshini fe'l bilan qo'llanishi shart emas, chunki fe'l bilan birga kelgan shaxs qo'shimchasi kishilik olmoshlari (*men, sen*) semantik vazifasini bajaradi, nazarda tutilgan harakat subyektini ko'rsatadi:

- *Toza kutdingizmi? – dedi Jamoliddin otdan tushar ekan ...*
- *Tushunmadim*. (T.Malik).

Kishilik olmoshlarining tushib qolishi bayonga muayyan jo'shqinlik va shu bilan birga, so'zlashuvga xos xususiyat baxsh etadi. Rasmiy-ish yuritish uslubida shaxs ko'rsatkichli shaklida kishilik

olmoshining tushib qolishi me'yoriy hol hisoblanadi. Masalan, buyruqlar, farmoyishlarda ... *buyuraman*; ... *taklif etaman*; ... *tasdiqlayman* kabi shakllar uchraydi.

Oddiy so'zlashuv nutqida ikkinchi shaxs kishilik olmoshi buyruq maylidagi fe'llar uning semantikasini o'z zimmasiga olishligi tufayli tushib qoladi:

Tez Chorraha darvozasiga boring! Xonzoda begimni topib, mening buyrug'imni yetkazing! Darhol bu yoqqa yetib kelsinlar! (P.Qodirov).

Kishilik olmoshi buyruq, xitob keskinligini yumshatadi:

– *Boburjon, hammamiz najotni sizdan kutmoqdamiz! Darveshona yurishlarni endi bas qiling. Hamma sizni quvg'indagi shoh deb bilir, boshqa gapga hech kim ishonmagay. Xon kishilari ham sizni taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan bir shahzoda deb izlab yururlar. Endi bu qishloqni xavf-xatardan qutqarish ham sizning burchingizdir, jonim!* (P.Qodirov).

Endi Ulug'bek jahllanadi. Muxtasibni chinakamiga so'roqqa tutdi.

– *E sayyid! Men yomonroqmu, yo Fir'avn?*

– *Fir'avn.*

– *Siz yaxshiroqmusiz, yo Muso alayhissalommu?*

– *Muso alayhissalom.*

– *Qodiri muxtor Musoga yaratilmishlarning eng yamoni bo'lg'on Fir'avnni to'g'ri yo'lga solg'in deb undag'anda "qattqlik birlan achchiq so'zlamag'il, balki yumshoq va chuchuk til birlan gapir", deb buyurgan. Siz ersangiz Musodin ortiq bo'lmayin turib menga, Fir'avndin yomonroq bo'lmag'onim holda, ne sababdin qattiq gapirasiz?* (B.Ahmadov).

– *Biz sizni Astrobodga hokim qildik. Safarga tayyorlanmoqlari kerak!*

Senlab yoki sizlab murojaat qilish kishilararo munosabatni aks ettiradi, ko'pincha boshqacha ifoda etish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun badiiy matnda personajlarning muomala shakli muallif tomonidan izohlanadi, o'zaro munosabat murakkabligi (chigalligi), fe'l-atvorlari, vaziyat ochib beriladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida personajlararo munosabatga e'tibor beraylik.

– O'g'lim, hali *sen* eshitingmi, yo'qmi, haytovur biz *sening* ustingdan bir ish qilib qo'ydik...

Otabek, ma'lumki, *ularning* qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lgan "ishlarini" albatta bilar edi. Shunday ham bo'lsa bilmaganga solindi:

– Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilgan ishlari, albatta, nomaqbul bo'lmas, – dedi.

Hoji, o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishini bilmay qoldi...

– Biz *sening* uchun Olim ponsodboshining qiziga unashib qo'ydik... Endi *sening* bilan to'y maslahatini qilmoqchi edik...

Otabek onasiga bir og'iz so'z demay, ma'noli qilib otasiga qarab oldi. Hoji uyatliksimon "shundog'" deb qo'ydi...

– *Sizlarni* ranjitib bo'lsa ham bir marta uylangan edim-ku.

Endi ...

– *Sen* uylansang biz ranjirmidik? – dedi kulib hoji.

– Ranjimasalaringiz ...

Hoji tuzuklanib o'tirib oldi:

– Bu ranjishdan emas, hojatdan, o'g'lim.

– Nima hojat?

– Hasanalining so'ziga qaraganda, qayin otang qizini Toshkentga yubormas ekan. O'g'il o'stirib katta qilgan onangning bo'lsa, oldiga kelin qayg'usi keladir ... (A.Qodiriy).

Yuqoridagi parchada *sen* va *siz* kishilik olmoshlari uslubiy jihatdan o'z o'rnida qo'llangan, ularni yuqoridagi holidan boshqacha qo'llash mutlaqo mumkin emas.

Bir-biri bilan tanish bo'lganlarning sizdan senga o'tishi o'rtada kelishmovchilik, nizo yuzaga chiqqanligi, qandaydir ichki norozilik, suhbatdoshlardan birining ikkinchisiga ruhiy ta'sir o'tkazganligi tufayli bo'lishi mumkin.

Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliklaringizda *siz haqlimi edingiz!*

– *Haqli* edim! – dedi Homid va siltab xanjarli qo'lini bo'shatib chalqancha yiqildi.

...Otabek zaharxanda ichida "*haqlimi eding*" deb so'radi. (A.Qodiriy).

Kishilik olmoshi *sen* o'rnida *siz* qo'llanishi ijobiy emas, balki salbiy ottenkali bo'lishi mumkin. Bunday holni yoshi katta va yoshi kichik suhbatdosh o'rtasidagi munosabat buzilganda, kattaning

kichikka bo'lgan piching qilishi, kesatish, hatto ochiq-oydin kalaka qilish niyati, ruhiy holati tufayli yuzaga chiqadi: *Siz menga, onangiz tengi odamga, aql o'rgatmoqchimisiz, hali. Yo'q, aql o'rgatmoqchi emasman, xatoingizni ko'rsatmoqchiman.* (O'. Umarbekov).

Biz kishilik olmoshi faqat shaxslar guruhini bildiribgina qolmaydi, balki ilmiy nutqda, ba'zi hollarda publitsistik nutqda birlikdagi birinchi shaxsni ham ifoda etadi, kamtarlikni ifodalaydi. *Tadqiqot natijasidagi xulosalarimizni biz o'n ikki bandda keltirdik. Bu ishni kim uddaladi? – Biz uddaladik.*

Birinchi misolda *keltirdik – keltirdim*, ikkinchi misolda *uddaladik – uddaladim* ma'nosida. Mazkur misollardagi *biz* olmoshi birlikdagi *men* o'rnida qo'llangan.

Badiiy asarlarda, oddiy so'zlashuvda *biz* olmoshi *men* o'rnida qo'llanib, bir oz maqtanish yoki o'zini ko'rsatish ma'no ifodasini anglatadi. *Biz bu muammoni o'z usulimizga asoslanib hal qilamiz. (Men bu muammoni o'z usulimga asoslanib hal qilaman ma'nosida).*

Ko'rinadiki, ilmiy usulda, masalan avtoreferatlarda muallif “*men*” ini topish qiyin.

Vrach nutqida o'z davolanuvchisiga hamdardligini ta'kidlash ohangida birinchi shaxs ko'plik uchraydi: – *Xo'sh, ahvollar qalay. Biz o'zimizni qanday xis qilmoqdamiz? [Siz (hurmat ma'nosida) o'zingizni qanday his qilmoqdasiz? – Sen o'zingni qanday his qilmoqdasan ma'nosida].*

Kishilik olmoshlari shaxslarni ifoda etganda ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin. Bu holat asosan badiiy uslubda, ritorik so'roq gapda, monologda uchraydi: – *Yo'q, yo'q, mulla Homid, – dedi, – bu yoqda gap bor: hukumat turganingdan keyin, yuz yoqning mulohazasini qilar ekansan ...* (A. Qodiriy). “*Mana, o'g'lingni ham ko'rding, – dedi o'ziga istehzo bilan. – Endi nima qilasan?*” (O'.Umarbekov). *Sen o'zingga zeb berishdan qaytmas ekansan obro'dan ham, amaldan ham ajrab qolasan.* (Sh.Rashidov).

Ikkinchi, uchinchi shaxs ko'plik olmoshlari *sen, u* olmoshlari o'rnida qo'llanadi va hurmat ma'no ifodasini beradi: *Siz bir oz dam oling.* (A. Qodiriy). *Ular nega jimlar, aya?* (A.Muxtor).

Kishilik olmoshlari *–lar* ko'plik qo'shimchasini olish bilan ko'plikni ko'rsatmaydi, hurmat ma'no ifodasini ham bermaydi. Masalan, *sen* olmoshi *–lar* ko'plik qo'shimchasi bilan qo'llanganda

obyektga nisbatan munosabat takallufsiz bo'ladi yoki bir oz kamsitish ma'no ifodasini bildiradi: *Senlarga aytaman* (*sen* va *boshqalarga*).

Ba'zi kishilik olmoshlari shaxsni ifodalabgina qolmaydi, balki ko'rsatish ma'no ifodasini ham beradi.

Kishilik-ko'rsatish olmoshlari (*u*, *ular*) ham kishilik, ham ko'rsatish olmoshi vazifasini bajaradi, otning o'rnida keladi:

Durbek keldi — u keldi, Diyorbek kuldi — u kuldi. Qudalarni kutyapmiz — ularni kutyapmiz. Kitob bilim manbai, u — buyuk kakshfiyot.

Birinchi shaxs ko'plik olmoshi *men*, *sen* olmoshlari o'rnida qo'llanishi mumkin: *Biz bir-birimizni yaxshi bilmaymiz. (Men va sen bir-birimizni yaxshi bilmaymiz ma'nosida).*

Amaldor surbetligi ... bu ma'naviyat bilan, avvalo, egallagan lavozimiga munosib emasligi, man'an tubanligi, xizmat vazifasini bajarishda mustaqil fikrlay olmasligi, xalqqa xizmat emas, rahbariga yaltoqlanish, tayinlangan o'rnidan ajrab qolmaslik dardi, insonlik, g'ururi mukammal emasligi, milliy g'ururdan mahrumligi, zimmasiga yuklangan topshiriqni bajarishda palapartishligi va noshud, notavonligi uchun jazo muqarrar ekanligini idrok eta bilmasligi bilan bog'liq.

Olmoshdan bunday foydalanish publitsistikada o'ziga xos uslub hisoblanadi, undan, ko'pincha, notiqlikda, nazmda ham foydalaniladi.

Ko'rsatish olmoshlari narsa, belgi, shaxsni ta'kidlash, ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ular adabiy nutqda quyidagilardir: *u*, *bu*, *shu*, *o'sha*, *mana*, *ushbu*. Oddiy so'zlashuvda, shevada boshqacha shakllarda ham uchraydi: *anu*, *anovi*, *mashi*, *munday*, *ul*. Masalan, *anu kuni*; *anovi tasqara*; *mashi gaping*; *munday og'aynilar*.

Ko'rsatish olmoshlari ot, sifat va ravish o'rnida qo'llanishi mumkin. Otlar kabi shaxs yoki narsani ko'rsatish orqali ifodalaydi.

Hozir sizning adolatli hukmingizdan bir narsani so'raymiz: ul shuldirkim, bizning to'g'rimizda yomon maqsad bilan sizga chaqimchilik qiluvchi ig'vogar va g'arazgo'ylar bu majlisga hozirlansinlar-da, o'zlarining mash'um kashflarining va ko'rgan-eshitganlarini isbot qilib, bizni qayta boshdan dor ostiga yuborsinlar!

Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz! (A.Qodiriy).

Birinchi misolda — *u* ko'rsatish olmoshi *ul* shaklda kelgan va bir narsaga ishora qiladi. Ba'zan badiiy ijodda mavhum narsaga ishora

qilinar ekan, u albatta izohlanadi. Jumlaning qora harflarda berilgan qismi shunday vazifani o'taydi. Ikkinchi jumladagi *bu* ko'rsatish olmoshi *xatga* ishora qiladi. *Bu* ko'rsatish olmoshi *ushbu* shaklda ham uchraydi. *Ushbular navro'zi olamgacha unib-o'sib qolar ekan ...* (B.Ahmedov).

Ot o'rni qo'llana oladigan ko'rsatish olmoshlarining barchasi *-lar* ko'plik qo'shimchasini oladi va narsa ko'pligini hamda hurmat ma'nosidagi birlikni ifoda etadi. Birlik shaklida shaxslarga nisbatan qo'llanganda o'sha shaxsga mensimay, hurmatsizlik bilan qarashni, takallufsizlikni bildiradi.

– *Rahmatli ham yoshligida shunaqa narsaga o'ch edi. Shularni olib kelganimda boshi osmonga yetgan edi.* (O'.Umarbekov).

Shularni deb rosa dakki eshitdim. (Bolalarni deb rosa dakki eshitdim ma'nosida).

Ko'rsatish olmoshi belgiga ishora qiladi:

– *Siz meni yo tushunmayapsiz, yo tushunishni istamayapsiz! – derdi bu mahal direktor o'z kabinetida Ruqiya opaga.* (O'. Umarbekov).

“Tursunning yozuvi, – dedi u xatga tikilib.

– *Shunaqa yozardi u.* (O'. Umarbekov).

Ko'rsatish olmoshi *shu, o'sha* harakatning belgisini ifoda etadi, takror holda qo'llanib, ravish tavsifiga ega bo'ladi:

Shu-shu boshqa arz qilganimni bilmayman. (A.Qahhor). *Yana o'sha alfozda ohistagina bosh irg'ib minnatdorchilik bildiradi.* (B. Ahmedov).

– *Ahvoling tuzukmi? O'sha-o'sha, og'ayni.*

U, bu olmoshlari shaxs(lar)ni anglab keladi, ya'ni ot vazifasini o'taydi. *Bu* ishlarni *unga-bunga* aytib yurmagin. *Unga-bunga* – juft ko'rsatish olmoshi aslida *u, bu*. Yuqoridagi misolda jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan va *har xil odam* ma'no ifodasini beradi. Yana mazkur olmoshlar *-naqa* qo'shimchasini oladi, belgi intensivligi (ortiqchaligi)ni ko'rsatadi. *Menga unaqa-bunaqa gap qilganing yo'q* (so'zlashuvdan).

Ko'rsatish olmoshi *zamon, payt, yil, kun* kabi paytni bildiruvchi otlarga, *yoq, tomon, yer* singari so'zlarga qo'shilib *payt va o'rin* ma'nosini bildiruvchi ravishga ko'chadi: *shu zamon, shu payt, shu yil, shu kun; shu yoq, shu tomon, shu yer, u tomon va b.*

Kim olmoshi -lar ko'plik qo'shimchasini olganda shaxsning ko'pligini bildirmaydi, balki shaxsga nisbatan hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Bu kishi kimlar?* -*ki, di+ki (m)* yordamchilari qo'shilganda ma'noni kuchaytiradi, ta'kidlaydi: *kimki, kimiyki, kimdaki, kimda kim.*

Nima olmoshi bir so'zi bilan birga kelib *noaniqlik* ma'no ifodasini beradi: *Bir nimadan qo'rqdi, shekilli.* Ayrim hollarda shaxslarga nisbatan qo'llanadi, bunda so'roqni ifodalaydi va *kim* o'rnida keladi. Masalan, *Sen o'zi odammisan? Nimasan?* Bunday so'roqdan nutq egasining nutq qaratilgan shaxsga nisbatan achchiqlangani, uning xatti-harakati yoki gapirganlaridan noroziligi yaqqol seziladi. Bunday qo'llash badiiy nutqda hamda oddiy so'zlashuvda uchraydi. *Nima so'roq olmoshi -day* qo'shimchasini oladi va o'xshatish ottenkasini oladi. *Gavdasi nimaday keladi?*

Ba'zan *nima* so'roq olmoshi *ne* bitta yoki takror shaklda keladi, gapning mazmuniga ko'ra yomon, haddan ziyod (ko'p) ma'nosida qo'llaniladi: *Eh-he, oradan ne gaplar o'tmadi? Ne-ne kunlarni boshdan o'tkazmadik?* (So'zlashuvdan).

Gap to'liq anglashilmay qolganda takrorlash, qaytarish so'raladi:

Vaska: BAM ga.

Sulaymon ota: *Nima?*

Vaska: Baykal-Amur magistraliga. (O'. Umarbekov).

Taajjub ma'nosini ifoda etadi.

– *Xotin bo'lmasa nima axir?!*

– *Qoshli, ko'zli bir andi!*

– *Andi deganingiz nima o'zi?*

Befarq qarash, e'tiborsizlik ma'nosini bildiradi:

– *Andi... andi ... o'zi xitoylimi, nima balo ... O'zi qalmoqdan tarqalgan bo'ladir ... Tushunmagan bo'lsang, lo'lining bir toifasi ...* (A. Qodiriy).

Nimadan ham qo'rqmasak bo'lar edi?

– *Nimam uyat? – deb so'radi Kumush.*

– *Sizni nimaga ishontirganlar?* (A. Qodiriy).

Mumtoz adabiyotda, shevada gapdagi sababning so'zlovchi uchun noaniq ekanligini ifoda etishida *nechuk, nuchun* so'zi qo'llanadi:

Kel ey zoru balokash oshig'im mansiz nechukdursan. (A.Navoiy).

– *Mening kengashimga yurasanmi? – deb so'radi.*

– *Jo'yalik bo'lsa, nega yurmay!*

– *Yursang, – dedi Xushro'y, – chiq eringdan?*

Zaynab o'kirib yubordi.

– *O'zim ham shundog' deyarsiz, deb turgan edim ...*

Xushro'y:

– *Negaki, sening dardingning davosi, menga qolsa, faqat shu!*

(A.Qodiriy).

Nega olmoshi narsa miqdoriga nisbatan so'roqni ifodalaydi, -nchi qo'shimchasini olib, tartibini ko'rsatadi, -ta (donalikni ko'rsatadi), -tadan (taqsimlash ma'nosini bildiradi).

Qanday olmoshi narsa, harakat belgisiga nisbatan so'roqni anglatadi, qanaqa, qandoq shaklda ham qo'llanadi, yuqoridagi ma'noni bildiradi.

Qaysi olmoshi nutq jarayonida quyidagicha qo'llanadi: qaysing? qaysisi? (qaysinisi?), qaysingiz? qaysilari? Ba'zan gumon ma'nosini bildiradi: qaysi biri, qaysi kun, qaysi auditoriya.

Qancha olmoshi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: ko'p narsaning miqdorini aniqlash uchun. Qancha daftar olding? Qancha talaba keldi? Miqdorning ortiqqligini bildiradi: Bog'imiz juda katta: qancha olma, qancha o'rik, qancha nok bor? Taxminiy miqdorni bildiradi: Qancha paxta terdingi?. Qancha yashik olma terdingi?

Daraja-miqdorni bildiradi: Qanchadan qancha suvlar oqib o'tdi. Ikki paytni aniqlash uchun so'raladi: qachondan qachongacha.

Harakat yuzaga kelganiga ancha vaqt o'tganini bildiradi: Qachonlar aytgan edingiz? Ba'zan -dir qo'shimchasi qo'shiladi, ta'kid kuchaytiriladi: Qachonlardir ko'rgan edim.

Qalay olmoshi harakat, holat, voqea va hodisa kechishini aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi: Qalay o'qimoqda? Ahvol qalay?, O'yin qalay o'tdi? Sovuq qalay? Qalay, fikrimiz ma'qulmi? Ba'zan kesatiq, ritorik ma'noda so'raladi: Qalay, tavbangizga tayandingizmi? Qalay, bir terlagan ko'rinasiz?

O'zlik olmoshi olmoshlarning bir turi bo'lib, bitta –o'z so'zidan iborat. Bu olmosh har uchchala shaxsdagi, ko'plik va birlikdagi kishilik olmoshlari o'rnida keladi, barcha turlovchi (kelishik) qo'shimchalari bilan qo'llanadi: o'zimning, o'zimni, o'zimga (g'a), o'zimdanda (din), o'zimda, o'zimiz, o'zingiz, o'zlari (o'zligi). Misollar: Avval o'zinga boq, so'ng nog'ora qoq. (Maqol).

– *Zo'ravonlig', raiyat va cherikni o'zidin, yiroqlashtirib qo'yishning jazosi bu! (B.Ahmedov).*

Ba'zan o'z olmoshi egalik qo'shimchasini olgan so'z bilan birikmaga kirishadi: *o'zining qo'li*. Badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda –*ining* qo'shimchasi tushirib qoldiriladi: ... *Muzaffar Mirzoni o'z qo'li bilan taxtga o'tqazib, davlat kemasini istagan tomonga o'zi yurgizar.* (Oybek).

O'zingiz olmoshi faqat ko'plikni emas, balki hurmat ma'nosida ham qo'llanadi: Siz o'zingizning shu "o'g'ling bilar" degan gapingiz bilan qancha yaxshi joylardan qolib, nihoyat marg'ilonlik balosiga yo'liqingiz ... (A.Qodiriy). *Kattalar o'z do'stlariga, yaqin tanishlariga, xesh-aqrabolariga "qorxat" yozib, o'ziga xos nash'a-zavq bag'ishlovchi qishki ziyofatlarga yura boshlaganlar.* (Oybek).

O'z olmoshining muayyan shaxsga taalluqligini ta'kidlash uchun bosh kelishikdagi yoki qaratqich kelishigi qo'shimchasini olgan kishilik olmoshidan keyin qo'llanadi: *men(ing) o'zim, sen (ing) o'zing, u (ning) o'zi*; ko'plikda ham shunday qo'llanadi: *biz (ning) o'zimiz, siz (ning) o'zingiz*. Ba'zan kishilik olmoshlari tushib qoladi, o'zlik olmoshi egalik shaxs-son qo'shimchalari bilan ular ma'no ifodasini o'z zimmasiga oladi: *o'zim, o'zing, o'zi*;

Ba'zan o'z olmoshi o'rnida kishilik olmoshi qo'llansa, uslubda o'zgarish sodir bo'ladi, ularning o'rnini almashtirib bo'lmaydi: *O'zingiz gapirib, o'zingiz eshitasiz.*

*O'zimni tushunmas o'zimdin o'zga,
O'zidin fikr chiqmas kirmaydi so'zga.*

Modallik ottenkasini ifoda etadi: *Gapni chuvalashtirgan kim o'zi. Xo'sh, nima bo'ladi o'zi? Nima gap o'zi? Nimalarni qilmaydi o'zi? ... demaydi o'zi? Qayoqlarda yuribdi o'zi?*

Kelishik shaklidagi o'z olmoshi shu kelishik shaklida kelgan kishilik olmoshi o'rnida qo'llanadi, uning sinonimi bo'lib qoladi: *O'zi kelyapti!* – *dedi gajakdor bir ayolbashara hiring-hiring kulib, uchinchi oynadan* (O'. Umarbekov).

Ba'zan o'z olmoshi egalik qo'shimchasini olib, *shunchaki* olmoshining vazifasini bajarib keladi: *Nega kelding? – O'zim. Kelishga biror sabab bormi? – Yo'q.*

Aynan, o'xshash, bir xil degan ma'no ifodasini beradi: *Xuddi o'zi. Bir tuki o'zgamas.* (S.Ahmad). Ba'zan –*gina* qo'shimchasini olib, ta'kidni kuchaytiradi: *Otasining o'zginasi*. Badiiy nutqda, oddiy

so‘zlashuvda *ham* (*yam*) unsurini olib, modallik ottenkasini beradi, ma’noni kuchaytiradi: **O‘ziyam** devdek ekan. **O‘zi ham** chakagi ochiq ekan. (S.Ahmad).

O‘z so‘zi ma’nosini kuchaytirish maqsadida juft qo‘llanadi, keyingisi qo‘shimchalik (*-cha*, *-niki*) bo‘ladi: **O‘z-o‘ziniki**. **O‘z-o‘zimcha**. **O‘z-o‘zimga**.

Agar takrorlangan o‘z olmoshi tarkibida –*dan* qo‘shimcha kelsa, o‘z olmoshi ravish vazifasini bajaradi: **O‘z-o‘zidan** kulib yubordi... **O‘zidan** o‘zi...

Jamlash-belgilash olmoshlari narsa va shaxslar to‘dasi, jamoasini bildiradi yoki ayirib, ta’kidlar ko‘rsatadi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin: jamlash va belgilash.

Jamlash olmoshlariga quyidagilar kiradi: *barcha*, *butun*, *bari*, *jami*, *yalpi*, *hamma*. Bular ayrim hollarda uslubga ko‘ra ot, sifat xarakterida keladi. So‘ng bilaklarigacha *charm* kiygan *tavanchilar* *shunda*, **hammaning** ko‘zi oldida, *chapdastlik bilan* otlarni *parchalab*, mehmonlarga *ulashar* edi (Oybek). Ekilgan **hamma** gullar birdek ko‘kardi.

Yoq, *vaqt* so‘zlari bilan birga qo‘llanib, o‘rin-payt ravishi yasaydi. Ular **hamma** vaqt bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab kelganlar (Oybek). **Hamma** yoqda *duv-duv* gap.

Hamma olmoshi inkor gap tarkibida kelib, ham to‘liq jamlikni, ham to‘liq bo‘lmagan jamlikni anglatadi: Masalan: **Hamma** bormadi (hech kim bormadi ma’nosida). **Hamma** bormadi (hamma to‘liq emas, ba’zilar bormadi). Oddiy so‘zlashuv va badiiy nutqda *hamma ham* shakli qo‘llanadi: **Hamma ham** bormadi.

Payt ma’nosini bildiradi: **O‘sha-o‘sha** yuz ko‘rmas bo‘lib ketdik. She’riyatda o‘shal shaklida ham qo‘llanadi: **o‘shal** onlar, **o‘shal** onlar.

Hech o‘zgarishsiz, doim birdek, oldin qanday bo‘lsa, shunday ma’no ifodasini beradi: *Qishlog‘imiz qanday?* – **O‘sha-o‘sha**, *dugonajon*. (M.Muhamedov).

U, bu olmoshlar juft qo‘llanganda, hamisha u olmoshi oldinda keladi, u-bu: *u-bu dedim*; *uni-buni so‘radimi*; *unga-bunga aytib yurma*; *undan-bundan gaplashamiz*; *uning-buning gapiga quloq solma*; *yoyishga ul-bul opke*; *undek (day)-bundek (day)*, *unaqa-bunaqa mehribonlik ... uncha-muncha bilaman*.

Albatta, bunday qo‘llash asosan badiiy nutqda, shevada va oddiy so‘zlashuvda uchraydi.

So‘roq olmoshlari nutq jarayonida shaxsga, narsaga, belgiga, miqdorga, vaqtga, maqsad va sababga, o‘ringa munosabat anglatadi⁴⁴.

Kim olmoshi so‘roq ifodalaydi: *Ichkarida kim* degan tovush eshitildi. Mening *kimim* bo‘lasiz?

Ko‘plik qo‘shimchasini oladi, lekin ko‘plikni emas, balki hurmat ma‘no ifodasini beradi: *Himoyada kimlar* so‘zga chiqdi? *U kishi kimlar?* *U kishi kim* bo‘ladilar?

Takror qo‘llanadi, birlikni yoki birlik hamda ko‘plikni bildiradi: ... *Kim-kim* keldi? *Kim-kimlar* mukofotlandi?

Ma‘noni kuchaytiradi, ta‘kidni oshiradi: *Kimki* bo‘yin tovlasa, *Kimda kim* bo‘yin tovlasa (oldingisi -da qo‘shimchasini oladi, shunga ko‘ra chiziqchasiz yoziladi). *Bu gapni biron kimsa bila ko‘rmasin! Alpligim har kimsaga ko‘rsatsam ...* (Islom shoir).

Nima olmoshi narsa, voqea, hodisaga nisbatan so‘roqni anglatadi. *Bir* so‘zi bilan birga kelib, ma‘lum bo‘lmagan narsa ma‘nosini bildiradi: *Kimdir* birov, *arzimagan narsadan* dag‘allik qilib, *kimningdir* hayotga ishonchini o‘g‘irlaydi. (O‘.Umarbekov).

Nima olmoshi ot kabi kelishik, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi, so‘roq yoki noaniq narsa ma‘nosini ifoda etadi:

Nima olmoshi *hech* so‘zidan keyin keladi va biron-bir narsa yo‘qligini anglatadi: *Uydan hech nima olganim yo‘q.* (O‘.Umarbekov).

Nima olmoshi takror qo‘llanadi: *nima-nima deding*, keyingisi ko‘plik qo‘shimchasini olgan holda qo‘llanadi: *nima-nimalar olding?*

Hamma olmoshi chiqish kelishigi qo‘shimchasini olib, olmoshlikdan tashqari belgining ortiqqligini bildiradi: *Hammadan yaxshi; hammadan aqlli; hammadan kichik. Hammadan* uning qiziqchiligi oshib tushadi.

Butun olmoshi sifat hamda ravish tarzida qo‘llanadi, narsa, harakat belgisini ifoda etadi: *Butun* mahalla yig‘ilib keldi. -kul unsuri bilan keladi va ravish vazifasini bajaradi: *O‘tmishni butkul unutdi.* Sifatga ko‘chadi: *butun non* (ushatilmagan non), *butun idish.* (sinmagan, darz ketmagan idish). Ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi: *Bu dunyoda bormikan bag‘ri butun ...* (qo‘shiqdan) *Esi butun, qo‘l-oyog‘i butun, baxti butun, rizqi butun. But* shaklida qo‘llanadi: *Hamma narsa but?* (tayyor, to‘liq ma‘nosida).

⁴⁴ *Qarang:* Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. –T.: O‘qituvchi, 1980.

Yalpi olmoshi ham *butun* olmoshi kabi sifat vazifasini bajaradi: *Yalpi mahalla hasharga chiqdi. Falonchinikiga yalpi oshga taklif etilgan.* Egalik qo'shimchani va undan keyingi -ga jo'nalish qo'shimchasini oladi, ta'kidni kuchaytiradi: *Domla bilib qolsa, hammamizga yalpisiga_ "qoniqarsiz" qo'yadi.*

Har olmoshi ot turkumidagi so'zlar oldidan kelib, badiiy nutqda oddiy so'zlashuvda narsa yoki shaxsdan birortasini ayirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Ta'limda intizom eng birinchi masala. Buni har bir talaba qulog'iga quyib olsin.

Bu olmosh ravish o'rnida ham qo'llanadi: *Har ko'rganda yuragim jig'illaydi yor-yor.* (Qo'shiqdan).

Kim so'zi bilan birga keladi, *bo'lar-bo'lmas odam* ma'nosi ifodasini beradi. *Har kimsaga aytma dardu siringni ...* (Maxtumquli).

Kim so'zi sifat vazifasida qo'llanadi: *Kim bo'libdi-ki, menga aql o'rgatadi.*

Badiiy ijodda, oddiy so'zlashuvda, publitsistikada ham *kimsa* so'zi nazarda tutilgan shaxsga nisbatan atayin mensimaslik, hatto, nafrat ma'nosida qo'llanadi, bunda *kim* so'zi -sa unsuri bilan birga keladi: *Sores degan kisma "ochiq jamiyat" g'oyasini ilgari surib va bu yo'lda behisob pul sochib, turli mamlakatlarda beqarorlikni yuzaga keltirmoqda. O'z faoliyatii uchun AQSH maxfiy xizmatlaridan milliard-milliard dollar undirmoqda va tobora quturmoqda.*

Bo'lishsizlik olmoshi narsa yoki belgiga nisbatan inkor ma'nosini – bo'lishsizlikni anglatada. U tub so'z (*hech*) qo'shimcha so'z (*hech kim, hech nima, hech bir, hech narsa*) shaklida bo'ladi.

Hech so'zi *hechqisi* shaklida qo'llanadi va o'ylashga, tashvish qilishga arzimaydi ma'no ifodasini beradi. *Hechqisi yo'q, bu kunlar ham o'tadi. Bo'lmasa* so'zi bilan birgalikda qo'llanadi, *loaqa* ma'nosini ifoda etadi: *Hech bo'lmasa, qaynatma sho'rvadan bir ho'plam ichgin, harna quvvat bo'ladi (loaqa ma'nosida kelib, eng kichik, eng arzimas miqdorni anglatadi).*

Hech so'zi gapda ot kabi vazifada keladi: *hech qaysisi; hech qayer; hech biri, hech narsa* va b.

Mutlaqo yo'q ma'no ifodasini beradi: *hech narsa, hech nima, hech vaqo.* Birinchisi – adabiy nutqda, ikkinchisi – badiiy va oddiy so'zlashuvda, uchinchisi oddiy so'zlashuvda (eskirgan) qo'llanadi.

Gumon olmoshlari asosan ot va sifat vazifasida keladi, narsa, voqea, hodisa, belgi haqida aniq bo'lmagan tasavvur beradi. -*alla* unsuri so'roq olmoshlari bilan gumon olmoshi yasaydi: *allaqanday*, *allanarsa*, *allakim*.

Allaqanday kimsa ovul atrofida o'ralashib yuribdi. (M.Osim). *Allanarsaning* gumbirlashidan uyg'onib ketdim. (S.Ahmad). *Bu gapni shu mahallalik allakimdan* eshitgan edi. (A.Qahhor).

Allanechuk olmoshi holat ravishiga xos xususiyatga ega bo'lib, harakatni noaniq, tushunarsiz holatda sodir bo'lishini ifodalash uchun qo'llanadi: *Ko'ksi siqilib, allanechuk* essizday o'tirdi. (Oybek).

Allaqachon olmoshi voqea, hodisa sodir bo'lganiga ko'p vaqt bo'lganini (*allaqachon kelgan*), miqdor noaniqligini (*allaqancha yo'l bosgan*), belgining ortiqqligini (*allaqachon suvlar oqib o'tgan*) ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Falon so'zi ham shaxs yoxud belgi haqidagi noaniq tasavvurni ifodalash uchun qo'llanadi. Ot oldidan kelib, -*chi* qo'shimchasini oladi va shaxs ma'no ifodasini beradi: *Otasi falonchi deb qachongacha yuz xotir qilamiz? Pistonchi, tugunchi* so'zlari bilan birga keladi va noma'lum shaxsni anglatishdan tashqari o'sha shaxsga nisbatan mensimaslik, hurmatsizlik ifodasini ham beradi: *falonchi-pistonchi, falonchi-tugunchi*. Mensimaslik, hurmatsizlik ifodasini yanada orttirish *pistonchi, tugunchi* so'zlari juft holda qo'llanadi, bu asosan badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda uchraydi: *pismatonchi-tugunchi*.

Uslub talabiga ko'ra ot, sifat, son turkumiga oid so'zlardan ba'zilarining ma'nosi o'zgarib mavhumlashadi, umumlashadi – olmoshga yaqinlashadi. Tilshunoslikda bu hodisa **pronominalizatsiya** (lot. *pronm* – olmosh) deyiladi. Nutq jarrayonida ot narsani, sifat belgini, son miqdorni anglatmaydi, faqat o'sha ma'nolarga ishora qiladi⁴⁵.

Otlar: *inson, odam, kishi, ish, nafas* va b.

Sifatlar: *quyidagi, tubandagi, ba'zi, ayrim, boshqa*.

Sonlar: *bir (bir odam, bir yer, bir nima)*.

Boshqa so'z turkumidagi so'zlarning olmoshga ko'chishida *har, hech, bir* so'zlarining ahamiyati katta (*har tomondan, hech kishi, bir odam*).

⁴⁵ *Qarang:* Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. –T.: O'qituvchi, 1980.

Demak, nutq jarayonida kishilik, ko'rsatish, so'roq, o'zlik, jamlash-belgilash, gumon olmoshlaridan faqat ular tub ma'nosidangina emas, balki nutq egasining maqsadi, munosabatiga ko'ra foydalanish, uslubga ko'ra qo'llash ham kuzatiladi. Bu hol asosan badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda uchraydi.

6-§. Fe'llarning uslubiy imkoniyati

Fe'l turkumi quyidagi kategoriyalarga ega:

– daraja kategoriyasi. Harakatning subyekt va obyektga nisbatan munosabatini ko'rsatadi. Masalan, *Fermer anor terdi* – bunda fermerning o'zi harakatni bajaradi; *fermer anor terdirdi* – harakatni bajaruvchi boshqa shaxs(lar); *anor terildi* – harakatni bajaruvchi ma'lum emas. Adabiy nutqda fe'lning besh xil darajasi ma'lum: *bosh, o'zlik, orttirma, birgalik, majhullik*.

Bosh darajadagi fe'llar obyektli (yozdi), obyeksiz (qoldi), bo'ladi, ular uslubiy imkoniyatga ega emas.

O'zlik daraja shakli *-(i)n* ayrim hollarda *-(i)l* qo'shimchasi yordamida obyektli fe'llardan yasaladi: *o'qlanmoq, shoshilmoq. -(i)sh* qo'shimchasi yordamida sanoqli fe'ldangina o'zlik daraja shakli yasaladi: *qorish, bog'lash*. Lekin oddiy so'zlashuvda, badiiy asar (personaj nutqi)da sun'iy yasash kuzatiladi: *yayrash (mazza qilib bir yayrashar ekanmiz-da); qichqirish (qichqirish eshitildi) – sen ham qichqirish (baqirish ma'nosida); uxlash, birga uxlash (tunash ma'nosida)*.

Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasida shunday uslubdan foydalanib, personaj nutqini yaratadi: *Nega yig'lanadi. Yig'lanmasin*. O'zlik daraja shakli ko'chma ma'noda ham qo'llanadi: *ko'rinmay ketdi (ko'zdan yo'qoldi) – ko'rinmay ketdi (kelmay yo'ydi)*. Keyingi shakl *daf bo'lib ketdi* ma'nosida ham qo'llanadi. Fe'lning o'zlik daraja shakli fe'lning bosh daraja shakli ma'nosidan anglashilgan ma'no ifodasini kuchsizlantiradi: Masalan, *yutdi* (maxsus ko'rsatkich yo'q); *yutindi* (ko'rsatkich mavjud – *yutgandek bo'ldi*).

O'zlik daraja shakli obyektli fe'lni obyeksiz fe'lga aylantiradi: *yuldi – yulindi, ichdi – ichildi, chaymoq – chaynalmoq*.

Badiiy ijodda, shevada, oddiy so'zlashuvda harakat obyektini ifodalamaslik uchun o'zlik daraja shakli qo'llanadi. *Ikkinchi tomondan, Mirzo Yodgor kabi dushman bartaraf qilinmagan va uning tarafdorlari ko'payib turgan bir sharoitda ... (Oybek). U ... uyning*

burchagiga qarab uylanar edi. (A.Qahhor). *Amakim so'kina-so'kina chiqib ketdi.* (A.Qahhor).

-la qo'shimchasi yordamida obyektli fe'l yasaladi: *boshla, tishla, tikla, qopla, yoqla.*

Bulardan uslub maqsadiga ko'ra obyeksiz fe'llar yasaladi, buning uchun o'zlik daraja ko'rsatkichidan foydalaniladi: *boshlandi, to'landi, tiklandi, qoplandi, yoqlandi.* Mazkur shakllardan badiiy, ilmiy va publitsistik uslublarda foydalaniladi.

Demak, fe'lning daraja kategoriyasi harakatning subyekt va obyektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bundan badiiy, ilmiy, publitsistik uslublarda, oddiy so'zlashuvda foydalaniladi.

Fe'lning **orttirma daraja** shaklidan harakatga majbur qilish, harakatga yo'l qo'yish singari ma'nolarni ifodalash uchun foydalaniladi. Masalan, *ol – oldir; o'qi – o'qit.* Bunday ma'nolar kontekst, fe'lning leksik ma'nosi, shuningdek boshqa omillar (subyektning obyektga munosabati) tufayli yuzaga chiqadi, ya'ni fe'ldan (*ol*) anglashilgan harakatni bajaruvchi va bajartiruvchi (*oldir*) shaxs sezilib turadi. Ko'rinadiki, bu shaklda bajaruvchining birdan ortiqliqi ifodalanmoqda. Agar orttirma daraja vositasidan biri ortiq qo'llansa, harakat obyektida o'zgarish sodir bo'ladi: *ichqizdirdi, choptirtirdi, surishtirtirdi, so'rattirtirdi, qarattirtirib qo'ydi.* Bunday qo'llash asosan badiiy uslubda, personaj nutqini yaratishda, shevada va oddiy so'zlashuvda uchraydi.

Demak, orttirma daraja shakli harakatning obyekt nuqtayi nazaridan tavsifini ko'rsatadi, obyeksiz fe'lni obyektivli fe'lga aylantiradi, fe'l obyektli bo'lsa orttirma daraja unsuri qo'shilishi bilan yana boshqa obyekt yuzaga chiqadi.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarida fe'lning majhul darajasi shaklidan o'rinli foydalanilgan:

Go'yo uchinchi so'roq o'rniga – "endi olmas ekansiz Kumushbibini..." deb majlis buziladigandek seziladir-da, hamma tovushini qo'yib, barchaga eshittirib – "qabul qildik!" deb yuboradir.

Yuqoridagi misolda fe'lning majhul daraja shakli obyektli fe'l *buz* ga -(i)l qo'shimchasi qo'shilish vositasida yasalgan. Bunda asosiy e'tibor bajaruvchiga emas, balki obyekt bilan harakatning o'ziga qaratiladi. Yana misol keltiramiz: *Yuqorida yozilib o'tilgan qutidor uyining aksar jihozlari shu uyga, Kumush qiz uyiga ko'chirilgan.*

Fe'ning majhul daraja shakli *-(a)l* qo'shimcha yordamida ham yasaladi: *Bir bulargina emas, xotin-qizlar qo'li bilan ham bezalgan, shipda katta qandil ...* (A.Qodiriy).

Fe'ning majhul daraja shaklidan rasmiy-ish yuritish uslubida keng foydalaniladi: *so'ralsin, yuklansin, kuchaytirilsin. Axborot uchun qabul qilinsin. Da'vo arizasi bir oy ichida ko'rib chiqilsin.*

Fe'ning majhul daraja shaklidan badiiy, rasmiy-ish yuritish publitsistik uslublarda, oddiy so'zlashuvda buyruq ohangini yumshatish (kuchsizlantirish), kamtarlik, tavoze, qochiriq, piching kabi ottenkalar bilan ifodalashda foydalaniladi: *Bunday ishlar ikkinchi takrorlanmasin.* (P. Qodirov). *Qani, to'rga o'tilsin. Endi mashinaga kamroq tushilsa ham bo'lardi.* (S.Ahmad).

Yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilsin. (Gazetadan). *Hammadan yuqoriga chiqmay, quyiroqda o'tirilsa ham bo'ladi. Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur.* (Maqol).

Demak, fe'ning majhul daraja shaklini qo'llashdan maqsad harakatni bajaruvchiga emas, balki obyektga hamda harakatning o'ziga qaratishdir.

Badiiy nutqda fe'ning birgalik daraja shaklidan harakat ko'pchilik (birdan ortiq) shaxs bajarishini ifoda etishda foydalaniladi.

Chiroyli to'rlar va ozoda kataklar ichida o'tirgan bu jonivorlar bugun kechasi negadir juda bezovtalanib, patir-patir qilib chiqishdi ... katak chiviqlarini cho'qishar edi ... Otasini olib ketgan o'pirilishlar Boburning boshiga ham tushmasmikan?! (P.Qodirov). Misollardan ko'rinadiki, fe'ning birgalik daraja shakli *-(i)sh* qo'shimchasi yordamida yasalgan.

Ba'zi hollarda xuddi shu maqsadda *-(a)sh* qo'shimchasi ham qo'llanadi: *Uyalaridan chiqish bilanoq chumchuqlar chirqillashib, musichalar ku-kulashdilar.* (A. Qodiriy).

Fe'ning birgalik daraja shakli ba'zan ravishdosh shaklida qo'llanadi: *talashib, chug'urlashib.* Bundan tashqari, asosiy harakatga qo'shimcha tarzdagi harakatni ifoda etadi: *tikishdi, ekishdi, chopishdi* (yerni).

Ilmiy uslubda *-(a)sh* qo'shimchasi qo'shilib kelgan obyektli fe'l faqat harakat nomini anglatadi, xolos: *Ko'plik ma'nosini ifodalashda ba'zan birgalik daraja shaklidagi fe'ning ko'plik ifodalovchi -lar qo'shimchasi bilan qo'llash hollari uchraydi.* (Hozirgi o'zbek adabiy tili. 337-b.).

Demak, birlik daraja shakllaridan badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda harakatni subyektga munosabatini ko'rsatish maqsadida foydalanilar ekan.

– *Yo'q, mergan edi. Qo'qon ketayotgan o'rtoqlariga qiziqib, horma deganga ko'nmadi.* (A.Qodiriy). Bu misolda fe'ning bo'lishsiz shakli *-ma* qo'shimchasi vositasida yasalgan, inkor harakatgagina tegishli.

Badiiy ijodda, oddiy so'zlashuvda inkor ma'nosi harakatning o'zigagina emas, balki butun birikmaga tegishli bo'ladi. Bunda fe'ning bo'lishsiz shaklidan foydalaniladi.

Asrlar mobaynida qaqrab yotgan bu yerlarga suvni osonlik bilan chiqarmadik. (N. Safarov).

Ijodchi ifodani kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish maqsadida obyektli fe'lni *-ma* qo'shimchasi qo'shgan holda qo'llaydi. Agar *osonlik bilan chiqarmadik* birikmasi til qoidasiga ko'ra *qiyinchilik bilan chiqardik* tarzida tuzilganda me'yoriy hol hisoblanar, harakat qanday amalga oshirilishi xabar qilingan bo'lar edi, xolos. Harakat belgisi o'z mantiqiga mos kelardi. Adib personaj nutqini yaratishda ifodani kuchaytirish, ta'kidni oshirish maqsadida *qiyin* so'zi ma'no ifodasining ziddini beruvchi *oson* so'zini qo'llaydi. *Oson* so'zining ma'no ifodasini inkor etish uchun esa *-ma* unsuridan foydalanadi. Ma'lumki, *-ma* qo'shimchasi fe'ning barcha shakllarida inkor ifodalashi mumkin. Yuqoridagi misolda *chiqar* buyruq fe'lidan bo'lishsizlik shakli yasash bilan *oson* so'zining ma'nosi inkor etiladi. Shu yo'l bilan harakatning belgisi (*oson*)ning ziddi (*qiyin*) tasdiqlanadi.

Badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda, qisman publitsistikada inkor shakli yetakchi va ko'makchi fe'llarga qo'shilib qo'llanadi, natijada ta'kid qat'iylashadi: *kirmay qo'ymaydi, aytmay yurmaydi*. Bunday usul inkorni inkor ataladi, ya'ni yetakchi fe'ldagi inkor ko'makchi fe'ldagi inkor bilan inkor etiladi, natijada tasdiq ma'nosi ifoda topadi.

Emas to'liqsiz fe'ldan badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda, publitsistikada, rasmiy nutqda bo'lishsizlik ifodalovchi yordamchi so'z sifatida foydalaniladi: *Men yaxshi bilamanki, sen bu ishlarni faqat o'g'lingni ayaganingdan qilasan ... bu tarafdin qaraganda seni ham ayblab o'tirish oson emas.* (A. Qodiriy). *U emas, bu emas* peshonaga bitgani bo'ladi. *Korrupsiyaga qarshi kurashish, bu – hazil gap emas. Biz ko'rib o'tdikki, mazkur hujjatdagi ayrim bandlar shu tur xalqaro*

hujjatlarga mos emas. Birinchi misolda –*qiyin*, ikkinchi misolda –*boshqa hamma sabab bo‘lolmaydi*, uchinchi misolda *jiddiy*, to‘rtinchi misolda *to‘g‘ri kelmaydi* ma’no ifodasini bergan.

Badiiy ijodda *emas* to‘liqsiz fe’li ayblov hukmini yanada kuchaytirish, ta’kidni oshirish maqsadida qo‘llanadi:

Umrning eng qimmatli kunlari og‘ulangan, ikki yil bo‘yi davosiz dardga muhtalo qilgan, yaramas va ishonchsiz yo‘llarda sanqishga sabab bo‘lgan o‘z onasi emasmidi? Raqiblarga, dushmanlariga yo‘l ochib bergan shu onaning orzusi emasmidi?

Abdulla Qodiriy Otabekning o‘z onasidan o‘pkalanishi, garchi onasi bo‘lsa-da, boshiga tushgan savdolarga u sabab ekanligiga va o‘pkalashi o‘rinli ekaniga o‘z-o‘zini ishontirishga urinishini alohida ta’kidlash maqsadida *emas* to‘liqsiz fe’liga –*mi* so‘roq unsurini, undan so‘ng harakat bajarilgani aniqligini ifodalovchi –*di* unsurini qo‘shadi. Adib personaj ichki nutqini yaratishda boshqa shakllardan foydalanishi mumkin edi: ... *O‘z onasi-ku! ... o‘z onasi emasmidi? ... shu onaning orzusi-ku, axir! ... orzusidan boshqa narsa emas. ... shu onaning orzusi yo‘l ochib bermadimi? ... orzusi yo‘l ochib beradi-ku!* va b. Lekin adib boshqa barcha shakllardan ko‘ra birgina *emasmidi* shaklidan foydalanib, o‘z uslubidagi shaklni yarata biladi.

Oybekning “Navoiy” romanida shunday jumla bor: *Tasvir san‘atining haqiqiy ustodlari bizda yo‘q demoq mumkin!* Adib yo‘q vositasida fe’lning harakat nomi shaklidan anglashilgan tasdiq ma’nosini to‘liq inkor etadi. Vaholanki, aytmogchi bo‘lgan fikrni boshqacha shaklda ham ifoda etish mumkin edi ... *yo‘qdir, ... yo‘q desa bo‘ladi*. Ammo ta’kid ... *yo‘q demoq mumkin* shaklida yuqoridagi ikki shakldagiga qaraganda kuchli. Badiiy ijodda *yo‘q* yordamchisidan faqat to‘liq inkorda ta’kidni kuchaytirishgina emas, balki harakat bajarilishi mumkinligini inkor etmaslik maqsadida ham foydalaniladi. *Yig‘ilish ishtirokchilari kelishgani yo‘q*. Bunda to‘liq inkor emas, balki hozirgi inkor holat nazarda tutiladi. Ba‘zan *hali* unsuridan ham foydalaniladi: *hali kelishgani yo‘q; hozircha* unsuri qo‘llanadi: *hozircha kelishgani yo‘q*. Bu misollardagi *hali, hozircha* so‘zlari vositasida –*yo‘q* yordamchisi ma’nosidagi to‘liq inkor hozirgi paytdagi (ma’lum vaqtga qadar) inkorga aylantiriladi.

Xullas, o‘zbek tilida inkorni ifodalash vositalari ko‘p. Ularning ba‘zilari asosan ilmiy uslubda qo‘llansa, ba‘zilari badiiy uslubda qo‘llanadi. Masalan, rasmiy uslubda *reja bajarilmadi, davomat*

aniqlanmadi, talabalar kelmadi. Bular da inkor (hukm) qat'iy. *Reja bajarilgani yo'q; davomat aniqlangani yo'q; talabalar kelgani yo'q.* Yo'q ishtirok etgan bu konstruksiyalarda *mumkinlik (amalga oshishlik, harakat sodir bo'lishligi)* ma'no ifodasi mavjud, shunga ko'ra harakat to'liq inkor etilmaydi, muayyan vaqtgagina inkor etiladi.

Demak, fe'lining bo'lishsiz shaklini yasovchi, uslubiy imkoniyatga ega vositalar uchta, bular –*emas, yo'q yordamchilari* va –*ma qo'shimchasidir.*

Hozirgi o'zbek adabiy nutqida harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtayi nazaridan belgilaydigan grammatik kategoriya bor. Bu kategoriya tilshunoslik fanida *mayl kategoriyasi* deb ataladi⁴⁶. Mayl quyidagi turlarga bo'linadi: *Buyruq-istak mayli; shart mayli; shartli mayl; maqsad mayli; ijro mayli.*

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida shunday satrlar bor:

Ark darvozasi oldida Shayboniyxonning o'g'li Temir Sulton turgan ekan. Navkarlarga: “Asir olma, arzimaydi, qir hammasini!” – deb buyruq berdi.

Ilohim bu baxil zamonaning bog'lari qurib ketsin-u siz-u bizning qadrimizga yetadigan yaxshi zamonlar ham kelsin.

– *Hozir bu inoyatning sharafidan azobi ko'proq. Yo'lda charchagansiz. Borib dam oling.*

Birinchi misolda sof buyruq uchun qo'llangan *qir* – orttirma daraja qo'llangan.

Ikkinchi misolda *istak* ma'no ottenkasiga ega buyruq *ketsin, kelsin* fe'llarida ayonlashadi.

Uchinchi misolda *ol* buyruq fe'li qo'llangan. Sof buyruq maylining o'zgarishiga subyekt bilan obyekt orasidagi munosabat sabab bo'ladi. Munosabatga kirishvchi tomonlarning biri – Bobur, ikkinchisi – uning navkari (chopari) Tohir. Bobur Tohirga “*borib damingni ol!*” – deyishi mumkin edi. Lekin Bobur mazkur vaziyatda taxt egasi, hukmdor, Tohir esa itoat etuvchi ma'nosida emas. Shunga ko'ra adib personaj nutqini yaratishda qat'iy sof buyruq ohangidan voz kechadi va –*ing* – ikkinchi shaxs ko'plik qo'shimchasidan foydalanadi. Ammo bu o'rinda –*ing* ko'plikni emas, balki hurmat ottenkasini beradi.

⁴⁶ *Qarang:* Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.–T.: O'qituvchi, 1985.–53-b.

Natijada Bobur buyurayotgani ham yo‘q, istagani ham yo‘q, balki *izn, maslahat* beryapti.

Quyidagi misolda shart mayli shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilishidan yuzaga chiqadi:

– *Unday bo‘lsa, Bobur mirzoga bir uchrang...*

Bu misolda buyruq maylidagi fe‘l – *uchrang* aslida sof buyruq ma‘nosida, lekin personaj nutqi nuqtayi nazaridan qaralsa, unda hurmat, iltimos ottenkasi seziladi. Agar *-(a)ng* qo‘shimchasidan oldin *-sa* qo‘shimcha qo‘shilsa, unda *uchrasang* fe‘li boshqa biror harakatni me‘yoriy holatdan ortiq darajada bo‘lishini, ta‘kid kuchliligini ko‘rsatadi. *Uchrang* ikkinchi shaxsda hurmat ma‘no ifodasiga ega bo‘lsa, *uchrasang* ikkinchi shaxs birlikda. Munosabat ikki xil – betaraf yoki salbiy bo‘ladi: ... *uchrasang yaxshi bo‘ladi*; ...*uchrasang oqibati yomon bo‘ladi (ko‘rasan)*. *-sa* qo‘shimchasini fe‘ldan bir qancha analitik shakllar yasalishda foydalaniladi: *barcha borsin, olsa olar, ketsa ketaversin, ko‘nsa ajab emas, ilinsa kerak, aralashsa bo‘lmas* va h.k.

Yuqoridagi analitik shakllar ma‘nosi *-sa* qo‘shimchali fe‘l bilan u birikmaga kirishgan yordamchi so‘zning ma‘nosi birgalikda yuzaga chiqargan hosila ma‘no hisoblanadi.

Tilshunoslikdan ayonki, “shartli mayl shakli *-(a)r (-mas)* shakli sifatdosh va *edi* to‘liqsiz fe‘lining birikuvidan hosil bo‘ladi”⁴⁷.

Shart mayli shakliga xos uslubiy xususiyatlar quyidagicha:

– fe‘l bildirgan harakat bajarilmagan bo‘ladi. *Agar qo‘limdan kelsa edi, achib va yonib turgan yuragimni senga ochib ko‘rsatar edim...* (A.Qodiriy).

– so‘zlovchining orzu-istagi, muayyan harakatga da‘vat etishi, harakatning bajarilishi haqidagi o‘yi va boshqa ma‘nolar ifodalanadi. *Agar yanglishmasam, siz ham bir oz qayg‘uliroq ko‘rinasiz, mehmon, bir piyolani ichib yubormaysizmi?* (A.Qodiriy).

Demak, badiiy nutqda (personaj nutqida), oddiy so‘zlashuvda istak, harakatga da‘vat etish, maslahat kabi ma‘nolar shartli mayl shaklining o‘zigagina xos bo‘lmay uslubga, ijodchi maqsadiga ko‘ra yuzaga keluvchi ma‘nolar bo‘ladi.

O‘tgan zamon fe‘lining bir necha shakllari bo‘lib, ular ma‘nosi hamda o‘zgacha xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi: *-di, -gan, -i(b), edi*

⁴⁷ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. –T.: O‘qituvchi, 1980. – 349-b.

to'liqsiz fe'li. Bular barchasi kitobiy uslubga xos. Masalan, *Otabek yolg'iz mehmonxonada yotib kun kechirish bilangina qolmadi.* (A.Qodiriy). *Kechalari allaqayoqlarga ketib qoladigan* odatlar ham chiqardi. (A.Qodiriy). *Uxlamay kutib o'tirardi.* (A. Qodiriy).

Tilshunoslikda "-gan affiksiga shunday ta'rif beriladi: -gan qo'shimchali shakl so'zlovchining harakat bajarilganiga ishonchini qat'iy ifodalashi shart emas"⁴⁸. Lekin badiiy nutqda harakat bajarilganiga ishonchni qat'iy ifodalash uchun -mi qo'shimchasi qo'llanadi: — *Kelingiz mendan yaxshilik ko'rmas, demaganmi edim? Siz bilan otam bunga ko'nmaganmi edingiz, siz buni inkor qilasizmi?* (A.Qodiriy). Adib ta'kidni kuchaytirish maqsadida -ma qo'shimchasidan ham foydalanadi. Agar mazkur jumlada *degan, ko'nmagan* shakllari qo'llanganda edi, bunda hech qanday ma'no ottenkasi ifoda topmas, shunchaki, oddiy xabar ma'no ifodasi namoyon bo'lur edi. Adib personaj nutqini yaratar ekan ... *ko'rmas, demaganmi edim, ... ko'nmaganmi edingiz* shaklida va yana *edi* to'liqsiz fe'lidan ham foydalanadi. Natijada personaj nutqidagi *zaharxanda* yuzaga chiqadi, uning yuz bergan hodisaga munosabati ayon ko'rinadi.

Fe'llarning zamon shakllaridan uslubiy maqsadda foydalaniladi. — *moqda* hamda *edi* yordamida yasaluvchi shakl obrazli ifodalarda, rasmiy, publitsistik nutqlarda uchraydi, oddiy so'zlashuvda qo'llanmaydi.

Safarov ikkovi og'ilga tomon kelmoqda edi. (A.Qahhor). Bu misoldagi *kelmoqda edi* shakli o'tgan zamonda muayyan muddat davom etayotgan, hali tugallanmagan harakatni va bundan tashqari munosabatni ifodalash uchun qo'llangan. Oddiy so'zlashuvda *kegotuvdi, kelayotuvdi* shakli uchraydi.

Bundan tashqari -*yotgan* qo'shimchasi va *edi* to'liqsiz fe'l yordamida yasalgan shakldan badiiy ifoda harakatning bajarilish vaqtini ta'kidlash emas, balki harakat-hodisa bayoni ko'zda tutiladi: *U allaqanday ashulani ohista xirgoyi qilayotgan edi. Non yopayotgan edi. Sigir sog'ayotgan edi.*

-*guvchi* qo'shimchasi va *edi* to'liqsiz fe'l yordamida yasalgan shakl og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham siyrak uchraydi. Uning uslublar doirasida qo'llanishi ham ancha cheklangan. Badiiy ijodda,

⁴⁸ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. —T.: O'qituvchi, 1980. — 354-b.

tarixga oid badiiy-tarixiy asarlardagi personajlar nutqida, shunday asar muallifining individual uslubida uchraydi: ... *necha yillik adovatlarni ikki og'iz shirin so'z yoki besh pullik manfaat evaziga unutib yuborguvchi edi.* (A.Qodiriy).

Hozirgi zamon fe'lining sintaktik shakllari *-yap*, *-yotib*, *-yotir* va *-moqda* qo'shimchalari yordamida yasaladi. Ular yordamida yasalgan shakllar uslubiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Agar *-yap* qo'shimchasi yordamida yasalgani uslubga ko'ra betaraf bo'lsa, *-yotib* nisbatan qadimiy, kam qo'llanadi. Asosan badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda, folklor asarlarda, shevada uchraydi: *olayotibmiz, ko'rmayotibdi, aytayotibdi.*

-yotir qo'shimchasi yordamida yasalgan shakl, asosan, shevaga xosdir. Yozma nutqda esa badiiy she'riy asarlarda va gazeta materiallarida uchraydi: *kelayotir, borayotir.*

*Har to'siq, har g'ovni parchalab, buzib,
Tubsiz o'pqonlarga surayotirmiz.*

(Uyg'un)

-moqda qo'shimchasi bilan yasaluvchi hozirgi zamon fe'li kitobiy uslubiy shaklga xos. Undan badiiy asarda obrazli ifodalarda publitsistikada ko'tarinki, tantanali nutqlarda foydalaniladi. Oddiy so'zlashuvda umuman uchramaydi.

Jarlikda jimirlab oqayotgan kumushdek tiniq suv ko'prikning o'ng tomonidagi tepalik tagida yo'q bo'lib ketmoqda. (O'.Umarbekov). *Oltindek sap-sariq barglar kuz shamolida shoxidan chirt-chirt uzilib, sarg'aygan maysalar ustiga tushmoqda.* (J. Sharipov). *Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng shahar-u qishloqlarda muxtasham binolar ko'kka bo'y cho'zmoqda.* (Gazetadan).

K o ' m a k c h i f e ' l har biri o'ziga xos ma'no va uslubiy xususiyatga ega. Masalan, *o'l* ko'makchi fe'li harakat-holat me'yordan ortiq darajada yuz berishini bildiradi va faqat badiiy nutqda, oddiy so'zlashuvda qo'llanadi: *o'ldi yozg'irib, o'ldi suyunib, o'ldi g'ijimlab, yolg'iz qo'rqib o'ldim, o'ldim o'takam yorilib, o'ldim bo'kib.*

Demak, grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlari, morfologik kategoriyalar, so'z shakllari sof grammatik vazifani bajarishdan tashqari, uslubiy imkoniyatlarga ham ega ekan. Ulardan biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ba'zilar kitobiy uslubga, ba'zilar

oddiy soʻzlashuv uslubida foydalaniladi. Ayrimlaridan badiiy ijodda personaj nutqini yaratishda foydalanilsa, ayrimlari bayon tarzini belgilashga xizmat qiladi. Tahrir jarayonida morfologiyadagi uslubiy imkoniyatlarni anglash, ulardan toʻgʻri foydalanish matnni uslubiy talablariga mos holda boʻlishini, mikrotahrir toʻlaonli chiqishini taʼminlaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Morfologiya qanday tizim?
2. Ot turkumidagi soʻzlarning uslubiy imkoniyatlari qanday?
3. Sifatlarning uslubiy qoʻllanishi haqida maʼlumot bering.
4. Uslub talabiga koʻra bir turkumdagi soʻzning boshqa turkumga koʻchishiga misollar keltiring.
5. Sonlar qanday guruhlarga boʻlinadi?
6. Sonlarning uslubiy qoʻllanish doirasini koʻrsating.
7. Olmoshlarning uslubiy qoʻllanishiga misollar keltiring va ular qaysi uslublarga xosligini koʻrsating?
8. Feʼl uslubiy imkoniyati va asosan, qaysi uslublarda qoʻllanishiga misollar keltiring.

12-BOB. USLUBIYATNING SINTAKTIK VOSITALARI

REJA

1. Sintaksisning uslubiy birliklari.
2. Zanjirli, parallel hamda biriktiruvchi bog‘lanishdagi gaplar.
3. Moslashuv bog‘lanishli birikma.
4. Boshqaruv bog‘lanishi asosidagi birikma.
5. Bitishuv asosidagi birikma.
6. G‘ayriadabiy birikmalar.
7. Sodda gaplarning uslubiy imkoniyati.
8. Ega va kesimning uslubiy tavsifi.
9. Vositali, vositasiz to‘ldiruvchilardan uslubiy foydalanish.
10. Atributiv birikma tobe komponentining uslubiy imkoniyati.
11. Harakat, belgi ifodalovchi bo‘lak uslubiyati.
12. Murakkablashgan sodda gaplarning uslubiy imkoniyati.
13. Gapning ajratilgan bo‘laklaridan uslubiy foydalanish.
14. Kiritma so‘z va kiritma konstruksiya.
15. So‘zlar tarkibining o‘zgarishi.
16. Undovlarning uslubiy imkoniyati.

1-§. Uslubiy ta’rif

Barcha sintaktik birliklar – so‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shimcha gap, murakkab sintaktik birliklar turi sintaksisning uslubiy birliklari hisoblanadi.

So‘z birikmasi – “Bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, yaxlit, biroq qismlarga ajraladigan tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar bog‘lanmasi”⁴⁹.

Mazkur sintaktik konstruksiya grammatik bog‘lanish asosida ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlardan tuziladi. Uslubiyatning sintaktik vositalarini ko‘rib chiqishda tobe bog‘lanishdagi so‘z birikmalari alohida ahamiyatga egadir.

Sodda gap – “O‘z tarkibida birgina predikativ birikmaga ega bo‘lgan, ma’lum fikr ifodalay oladigan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik birlik”⁵⁰.

⁴⁹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. – 81-b.

⁵⁰ O‘sha joyda, 78-b.

Mazkur sintaktik konstruksiya bitta grammatik asosda tuziladi. Kesim va/yoki ega, ma'noviy hamda talaffuz jihatidan tugallik tavsifiga ega bo'ladi.

Qo'shma gap – "Tuzilishi jihatidan sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq prediktiv birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap"⁵¹.

Mazkur uslubiyaatning sintaktik vositasi kamida ikkita kesim asosida tuziladi va ma'noviy hamda talaffuz jihatidan tugallik tavsifiga ega bo'ladi.

Murakkab sintaktik butunlik, shunday sintaktik konstruksiya hisoblanadiki, u birlashtiruvchi umumiy ma'no, shuningdek zanjirli, parallel yoki biriktiruvchi bog'lanishdagi gaplardan tuziladi. Zanjirli bog'lanish nutqdagi fikr rivoji tadrijiyligini asos qism (tema) va temadan keyingi yangi qism (rema)ni ochib beradi. Gaplarning parallel bog'lanishi yagona namuna, yagona model bo'yicha tuziladi hamda bog'lanishning konstruktiv ko'rsatkichiga ega bo'ladi.

Birlashtiruvchi bog'lanish zanjiri va parallel bog'lanishdan tuzilishi bir xil emasligiga ko'ra farqlanadi.

Uslubiy xatolikka, ko'pincha so'zlardan noto'g'ri so'z birikmasi tuzish sabab bo'ladi. Masalan, *biriktiruv malakaviy ish, malakaviy bitiruv ishi; ... obdastadan do'stim suv quyib yubordi – do'stim obdastadan suv quyib yubordi.* (Mirmuhsin).

2-§. So'z birikmalarining uslubiy imkoniyati

Nutqda so'zlarning bog'lanishi moslashuv, bitishuv, boshqaruv kabi semantik munosabatga ko'ra sodir bo'ladi. *Toshkentda maktablar zo'r emish.* (A. Qodiriy). *Nishonboy, borib Oqilxon to'radan boshqa savol olib kel, bu savoling palag'da chiqdi.* (A. Qahhor).

Albatta, *maktablar zo'r emish, savoling palag'da chiqdi* kabi so'z birikmalari o'quvchida kulgi uyg'otadi. Nihoyat, me'yorlashtirish mumkin bo'lmagan so'z birikmalaridan muallif adabiy asarda personajga xos nutqiy individual tavsif yaratish uchun foydalanadi:

Topib mardikorini: "Seychas yuring,

Pojalista, – der erdi, – emdi turing".

Ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalari so'zlovchining milliy tilga xos bo'lmagan, g'ayrioddiy shaklda *hozir yuring, marhamat, endi*

⁵¹ O'sha joyda, 119-b.

turing shaklida to'g'ri bo'lardi. Bunda o'zga tilga xos so'z bilan o'z tilga xos birikma yasalgan. Shoir (Muqimiy) bunday usuldan nutq egasini mazax qilish maqsadida foydalangan.

Adabiy asar muallifi birikmaga kiruvchi so'zlarni me'yoriy bo'lmagan holda keltiradi va bundan ta'kidni kuchaytirish maqsadida foydalanadi:

– *To'xtanglar! Gerakl adabingizni bersin sizlarni!* – *sipohlar nayzalarini bir-biriga chalishtirdilar* (O. Abdullayev).

Agar birikma ...*sizlarning ta'ziringizni bersin* shaklida bo'lganida me'yoriy hol hisoblanardi, ammo, ta'kid sezilmas edi.

Moslashuv bog'lanishi asosida predikativ qo'shilma hamda qaratqichli birikmalar tarkib topadi. Odatda predikat fe'l, subyekt otdan iborat bo'ladi, fe'lda ko'chma mucha sodir bo'ladi. Masalan: *Solih Mahdumning maktab ishi ham uchinchi yildan bir oz jonlandi.* (A.Qodiriy). Misoldagi *jonlandi* so'zi *ishi jonlandi* predikativ qo'shilma tarkibida predikat sifatida keladi, *yurishmoq* ma'no ifodasini beradi. Yana bir misol: *Sovuq qish shamoli shahar ko'chalari bo'ylab izg'iydi.* (A.Qayumov). Bunda *izg'imoq* so'zi *shamol* so'zi bilan predikativ birikma hosil qilishidan *izg'imoq* so'zi ko'chimni sodir etgan. Aslida bu harakat jonli mavjudodga xos. Ko'chim yuzaga kelishi jonivorga xos harakat bilan shamolga xos harakat atalgan. Birinchi misolda subyektiv munosabat ijobiy, ikkinchisida esa salbiy.

Boshqaruv bog'lanishi asosida bog'lilikka ko'ra hosil bo'lgan birikma predikativ qo'shilmaning egasi vazifasida kelgan so'z bilan boshqaruv bog'lanishiga ko'ra ko'chma muchani yuzaga chiqaradi. Masalan: *Men Buvaydaga olib ketsam, – O'z qishlog'imiz biron kovak topilar.* (A.Qahhor). Bunda *menga topilar* boshqaruv bog'lanishli birikma bilan *kovak* so'zi bog'liligi sababli ko'chim yuzaga kelgan va subyektiv munosabat yuzaga chiqqan va u salbiydir.

Bitishuv asosidagi bog'lilikka ko'ra hosil bo'lgan birikmada har ikki komponent sifat turkumida bo'ladi. Tobe komponent eksplitsiti ifodalanadi va u hokim komponentni iplitsit ifoda etadi. Shunga ko'ra ko'chma mucha yuzaga chiqadi. Masalan: *Mirsoatni bir oz yoshligi bo'lmasa, u ham pishiq bola.* (A.Qodiriy). Gapdagi *pishiq* so'zi *uddaburon* ma'nosini ifoda etib kelgan. Ko'chma muchadagi subyektiv munosabat ijobiydir. *Qizil gap, dumbul bola* birikmalarida salbiy subyektiv munosabat ayon bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalarida, xususan, yozma nutqga asoslangan gazetalarda shunday jumlar uchraydi: “... *rukni*da berilgan “*Odam qo‘lining yordami kerak*” mavzuidagi jurnalist A.Komolovning maqolasida...” Bu jumlada mavzuidagi so‘zi jurnalist so‘zi bilan yonma-yon kelgan va mavzuidagi jurnalist birikmasi hosil bo‘lgan. Aslida, ham mantiq, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan mavzuidagi maqola shakliga ega bo‘ladi. Bunda boshqaruv bog‘lanishli so‘z birikmasi Komolovning so‘zi bilan qo‘shilmaga kirishadi. Ya’ni Komolovning mavzuidagi maqolasi tarzida tuziladi. Natijada butun jumla tahrirga muhtoj ekanligi ayonlashadi: ...rukni*da* berilgan jurnalist A.Komolovning “*Odam qo‘lining yordami kerak*”, mavzuidagi maqolasida ...” shakli til nuqtayi nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi. Shu o‘rinda yana bir narsaga e’tibor berish kerak. “*Odam qo‘lining yordami kerak*” bu mavzu emas, oddiy sarlavha. Shuning uchun mavzuidagi so‘zini nomli so‘zi bilan almashtirish maqbul hisoblanadi. Yuqoridagi holat so‘zlarning birikma hosil qilishi va qaralmishi sifatida qaratqichga qo‘shilishi doirasidagi grammatika qoidasidan muallifning xabarsizligini ko‘rsatadi. Lekin mualliflar ba’zan qoidaga zid birikmalar tuzishdan uslubiy maqsadda – ta’kidni kuchaytirish, nutq egasining ijtimoiy tavsifini berish uchun foydalanadilar. Masalan: *Mana! Siz hech hayajonlanmasligingiz kerak. O‘g‘lingiz bilardi-ku, shuni, esipast.* (O‘.Umarbekov). Bu gapda *esipast* so‘zi o‘g‘il so‘zi bilan birikmaga kirishishiga va *esipast o‘g‘il* shaklida bo‘lishi kerak edi. – *Eshitganmisiz, akaxon, – dedi Sobit yengil ta’zim bilan.* – “*Do‘xtirlarning dodaxo‘jasi*” deb *eshitganmiz.* (T.Malik). Gapdagi atributiv birikma *do‘xtirlarning dodaxo‘jasidagi dodaxo‘ja* so‘zi *eng bilimlisi* ma’no ifodasini beradi. *Dodaxo‘ja* so‘zining qo‘llashdan maqsad nutq egasining ijtimoiy maqomini (chapani, dimog‘dor ekanligini) ko‘rsatadi.

Yozuvchilar g‘ayriadabiy birikmali iboralardan o‘z personajlarining ijtimoiy maqomini tavsiflash uchungina emas, balki kesatiq, piching uchun ham foydalanadi. Masalan: *Bugun sakson bilan to‘qson orasidagi mahallaning nozaninlari to‘planishib hongoma qilmoqdalar.* Bu gapdagi mahallaning nozaninlari qaratqichli birikma tarkibidagi *nozanin* so‘zi aslida denotativ ma’nosining aksini implitsit ifoda etgan. Natijada ironiya tufayli ko‘chma muchada *istehzo* ma’no ifodasi yuzaga chiqqan.

3-§. Sodda va qo'shma gap komponentlarining uslubiy imkoniyatlari

3.1. Subyekt va uning uslubiy o'ziga xosligi

Subyekt deganda, bir tomondan, ega tushuniladi. Ega ikki tarkibli gaplarda asosiy unsurlardan biri, fikrning kimga, nimaga qarashli ekanini anglatadi. Belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh bo'lak hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, bir tarkibli gapda ega asosiy unsur, ikki tarkibli gapdagi egaga tenglashadi. Masalan, ot turkumidagi so'z – *ko'klam* ikki tarkibli gapda ega vazifasida keladi (*Ko'klam keldi*), bir tarkibli gapda asosiy unsur bo'ladi. (*Ko'klam*).

Subyekt keng ma'noda tushuniladi, ya'ni gapning komponenti sifatida u kim (nima) xususida so'z bormoqda, degan savolga javob beradi. Qiyoslang: *Kitobdor do'konni ochdi* (bunda gapning) subyekt *do'kondor*, chunki so'z ayni u haqda bormoqda), *Do'konni ochdi kitobdor* (bunda endi so'z *do'kon* haqida). Subyekt (mantiqiy, semantik deb ham ataladi) ikki tarkibli gapda egaga teng keladi.

Ega kim? nima? so'rog'iga javob beradi va "... bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh, otlashgan so'z, so'z birikmasi bilan ifodalanadi"⁵².

Biz faqat uslubiy tavsifdagi ega ifodalanadigan usullarga to'xtalamiz.

1. Bosh kelishikdagi ot. Ega ifodalanadigan va ko'p uchraydigan usul:

Atrofga tabiatning kelini bo'lgan ko'klam o'z sepini yoygan edi. Bir turdagi narsalarni jamlab bildiruvchi otlar ega vazifasida kelganda kesim birlikda qo'llanadi. Masalan: *Xalq qo'zg'aldi; Talabalar hasharga chiqdi; Voqea sodir bo'lgan joyga tergovchilar guruhi jo'nab ketdi.*

Gap tarkibida ega gapning boshqa bo'laklari (xususan, aniqllovchi) bilan birikuvida odatdagi birlashishdan chetga chiqish kuzatiladi. Shahardagi yo'lovchilarni tashuvchi transportlarda quyidagi yozuv paydo bo'ldi: *Litsenziyasiz yo'lovchilarni avtotransportda tashish man etiladi.* Ega – *tashish*, kesim – *man etiladi*. Mazkur gapda ikkinchi darajali bo'laklar bilan eganing birikmaga kirishishida qoidadan chetga chiqilgan. Gapning mazmunidan anglashiladiki, *tashish man etiladi*, kimlarni? yoki qanday? savolidan qay birining javobi to'g'ri bo'ladi.

⁵² Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 109-b.

Yuqoridagi jumladan shunday xulosa chiqadi: *Litsenziyasiz yo'lovchilarni ... tashish ...*, bu – mantiqan to'g'ri emas, shunga ko'ra uslubiy xato kelib chiqqan. Yuqoridagi jumladan to'g'ri fikrni u quyidagi shaklda tuzilgandagina anglash mumkin bo'ladi: *Yo'lovchilarni avtotransportda litsenziyasiz tashish man etiladi*. Fikrni to'g'ri anglash *qanday tashish man etiladi*, degan savolga javobdan oydinlashadi. Demak, ega o'z aniqlovchisi bilan yonma-yon kelishi kerak. Yuqoridagi gapda mantiqan *tashish – nima qilish* so'rog'iga, *kesim – nima qilinadi* so'rog'iga javob bo'ladi. Ega vazifasida ham, kesim vazifasida ham fe'l kelyapti. Ammo *tashish* fe'li otlashgan, shunga ko'ra u *nima* so'rog'iga javob beradi va ega vazifasini bajaradi.

Jamlovchi son ega vazifasida keladi. *Ustozim va men ikkovimiz maktab bog'iga olma, olcha va boshqa xil mevali daraxt ko'chatlarini o'tqazdik*. Mazkur gapda *ikkovimiz* so'zi ko'chat ekishda faqat ikki kishi qatnashganini alohida ta'kid etish uchun qo'llangan.

Ega bilan kesim sodda gap tarkibida inversiyaga uchraydi. Kishilik olmoshi ega vazifasida keladi. – *Iya, nima dedi ular? Uydan olib chiqib ber o'g'lim*. Birinchi gap ... *ular nima dedi*, ikkinchi gap ... *o'g'lim uydan olib chiqib ber* tarzida bo'lishi kerak. Bu gaplarda ega bilan kesim o'rnini almashtirish uslub talabiga ko'ra sodir bo'ladi. Nutq egasi ta'kidni ega vazifasidagi so'zga qaratib, unga urg'u beradi.

Kesim uslubiy imkoniyatidan badiiy, publitsistik nutqda unumli foydalanadi. Kesim bir tarkibli gapda asosiy qism hisoblanadi. Ikki tarkibli gapda markaziy o'rinda turadi. Masalan: *Tashqarida shamol g'uvillaydi*. Mazkur jumlada kesimning o'rni uslub talabiga ko'ra o'zgarishi mumkin. *Tashqarida g'uvillaydi shamol*. *G'uvillaydi tashqarida shamol*. Yuqoridagi jumlar tarkibida kesim joyining o'zgarishi ifoda maqsadiga ko'ra yuz beradi, har biri nutq egasining individual uslubi bilan bog'liq. Bunga mantiq urg'usining kesimga tushishi sabab bo'ladi.

Sodda yoyiq gaplar tarkibida ham, qo'shma gaplar tarkibida ham ko'rsatish olmoshlaridan uslubiy maqsadda foydalaniladi. *Agar bu boyaqish sizni deb shuncha vaqtdan beri shu hovlida yuripti! Shunchalik kutib endi yetdim deganda bu nima ko'rgulik?..* (O.Xusanov).

Ko'rsatish olmoshi shaxs nomi o'rnida keladi. *U kishining mashinasida ketganingizni ko'ruvdim ... U kishi mening to'g'rimda gapirib bergandir sizga?* (O.Xusanov).

Quyidagi konstruksiyalarda mantiq urg'usining kesimga tushishi ta'sirchanlikni oshiradi. *Men shunaqa surbetman. Qiyin imtihonlardan o'tolmagan noshudman.* (O.Xusanov).

3.2. Obyekt (to'ldiruvchi) va uning uslubiy imkoniyatlari

"To'ldiruvchi o'ziga hokim so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, bu so'z anglatgan harakat, narsa, belgiga nisbatan obyekt bo'lib keladigan bo'lak"⁵³.

Obyekt bilan harakat munosabatining turiga ko'ra to'ldiruvchilar ikkiga – vositasiz hamda vositaliga ajraladi.

Vositasiz to'ldiruvchi, odatda, tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi, harakat to'g'ridan to'g'ri (vositasiz) yo'nalgan obyektни ko'rsatadi. Masalan: *Kampir charxning g'uv-g'uvidan qizlarning gapini eshitmas edi.* (Oybek). Mazkur misolda *gapini* leksemasi gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan, ot turkumida. Konstruksiyani tuzishdan maqsad informatsiya – *kampirning eshitmasligini* yetkazish. Uslubning talabiga ko'ra, birinchi holda, konstruksiya quyidagicha tuziladi. *Kampir charxning g'uv-g'uvidan eshitmas edi*, qizlarning gapini. Bu misolda *eshitmaslik* alohida ta'kid etiladi. Ikkinchi holda esa konstruksiya boshqa maqsadda tuziladi, ya'ni: *Kampir eshitmas edi, qizlarning gapini, charxning g'uv-g'uvidan.* Mazkur konstruksiyada ega bilan kesim yonma-yon keladi, ikkinchi darajali bo'lak kesimdan keyingi o'ringa o'tadi, odatiy tartib buziladi. Bunda *kampirning eshitmasligiga* alohida urg'u beriladi. Uchinchi holda esa konstruksiya yana boshqacha shaklda bo'ladi. *Charxning g'uv-g'uvidan qizlarning gapini eshitmas edi, kampir.* Bu misolda ega vazifasidagi so'z – *kampir* jumlaning oxirida keladi va mantiq urg'usi unga tushadi. To'rtinchi holda kesim birinchi o'ringa chiqadi. *Eshitmas edi kampir, charxning g'uv-g'uvidan qizlarning gapini.* Mazkur jumla tuzilishi she'riyat uslubida bo'lib, *eshitmas edi kampir* mantiq urg'usini oladi.

Vositali to'ldiruvchi vazifasida bosh, qaratqich va tushum kelishigidan boshqa kelishikdagi so'z yoki ko'makchi olgan so'z keladi, harakat-holat to'g'ridan to'g'ri yo'nalmagan obyektни ko'rsatadi. Masalan: *O'zi shahar yaqinidagi qishloqda o'sdi.* (O.Xusanov). Mazkur jumlada kimningdir shahar yaqinidagi qishloqda

⁵³ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 95-b.

o'sganligi haqida xabar (ma'lumot) berildi. *Qishloqda* so'zi vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Asosiy maqsad *kimdir qishloqda o'sganligini* aytish. Mazkur jumlada barcha gap bo'laklari o'z o'rnida, grammatik me'yor saqlangan. Xabar yetkazishdan asosiy maqsad o'zgacha bo'lsa, unda konstruksiya shakli o'zgartiriladi. Masalan, *O'zi o'sdi, qishloqda, shahar yaqinidagi*. Bu jumlada asosiy e'tibor *qishloqqa* qaratiladi, mantiq urg'usi vositali to'ldiruvchi vazifasidagi so'zga tushadi. Bu konstruksiya badiiy uslub (she'riyat)ga xos. *O'zi o'sdi, shahar yaqinidagi qishloqda*. Mazkur jumlada kesimning gapdagi o'rni o'zgaradi va u ega bilan yonma-yon keladi, vositali to'ldiruvchi esa gapning oxiriga, kesim o'rniga tushadi.

Atribut (aniqlovchi) va uning uslubiy imkoniyati. Aniqlovchi odatda "predmet bildiruvchi so'zga tobelanib, uning belgisini anglatadigan (ikkinchi darajali) bo'lak"⁵⁴ dir. Atributiv birikmaning tobe komponenti hisoblanadi.

Aniqlovchi predmetning belgisi, sifati, xossasini bildiradi, uch turi bor: qaratuvchi; sifatlovchi; izohlovchi.

Qaratuvchi aniqlovchining bir turi bo'lib, biror narsaga tegishli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradigan bo'lak. Bu bo'lak belgili yoki belgisiz qaratqich kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanadi. Masalan, *Navoiy Behzod san'ati haqida hayajonlanib gapirdi*. (Oybek). Mazkur jumlada aniqlovchi belgisiz qaratqich kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanagan. *Otabek usta Olimning ko'chasiga burilgach ...* (A.Qodiriy). Bu gapda aniqlovchi belgili qaratqich kelishigi shaklidagi so'z bilan ifodalanagan. *...bizning O'zbek oyimizning ham dardi yuzada edi*. (A. Qodiriy). Bu jumlada aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklidagi ikki so'z bilan ifoda etilgan bo'lib, bu yozuvchi uslubi bilan bog'liqdir. Zero, gapda *bizning O'zbek oyimizning* shaklida emas, balki birgina *O'zbek oyimizning* shaklida ifoda etilsa ham mazmunga putur yetmasdi. Bunday qo'llashdan maqsad ta'kidni yanada kuchaytirish – *O'zbek oyim biznikiligini* alohida ta'kid etish.

Sifatlovchi ham aniqlovchi bo'lib, narsaning sifat belgisi, soni, miqdori, tarkibi kabi belgilarini ifoda etadi. Masalan, *Uzoqdan qutidorning tilsimli darbozasi ko'rinib turar edi*. (A.Qodiriy).

⁵⁴ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 16-b.

Bu gapda yozuvchi *darboza* soʻzi denotativning qahramoni nazarida qanday ekanligini ifoda etish maqsadida *tilsim* soʻzidan foydalangan. Yana misol: *Nosir akaning haybatli yaltiroq stoli deraza poyiga qoʻyilgan.* (Gʻ.Xotamov). Birinchi gapda *haybatli, yaltiroq* soʻzlarining ikkalasi yasama sifatlardir.

Izohlovchi ham aniqllovchining bir turi hisoblanadi va u predmetning boshqacha nomini bildiradi.

Koʻzlarini uqalab hovliga chiqsam mardikor chol (Begim moʻylov) koʻmirni tashib boʻlib, yuz-qoʻlini yuvayotgan ekan (O.Husanov). *Bu faqir qulbachchangiz (Mirqobil) farmoningizni sidqi dil bilan ijro qilur ...* (Oybek). *Otabek bu choʻloq supurgini (Musulmonqulni) tanidi va uning istehzolarini tanidit.* (A.Qodiriy). *Otabek garangsigansimon devorga suyanan, bundagi allaqanday maʼnolarni anglatgan taxt, toj, xon, bek kabi lash-lushlar uning koʻz oʻngida qora pullik qadr-u qimmatsiz.* (A.Qodiriy).

Moslashuv aloqa aniqllovchilar quyidagi maʼnolarga ega boʻlishi mumkin va muayyan til vositasida ifoda topadi.

1. Predmetning bevosita oʻziga taalluqli (xos) boshqa biron bir narsaga munosabatsiz boʻlgan belgisi. Tub sifatlarda ifodalanadi. *Osuda, zangori osmon; hoʻl yaproqlar* va b.

2. Predmetga bevosita xos boʻlmagan, uning boshqa nimagadir bevosita aloqadorligi tufayli belgisi. *Ilon chaqqan kishidek dovdir va besaromjon koʻzlari bilan tevarakka bejo-bejo nazar tashlar edi.* (A.Qodiriy).

3. Tavsiflanayotgan narsa muayyan shaxsga, kamdan kam holda biror predmetga taalluqliligi. *U oʻzining boʻm-boʻsh xonasiga kirdi.* (O.Xusanov).

4. Aniqlanayotgan predmet muayyan (konkret) koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanadi. *Uning otidan taloq xati yozuvchi ham shu badbaxt Homid.* (A.Qodiriy).

Muayyan (konkret) boʻlmagan koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanadi. *U bu kesilgan oʻrinni oʻtgan kun kechasi kelib koʻrib ketgani uchun qaytadan qarab turmadi esa-da, lekin uning bu binoga iltifotsiz qarashi mumkin emas edi.* (A. Qodiriy).

Kumush bu qoʻrqinch uyda yota olmasligini bildirgani uchun, Oftob oyim Toʻybekadan Kumushning buyumlarini ikkinchi uyga tashita boshladi. (A.Qodiriy).

5. Predmetning noaniq belgisini ifoda etadi. *Ba'zi ayollar parangni yopingan, ba'zilari chopon yopingan.* (Oybek).

6. Predmetning aniqlovchi yoki inkor etuvchi ma'nosiga muvofiq xossasi va sifatini ifoda etadi. *Shunday yaxshi odam, bunday shinam uy.*

7. Harakat bilan bog'liq belgi sifatdoş bilan ifodalanadi.

Sifatdoş esa "fe'ning sifatga xos vazifasiga moslashgan predmet belgisini ko'rsatuvchi funksiyaviy shakli"⁵⁵. *Bir necha yuz odam terlagan, pishgan, hansiragan holda muttasil harakatda;* (Oybek).

Moslashgan aniqlovchilar ham turli ma'no ifoda etishi mumkin va ularni ifodalashning turli vositalariga ega:

– predmetni boshqa predmetga munosabatiga ko'ra tavsiflovchi belgisi. *Artilleriya – urush xudosi. Ulug'xo jamizning qat'iy niyatlari bu safardan qaytgach, bekni uylantirish.* (A.Qodiriy).

Hol va uning uslubi imkoniyati. Hol harakat yoki belgi tavsifini ifodalaydi. O'rin, vaqt, vaziyat, sabab, maqsad, usul, me'yor va uning namoyon bo'lishi, shuningdek ular qiyosini ifoda etadi. Holat ma'nosini ifoda etuvchi ko'pgina konstruksiyalar uslubi betaraf hisoblanadi.

Tarz holi harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi. *Farmon aka ... men bilan quyuq omonlashdi.* (O.Husanov). *Hasan Sayyoh g'oldirab voqeani aytib berdi.* (Oybek).

O'rin holi "ish-harakatning bo'lish yo'nalish, boshlanish o'rnini bildiruvchi hol"dir⁵⁶. *Hamma ko'chalarda, guzargohlarda inson to'lgini guvillaydi.* (Oybek). *Hammamiz tun zulmatiday intihosiz bir qorong'ilik ichida yuribmiz.* (P.Qodirov).

Payt holi ish-harakatning yuz berish vaqtini bildiradi. *Bir kun keyin Normuhammad qushbegi ham birmuncha sipohni Toshkentda qoldirib, Qo'qonga jo'nash harakatiga tushdi.* (A.Qodiriy). *Hozir pastda o'tkazilayotgan poyga ham shunchaki ko'ngil ochish uchun emas.* (P.Qodirov).

Sabab holi. Umumiy sabab ma'nosi sodda gapda ayrim ottenkaga ega bo'ladi. Harakatning bevosita sababi, harakat asosi, ijobiy sabab, salbiy sabab, harakat motivi shunday ottenkalar hisoblanadi. Bular har biri o'z ifodalanish vositasiga egadir. *G'alaba zavqidan ko'ziga yosh kelganini u endi payqadi-yu, kulimsirab, kafti bilan ko'z yoshini sekin*

⁵⁵ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – 77-b.

⁵⁶ O'sha joyda. – 116-b.

artib qo'ydi. (P.Qodirov). Nahotki, siz shunday odam tufayli bizdan ajralib ketmoqchi bo'lsangiz?! (P.Qodirov). Ayniqsa, o'ttiz ikki tanga dovrug' guzar ahlining yuraklarini uyushtirib, buni eshitishi bilanoq isyonga qo'l qo'ydilar. (A.Qodiriy).

Maqsad holi. Maqsad umumiy ma'nosi ham ayrim ottenkali bo'lishi mumkin va o'ziga xos ifodaga ega bo'ladi.

Atalgan maqsad harakat uchun ko'makchisi bilan ifodalanadi. *Kitobni o'g'lim uchun oldim. Qalamlarni nevaram uchun olib keldim. Nurida shubha qoldirmaslik uchun Yo'lchiga bo'lgan munosabatini ... bildirmaslikka tirishdi. (Oybek).*

Evaz ma'no ifodasini beradi. *So'naxon, yo'qlab kelganingiz uchun rahmat (A.Muxtor).*

Uchun ko'makchisi badiiy ijodda — **chun** shaklida ham qo'llanadi. *Qat' etib Bobur boridin chun senga kelturdi yuz ...*

O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi — *da* ni olgan ot turkumidagi **maqsad** so'zi ishtirokida konstruksiya tuziladi. *Toshkentga magistraturaga o'qishga kirish maqsadida keldim.*

To'siqsizlik holi ish-harakatning yuz berishiga to'siq bo'lmaydigan harakatni ifoda etadi: ... *kunning issig'iga qaramay uning egnida qo'pol eski po'stin, boshida qunduzi qalin katta bo'rk...* (Oybek). *Uchrashuvning tasodifiy bo'lishiga qaramay Aloiddin Mashhadiy bilan do'st tutunib bu hujraga tiqilib oldi. (Oybek). To'g'onbek chalasavod bo'lsa ham, ilm-fanning qadri-qimmatini biladi. (Oybek).*

3.3-§. Sodda gapning murakkablashuvi va ulsubiy imkoni

Uyushuq bo'laklar va ularning ifodalash imkoniyatlari

Odatda uyushgan bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, so'z hirikmalari va gap, undalma sodda gaplarning murakkablashgan konstruksiyalari hisoblanadi. Bu murakkablashuvlar barchasi bitta umumiy jihatga ega, ya'ni ifodaning ma'noviy kengayishi va chuqurlashuvini ta'minlaydi, aniqlashtiradi. Uyushgan bo'laklar, ajratilgan bo'laklar qo'shimcha, xususan, baholash funksiyasini bajarmaydi. ...*u uchqur otda chaqmoqday yonib janglarda qilichbozlik qilishni, o'q-yoy otishdagi kuchi va mahorati bilan barchani tong goldirishni, qal'alarga bosqin yasashni, tog'day yuksalgan qo'rg'onlarga botir yigitlar bilan birga shotular qo'yib, arosat*

solishni, sahroyi xalqning qishlovlariga ot qo'yib, minglab qo'ylarni o'lja qilishni sevadi. (Oybek).

... menda boshqalarning o'g'lini darraga yotqizish chog'ida ko'ndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor. (A.Qodiriy).

Ajratilgan bo'laklar va ularning ifodalash imkoniyatlari.
Gapning sezilarli uslubiy ahamiyatiga ega ajratilgan bo'laklari bo'lib, asosan, sifatdosh hamda ravishdosh hisoblanadi.

Jon achchig'iga uchragan Azizbek o'rdaga birmuncha sipoh qoldirib, butun kuchini yig'ishtirgan holda Rayimbek dodxoh ko'magiga yetishdi. (A. Qodiriy).

Yuqoridagi konstruksiya tarkibidagi **uchragan, yig'ishtirgan** so'zlari sifatdosh bo'lib, *uchra, yig'+ish+tir* – kabi buyruq fe'llaridan yasalgan. Bunday sifatdoshli konstruksiya kitobiy nutqga xos.

Ajratilgan sifatdoshlar ajratilmaganlariga qaraganda ma'noviy, uslubiy jihatdan kuchli ifodaga ega. Masalan, *Usta yig'lagan holda Otabekni quchoqlab o'pdi-da, ayvonga ko'rpacha sola boshladi. (A.Qodiriy). Uzoq kengashdan so'ng biron ma'qul chora topilmagach, yog'ochday qotgan, junsiz, taqir po'stakda, hujra to'rida o'tirgan Aloiddin Mashhadiy kichkina gavdasi bilan yengilgina qo'zg'aldi, uzun pechi osilgan katta sallali boshini chayqadi. (Oybek).*

Inkorni kuchaytirish maqsadida *na, yo, yoki, yoxud* ayiruvchi bog'lovchilarda foydalaniladi: *na o'qigan, na uqgan; yo bilgan, yo bilmagan; yoki yoqgan, yoki yoqmagan; yo uddalagan, yoki uddalamagan; yo tushungan, yoki tushunmagan, yoxud tushunmanga olgan.* Yuqoridagi konstruksiyalarda ikki holatdan biri nazarda tutiladi, ammo qaysi biri ekanligi ma'lum emas. Aniq bir narsa deyish imkoni bo'lmagan holatda shunday ifoda yuzaga keladi.

Ravishdoshlik konstruksiyalar kitobiy nutqga xosdir. Ravishdoshlar ham sifatdoshlar singari buyruq fe'li asosida hosil bo'ladi. *Tepalikka uchib chiqayotgan chopqir otning tuyog'i yerdan bosh ko'tarib, bugun-erta ochilay deb turgan lola g'unchasini ezib-yanchib o'tdi. (P. Qodirov).*

Ravishdoshli konstruksiya bir qator hol ergash gaplarga sinonim bo'lib keladi: *Mayli, Bobur kuzdagi g'alabasidan faxrlanib, qiziga Faxriniso deb ot qo'ysin... (P.Qodirov). Lekin hozir o'zini ortiqcha ehtiyotkor sezib, g'alati bo'lib qoldi. (Oybek).*

Ravishdoshli ibora (konstruksiya) ayni bir ifodani ergash gapga nisbatan lo'nda va ta'sirchan yetkazadi. Shu bilan birga ergash gap

parallel ravishdoshli iboraga nisbatan ma'nosi bo'yoqdor va uni aniq ifoda etadi. Masalan, *bir haftaga yaqin adashib (qo'nishga joy topdim), adashib-uloqib oxiri ...* (ergash gap) ma'no ifodasida bo'yoq (ottenka) kuchli.

3.4-§. Kiritma so'z va kiritma konstruksiyalarning ifoda imkoniyati

Kiritma so'z va kiritma konstruksiyalar gapning qismi hisoblanmasa-da, ma'no jihatdan u bilan jips bog'liqdir. Ulardan, odatda, obyektiv modallik ifodasi uchun foydalaniladi, ya'ni so'zlovchining aytilayotganga munosabatini bildirish maqsadida qo'llanadi. Subyektiv modallik bir qator ma'nolarni ifoda etadi:

1. Materialning bayonida mantiqiy ketma-ketlikni ko'rsatadi (*birinchidan, shunday qilib, bir tomondan, demak va b.*);

2. Ishonchlilik darajasini (*albatta, aftidan, ko'rinadiki, balki(m), mumkin, shubhasiz va b.*);

3. Nutq manbai (*meningcha, fikrimcha, ehtimol, fikri ojizimcha, nuqtayi nazaridan – kimning va b.*);

4. So'zlovchining aytilayotganning mazmuniga emotsional munosabatini (*baxtga qarshi, ataylab qilgandek, ajabtavr – ajabtovur, haytovur va b.*);

5. Fikrni bayon qilish usulini (*boshqacha aytganda, boshqacha qilib aytganda, boshqacha so'z bilan aytganda, boshqacha aytadigan bo'lsak, boshqacha deyiladigan bo'lsa, boshqacha fikrlasak va b.*).

Kiritma so'z "Gap bo'laklari bilan formal-grammatik bog'lanmagan, asosiy gapdagi fikrga yo'l-yo'lakay qo'shimcha fakt bayon qiluvchi, to'ldirish aniqlik kiritish maqsadida qo'llanuvchi so'z"⁵⁷. Kiritma so'zning kirish so'zidan farqi bor. U birinchidan, modal ma'no ifoda etmaydi, ikkinchidan, gapning boshida kelmaydi. *Otabek salqingina onasiga javob berdi.* (A.Qodiriy).

1. *Turkiyada ma'rifatparvarlik ideallaridan ikki yo'nalishda, bir tomondan, yarim mustamlaka holiga tushgan imperiya o'rnida yangi sharoitlarga mos davlat va jamiyatni qaror toptirish, ikkinchi tomondan esa, ...* (Sh.Azizov). Mahmudxo'ja Behbudiyning fikricha, o'rta osiyoliklarga, *birinchi navbatta, bilim va "boylik" kerak edi.* (Sh.Azizov, S.Azizova).

⁵⁷ Hojiyev A. Lingivistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985. – 43-b.

2. Keyingi hol, **albatta**, **jadid** ijodkorlarda tilga olinmaydi. (Sh.Azizov). ... **buyuk yurtdoshlarimizga bergan bahosi bilan tanishish, shubhasiz, talabalar qalbida milliy iftixor hissini uyg'otadi.** (N.Shodiyev).

3. "... u yoki bu mavzuni yoritish uchun qo'llaniladigan tushunchalar orasidan milliy ma'naviy tarbiya **nuqtayi nazaridan eng ahamiyatlilarini ajratib ...**" (N.Shodiyev).

4. **Lekin bunga tushunmabsizmi va yo tushunishga tilamabsizmi, haytovur yana ham eski erkaliklaringizni tark etmabsiz.** (A.Qodiriy).

5. Uslubiyat bo'yicha mutaxassislar, **boshqacha aytganda, semik tahlil bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar esa har ikki so'z, garchi sinonim bo'lmasa-da, nega qo'llanildi degan, savolni qo'yadi ...** (Z.Tohirov). Mazkur misoldagi kiritma, asosan, ilmiy va publitsistik uslubga xos.

Ko'pgina kiritma so'z va so'z birikmalari uslubga ko'ra betakror. Ma'lum birlarinigina ma'nolari uslubiy bo'yoqli hisoblanadi. Kitobiy bo'yoqdorlari: **hech shubhasiz, har ehtimolga qaraganda (... ko'ra, ...qarshi), bilishimcha men sizga aytsam va b.**

Butun mahallaga, hech shubhasiz, bu ma'lum bo'ladi. (S.Ahmad). **Bilasizmi, kelayotib, har ehtimolga qarshi, daftar, qalam olvolgandim.** (Gazetadan).

Quyidagi kiritma so'z va so'z birikmalari oddiy so'zlashuv nutqiga xos: **innaykeyin, yo'qasam, nuqul ujudi, yil o'n ikki oy va b. She'r odobi bo'ladi, innaykeyin, birovni yaxshi ko'rgan bilan shoir ham bo'lib qolavermaydi kishi.** (Olmos).

Yuqoridagi kiritma so'z va so'z birikmalaridan personajlarning nutqiy tavsifi uchun ham foydalaniladi.

Kiritma gaplar (qisqartma konstruksiyalar) shaklan oddiy gapga o'xshaydi, lekin ma'nosiga ko'ra kiritma so'z va kiritma so'z birikmasi bilan bir xil. Ulardan qo'shimcha informatsiya berish, aniqlashtirish, tushuntirish, izohlash asosiy gapdan anglashilgan mazmunga munosabat bildirish uchun foydalaniladi. Kiritma gaplar, umuman, barcha uslublarda qo'llanadi. Lekin badiiy asardagi muallif bayonida undan foydalanish imkoni katta. Hatto qisqagina bayonda ham birdan ortiq qisqartma konstruksiya uchraydi:

"Kecha o'rda bek oyimdan menga arava kelgan ekan, fe'lim aynib turgan edi, bormay aravani bo'sh qaytardim..." (A. Qodiriy). **Ammo so'ragisi kelardi, to'g'rirog'i, o'g'lini gapirtirish, uning xuddi**

o'zinikiga o'xshagan yo'g'on, lekin shirali ovozi eshitgisi kelardi. (O'.Umarbekov).

Minimatndagi kiritma konstruksiyalar qavs ichida berilishi ham mumkin.

Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytdilar: "Albatta qilingan ishlar (Alloh tomonidan) niyatlariga qarab qabul qilinadi". (Hadisi Sharifdan).

Sulaymon ot: Tur o'rningdan, tirrancha! (Sulaymon ota Ivanga qarshi yurdi va yoqasidan ushlab ko'tardi. Ivan mushuk boladek shalvirab o'rnidan turadi). Ol bu yerdan belkurakni! (Darrov belkurakni tosh yonidan olib qo'yadi). (O'.Umarbekov).

Undalma va uning ta'sirchanlik imkoniyati. Sodda gaplar murakkablashgan konstruksiyasi so'z yoki so'z birikmasidan iborat undalmalar tufayli yuzaga keladi.

Undalma bilan nutq kimga qaratilgan bo'lsa, u ataladi. Undalmalar asosan so'zlashuv nutqi, dialoglarga xosdir.

Aziz o'rtoqlar! O'ttiz yil muqaddam ulug' jang bo'ldi. (O'.Umarbekov).

Qiz: Voy Said Mahmudovich, keldingizmi? Juda ham xavotir olib turuvdik. Odamlar kutib qolishdi. Qarang (Zalni ko'rsatadi). (O'.Umarbekov).

O'zingni bos, o'g'lim, o'zingni bos. Hali yoshsizlar, orzu-havaslarining oldinda. (O'.Umarbekov).

Undalmalardan asosan badiiy nutqda foydalaniladi. Murojaat etilayotganda ismni tilga olish so'zlovchining suhbatdoshiga bo'lgan do'stona, qarindoshlik munosabatini ifoda etadi. Bu, bizga yaqin odamlar, ishdagi hamkasblar, do'stlar bilan kundalik muloqotimizda yaqqol ko'rinadi. Kundalik oddiy so'zlashuv nutqida, oila a'zolari o'rtasidagi suhbat (dialog)da, ayniqsa, so'z va so'z birikmali undalmalar ko'pgina uchraydi.

Adasi, Maskovdagi Xrushchyov ketganmish, shu rostmi? (T.Malik).

Ayasi, eshitingmi, uylari soddagina ekan... (T.Malik). *Bor, qizim, bor.* (O'.Umarbekov).

Yoshi kattalarga, uncha tanish bo'lmaganlarga yoki hurmat yuzasidan ismi, otasining ismini aytib murojaat qilinadi: *Men tushunolmay qoldim, Tohir Saidovich, bolalar dachada ekan ...* (O'.Umarbekov).

Badiiy ijodda murojaatdan quyidagi maqsadda foydalaniladi:

– ehtiros, his-hayajonni namoyon qilish: *O‘zbekiston – ona yurtim, bo‘l omon!*

– hazil-mutoyiba ma’nosida: *Juda sust qadamsan-da, Ra’no, seni talqon yeb suvga yuborgan kishi qaytib kelguningcha, tiqilib o‘ladi.* (A.Qodiriy).

– ironiya vositasi: – *Tugunni oching, domla, uchiga tugilgan pul achib qolmasin!* (T.Malik).

– uslubiy vosita, masalan, o‘tmishga oid:

– *Salom, go‘zal xonimlar! Men shirin suhbatingizni buzmayman, faqat bir daqiqagina qimmatbaho vaqtingizni olaman ...* (T.Malik).

– nutq individuallashtiriladi: *Omon bo‘l, jo‘rajon, kelganingdan xursandman.*

– *Obbo sen-yey, obbo, jo‘rajon-yey! Qaysi shamol uchirdi, a?*

– *Kelmasingdan xotinlar yo‘qlab, qolishibdi-ku, yomonsan, jo‘rajon, yomonsan!* (T.Malik).

Ko‘rinadiki, Tohir Malikning “Ajib dunyo” nomli hikoyasidagi personajlardan biri (Ramazon)ga xos nutq turi, u deyarli har gapida *jo‘rajon* so‘zi bilan murojaat etadi.

So‘zlar tarkibi va ularning ta’sirchanlik imkoni. Sodda gap konstruksiyasi murakkablashuviga so‘zlar tarkibining o‘zgarishi ham sabab bo‘ladi, agar u odatiy emas, balki inversiya, ya’ni nutq egasining maqsadiga ko‘ra bo‘lsa. Agar so‘zlar gap tarkibida grammatika qoidalariga muvofiq joylashsa, unda hech qanday uslubiy holat kuzatilmaydi, oddiy informatsiya yetkazilgan bo‘ladi.

Agar so‘zlar tarkibi o‘zgartirilsa, unda bu muallif maqsadiga ko‘ra amalga oshiriladi: Bunday inversiyada gap tarkibidagi so‘zlar o‘rni almashadi.

1. Ega kesimdan keyinga o‘tadi. – *O‘z oyog‘i bilan kelib qoldi shu boboy, dedi xotinim.* (O.Xusanov). Mazkur misolda subyektning informatsiya uchun ahamiyatsizligi ta’kid etiladi.

2. Moslashgan aniqllovchi gapning aniqlanuvchi bo‘lagidan keyin kelsa, aniqllovchining ma’noviy ahamiyati oshadi. *Bo‘rtib chiqqan yanoqlari, uzun mo‘ylovi kimnidir eslatgandek bo‘ldi.* (O.Xusanov).

3. So‘zlar tartibidagi inversiyada to‘ldiruvchi boshqaruvchi oldidan keladi, bu ularni ma’lum darajada ma’no jihatdan bo‘rttiradi.

– *Zubayda shunday xitob qilib, chimirdi, qoshlarini.* (T.Malik).

4. Hol o‘zi bog‘liq so‘zga nisbatan turli o‘rinda keladi. Bu u ifoda etadigan ma’noga bog‘liq. Harakat tarzi, me’yori, darajasi hol inversiyasida quyidagicha vaziyatlarda yaqqol ayonlashadi: a) gapda

boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar qatnashmaganda: *Ko‘zi jiddiy, istehzoli, tahqiromuz boqar edi.* (V.Yan).

O‘rin, payt, sabab va maqsad holining inversiyasi ular hokim so‘zdan keyin kelganda seziladi: *Kuzatuvchilar qo‘l silkitardi panjara ortidan* (Gazetadan). *Ko‘zida yosh g‘iltillardi sevinchdan.* *U menga qo‘ng‘iroq qiladi ertaga ertalab.* (O.Xusanov).

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, gapning mazmuni so‘zlar tartibiga bog‘liq ekan.

Undovlarning ta’sirchanlik imkoniyati. Undovlar emotsional-semantik xususiyatga ega his-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ifodali bir turkum so‘zlardir. Ularning ayrimlari, xususan, *voy, oh, hay-hay* va b. so‘zlovchining narsa, voqea, hodisaga bo‘lgan turlicha emotsional munosabatini, ichki hissiyotini ifoda etadi. Bunday undovlar turlanmaydi, grammatik ko‘rsatkichga, atash xususiyatiga, leksik ma’noga ega bo‘lmaydi.

Voy undovi quyidagi semantik xususiyatlarga ega hisoblanadi:

– *Voy, xudoga shukur-ey! Qorasi o‘chgani rost bo‘lsin* (sevinch). *Voy, yaxshi nafas qiling* (xavotirlanish). (T.Malik).

– *Voy o‘lay, voy sharmanda!* (nafrat, jirkanish) (O‘. Umarbekov).

Voy undovi ba’zan takror qo‘llanadi: *Voy-voy joningga jonim tasadduq, seni yaratgan sohibi qudratni qara-ya, qurboni bo‘lay.* (Hamza). Bu gapda takroriy undovda subyektning obyektga bo‘lgan ijobiy munosabati ifoda topgan.

Voy-voy, qo‘lim og‘rib ketdi, ko‘rishgan odam shunaqa siqar ekanmi? – dedi Oyto‘ti. (Oydin). Mazkur gapda esa takroriy undov og‘riq hissini ifoda etib, salbiy subyektiv munosabatni yuzaga chiqargan.

Oh undovi ham subyektiv munosabat ifodasiga ega va bu munosabat ikki qutbli bo‘ladi. Masalan, *Oh dedim ovvora bo‘ldim, Yora bilmaydur hamuz* (Muqimiy). *Oh, muncha asal bo‘lmasa, bu bolakay. Shirinligini qara-ya!* (O.Xusanov). Birinchi gapdagi *oh* salbiy munosabat – *zorlanish* ma’no ifodasini beradi. Ikkinchi misolda esa *zavqlanish* hissini namoyon etadi.

Hay-hay takroriy undovi ham ko‘p ma’noli. *Ko‘ngilni nozikligi qilcha bo‘lurmu hay-hay!* (ajablanish, hayratlanish). (S.Zunnunova). *Hay-hay bolam, unday qilmang! Shaytonga hay bering.* (O. Xusanov): *hay-hay* (e’tiroz); *hay* (ogohlantirish, qaytarish).

His-hayajon, tuyg‘u ma’no ifodasini beruvchi undovlar ko‘p ma’noli bo‘ladi. Ular nutq egasi (so‘zlovchi)ning obyekt (narsa, voqea,

hodisa, vaziyat)ga nisbatan emotsiyasini bildiradi. Mualliflar o'z asarida, ayniqsa, badiiy asarda personaj obrazining jonli, hayotiy bo'lishligini ta'minlashda emotsional undovlardan foydalanadilar. Emotsional undovlarning aniq ma'no ifodasi kontekstda ayonlashadi va asosan, quyidagicha bo'ladi:

– so'roq – *Sen ham kelasan, a?* (so'roq). *Shunday ham bo'larkan, a?* (ajablanish).

– taajjub, hayrat – *Iye, qanday tobding?*

– mamnunlik – *Ehe, jamoa jam-ku! Ishlar besh bo'ladi.*

– norozilik – *E, bor ishingni qil! Ko'pam oyoq ostida o'ralashaverma.*

– qo'rqinch – *I-i, qulab tushadi.*

– ogohlantirish – *Hey, qadamingni bilib bos.*

– hayratlanish – *O, Toshkent bu qadar o'zgarib ketadi, deb o'ylamagan edim.*

– xafalik – *Uh, nechchi bor kechirdim ...*

Xullas, emotsional undovlar mamnunlik, sevinch; ikkilanish, ishonchsizlik, hayratlanish, ajablanish, so'roq, taajjub, ogohlantirish, norozilik, e'tiroz, qanoatlanganlik, bezovtalanish, achinish, qo'rqinch, xafalik, qayg'u, mensimaslik, kamsitish, jirkanish, nafrat, g'azab kabi ma'nolardan biri yoki bir nechtasini ifoda etadi, ular qaysi ma'noda kelishi muallifning individual uslubiga ham bog'liq.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. So'z birikmalari va ularning qaysi uslublarda foydalanish imkoni mavjud?
2. G'ayriadabiy birikmalar tuzishdan maqsad nima?
3. Gap bo'laklarining uslubiy imkoniyatlarini batafsil ta'riflang.
4. Murakkablashgan sodda gaplar qanday uslubiy imkoniyatlarga ega?
5. Ajratilgan gap bo'laklarining uslubiy xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Kiritilgan so'zlar va kiritma konstruksiyalarning uslubiy imkoniyatlarini aytib bering.
7. So'zlar tarkibi o'zgarishining uslubiy ahamiyati qanday?
8. Undovlar uslubiy imkoniyatiga ta'rif bering.

13-BOB. MATN USLUBIYATI

REJA

1. Matn uslubini aniqlashning tahrirga aloqadorligi.
2. Gaplarning paralle bog‘lanishidan uslubiy foydalanish.
3. Gaplarning zanjirli bog‘lanishidan uslubiy foydalanish.
4. O‘zgalar nutqining uslubiy imkoniyati.
5. Gaplardan iborat to‘qima tarkibiy qismlari va ularning matndagi vazifasi.
6. Nutq rang-barangligining uch shaxsga bog‘liqligi.
7. Monolog, dialoglarning badiiy-estetik vazifasi.

Matn tahriri bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis – muharrir so‘z va gaplar tahriri – mikrotahrirdan so‘ng to‘liq matn mantiqiy tahririga, ya’ni makrotahrirga o‘tadi. Endi uning oldida murakkab vazifa ko‘ndalang bo‘ladi. Matn, albatta hisobga olish zarur bo‘lgan yangi qonuniyatlar amal qiladigan faoliyat sahifasidir. Zero, mustaqil gaplar bir-biri bilan qanday bog‘lanadi? Nutq qanday tuziladi? Matn birlik (qism)lari ularning tuzilishidagi o‘ziga xosliklar qanday? Yuqoridagi savollar (mavzular)ga qisqacha tushuntirish berib o‘tishga harakat qilamiz. Chunki bular ham bevosita, ham bilvosita matn uslubiyati va shu bilan birga sintaksisga taalluqlidir. Sintaksis matn tuzilishi tarzini o‘rganadi. Matn uslubiyati esa bu jihatga nutqning sintaktik qurilishi bilan bog‘liq holda uslubiy samaradorlik nuqtayi nazaridan qiziqadi. Matn ko‘lami oshib borgan sari, ya’ni u bitta gapdan to asar tugallanguniga qadar uzayganda matn sintaksisi bilan uslubiyati tobora jipslasha boradi. Matn tuzilishidagi har qanday o‘zgarish, albatta, uning uslubida aks etadi.

Demak, uslubni aniqlashda gapning tuzilishi muhim omillardan hisoblanadi.

1-§. Gaplarning bog‘lanishi

Matndagi gaplar bir-biri bilan ma’nosiga ko‘ra bog‘langan bo‘lishi kerak. Mustaqil gaplarning ma’noviy bog‘liqligi umumiy qonuniyatini quyidagicha izohlash mumkin. Agar ikkita gap biror umumiy unsur (so‘z yoki so‘z birikmasi)ga ega bo‘lsa, unda ular bir-biri bilan ma’noviy bog‘langan bo‘ladi. Odatda ifodalarni bog‘lovchi umumiy unsur ularning har birida takrorlanadi: *O‘zbekistonning sharqi-*

janubida tog'lar ko'p. Tog'larda – o'tloqlar. Takror fikr umumiy unsurini ifoda etishida til vositasi vazifasini o'taydi.

Tilda mustaqil gaplarni bir-biri bilan bog'lovchi turli vositalar mavjud. Gaplarni bog'lovchi, fikrlar uyg'unligi, ma'noviy aloqadorlikni aks ettiruvchi shakllar til va sintaksisda mavjuddir. Masalan:

1. *Bedana* tongda sayraydi. *Bedana* o'tloqda yashaydi.
2. *Bedana* tongda sayraydi. *U* o'tloqda yashaydi.
3. *Bedana* tongda sayraydi. *Jonivor* o'tloqda yashaydi.

Har bir juftlikdagi gap tarkibidagi umumiy ma'noga ko'ra bog'lanadi. Birinchi gapdan yangi ma'lumot (xabar) ayon bo'ladi va u keyingi gap uchun mavzuga aylanadi hamda yangicha tavsifga ega bo'ladi. Fikr xuddi mana shu tarzda ikkinchi va uchinchi juftlikda shakllanadi. Nutqda umumiy ma'no ifoda etuvchi unsur ayni bir so'z (*bedana*)dir. Bunda leksik takrordan ayni birinchi gapdagidek foydalaniladi. Ma'noni ifoda etuvchi unsur mustaqil so'z, shuningdek, uni almashtiruvchi kishilik-ko'rsatish olmoshi ham bo'lishi mumkin (*bedana – u*) – ikkinchi misoldagidek. Yoki so'zning sinonimi (*bedana – jonivor*) bo'lishi mumkin – uchinchi misoldagidek. Fikr umumiy unsurini ifoda etishning bu uch usuli gaplarning bog'lovchisi bo'ladi. Lekin leksik takror ham, olmosh ham, sinonim so'z ham gap ayni bir narsa xususida ekanligini bildiruvchi o'ziga xos ishora bo'ladi. Bunday ishora muhim, lekin yuzaki tavsifga ega. Gaplarning ichki bog'liqligining mohiyati uning qanday tuzilganiga bog'liq. Ana shu tuzilishga ko'ra mutanosiblik sintaktik model hisoblanadi. Yuqoridagi juftliklarda birinchi jumladagi ega shu juftlikning ikkinchisida takror keladi. Ikkinchi juftni birinchisidagi ega (*bedana*) o'rnida ikkinchi gapda kishilik-ko'rsatish olmoshi keladi. Uchinchi juftlikdagi ega, ikkinchisida sinonimi bilan almashtirilgan. Sintaktik model o'zgarmay qoladi. U qator gaplar bog'lanishi uchun namuna, shakl sifatida qoladi. Bunday aloqa fikr tug'ilishi tadrijiyligini ko'rsatadi, uni *zanjirli bog'lanish* deyish mumkin.

Gaplarning tuzilishiga ko'ra boshqacha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- Bedana* tongda sayraydi.
- Bulbul* oqshomda kuylaydi.
- Kaptar* ko'kda charx uradi.

Mazkur jumlar tuzilishga ko'ra bir-biri bilan aloqadordir, bunday bog'lanish yuqorida qayd etilgan zanjirli bog'lanishdan farq qiladi. Har bir keyingi jumla avvalgisiga o'xshash tuzilgan va so'zlar bir xil tartibga ega. Gaplar bir-biriga o'xshash – parallel. Mana shu parallellik ular bog'lanishiga asos hisoblanadi. Gaplarning biri ikkinchisidan kelib chiqmaydi, ya'ni zanjirli bog'lanishdagi kabi emas, lekin o'xshashlikka ega. Bunda har bir keyingi gap mazmuni go'yo oldingisining mazmuniga taqqoslanayotgandek. Bunday bog'langanlik *parallel bog'lanish* deyiladi. Shunday qilib, matnda mustaqil gaplarning ikki xil – zanjirli va parallel bog'lanishini ko'ramiz. Har ikki tur bog'lanish gaplarning tuzilish tarziga asoslangan. Birinchisida tadrijiylikdan foydalangan, ikkinchisida esa taqqosga asoslangan.

Zanjirli bog'lanishdan nutqdagi barcha uslublarda foydalaniladi. U gaplarni bir-biriga bog'lashdagi eng ommaviy, keng tarqalgan usuldir. Bu usuldan keng foydalanishni uning fikrlashga xos xususiyatga juda ham mos ekanligi bilan isbotlash mumkin.

Qachonki fikr bir yo'nalishda, tadrijiy rivojlanar ekan, qachonki har bir keyingi gap oldingisini rivojlantirar ekan, go'yo undan kelib chiqar ekan, albatta zanjirli bog'lanish yuz beradi. Biz bunga tasvirda, hikoyada va ayniqsa mulohazada, ya'ni turli-tuman matnlarda duch kelamiz. Badiiy nutqda tugallangan gaplararo sintaktik aloqada asosiy tamoyil ilmiy nutqdagi singari ochiq-ravshan bo'lishlik emas. Bunga intilish – iloji boricha sintaktik bog'lanishdan qochishdan iborat.

Gaplarni bir-biriga birlashtiruvchi “chok” sezilmaydigan bo'lishi kerak. Shunga ko'ra badiiy nutqdagi zanjirli bog'lanishlarda kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, shuningdek, leksik takror keng qo'llanadi.

Shul asnoda Mir kelib, mendan so'radilar: “Mehmonlar qayerda?” Men izoh berdim. Mir nogohon g'azablanib, mendan ranjidilar va qoshlarini chimirib dedilar: “Alisherning uyi oshpazning do'konxonasimidirki, hariflar kelib, osh yeb jo'nay berurlar!” Bu nuqtani men bir-ikki yor-do'stiga aytgan edim, bovar qiling, barq sur'ati bilan Hirotning qulog'iga yetipti... Yaqubbekning huzuridan kelganlarning axborotiga ko'ra, bu voqea u yerda ham tillardan tillarga ko'chib, majlislarda so'ylanarmish... (Oybek).

Leksik takror badiiy matnda ko'p uchraydigan so'z – mavzu, ko'pgina olmoshlardan iborat bo'ladi.

Mustaqil gaplar parallel bog‘lanishining ham uslubiy imkoniyati yuqori darajada. U turli uslubiy bo‘yoqlarga – betaraf ma’no ifodasidan to‘tananavorlik, hatto, jo‘shqinlik, ehtirosga ham ega. Masalan,

– *Oz qoldi, juda oz qoldi, – derdi u chinorning bukri tanasiga suyanib. – Yaqinda chiqib qoladi. Ana o‘shanda ko‘rasan. To‘y qilamiz. Butun qishloqqa osh berib to‘y qilamiz. Kuyovni otga mindirib shu yerdan aylantirib o‘taman. Balki uloq berarman shu yerda. Bitta qo‘y nima bo‘libdi? O‘nta qo‘yga ham kuchim yetadi! Marrani sening taginga belgilayman. Odamlar ko‘rsin seni ham. Ranging kirib qoldi, olataroq barglaringga qon yugurdi. Odamlar ko‘rsin seni ham. Ko‘karib turgan narsa ko‘zni quvontiradi. Qani endi hamma narsa ko‘karib tursa! Odam ham bamisoli daraxt. O‘sadi, ulg‘ayadi, keyin... keyin so‘ladi. Yoshi yetib so‘lsa mayli – alam qilmaydi unda. Yoshi yetmasa – og‘ir. Judayam og‘ir. Nima qilishingni bilmaysan. Dunyo ko‘zingga qorong‘i ko‘rinadi, yashaging kelmaydi. O‘z pushtingdan bo‘lgani so‘lsa bundan ham dahshat. Iloji bo‘lsa-yu, uning dard-hasrati senga o‘tsa, yo bor kuchingni yana yig‘ib, uni yana ko‘kartirsang... Men shunday qilmoqchiydim, shuning uchun bu yoqqa keluvdim. Sen ko‘karding. Qani endi u ham ko‘kar’sa! Yuzlariga yuzimni qo‘ysam, ko‘zlaridan, peshonasidan o‘psam! Bag‘rimga bosib, to‘yib yig‘lasam! Yo‘q, yig‘lab nima qilaman? Yoningga ko‘tarilib qichqirsam, butun qishloqqa jar solsam. “Og‘aynilar!” desam. “Mana mening o‘g‘lim, u tirik”, desam. (O‘.Umarbekov).*

Fikrlash tarzini aks ettirib, yonma-yon tizilgan (qatorlashgan) harakat, hodisa, voqeani atab parallel aloqa o‘z mohiyati (tabiati)ga ko‘ra tasvirlash (yuqorida keltirilgan misoldagi singari) va hikoya qilishga qaratilgan.

Mustaqil gaplararo aloqaning uchinchi turi – *biriktirishdir*. Bu tarzda fikrni bayon qilishda uning bir qismi alohida tarzda qo‘shimcha ma’lumot sifatida asosiy xabarga biriktiriladi. Masalan, *Hayron bo‘lmang amirzodam. Ne qilsa ham ayol kishi-da, qisqa o‘ylab o‘rgangan.* (P.Qodirov).

Biriktiriladigan unsur (qism)lar turli-tuman va ta’sirchandir. Tushuntirish, sharh va b. tarzidagi qo‘shimcha ma’lumot nutqga jonlilik, tabiiylik, erkinlik bag‘ishlaydi, shu jihatlari bilan yozuvchilarning e’tiborini tortadi.

O'zgalarning (ko'chirma, o'zlashtirma va b.) *nutqi* ham sezilarli darajada uslubiy imkoniyatga ega. Grammatikada "ko'chirma gap" degan termin mavjud. Mazkur termin muallif bayoniga boshqalarning aytganlari qo'shilishini anglatadi. Nutq egasining eslagan, xotirlaganlari haqidagi mulohazalari ham ana shunday *begona* nutq hisoblanadi.

Begona nutq mualliflikiga qarama-qarshi qo'yiladi. So'zlovchi, hikoya qiluvchiga tegishli nutq "o'ziniki" hisoblanadi. Begona nutq berilishi, tuzilishi uslubiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri (ko'chirma), bilvosita (o'zlashtirma) o'ziniki bo'lmagan bo'ladi. Bu begona nutqlar muallif nutqi orasida ajralib turadi. Ular muallif nutqi bilan turli usulda birlashadi (qo'shiladi) va rang-barang uslubiy vazifani bajaradi.

Albatta, istalgan uslubda asosiy ahamiyat muallif nutqiga tegishli bo'ladi. U matnning asosiy qismini tashkil etadi, hal qiluvchi axborot, muloqiy va estetik vazifani bajaradi. O'zganing nutqiy unsurlari esa o'ziga xos ta'sirchan tavsifga ega bo'ladi, muallif nutqini rang-baranglashtiradi, uni uslubiy bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi.

To'g'ridan to'g'ri (ko'chirma) nutq, uning sezilarli darajadagi ifodaviy imkoniyatlari faqat o'zganing aytganlari mazmunini berish bilangina cheklanmaydi, balki shaklini ham aynan namoyon etadi, ya'ni so'zlar, sintaktik, intonatsiyaviy, uslubiy o'ziga xosliklar qanday bo'lsa, shunday saqlanadi. Chunki qanday so'zlangan bo'lsa, hech bir o'zgarishsiz olinadi. Shunga ko'ra to'g'ridan to'g'ri nutq muallifning betaraf nutqi orasida keskin ajralib turadi, uslubiy jihatdan mutlaqo farq qiladi yoki turli tarzda muallif nutqi bilan uyg'unlashadi.

Badiiy adabiyotda to'g'ridan to'g'ri nutqdan xarakter yaratishda foydalaniladi. Matnga personajlar nutqini to'g'ridan to'g'ri kiritishda muallif qahramonlarining nutqiy xususiyatlarini namoyon etish uchun ular monologi, dialogi va aytganlaridan foydalanadi. Ko'pincha personaj nutqi muallifning nutqi bilan to'ldiriladi, izohlanadi.

To'g'ridan to'g'ri nutq bayonida bir xildalikning oldini oladi, lekin uni suiiste'mol qilish maqbul emas. Chunki faqat monolog tarzidagi yoki dialogdangina iborat nutq bayonini jozibasiz, zerikarli bo'lishiga olib keladi. Dialogning tasvirdan, ta'rifdan ustunligi hikoyaning jonlilik, yorqinlikdan mahrum qiladi.

O'zining nutqini keltirishning yana bir usuli bevosita (o'zganing nutqi) nutqdır. Bu nutqni so'zlovchi o'z nutqi sifatida keltiradi. O'zganing nutqi misoli so'zlovchining nutqiga ergashgan nutqdek

uyg'unlashadi, murakkab gap orasida keladi: *Rektor, o'qish 5-sentabrda boshlanishini aytdi. Mazkur jumlada rektor... aytdi so'zlovchi nutqi, ... o'qish 5-sentabrda boshlanadi o'zganing nutqi. O'zganing nutqi o'zlashtirilgani uchun boshlanadi fe'li boshlanishini tarzida beriladi.*

Uslub nuqtayi nazaridan bilvosita nutq (o'zganing nutqi) tavsifga ko'ra betarafligi to'g'ridan to'g'ri (ko'chirma) nutqdan farqlantirilganligi bilan ajralib turadi. Bilvosita nutqdan ifoda etilgan fikr ifoda shaklini emas, balki mazmunni ifodalash lozim bo'lgan hollarda foydalaniladi.

O'zganing nutqi shakllaridan yana biri – uchinchi, o'zganing o'ziniki bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri (ko'chirma) nutq. Bu nutq bevosita va bilvosita nutq oralig'ida turadi. Mazkur nutq muallifga tegishli bo'ladi, barcha olmosh, fe'l shakli, shaxs ko'rsatkichi – gap muallif nuqtayi nazariga ko'ra tuzilishga ega bo'ladi. Personajning o'z nutqi leksik-sintaktik yorqinlikka va uslubiy bo'yqondorlikka ega bo'ladi. Bilvosita (o'zlashgan) nutqdan farqli o'laroq o'zganing o'ziniki bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri nutq muallif nutqiga qo'shimcha qism sifatida beriladi. Taqqoslang:

U hujrasidan tashqariga chiqib, ko'kka nazar tashladi va ko'nglidan o'tkazdi: "Havo tiniq, yulduzlar charaqlaydi! Hoyna-hoy, sovuq yanada zo'rayadi" (To'g'ridan to'g'ri nutq).

U hujrasidan tashqariga chiqib, ko'kka nazar tashlaganicha havo tiniq, yulduzlar charaqlaydi, hoyna-hoy zo'raysa kerak, deb ko'nglidan o'tkazdi. (Bilvosita – ko'chirma nutq).

U hujrasidan tashqariga chiqib, ko'kka nazar tashlaydi. Havo tiniq. Yulduzlar charaqlaydi! Hoyna-hoy sovuq yanada zo'rayadi. (O'ziniki bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri nutq).

O'ziniki bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri nutqning o'ziga xosligi shundaki, u ikki taxlitda bo'ladi. Go'yo u mualliflar nutqidek ko'rinsada, lekin unda personajning "ovozi" aniq eshutiladi. Muallif nutqiga to'g'ridan to'g'ri nutqning leksik sintaktik, unsurlari undov, hishayajonli gap) birlashadi. Ana shunday so'zlardan tashkil topgan konstruksiyada uchinchi shaxsdagi kishilik olmoshi ta'sirchanlik kasb etadi.

Shunday qilib, o'ziniki bo'lmagan to'g'ridan to'g'ri nutq, o'zganing nutqini aynan berish (ko'chirish) emas, balki unga yaqin bo'lgan nutqdir va u qahramonni ichki dunyosini tavsiflaydi, uning

ichki dunyosiga olib kiradi, uning xulq-atvori, muomalasi, nutqiy talaffuzi va b. jihatlarini baholaydi. Personaj nutqi go'yo muallif nutqiga aylanadi va uning nutqi shakliga kiradi. O'zganing o'zinikiga o'xshagan, ammo, to'g'ridan to'g'ri olingan nutqdan foydalanib, muallif, o'zini qahramon o'rni qo'yadi va shu bilan birga, o'z mualliflik nutqi doirasidan chetga chiqmaydi. Shunga ko'ra ko'pincha to'g'ridan to'g'ri keltirilgan nutq sezilmagan holda personajning o'z nutqiga aylanadi. Bunday nutq muallifga o'z personajni tilidan gapirishiga, u kabi o'ylashiga imkon beradi. Shunday qilib, muallif obrazi bilan personaj obrazi o'rtasida bog'lanish yuzaga keladi, badiiy matn yaxshiligiga erishiladi. Masalan:

Hasanalining ko'zlari tag'in uyquga ketar, qarshisida Otabek bilan ko'hli, ko'rkam bir qiz kelib chiqar va ikkisi unga qarab iljayishar ekan: "Bizning chin otamizsiz!" degandek bo'lar edilar. Hasanaling yana uyqusi qochar edi.

– Yoshim oltmish to'rtga yetdi, o'g'lim-qizim bo'lmadi ... Dunyodan charog'chisiz boraman... Darvoqe Otabek menga o'g'illik qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi, ularning bolalari meni "bobo" deb ketimdan yugurmasmikanlar? Tuproq ostlarida unutilib yotgan kezlirimda – "bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi" deb yodlasalar, yaxshilik bilan eslasalar yetar menga shu. (A.Qodiriy).

Har qanday matn gaplardan tashkil topadi. Bular matn birliklari deya ataladi. Ular, ta'bir joiz bo'lsa, matn imoratini bunyod etishda qurilish materiallaridir. Lekin gap bilan tugallangan asar o'rtasida oraliq qism yo'q. Agar shunday bo'lganda edi, inson matn qurilishida ishtirok etgan barcha gaplarni qamrab ololmagan bo'lar edi. Masalan, Oybekning "Navoiy" romanining, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"ining matnini o'qish jarayonida tanaffus qilish, to'xtalish, avval aytilganlarga qayta murojaat qilish zarur bo'ladi. Gaplardan iborat to'qima (matn) bir taxlitda emas. To'qimani tashkil etuvchilar "... quyidagi sifatlarga asosan farqlanadi: *asosiy; aniqlashtiruvchi; qo'shimcha; takroriy* hamda Yevropa jurnalistikasi tilida *nul* deb ataluvchi turga"⁵⁸.

Mazkur turlardan biri bosh, muhim bo'lgan fikrni ifodalashda asosiy vazifani o'taydi, hikoyaning mohiyatini qayd etadi, boshqalari esa ikkinchi, uchinchi va h.k.vazifani o'taydi. Matndagi gaplar, bular –

⁵⁸ Taxirov Z. Tahrir mantiqi. –T.: O'zbekiston NMIU, 2016. –36-b.

o'ziga xos zarralar, ma'lumot (xabar) ulushlari, shulardan to'liq ma'lumot, yaxlit nutqiy asar shakllanadi. Ayrim gaplar fikrni bir qisminigina ifoda etadi. Fikrni rivojlantirish, ozmi-ko'pmi yoki to'laqonli ochib berish uchun gaplar majmui (guruhi) nasriy bandlar talab etiladi. Ular esa tugal fikrni ifoda etish uchun ham ma'no, ham grammatik jihatdan bog'langan bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotda matnning bu birligi murakkab sintaktik yaxlitlik deb ataladi.

Matnning qismlari bo'lmish yirik tuzilmaviy birlik hisoblanuvchi band muayyan kompozitsiyaga ega bo'ladi.

Mustaqil tuzilishiga ko'ra nisbatan erkin bo'lgan birinchi jumla -- boshlanish alohida ajralib turadi. Birinchi gap uchun, nutqning boshlanishidagi ifoda uchun maxsus sintaktik vosita qo'llanadi. Banddagi boshqa gaplar tuzilishi va ma'naviy jihatdan unchali mustaqil bo'lmaydi, ko'pincha sintaktik jihatdan birinchi gapga bog'liq bo'ladi. Bosh gap bandni tashkillashtiruvchi markaz vazifasini o'taydi. Haqiqatdan ham birinchi jumla (ibora) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar birinchi jumla asarning ko'lamini, to'liq ifodasini, maromini belgilay olmasa, unda matn to'g'ri bayonidan mahrum bo'ladi, fikr chuvalashadi, natijada boshlangan ish to'xtab qoladi yoki yozilgan matn yaroqsiz deya tashlab yuboriladi.

Bosh ibora (gap) fikrning boshlanishini ta'minlaydi, band mikromavzuini shakllantiradi. Shundan so'ng o'rta qism boshlanadi -- fikr, mavzu rivojlantiriladi. Fikrning mohiyati, nutq turi, uslub individualligi va boshqa omillarga ko'ra u bir qator uzun yoki qisqa bo'lishi mumkin (gap bitta, ikkita yoki undan ko'p bo'lishi mumkin). O'rta qism maxsus sintaktik vositalar bilan shakllanmaydi. Gaplar bosh gapga zanjirli yoki parallel bog'lanadi. Bandning quyi qismi, uning tugalishi -- yakuni alohida maxsus ajralib turadi. O'quvchi banddagi fikr rivoji tugallanayotganini sezish kerak.

Fikrni tugatish (yakunlash) vositasi bo'lib, so'roq yoki undov gap kiritma so'z, to'g'ridan to'g'ri (ko'chirma) gap va b. xizmat qiladi. Avval kelgan matnga qiyosan yakuniy gap sintaktik qurilishining o'zgarishi bu vositalar barchasi uchun umumiy hisoblanadi (so'zlar tarkibining o'zgartirilishi, gap tuzilishi, fikrni yakunlovchi gapning o'zidan oldingi gap bilan sintaktik bog'lanishi, bayon tavsifining o'zgarishi va h.k.).

Shunday qilib, band quyidagi kompozitsiyaga ega bo'ladi: band mavzuini shakllantiruvchi, fikrning boshlang'ich ma'nosidan iborat

birinchi gap; fikr va mavzu rivojlanuvchi o'rta qism; banddagi mikromavzuni yakunlashga olib keluvchi va buni faqat mazmunan emas, balki sintaktik jihatdan ham ta'kid etuvchi sintaktik tugalish nuqtasi. Misol keltiramiz:

Suvsizlikdan qaqrab yotgan bepoyon cho'l. Uzoq-uzoqda yakkam-dukkam o'sgan yulg'in to'pi ko'zga tashlanadi. Bultur o'sgan, kuz va qish davomida izg'irinlarga "o'yinchoq" bo'lgan tuyaqorin bilan quyunjuni boshqa giyohlarga qo'shib, har yer-har yerda cho'kib yotibdi. Cho'lda shamol esgan paytlarda ular junini hurpaytirib hamlaga hozirlanayotgan yoki ohista o'rnidan qo'zg'alayotgan maxluqlarni eslatadi.

Keltirilgan parchada qora harflar bilan berilgan birinchi jumla – boshlov – fikrning boshlanishi. Kursivda berilganlar o'rta qism – fikrning rivojlanishi. Sochma harflarda berilgan qism – tugalish – yakun.

Shuni aytish kerakki, mazkur band namunaviy tavsifda, majburiy emas. Asarning yaxlit tuzilmasi yoki qismlariga bog'liq ravishda bandlar boshlovsiz, xulosasiz hamda, to'liq bandga teng gapdan iborat bo'lishi mumkin.

Kompozitsiyasi, mavzuiga ko'ra bandlar xilma-xilligi matnning vazifasi, mazmuniga ko'ra belgilanadi.

Lekin barcha xilma-xillik, yuqorida qayd etilgan namunadagidek uch qismga asoslanadi.

Nasriy band badiiy jihatdan yaxlitlikka unchali ega bo'lmaydi. Uslubdagi o'ziga xoslik ayrim jumalardagina emas, balki nasriy bandda namoyon bo'ladi. Har bir mohir so'z ustasining – yirik kontekst tuzishida ozmi-ko'pmi shakllangan doimiy nasriy band namunasi bo'ladi. Albatta, bunday namunaviy band uning ijodidagi muayyan davr yoki asrda namoyon bo'ladi.

Ayrim mualliflar o'z fikrini qisqa, lo'nda, yorqin, ta'sirchan va tadriijiy tarzda bayon etadi, narsa, voqea, hodisani birinchi tilga olishdayoq uning mohiyatiga chuqur kirib boradi. Ba'zilar esa bir turkum, go'yo tasodifiydek bo'lgan taassurotlarni beradilar, har biri bitta jumlagacha qisqarib boradi, narsa haqidagi tugal fikr barcha taassurotlar jamlanishi natijasidagina yuzaga keladi. Bunday yozuvlar uchun jumla va bir iboradan boshqasiga o'tish, ayrim hollarda bir-biridan ancha narida keluvchi jumlar o'rtasidagi aloqadorlik ayrim gaplardan ko'ra muhimroqdir.

Ma'lumki, nasriy bandlar jumlarlar singari nutqda bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, lekin qaysidir darajada qiyoslanadi, qarama-qarshi qo'yiladi, boshqa ma'noviy munosabatga kirishadi, ko'pincha, harakatning fikr-mavzuning rivojini ifoda etgan holda bunday munosabat juda murakkablashadi. Odatda, bitta mavzu (yoki uning bir jihati) ikki yoki undan ortiq nasriy bandda rivojlanadi. Bu bandlar semantik-sintaktik birlik – qism (fragment)ni tashkil etadi. Qismda eng ko'p ma'noviy, axboriy va tuzilmaviy vazifani band bajaradi, u asarni ochuvchi yoki yangi mavzuni boshlovchi, uning rivojlanishini ifoda etuvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarining boshlanish qismini ko'rib o'tamiz:

Uning ikki ertagi bo'lar edi. Biri o'ziniki bo'lib, uni hech kim bilmadi. Ikkinchisini esa, bobosi so'zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda.

O'sha yili u yetti yoshga to'lib, sakkizga qadam qo'ygandi.

Avval portfel sotib olindi. Qopqora dermantin portfelni ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor.

Mazkur qism uch nasriy banddan iborat. Birinchisi ma'noviy munosabatdan qat'i nazar, hikoya tavsifiga ega, chunki qism qissaning boshlanishi hisoblanib, syujeti hamda bayon tarziga ko'ra muhim ma'lumot (informatsiya)dan iborat. Ikkinchi, uchinchi band esa tasviriy tavsifga ega va ma'noviy va sintaktik jihatdan birinchi bandga bog'liq. Bular ham muhim ma'lumot beradi, lekin asosiysi emas, balki izohlovchi, sharhlovchi hisoblanadi.

Shunday matnlar bo'ladiki, bitta (kamdan kam holda ikkita) gapdan iborat bo'ladi. Bular iboralar, topishmoqlar, maqollar, hikmatli so'z, gazetalarda va b.dagi xronikali qaydlardir. Yana turli nasriy bandlardan, qismlardan iborat matnlar ham bor: gazetalardagi qaydlar, she'rlar, nasrdagi masallar. Bundan tashqari ancha cho'ziq matnlar ham bor, albatta.

Yirik matnlarni tuzishning asosiy usuli qismlar boshi (boshlanishi)ning ma'noviy-sintaktik bog'lanishidir. Nasriy bandda boshlanishi tayanch gap, mavzuda o'ziga xos egadir (xuddi gapdagi singari). Qismda ham u ayni shu vazifada keladi, lekin, odatda, bir necha bandni bog'laydi.

Shunday qilib, nutq uni tashkil etuvchi birliklari nuqtayi nazaridan bog'lanish tarzini quyidagicha tasavvur etish mumkin: Gap – nasriy band – qism – boshlanish – parcha – tugallangan jumla.

Murakkab tuzilishdagi matnlarni tushunishda faqat gaplarni bir-birlari bilan bog'lovchi vositalar, til birliklarigina katta ahamiyatga ega bo'lmay, balki nutqning qanday qur'lishi ham muhimdir. Shu ma'noda kishilik olmoshlari ham nutq tuzilishida o'ziga xos vazifani bajaradi. Nutq tuzilishida yuqorida qayd etilgan uchlik faol ishtirok etadi. Nutq yuzaga kelishida shu uchlikka muvofiq birinchi, ikkinchi yoki uchinchi shaxs ishtirok etadi. Nutqning rang-barangligi mana shu uch shaxsga bog'liq. Albatta, mana shu uch turning almashinib turishini nazarda tutish lozim.

Birinchi tur nutq bevosita birinchi shaxs (*men, biz*) tilidan bayon qilinganlik bilan ajralib turadi. Birinchi shaxsning nutq shakli nisbatan sodda, tabiiy chiqadi. Bu tur nutqdan kundalik oddiy so'zlashuv uslubida foydalaniladi, bundan tashqari xat, kundaliklar yozishda, publitsistikada qo'llaniladi. Bularning barchasida nutq egasi gapirayotgan (yozayotgan) nutq subyekti bilan aynan teng keladi. Badiiy adabiyotda *men* – nutq subyekti, ya'ni gapiruvchi, hikoya qiluvchi, muallif nutq subyekti hisoblanmaydi. Birinchi shaxs nutqi, odatda, uslubiy tavsifga ega bo'ladi. Muallif o'zini qaysidir personaj o'rniga qo'yishi va uning nomidan hikoya qilishi mumkin, bu hikoyaning hayotiy, ishonarli, ta'sirchan va chuqur mulohazali bo'lishini ta'minlaydi.

Muallif hikoya qiluvchiga "ishonib" nutqning birinchi shaxs tilidan bo'lishligini tanlashi hikoyachi+personajni ichki dunyosini ochib berishga, uning atrofga bevosita qay ko'z bilan qarashligini, uning his-hayajonini, narsa, voqea, hodisaga baho berishini, talaffuzi (intonatsiyasi)ni qo'shimcha tarzda tavsiflash imkoniyatini beradi.

"Men qo'ltiqtayoqqa suyanganimcha toshdek qotib qolgan edim. Hovliga chiqib, aylanishga toqatim qolmadi. Izimga qayti, b haligina yotgan joyimga o'zimni tashladim. Quloqlarim hech nimani eshitmas, ko'zlarim hech nimani ko'rmas edi, dahshatdan butun a'zoyi badanim toshdek qotib qolgan edi.

Meni qamrab olgan dahshat o'sha zahoti zaharli nafratga aylandi. Agar o'sha daqiqalarda Toshbuvi yonimga kirib, munofiqlik qilsa bormi, yaralangan arslondek tashlanib, yanchib tashlashim mumkin edi. Axir men oyog'imni yoshlik sho'xligi tufayli tashlab

kelganim yo 'q-ku!.. O'zimcha yana o'yladim: "Xo'sh, achchiq ustida Toshbuvini bir nima qilib qo'ysam, o'zim kim degan bo'laman? Kelajagim nima bo'ladi? Ota-onam?.. shunaqa paytlarda o'zimni qo'lga ololmasam, nega inson bo'lib yaratilganman? Chidash kerak, sabr qilishim kerak. Balki o'zi keyin pushaymon bo'lar" (O.Xusanov).

Ikkinchi tur nutq – bayon ikkinchi shaxs tilidan bo'ladi. – *Sizlar hech qachon boy bo'lganmisizlar, boy bo'lishni istaysizlarmi, o'zi?* (Yo. Xakimov, M. Rahmon). *Sen shunchalik o'zgarib ketibsanki, hayron qolyapman.* (O. Xusanov).

Bunday nutq nasriy ocherklar uchun xos, publitsistikada yorqin uslubiy samara beradi. Muallif meni o'rnida ikkinchi shaxs – *sen*, sizdan foydalanib, muallif kitobxonni o'z o'rniga (muallif o'rniga) taklif etadi va o'zi his etgan kechinma, tuyg'uni his etishligini o'quvchiga yaqinlashtiradi, bayonni yorqinlashtiradi, jonlantiradi, ishonchli qiladi.

O'quvchi go'yo hodisalar girdobiga tushib qoladi, bo'lib o'tayotganlarni o'z ko'zi bilan ko'radi.

Ikkinchi tur nutqdan ko'p foydalanilmaydi. Lekin uning uslubi nozik, adabiy matnlar tuzilishining o'ziga xos turi. Badiiy hamda publitsistik ijodda (uncha katta bo'lmagan kontekst tuzishda) foydalaniladi.

Uchinchi tur nutq – uchinchi shaxs tilidan bayon qilinish tabiatiga ko'ra bosiq, ohista bo'lib, bevosita hissiyotdan yiroq, uning uchun tasvirlash, hikoya qilish va mulohaza xos. Quyidagi matnga e'tibor beraylik:

O'sha kuni Shohmurod Ko'histoniy tunda oyoq-qo'lini bog'lab olib kelgan asirning so'ziga qaraganda So'qtu no'yon asosan shaharda turishini, tog' etagidagi qator o'tovlarda uning yuzboshi va boshqa mansabdorlari bo'lishini ma'lum qildi. Shu sababli Temur Malik yov ichiga g'orat solishlikni ikki tomonlama va tinimsiz olib borishni lozim topdi. U Muhammad Intizomga zudlik bilan Axsikat va O'sh hokimlari huzuriga borishini, tayyorlangan nomani hamda ming tilla tanga berilishini, bu aqchani o'z ayg'oqchilariga bo'lib berib, dushman ichidan unga putur yetkaza berish lozimligini topshirdi. Zaharlash, qasrga o't qo'yib, mo'g'ul mansabdorlarini o'ldirib, g'orat sola berishni keng boshlashga farmon beradi. No'yonni qo'lga olish-olmaslikdan qat'i nazar, qo'lga tushirilgan xoinlarni o'sha yerda o'ldira berish lozimligini ham aytdi. Biz endi payt poylab turolmaymiz,

mo'g'ullar nihoyatda ko'p vahshiyliklar qilmoqdalar. Yo Vatan, yo o'lim!

Mirmuxsinning "Temur Malik" tarixiy romani (312-b) dan olingan bu parchadagi uchinchi tur nutqda aks etgan uslubiy imkoniyat, aytish mumkinki, tuganmasdir. U bayon uslubini cheksiz o'zgartirish imkonini beradi. Bayon obyektiv – his-hayajonsizlikdan to tantanavor – nazmiylikgacha bo'lishi mumkin. Bunda bayonni individuallashtirishning o'ta rang-barang usul va vositalaridan foydalaniladi.

Xullas, o'zbek tilidagi nutq har uchchala shaxs tilidan bo'lishi mumkin. Nutqning mazkur kompozitsiyaviy sintaktik turi muayyan uslubiy o'ziga xoslikka ega, "sof" (faqat birinchi, faqat ikkinchi va faqat uchinchi tur) bo'lishi mumkin, lekin bu kamdan kam uchraydi, shuningdek aralash holda ham uchraydi (ko'pincha shunday bo'ladi), almashinib, uyg'unlashib, o'zaro bog'lanib keladi va turli uslubiy tuzilish, nutqiy shakl, janrlarni yuzaga chiqaradi.

Matn uslubiyati xususida so'z borganda nutqda ishtirok etish nuqtayi nazaridan bir, ikki va undan ortiq nafar kishi ishtirok etishini alohida ta'kidlash kerak bo'ladi. Ular *monolog*, *dialog* va *polilog* ataladi.

Ilmiy, rasmiy-ish yuritishga oid, ko'p jihatdan publitsistik nutq monolog hisoblanadi. Lekin bu termindan ko'pincha badiiy nutqda foydalaniladi. Unga badiiy asar tarkibiy qismi, o'z-o'ziga yoki o'zgaga qaratilgan nutq deya ta'rif beriladi.

Monolog, odatda birinchi shaxsning nutqi hisoblanadi, unda o'zganing javob munosabati (dialogdan farqli o'laroq) kutilmaydi, muayyan kompozitsiyaga, fikriy tugallikka ega bo'ladi.

Personaj monologida faqat uning kechinmalari, o'y-fikrlarigina ifoda topmaydi, balki asarning muhim va asosiy g'oyasi ham namoyon bo'ladi. Monolog ma'noviy va sintagmatik jihatdan ijtimoiy sayqal topgan shakldir. Boshqacha aytganda, individual ijod shakli, u alohida adabiy sayqal berishni talab etadi.

Dialog – birlamchi, tabiiy verbal muloqot shakli. Agar kundalik turmushdagi dialogni nazarda tutadigan bo'lsak, u hech qanday tayyorgarliksiz, tuyqusdan yuz beradi, deyarli adabiy jihatdan sayqal berilmaydi. Badiiy adabiyotda, publitsistikada yorqin uslubiy, hikoyani jonlantiruvchi vositadir. Dialoglarning badiiy-estetik vazifasi rang-barangdir, ular yozuvchining individual uslubiga, janriy me'yorlar va boshqa omillarga bog'liq.

Bir necha kishilararo so‘zlashuv polilog deyiladi. Bu tabiiy, oddiy so‘zlashuv, unda bir necha (uch va undan ortiq) kishi ishtirok etadi. Badiiy adabiyotda, kino, teatrdagi keng foydalaniladi. Bu ommaviy sahna, voqea, hodisalarni keng ko‘lamda berishda muhim omil hisoblanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tahrirni amalga oshirish uchun matn uslubini aniqlash shartmi?
2. Matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan qanday bog‘lanadi?
3. Mustaqil gaplar parallel bog‘lanishining uslubiy imkonlari qanday?
4. Matn yaratishda o‘zgalarning nutqi (gapi)dan qanday maqsadda foydalaniladi?
5. Badiiy asarda to‘g‘ridan to‘g‘ri nutqdan foydalanishdan maqsad nima?
6. Nutq rang-barangligining uch (birinchi, ikkinchi va uchinchi) shaxsga bog‘liqligi haqida to‘liq ma’lumot bering.

14-BOB. KO‘CHIM VA OBRAZLI IBORALARDAN USLUBIY FOYDALANISH

REJA

1. Ko‘chimning nutq turi uslubiy vositalarini kuchaytirish.
2. Ko‘chimning asosiy turlari va ularning uslubiy imkoniyatlari.
3. O‘xshatish uslubni yuzaga chiqaruvchi vosita ekanligi.
4. Boshqacha atashdan uslubiy maqsadda foydalanish.
5. Uslubga ko‘ra qism, bo‘lak orqali butun va aksincha, butun orqali qism, bo‘lak atalishi.
6. Kichraytirishdan uslubiy foydalanish.
7. Sifatlovchining ekspressivlikni yuzaga chiqarishi.
8. Oksomoranning obrazlilik ifodasi.
9. Ko‘chimlardan turli funksiyaviy uslublarda foydalanish.
10. Uchiriq (ironiya)ning uslubiy imkoniyati.
11. Uslubiy figuralardan ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida foydalanish.

1-§. Umumiy tushuncha

So‘z ma’nosining o‘zgarishi deganda, so‘z yoki so‘z birikmalari ma’noviy tuzilishidagi o‘zgarish tushuniladi. Bunda so‘zning tub ma’nosi emas, balki ko‘chma ma’nosi birinchi o‘ringa chiqadi. Ko‘chimlar – ma’noning qayta shakllanishi – ular til birliklariga muayyan kontekstda obrazli ifodani yuzaga chiqarish imkonini beradi. Bunga so‘z ma’nosidagi ikki va undan ortiq muchalarni so‘z shakliga keltirish hisobiga erishiladi.

Badiiy ijodda, shuningdek publitsistikada biror narsa, voqea, hodisa haqida aniq, yorqin, obrazli tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror narsa yoki voqea, hodisaning belgisi ko‘chiriladi. Ko‘chim tufayli badiiy nutqning, muayyan darajada publitsistik nutqning turli uslubiy vositalari kuchayadi. Shunga ko‘ra ko‘chimlar oddiy so‘zlashuv uslubida, badiiy uslubda hamda publitsistik uslubda keng qo‘llanadi.

– *Suvsaganning da’vosi bu, chirog‘im! – deydi ayol mehribon tovush bilan. (Oybek). Jujuqlarni o‘pib qo‘ygaysiz. (G‘.G‘ulom).*

La’ling tabassum etdi-yu, jonim asiridir,

Shakkar sog‘indi, to‘ti kabi yo‘q qarorim.

(A.Navoiy).

Shunday qilib, ko'chim sodir bo'lar ekan, u o'xshatish konstruksiyasi tuzish bilan bog'liq bo'ladi. *Chiroq, jujuq, la'l, shakar* so'zlarining o'xshatish asosida yuzaga chiqqan ko'chma ma'nolari *bola, lab, o'pich* ma'no ifodalarini beradi, nutqqa ta'sirchanlik, badiiylik baxsh etadi.

Ko'chim ko'rinishlaridan biri jonlantirish hisoblanadi. Bunda so'z o'z denotatini jonlantirib, ularga jonli ko'rinish, belgi, harakat baxsh etadi. Nutqni jonli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi, masalan, *Onda-sonda yulduzlar kulib turibdi*. (I.Rahim). *Bilmaydiki, pul ham bolalaydi*. (Oybek).

Ko'chimning yana bir turida so'z o'z denotatini silliqqlab, madaniy holda ifoda etadi. Badiiy, oddiy so'zlashuv va publitsistik uslublarda undan keng foydalaniladi: *xotini – turmush o'rtog'i; qizamiq – gul; dushman – raqib; chayon – oti yo'q* va b.

Ma'no ko'chish natijasida so'z o'z denotatini qo'pollashtirib, dag'allashtirib, unga salbiy xususiyat baxsh etib ifoda etadi. Masalan, *Haydar akam bilan qanchadan beri donlashasan*. (V.G'afurov). ... *kishini yana boshqa ishga jildirishmoqchi*. (A.Qahhor). *Uni himoya qilishim kerak, bo'lmasa, har tomondan cho'qib tashlashadi*. (H. To'xtaboyev).

Bog'lilikka ko'ra so'zlarning ko'chma ma'nosi sodir bo'ladi, bu hodisadan badiiy, jonli so'zlashuv uslubida keng foydalaniladi, publitsistikada ham qisman uchraydi. Masalan, *Solih Mahdumning maktab ishi ham uchinchi yilda bir oz jonlandi*. (A. Qodiriy). Bu misolda *jonlandi* so'zi *ishi jonlandi* predikativ qo'shilma tarkibida kesim vazifasida keladi va *yurishmoq* so'zi ma'no ifodasini beradi.

Ko'chim sodir bo'lishiga inson ongida bir tasavvurning boshqa bir tasavvurni uyg'otishi sabab bo'ladi. Bunda turlicha mohiyatning o'xshashligi yoki yaqinligi nazarda tutiladi. Ko'chimlar tildagi semantik ko'lamni qayta shakllantiradi, o'zgartiradi. Quyidagilar ko'chimning asosiy turlari hisoblanadi:

- o'xshatish (metafora);
- boshqacha atash (metonimiya);
- birga nazarda tutish (sinekdoxa, metonimiyaning bir turi);
- bo'rttirish (giperbola);
- kichraytirish (litota);
- kesatq, piching, uchiriq (ironiya);
- yangi shakl olish (metamorfoza);

– sifatlash.

Bular barchasi, ya'ni semantik qayta shakllanish turli funksiyaviy usullarda uchraydi, biroq, badiiy nutqda oddiy soʻzlashuvda yaqqol koʻrinadi, kuchli taʼsirchanlikka ega boʻladi.

2-§. Koʻchimlar maʼnaviy qayta shakllanishi

Maʼnaviy qayta shakllanish asosida oʻxshatish va taqqos yotadi: *qiyoslash, koʻchirish, yangi shakl olish*. Bular turli tuzilishga ega oʻxshatish konstruksiya sifatida bir qatorga qoʻyiladi.

Q i y o s l a s h soʻz yordamidagi obrazli ifoda ham deyiladi, bunda tasvir etilayotgan hodisa boshqasiga ular uchun (qaysidir) umumiy belgiga koʻra oʻxshatiladi, qiyoslash obyektida yangi, gʻayrioddiy xossa yuzaga chiqadi. Masalan:

Shuncha oʻsib nashtar kipriklar

Koʻrganmikan shu goʻzal tushni?

(H. Olimjon)

Yuqoridagi kontekstda ikki narsa ochiqdan ochiq (eksplitsit) taqqoslanayapti: *kiprik* – oʻxshatiluvchi, *nashtar* – oʻxshatish obrazi (narsa oʻxshatilayotgan obyekt). Qiyoslashga shakl (koʻrinish) asos boʻlmoqda.

K oʻ c h i m aslida oʻxshatish konstruksiyasida saqlangan etalondir: *Qani sherlar olgʻa hamon gʻalaba tomon!* (H. Olimjon). *Sen-ku, uygʻogʻinda vosil boʻlolsaysan laʼliga.* (E. Vohidov). Mazkur misollardagi maʼnaviy qayta shakllanish natijasidagi obraz bir toifadagi obyektga nisbatan yuzaga chiqqan va shu obraz boshqa tur obyektga taqaladi. Aristotel zamonida ham nutqdagi bu hodisa qisqartirilgan oʻxshatish deya taʼriflangan.

Leksemalar bogʻliqligiga koʻra ham koʻchim sodir boʻladi. Maʼno oʻzgarishiga koʻra koʻchim sodir boʻlar ekan, bunda ot turkumidagi soʻz qaratqichli birikma tarkibida qaralmish komponenti vazifasida keladi va bu qiyoslash asosida sodir boʻladi. Masalan, ... *hayvonlarning ishtahasini qitiglaydigan yoʻngʻichqa qoʻllarini oʻngda koʻramiz.* (A.Qodiriy). *Paxtaning tilini biladi.* (A. Qahhor). *Chunki u enasining sal oʻtmay yumshashini biladi.* (Q. Kenja).

Ko'pincha she'riy matnlarda o'xshatish konstruksiyasi tuzilishida qo'shimchalar *-day, -dek, -simon*, ko'makchi so'zlar *kabi, singari, misoli, go'yo, o'xshash, -ga o'xshash* va b.dan foydalaniladi.

Qiyoslashga metamorfoza (yun. o'zgarish, turlanish, yangi shakl olish) ham vosita bo'ladi. Metamorfoza ko'chim bilan o'xshatishi oraliq'ida turadi. Masalan: *Oltin baliqdek hilol, Qalqiydi suv betida. Metamorfoza hilol, baliqdek (hilol – baliq) qalqiydi* fe'li yuzaga chiqadi. *Hilol* – ega, *qalqiydi* – kesim vazifasida keladi va hilol ko'ringan tun tasvirini beradi. Subyekt – hilol bilan kesimning ma'noviy bog'lanishiga metamorfoza, ya'ni hilolning baliqqa aylanishi sabab bo'ladi. Metamorfozaga asos qilib baliqning tanlanishi tasodif emas, u ifoda subyektini hilolni *ko'kdan suvga ko'chiradi*.

Kesimli assimilyatsiya barcha o'xshatish konstruksiyalariga xos, lekin metamorfozada u yaqqol namoyon bo'ladi.

Ko'chimni yuzaga chiqaruvchi nutqiy hodisalardan yana biri boshqacha atash (metonimiya)dir. Ayrim adabiyotlarda o'xshashsiz ko'chim deb ham ataladi⁵⁹. Bunda narsalar o'rtasidagi o'xshashlik emas, balki aloqadorlik ko'chimga sabab bo'ladi. Metonimik ko'chim bir necha ko'rinishga ega.

1. Narsa u yasalgan material bilan almashtirib ataladi: *po'lat qush, marvarid tomchi* va b.

2. Bir narsaning harakati shu harakatni bajaruvchiga ko'chiriladi:

Nizomjon ayasidan hayitlik olgan boladek dikanglab kunni kech qildi. (S. Ahmad). *Yillar o'tdi sanqidim talay.* (A. Oripov).

3. Asar nomi o'rnida muallif nomi qo'llanadi: *Fuzuliyini oldim qo'limga, ... Axir qo'shib oldim Hofizni* (H. Olimjon).

4. Kishi yoki narsaga xos xususiyat o'sha kishi yoki narsa nomi o'rnida qo'llanadi: *Shohi baxtiyorning xizmatlariga bel bog'lagan oq salla, ko'k sallalarning dillari ham oq sallalaridek oq bo'lsa ...* (A. Qodiriy). *Fuad afandi tanfurushlar gumashtasi bo'lib, qora umrini qora ishlar bilan o'tkazgan qabih bir maxluq edi.* (M. Ismoilij). *Yana ilhom kabi varaq ochsin, Totll she'rim kabi sevinch sochsin.* (H. Olimjon).

5. Joy nomi shu joydagi kishilar nomi o'rnida qo'llanadi:

O'qituvchining so'zlarini butun auditoriya jon qulog'i bilan tanglar edi. Majlisga butun mahalla ko'chib keldi.

⁵⁹ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1979. – 182-b.

Sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishidan iborat ko‘chimidir. Nutq jarayonida qism, bo‘lak orqali butun ifodalanadi yoki, aksincha, butun orqali qism, bo‘lak ifodalanadi. Masalan:

*Chanqab kelganda-ku, biror tashna lab,
Albatta suv ichar miriqib to‘yar.*

(A.Oripov).

Yuqoridagi satrda *lab* so‘zi “*odam*” ma‘nosi ifodasini beradi. Bunda qism – a‘zo bilan odam atalgan. *Burunboy mening o‘rinbosarim ...* (S. Ahmad). *Men ishsiz qoldim. Sen buni tushunasanmi, kalla.* (O‘. Umarbekov).

Misollardan ko‘rinadiki, nutq jarayonida sinekdoxa sodir bo‘ladi, qism bilan butun, butun bilan qism ifoda topadi.

Ba‘zan jonlantirish (tashxis) ham ko‘chim deyiladi. Bunda jonsiz, mavxum obyektlarga jonlilik belgisi baxsh etiladi. Badiiy nutqda undan tasavvur vositasi sifatida foydalaniladi. Odatda, jonlantirish metaforik va metonimik ma‘no qo‘shilishidan yuzaga chiqadi. O‘xshatish konstruksiyasi tuzish maqsadida ko‘chma ma‘noni sodir etish, unda umumiy holatga hos belgini ifoda etishdir.

Mubolag‘a biror narsa, voqea, hodisa, xususiyat va belgini orttirib, kuchaytirib tasvirlash, ifoda etish vositasi sifatida badiiy ijodda xalq og‘zaki ijodida, oddiy so‘zlashuvda va ayrim hollarda Publitsistikada qo‘llanadi. Badiiy asar muallifi, doston ijrochisi biror obyekttni boshqa obyekttdan alohida ajratib ko‘rsatish uchun uni maqtash yoki kamsitishda bo‘rttirishdan foydalanadi. *Mayli, qamoqda chirib ketay, bunga yo‘l qo‘ymayman.* (O‘. Umarbekov).

*Oh urarmen, oh urarmen,
Ohlarim tutsin seni.
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib,
Baliqlari yutsin seni.*

(Xalq qo‘shig‘i).

*Ul sanamki suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklukindan suv bila yutsa bo‘lur.*

(Atoiy).

Birinci misolda *chirimoq* soʻzi *ozodlikdan mahrum boʻlmoq* maʼno ifodasini beradi. Ikkinchi misolda *daryo* soʻzi yordamida *koʻz yoshi miqdori* maʼno ifodasi. Uchinchi misoldagi *nozik* soʻzi *oʻta kichik, ixcham gavda, jism* maʼnosi ifodasini beradi.

Sharq mumtoz sheʼriyatida mubolagʻa uch turga ajratiladi:

- 1) boʻrttirishi tasavvur etilsa ham, lekin, hayotda uchramaydi;
 - 2) boʻrttirish aqlga muvofiq kelsa-da, hayotda uchrash qiyin;
 - 3) boʻrttirish tasavvurga umuman sigʻmaydi, hayotda uchramaydi.
- Bularni biz yuqorida, misollarda koʻrib oʻtdik.

Kichraytirishdan ham baidiyy ijodda, xalq ogʻzaki ijodida, oddiy soʻzlashuvda uslubiy foydalaniladi. Bunda biror narsa, belgi, voqea kichraytirib tasvirlanadi. Ijodkor biror narsa yoki hodisaning ahamiyatini oshirib, boʻrttirib koʻrsatish maqsadida qiyoslanuvchi boshqa narsa, hodisa ulugʻvorligi, ulkanligi kichraytiriladi. Masalan, *Quyosh kichik bir sham uning yonida*. (Uygʻun). *Unga ikki dunyo bir qadam. Togʻ tizzasidan, dengiz toʻpigʻidan keladi* (Xalq maqoli).

Kesatiq ham koʻchimni yuzaga chiqaradi. Bunda aytilayotganning teskarisi yoki inkori maʼno ifoda topadi. Kesatiqda inkor maʼnosi oʻsha soʻz nominativ maʼnosiga berilgan uchiriq-piching tufayli yuzaga chiqadi.

– *Siz ham kelar ekansiz-a, usta Farfi – deb piching otib qoʻydi.*

(A.Qodiriy). *Qochsangiz qochib koʻringiz, ammo men bu kundan boshlab, birovlarini quvishga bel bogʻladim*. (A.Qodiriy).

Birinci misolda, aslida harakat bajarilganligi rad etilmoqda, istehzo qilinmoqda. Garchi harakatning amalga oshirilganligi maʼqullansa-da, aslida uning aksi taʼkid etilmoqda.

Ikkinchi misolda esa subyekt aslida begona emas, *birov* oʻziga tegishli, ammo oʻziga tegishlini atovchi soʻz oʻrnida tegishli boʻlmaganni nazarda tutib gapirish yoʻli bilan kesatiq yuzaga chiqarilgan.

Sifatlashni nutq jarayonida koʻchimlar (metafora, metonimiya) sodir boʻlishida kuzatdik. Nutq jarayonida sifatlash ham sodir boʻlar ekan, bunda soʻz oʻzining matndagi vazifasiga va tuzilishiga koʻra yangi maʼno kasb etadi, obyektning oʻziga xos takrorlanmas belgisini tasvirlaydi hamda unga boshqacha, odatiy boʻlmagan nuqtayi nazardan baho berishga majbur qiladi. Sifatlash tasvir usuli sifatida maʼno koʻchishi asosiy turlari (metafora, metonimiya va b.) bilan birgalikda matnga muayyan ekspressivlik bagʻishlaydi.

Sifatlash "... kishi, narsa yoki voqelikning biror belgisini, xususiyatini, sifatini aniq, ravshan ko'rsatib beruvchi badiiy tasvir vositasi bo'lib, u ana shunday belgi, xususiyat va sifatlarni ifodalovchi so'z va birikmalardan iboratdir"⁶⁰.

Oyning o'n beshlari bo'lsa-da, havoning bulutligi bilan oy ko'rinmas, chin ma'nosi bilan qorong'u kuzning qorong'u bir tuni edi. (A.Qodiriy). *Jonsiz xabarni eshitgan Otabekning hushi boshidan uchgan kabi bo'ldi-da, odim uzgan joyida mixlangandek qotib qoldi.* (A.Qodiriy).

Aniqlovchi va aniqlanmishdan tuzilgan konstruksiyadagi aniqlovchi so'z sifatlovchi hisoblanadi. Aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidagi sifatlovchini ularning tuzilishi va sintaktik o'rniga ko'ra tasniflash mumkin. Aniqlovchi-aniqlanmishdan tuzilgan konstruksiyada aniqlovchi sifat, aniqlanmish ot bo'lishi mumkin. Masalan, *qizil olma, oqin daryo, go'zal vodi, tiniq suv* va h.k.

Sifatlash ayniqsa xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydi: *uchqur ot, olmos qilich*.

Ba'zan aniqlovchi ham, aniqlanmish ham ot turkumidagi so'z bo'lishi mumkin: *oltin xotira, kumush qish, zumrad bahor*. Lekin bunday aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida aniqlovchi so'z garchi ot turkumiga mansub bo'lsa-da, u sintaktik adektivatsiyaga uchraydi, ya'ni ot turkumidagi so'z sifatga ko'chadi hamda aniqlanmishning belgisini ifoda etadi.

Sifatlashlar ot, sifat, fe'l turkumidagi so'zlardan tashkil topishi mumkin: *qora kuchlar; miyig'ida kuldi* va b.

Atributiv sifatlashni ularning tuzilishi hamda sintaktik aloqaga kirishuvi, ya'ni konstruktiv o'rni nuqtayi nazaridan tasniflash mumkin. Sifatlovchi-aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi: *go'zal hayot, shirin hayol, osuda turmish*. Aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi: *hayot go'zal, xayol shirin, turmush osuda*. Aniqlovchi bilan aniqlanmish bir-biridan uchinchi so'z bilan ajralgan bo'ladi: *go'rqinch bir tun, yashil rang yaproq*, Sifat —ot tarkibli yuqoridagi sifatlashda *yashil* aniqlovchi, *yaproq* aniqlanmish. Ular orasidagi *rang* so'zi sifatlashga qo'shimcha tasviriylik bag'ishlaydi.

Atributiv sifatlashni ularning tuzilishi va sintaktik joylashuviga ko'ra baholash mumkin. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi:

⁶⁰ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. —T.: O'qituvchi, 1979. — 354-b.

moviy osmon, tiniq suv, shirin kulcha. Aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi: *yigit chaqoan; tun qorong'u; yer yumshoq.* Aniqlovchi va aniqlanmish distant keladi:

*Ko'zing ne balo qaro bo'libdur,
Kim jonga qaro balo bo'libdur.*

(A. Navoiy).

She'riyatda sifatlanmish sifatlovchidan oldin keladi va ular bir-biri bilan boshqa bir unsur(lar) bilan ajratilgan bo'ladi. Bu ifodaning tasviriyligini yanada oshiradi.

Oksimoron deb semantik qayta shakllanishga aytiladi. Uning obrazlilik ifodasi ma'noviy ziddlik, antonimlikka, qarama-qarshi yo'nalishga asoslanadi. Mazkur nutqiy hodisadan badiiy ijodda, publitsistikada, oddiy so'zlashuvda mantiqan bir-birini inkor etuvchi so'zlarni birikmaga kirishtirib ta'kidlash maqsadida foydalaniladi. Masalan, ... *raqib bilan dildorning uyi orasida tanho olishmoq, yor oyog'i ostida qonli tuproqqa qorishmoq* – uning uchun juda lazzatli va shoirona tuyula boshlagan edi. Saroyga kirar ekan, o'zicha: – *Shirin o'lim!* – deb qo'ydi. (A. Qodiriy).

Oksimoranlar ko'pincha sifat+otdan iborat atributiv so'z birikmasi tarzida uchraydi: *tirik murda; qaynoq qor* va b.

3-§. Ko'chimlarning turli funksiyaviy uslublarda qo'llanilishi

Biz yuqorida ko'chimlarning asosan badiiy matnlarda qo'llanilishini ko'rib o'tdik.

Rasmiy-ish yuritishga oid matnlarda, yuridik soha (qonunchilikka oid matnlarda, farmon, farmoyish, buyruq, yo'riqnomalar, qoidalar, topshiriq va b.lar)da ko'chimlar qo'llanilmaydi. Aniq hamda ikki xil ma'noga yo'yilmaydigan ma'lumot olishga mo'ljallangan savollarda ham, ularga javoblarda ham metaforadan foydalanilmaydi, aynan mana shu jihat nutqdagi ilmiy uslubning mohiyatini tashkil etadi. Rasmiy-ish yuritish uslubida ko'chimlardan faqat diplomatiya sohasida foydalaniladi. Biroq ko'chimlar har ikki uslub doirasidan tashqari hisoblanadi. Unga ko'ra ko'chimlarning faqat so'zlashuv hamda publitsistik uslubda qo'llanilishiga to'xtalamiz. Bularda ko'chimlardan foydalanish nutqning estetik funksiyasi bilan bog'liqdir.

Nutq egalarining bevosita muloqoti so'zlashuv uslubining asosiy vazifasidir. Mulozamatsiz, erkin muloqot so'z o'yini vaziyatini yuzaga

chiqaradi, unda soʻzlarning koʻchma maʼnolaridan foydalanish ekspressiv ifodasining taʼsirchan vositasiga aylanadi, shuningdek, soʻzlashuvning hazilomuz ohanglarda boʻlishligiga olib keladi.

Qiyoslash va oʻxshatishdan foydalanishi nutq egasining soʻzlash faolligini yuzaga chiqaradi. Nutq egasi insonlar, narsalar va hodisalarni alohida, obrazli ifodalashga intilar ekan, ular xususida burrolik, taʼsirchanlikka erishishda koʻchim barcha turlaridan foydalanishga harakat qiladi. Insonga xos harakat, tashqi qiyofa, koʻrinish, xulq, jonivorlarga xos xususiyat, jihat, harakatga qiyoslanadi: *U oʻzi odam emas, gʻirt toʻnka! Nega har joyga tumshugʻingni suqasan! Boʻldi, koʻp akillayverma. Hadeb gʻimirlayverma, tinch oʻtir.*

Soʻzlashuv nutqidagi koʻchim, qiyoslashning maʼnoviy yoʻnalishini belgilovchi narsa (jonivor)lar insonning kundalik turmush sohasi, tarzi, qiziqishlari bilan bogʻliqdir. Quyidagilar ana shunday sohalar hisoblanadi: oshxona. (*Bu nima, palovmi yo qoʻgʻirmoch? Buning shoʻrva emas, namokop-ku!*); musiqa (*Qachongacha tingʻillatasan? Yigʻishtir, gʻit-gʻitingni*); harakat, holat (*Koʻp qiyshangliverma, hammaga anqayma, Aptini burishtirma*) va h.k. Bunday oʻxshatishlar qilishga suhbatdoshlarning oʻzaro yaqinligi (doʻstligi, tengqurligi, hazilkashligi, ona-bolaligi va b.) sabab boʻladi. Ularning bir-birlariga piching qilish, bir-birlarini chandib olish, bir-birlariga dakki berish va hatto mazax qilishga hadlari siqqanidan shunday muomalada boʻla oladilar, bir-birlarining qiyoslash, oʻxshatishlarini oʻzlariga ogʻir olmay, hazilga yoʻyadilar. Oddiy soʻzlashuvda koʻpincha koʻchimning sifatlash turidan ham foydalaniladi: *Aʼzoi badanim shaloq-shaloq boʻlib ketganga oʻxshaydi* (sogʻliq va asab chatoqligiga ishora). *Men u dargohga boʻzchining mokisidek sakillaganim sakillagan* (samarasiz qatnash nazarda tutiladi).

Ekspressiv-emotsional taʼsirchanlikni kuchaytirish uchun mubolagʻa, kichraytirish va boshqa oshirib yuborish, kamsitish (arzimas qilib koʻrsatish kabi vositalardan soʻzlashuvda keng foydalanadi. Masalan, *hashamdor qurilgan, salobatli* (ikki, uch qavatli) *uyga oʻta* “kamtarlik” bilan taklif etilganda: *Bizning kulbai xonamizga xush kelibsiz*. Gʻaribgina uyga nisbatan: *Bu dangʻillama uy kimga qarashli, – deb qoʻyiladi*. Bunday kichraytirish hamda boʻrttirish koʻchimga asoslangan obrazli ifoda hisoblanadi. Masalan: *U*

jajji davrada gap nima xususida borayotgani bilan ishi yo'q. (Q.Kenja). Kichik yoshdagi bolalar davrasiga nisbatan *jajji* so'zining qo'llanilishi ko'chimning sifatlash turi bo'lib, metonimiya hodisasi tufayli yuzaga chiqqan.

Qariyalar davrasida yuz beradigan suhbat chog'ida, bir-birlaridan hol-ahvol so'raladi: *Ha, ... katta yigit bo'lib qoldingizmi? ... chopqillab yuribsizmi?* Bunday sifatlash ironiya (uchiriq) tufayli yuzaga keladi. Metonimiya hodisasidan ironiyani yuzaga chiqarish maqsadida foydalaniladi: *Ho'sh, kavshandingmi* (ovqatlanish jarayoni to'liq tugaganligi *kavshamoq* so'zida ifoda topmoqda. *Yosh avlod bilimlarni qanday o'zlashtirmoqda?* (nutq egasi farzandlarining eng kichigini nazarda tutmoqda). Mazkur misolda umumiy tushuncha bilan xususiyligi tushuncha ifoda etilmoqda.

So'zlashuvdagi birinchi luqmada suhbatni jonlantirish maqsadidagi ko'chim, yana davom ettiriladi:

– *Xo'sh, loyiha dunyo yuzini ko'rdimi?*

– *Hali tug'ilganicha yo'q.*

– *Nima, tuya go'shti yeganmi?*

– *Tuya go'shtining nima aloqasi bor. O'zi, hali o'rni tagi yo'q.*

Mulozamatsiz so'zlashuvda boshqacha atash xuddi biddiy nutqdagidek ifoda topadi, ko'chim bir turdan boshqa turga o'tadi:

– *Bir zum tinch turmaydi, misoli chittak* (qiyos).

– *Xo'sh, u chittak nima bilan shug'ullanayapti* (o'xshatish).

Uchiriq (ironiya) so'zlashuvda eng ko'p qo'llanadigan nutqiy hodisalardan biridir. U ko'pincha iqtibos (sitata) tarzida bo'ladi: *U kishining nevara, chevarasi ko'p. Gulzordagi gullarning hisobiga yetolmaysan.* Mazkur misolda kitobiy nutq bilan, oddiy so'zlashuv nutqi o'rtasida ziddiyat yuzaga chiqadi. Bu ma'naviy ko'chim yuzaga kelishiga sabab bo'ladi: *oila-gulzor; nevara-chevara – gullar.*

Publitsistik uslubda ko'chimlardan, avvalo, o'quvchiga ta'sir etuvchi va uni muayyan harakatga yoki baholashga undovchi ekspressiv kontekst tuzishda foydalaniladi.

Gazeta va jurnallarda sarlavha hamda ruknlarning nomlanishi alohida ahamiyatga ega. Publitsistik sarlavhalardan maqsad o'quvchini qiziqitirish, hatto uni "shaydo" qilishdir, toki u ayni mana shu materialni o'qishga majbur bo'lsin. Shunga ko'ra ko'chimli konstruksiyalar ko'pincha, rukn nomi bo'lib keladi. Ruknlar: "*Aks-sado*" (o'xshatish), "*Qilmish-qidirmish*". Birinchisida ilgari e'lon

qilingan materialga munosabat, ikkinchisida, sodir etilgan xatti-harakat oqibatidagi ko'rgulik ifoda topgan. "*Unutilmas siymolar*" (metonimiya). Sarlavhalar: "*Nafis nomlar ortidagi jahannam*", "*Yaxshidan bog' qoladi*", "*Eng gullagan yoshlik chog'imda*". Birinchi sarlavhada giperbola (bo'rttirish), ikkinchisida o'xshatish ko'chimga sabab bo'lgan. Uchinchisida badiiy ifoda yuzaga chiqqan (qiyos).

Albatta, gazeta va jurnallarda e'lon qilinadigan materiallarda ularga ijodiy yondashuv yaqqol ko'rinadi. Gazetadagi matnlarda ko'chimdanda lo'ndalik va ta'sirchanlikka erishishda foydalaniladi.

Maqolalarning nomlanishida sarlavhalarining obrazli tuzilishi alohida sintaktik qismlarda namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda bu parsellatsiya deb ataladi. Sintaktik bog'liq so'zlar nuqta bilan ajratiladi: *Xavfsizlik xizmati – yopiq tizim. Xalqdan.* Bunda *xalq* so'zi oldin aytilgan – *xavsizlik xizmati tizimidan* ajratilgan.

Gazeta materiallarida tasvir vositalaridan foydalanish, aytish mumkinki, qonuniy hol. Zero, publitsistikadan maqsad xabar (darak) va ayrim holatlar xususidagi mantiqiy xulosalarni yetkazishgina emas, balki o'quvchida emotsiya (his-hayajon) uyg'otish hamdir.

4-§. Uslubiy figuralar

Uslubiy figuralar (ular *n u t q f i g u r a l a r i* deb ham ataladi) ifodaning ta'sirchanligini kuchaytirish uchun qo'llaniladigan sintaktik qurilish. Odatda, ularga boshqa tasviriy-ta'sirchan vositalardan ayri holda qaraladi, nutqning obrazli ta'sirchanligini oshirish maqsadida foydalaniladi. Quyidagilar nutqda keng qo'llanadigan uslubiy figuralar hisoblanadi:

- anafora;
- epifora;
- antiteza;
- gradatsiya;
- inversiya;
- parallelizm;
- ritorik so'roq va b.

Anafora yunoncha so'z bo'lib, "*yuqoriga chiqish*" degan ma'noni anglatadi. "Parallel tuzilgan nutq parchalari (masalan, misralar)

boshida aynan bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy figura⁶¹.

*Butun qarashlarni barcha sevgina,
Butun irodani butun sevgina.*

(H. Olimjon).

*Dedi: Qaydin sen ey Majmuni gumroh.
Dedi: Majmun vatandin qayda ogoh.*

(A.Navoiy).

Epifora ham yunoncha – keyin keluvchi ma’no ifodasini beradi. Soʻz yoki soʻzlar guruhi parallel tuzilgan nutq parchalari (misralar) boshida, oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy figura.

*Shul sababdankim, mening bagʻrimda joy olmish quyosh,
Shul sababdankim, vatanda boʻlmadim ilhomini xor.*

(H. Olimjon).

*Ey payk, borib sano bila qulluq, de!
Yer oʻp, dogʻi qoʻp, ado bila qulluq, de”
Gar yor meni xastani soʻra zinhor,
Mendin yukunib duo bila qulluq, de!*

(Bobur).

Antiteza, yunoncha, *qarama-qarshi qoʻyish*. Badiiy ijodda, ogʻzaki soʻzlashuvda voqea yoki tushuncha bir-biriga qarshilantiriladi. Mazkur uslubiy figura nutqning emotsional taʼsirini orttiradi, qarshilantirilayotganlar orqali aytilmoqchi boʻlgan fikr alohida taʼkidlanadi: Masalan, *Siz yaxshi-yu, men yomon; Yaxshidan osh qoladi, yomondan dod qoladi; Yaxshiga kun yoʻq, yomonga oʻlim yoʻq. Ochligimdan qoʻrqmayman, toʻqligimdan qoʻrqaman.*

Gradatsiya, yunoncha – *asta-sekin* ma’no ifodasini beradi. Gapning bir jinsli boʻlaklari tobora kuchayib borish tamoyiliga koʻra qatorlashuvi ushbu nutqiy (uslubiy) figurani yuzaga chiqaradi. Bir xildagi tavsiflarni muntazam suratda guruhlashtiradi, mazmun yoki his-hayajonni kuchaytiradi. Badiiy ijodda, soʻzlashuvda keng

⁶¹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. –T.: Oʻqituvchi, 1985. – 16-b.

qo‘llanadi. Nutq parchalaridan biri ikkinchisining mazmuni (ma’nosi)ni kuchaytirib beradi.

*Bos, dushmanning ko‘ragiga;
Bos, yuragiga;
Bos, qattiqroq so‘layotgan yov tiliga.
Bos, uzilsin har dushmanning so‘ng tomirlari.*

(H. Olimjon).

Inversiya lotincha bo‘lib, *o‘rin almashtirish* degan ma’no ifodasini beradi. Grammatik me’yordan chetga chiqiladi, yozma hamda og‘zaki nutqda, badiiy ijodda, shuningdek publitsistikada ham undan foydalaniladi. Mazkur nutqiy (uslubiy) figura, asosan matn tuzuvchining xohishiga bog‘liq. Ta’kidlanmoqchi bo‘lgan fikr alohida ta’kidlanadi, ta’sirchanligi oshiriladi. Inversiya yozma nutqdan ko‘ra og‘zaki nutqda ko‘proq qo‘llanadi. She’rdagi inversiyadan maqsad qofiyalanish talabiga ko‘ra yuzaga chiqadi.

*Sigirini sog‘di O‘g‘iloy
Qo‘ylariga tert soldi. Oy.*

(U. Nosir).

Yuqoridagi misralarda inversiya mavjud. Aslida grammatika me’yoriga ko‘ra “*O‘g‘iloy sigirini sog‘di, qo‘ylariga tert soldi*” bo‘lishi kerak. Lekin bunda she’r inversiyadagidek ta’sirchan chiqmaydi, oddiy xabar bo‘lib qoladi.

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o‘zbeğim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon o‘zbeğim.*

*O‘zbeğim tarixing ming asrlar ichra pinhon,
O‘zbeğim senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tyanshan.*

(E. Vohidov).

Yuqoridagi misralarda she’r ta’sirchanligini oshirish maqsadida shoir inversiyadan foydalanib *o‘zbeğim* so‘zini satr oxiriga, radif sifatida qo‘yadi. *Pinhon* so‘zi esa Tyanshan so‘zini qofiya qiladi.

Xalq og‘zaki ijodida ham inversiyadan unumli foydalaniladi.

*Arzim eshit xon Boybo'ri,
Shul bo'ldi xizmatkor tili.*

(Alpomish).

Yuqoridagi misra grammatika me'yoriga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

*Xon Boybo'ri arzimni eshit,
Xizmatkorning tili shu bo'ldi.*

Ko'rinadiki, inversiya hodisasi she'riyatga ifodalilik, ko'tarinkilik bag'ishlaydi, nutqni jozibali, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Parallelizm nutqiy figura bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq satrda ayrim bo'laklar (leksema, morfema) bir xil aynan moslikda keladi. Misralar so'ngidagi takrorlar leksik-morfologik parallelizm hisoblanadi. Masalan,

*Qirq chiltonga sardor edi Go'ro'g'li,
Har ishdan xabardor edi Go'ro'g'li.*

Ritorik so'z (ritorika yoki retorika) – yunoncha – notiq. Uslubiy usullardan hisoblanadi, fikrni so'roq tarzida tasdiqlashdan iborat. Odatda bunday so'roqga javob talab etilmaydi, chunki so'roqning o'zi tasdiqni ifoda etib turadi hamda unga kuchli his-hayajon, yorqinlik, ta'sirchanlik baxsh etadi. Bunday nutqda intonatsiya katta ahamiyatga ega. Boburning quyidagi ikki bayti ritorik so'roqqa yaqqol misol bo'ladi:

*Kim ko'rur xurshidni ul moh siymo bo'lmasa?!
Kim so'rar shakkarni ul la'li shakkarxo bo'lmasa?!*

*Yo qoshing yanglig' egilgan jism zorimnimu dey?
Yo sochingdek tiyra bo'lg'on ro'zg'orimnimu dey?*

Yana bir qator uslubiy figuralar ham borki, ulardan badiiy, og'zaki nutqda uslubiy maqsadda foydalaniladi.

Poliptoton (aynan ko‘p kelishikli) – bitta so‘zni turli kelishik qo‘shimchalarini olgan holda takrorlanishi. Masalan,

So ‘zdan so ‘zning farqi bor.

O ‘ttiz ikki narxi bor.

Har bir kishi odamni odamdan farqlay olishi kerak.

Paronomiya ayni bir so‘zni boshqa-boshqa ma’noda takrorlash.

Ko ‘zing ne balo qaro bo ‘libdir,

Kim jonga qaro balo bo ‘libdir.

(A.Navoiy).

Birinchi satrda *rang* ma’nosi ifoda topgan. Ikkinchi misrada *katta, haddan ziyod* ma’no ifodasini beradi.

Nutqda ayni bir ma’noni ikki turli shakldagi so‘z bilan ifodalash ham uchraydi. Masalan, *yakka-yolg‘iz – bir o‘zim; yil – o‘n ikki oy; bir oy – o‘ttiz kun.*

Palilologiya (epanalepsis) – so‘zlarni (so‘z birikmalarini) **ketma-ket tizimi**. Ular boshqa so‘z, so‘zlar guruhi, so‘z birikmasi bilan ajratilgan bo‘lishi mumkin.

Ko ‘z tashla oqshomning so ‘lim chog‘iga

Kel sen ham, Oysuluv,

Kel sen ham Oysuluv

Soy qirg‘og‘iga.

(Mirtemir).

O‘zing so‘yla, shu qaro ko‘zlar,

Umurtarmi shu uchrashishni?

Shuncha o‘sib, nashtar kipriklar

Ko‘rganmikan shu go‘zal tushni?

(Qo‘shiqdan).

Lekin aka bilan ukaning yuraklari orasiga devor tushsa yomon, juda yomon ... (T. Malik).

Grotest (ital. – *yer osti*) – obrazni haddan tashqari mubolagʻa bilan ifodalash. Bunda afsonaviylik bilan hajv uygʻunlashib ketadi. Xalq ogʻzaki ijodida undan keng foydalaniladi.

*Shomurti yoqalab har yoqqa ketgan,
Ichida sichqonlar bolalab yotgan.
Izidan tushgan pishak oltoyda yetgan ...
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.*

(Alpomish).

Elipsis – toʻliq boʻlmagan jumladan ifodaning qismi tushib qolishi. Odatda tushib qolgan qismini kontekst asosida oson tiklash mumkin, lekin soʻzlovchi uchun uni tiklashga zarurat yoʻq, chunki, tinglovchi yoki oʻquvchi vaziyatdan yaxshi xabardor boʻladi.

– *Menga qolsa, – dedi usta Olim, – oʻldirguvchi, albatta, Mirzakarim akaning kuyovi Otabekdir ... zap ish qilgan-da, men unga qoyilman! Men uning Oʻtabboy qushbegiga qilgan muomalasini eshitib, yuragiga balli degan edim ... zap yigit ekan-da!* (A. Qodiriy).

Tif va ochlik ... Hatto ajal Balosin yengdik! (U.Nosir).

Asindeton – bogʻlovchisiz, gap uyushiq boʻlamlari yoki qoʻshma gap qismlari orasida bogʻlovchilarning boʻlmasligi:

Erki qulfdir, hayoti qulf, bor xudolar qulf!.. (U.Nosir).

Nailoj, muammo murakkab, uni osonlikcha hal etish mumkin emas. (T.Malik).

Aposiopeza – jumlaning yoki sheʼriy misraning, his-hayajon kuchliligidan uzilib qolishi, bunda inson gapirolmay qoladi yoki vaziyat shunday boʻladiki, uning goh hushidan ketishi, goh hushiga kelishi bunga yoʻl qoʻymaydi: *Eh, Laylo, Laylo ... Sen, sen. Oʻzing, oʻzing ...*

Baʼzan yilni ifoda etuvchi raqam toʻliq berilmaydi, chunki bunda aniqlik talab etilmaydi: *19...-yil 18-aprel; 19...-yil 19-aprel.* (T. Malik).

Peregmenon – bir oʻzakli yoki etimologik turdosh soʻzlarning birikmaga kirishuvi: *Ot koʻzidan gʻoyib boʻladiganday boʻladi.* (Alpomish). *Ushbu damning damlarini dam dema ...* (Alpomish).

Mazkur nutqiy figura koʻproq xalq ogʻzaki ijodida uchraydi. Tinglovchi yoki oʻquvchining eʼtibori narsa, voqea, hodisaga alohida qaratiladi.

Zamonaviy filologiyada mumtoz ritorik an'anadan farqli o'laroq nutqiy figuralarni so'z tarkibida ko'rib chiqishlik maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buni so'zning tovlanishi (tovush o'zgarishi) bilan bog'liq turli nutq ko'rinishlarini o'rganish dolzarbligi bilan izohlash mumkin. Chunki sun'iy so'z o'yinlari uchun xizmat qiluvchi termin (so'z)lar bugungi kun filologiyasida uchramaydi, olim (tadqiqotchi)lar mumtoz terminlardan keng foydalanadilar, zero, ular nazmda erkinlikni ta'minlaydi va yangicha mazmunga ega bo'ladi.

Masalan, **diereza** (yun. *bo'linish*) – so'z tarkibidagi qator undoshdan birining assimillatsiya yoki dissimillatsiya natijasida tushib qolishi: *arslon – aslon; parranda – paranda; pazzanda – pazanda* va h.k.

Antik davrda diereza satr oxiridagi uzilishni anglatadi:

O'ynab sochlarimni boshim uzra

Yelpinsa-chi, dil tinsa birpas ...

Apokopa (yun. – *kesib qisqartirish*). Mazkur termin so'zning oxiridagi tovush yoki tovushlarning uzilib qolishi yoki tushirib qoldirilishini anglatadi. Asosan oddiy so'zlashuv uslubida uchraydi. *Parida – Pari...; Dilobar – Dilo...; Samarqand – Samarqan; harchand – harchan; xursand – xursan.*

Ayrim hollarda nutqning bunday uzuq-yuluq bo'lishligi, ya'ni so'nggi tovush yoki bo'g'inning tushib qolishi atayin emas, biror sabab bilan (kuchli hayajon, xastalik tufayli) yuz beradi. Bunday holat badiiy, kino, teatr nutqlarida uchraydi, personaj ahvolini ko'rsatishga xizmat qiladi: *Eshityapsizmi, endi o'z uyim, o'z oilam bo'ladi! O'z uyim ... o'z oilam ... Holida Jur'atning gaplarini o'ychan tarzda takrorlab, jim bo'ldi.* (T. Malik). Demak, apokopa oddiy so'zlashuvdagina emas, balki badiiy uslubda ham qo'llanar ekan.

Yana bir nutqiy hodisa borki, **usinerezis** (*tovush yoki bo'g'inlarning sun'iy tarzda qisqartirish*). Mazkur nutqiy hodisaga ko'ra so'z o'rtasida bir joyda kelgan ikki unliidan biri kuchsizlanadi yoki tushib qoladi, ikkinchi unli cho'ziq talaffuz etiladi: *soat – so:t; jamoat – jamo:t; giroat – giro:t* va h.k.

Aferezis – oldingi so'zning so'nggi tovushi ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovush tushish hodisasi: *ko'rar edi – ko'rardi; aytar edi – aytardi.* Bu nutqiy hodisa og'zaki so'zlashuv nutqida, badiiy uslubda uchraydi.

Proteza – soʻz boshida bitta unli ortishi. Mazkur nutqiy hodisa nutq jarayonida, chet tillardan oʻzlashgan soʻzlar talaffuzi paytida yuzaga chiqadi: *stol* – *ustol*; *stansiya* – *istansiya*; *stakan* – *istakan*; *roʻza* – *oʻraza*; *roʻmol* – *oʻramol* va h.k.

Metateza – soʻz tarkibida yonma-yon kelgan undoshlar oʻrin almashinuvi: *tebrat* – *terbat*; *tuproq* – *turpoq*; *aylanay* – *aynalay*; *toʻgʻramoq* – *toʻrgʻramoq* va h.k. Mazkur nutqiy hodisa oddiy soʻzlashuvda, qisman badiiy nutqda koʻrinadi.

Epiteza – oʻzbek tiliga oʻzlashgan ayrim soʻzlar oxirida yonma-yon kelgan ikki undoshdan soʻng unli (-a) tovush ortishi. Bu hol ham ogʻzaki soʻzlashuv uslubiga xos: *bank* – *bankka*; *tank* – *tanka*; *disk* – *diska* va b.

Sinkopa – soʻz oʻrtasidagi choʻziq unlining qisqarishi yoki baʼzan tushib qolishi. Chet tillardan oʻzlashgan soʻzlar talaffuzida ogʻzaki nutqda uchraydi: *imperator* – *imperatr* – *imperatir*; *kollektor* – *kollektir*; *layner* – *laynr*; *kompozitor* – *kompozitr* va b.

Reduksiya – soʻz tarkibidagi bir unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi. Masalan: *bilan* – *blan*; *tilak* – *tlak*; *bilak* – *blak*; *biroq* – *brog*; *birlan* – *brlan*.

Quyidagi soʻzlar talaffuzi ham reduksiyaga misol boʻladi: *pishiq* – *pshiq*; *shira* – *shra*; *qiliq* – *qliq*.

Eliziya – unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshib talaffuz etish natijasida:

– birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: *yura oldi* – *yuroldi*, *chopa oldi* – *chopoldi*, *bora oldi* – *boroldi*;

– unli bilan boshlangan ikkinchi soʻz boshidagi unli tushib qoladi:

topar ekan – *toparkan*, *sotar ekan* – *sotarkan*, *yopar ekan* – *yoparkan*.

– soʻz oʻrtasidagi bir unli bir undosh tushib qoladi: *Abdujabbor* – *Abjabbor*, *Abdusattor* – *Absattor*, *olib kel* – *opke*;

– ikki soʻz qoʻshib talaffuz etilganda birinchi soʻz oxiridagi, ikkinchi soʻz boshidagi unli tovush tushib qoladi: *Karima opa* – *Karimpa*, *Salima opa* – *Salimpa*, *Xalima opa* – *Xalimpa*. Bunday nutqiy hodisa chetdan oʻzlashgan ismlar talaffuzida, ogʻzaki nutqda uchraydi.

Mazkur barcha terminlar soʻz tarkibidagi harf (tovush) yoki boʻgʻinning turlicha oʻrin almashinuvi yoxud oʻzgarishlarga uchrashini ifodalaydi.

Agar ritorik figuralar uchraydigan sohaga eʼtibor beradigan boʻlsak, bular ham koʻchimlar singari turli uslub va janrlarda uchraydi. Lekin ayrim nutqiy hodisalar borki, ulardan rasmiy-ish yuritish, ilmiy uslublarda foydalanish mumkin emas. Chunki, ayrim figuralarning qoʻllanishi uslub xususiyatiga koʻra umuman maqsadga muvofiq emas. Masalan, rasmiy-ish yuritish uslubida xabar bir maʼnoda va aniq boʻlishi, yaʼni bir xilda tushunilishi talab etiladi. Uslubiy figuralarning aksariyati bunga imkon bermaydi. Ilmiy uslubda poliptoton, anafora, epiforadan foydalanish mumkin emas, chunki ular bayonga alohida emotsionallik bagʻishlaydi.

Na ilmiy uslub, na rasmiy-ish yuritish uslubi nutq (matn) muallifining his-hayajonini qayd etmaydi, shunga koʻra mazkur uslublarda ritorik figuralarning boʻlishi gʻayritabiiy hisoblanadi.

Xullas, uslubiy (nutqiy) koʻchim va figuralar soʻzlovchi (yozuvchi)ning emotsional holatini tinglovchi hamda oʻquvchiga yetkazish uchun xizmat qiladi. Publitsistik uslubda esa ekspressivlik hamda andozaviylik almashinuvida publitsistik (tahliliy) matn til birligini tanlash, qoʻllash va ijtimoiy baholash tamoyillari shu uslubga xos tadrijiylikka asoslanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Nutqiy hodisa sifatida koʻchimlar qanday xususiyatga ega?
2. Koʻchim sodir boʻlishining sabablarini koʻrsating.
3. Koʻchim turlari va ularning uslubiy imkoniyati qanday?
4. Funksiyaviy uslublarda koʻchimlardan nima maqsadda foydalaniladi?
5. Uslubiy figuralar nutqga qanday xususiyat bagʻishlaydi?
6. Nutqiy figuralar uslublararo chegaralanganmi?

15-BOB. BADIY ASAR TILI

REJA

1. Badiiy nutq – adabiy nutq turi.
2. Badiiy asar tilining ichki yaxlitligi.
3. Badiiy nutqning asosiy belgilari.
4. Til vositalarining kommunikativligi va estetik asoslanganligi.
5. Badiiy nutqgagina xos alohida xususiyat.
6. Badiiy matnda til vositalarini tanlash, konstruksiyalar tamoyili.
7. Matnda me'yoriy til vositalarini tanlash, konstruksiyalar tamoyili.
8. Badiiy nutqda mikrokontekstning vazifasi.
9. Badiiy nutqda troplar va uslubiy figuralar.

1-§. Umumiy ta'rif

O'zbek adabiy nutqi funksiyaviy turlari tizimida badiiy asar tili alohida o'rinda turadi. Buning turli sabablari bor.

Birinchidan, badiiy asar tili adabiy nutqning yagona turi hisoblanadi, u shunday xususiyatga egaki, tilning estetik jihatlari mazkur nutq turida to'liq namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, badiiy asar matnlarida (boshqa barcha yozma uslublar, og'zaki publitsistik nutq va so'zlashuv nutqlaridan farqli o'laroq) istalgan nutqiy vositalardan, adabiy nutq istalgan turidagi birikmalardan, adabiy nutqga xos bo'lmagan unsurlardan, hatto tabulangan so'z va iboralardan foydalanishi mumkin.

Badiiy asar tilida estetik funksiya bilan birga ta'sir etishlik funksiyasi ham mujassamdir. Ana shu xususiyatga ko'ra uni publitsistik uslub va adabiy nutq og'zaki turlari bilan qiyoslash mumkin. Badiiy asar tili murakkab tuzilishdagi yaxlitlik xususiyatiga ega. So'z san'atining barcha qirralariga muvofiq keng tarmoqli ichki tabaqalangan bo'ladi.

Badiiy asar tilini o'rganishda nasriy asarlar nutqiy tuzilishi, she'riy matn, dramaturgiya alohida tadqiq etiladi, shuningdek, adabiy janrlar – roman, povest, masal, qissa, qasida va b. uslubiy hamda muallifning individual uslubi – yozuvchilar “tili va uslubi” alohida ko'rib chiqiladi.

2-§. Badiiy asar tilining funksiyaviy tavsifi

Janrlar xilma-xilligiga qaramay badiiy asar tili adabiy nutqning yagona funksiyaviy kategoriyasi hisoblanadi.

Badiiy asar tilining ichki yaxlitligi quyidagi omillarga bog'liq:

– estetik hamda ta'sirchanlik funksiyasi badiiy asar tili nutqiy ichki tuzilishini umumlashtiruvchi hisoblanadi;

– badiiy asar tili doirasida barcha til vositalari, ularni tanlash va qo'llash hayotini obrazli aks ettirishning umumiy tuzilishi tamoyillariga bo'ysunadi.

Ma'lumki, badiiy adabiyot, bu – “hayotayn” (ikkinchi hayot). Hozirgi zamon terminologiyasidan foydalanib aytish mumkinki, haqiqatga to'g'ri keladigan hayot mohirona ijod mahsuli. Vaholanki, mavjud hayotda na Otabek, na Kumush, na Yo'lchi, na Gulnor, na Anvar, na Ra'nolar bo'lmagan... Biroq, buyuk ijodkorlarning zo'r xayoloti, ularning o'xshashi yo'q badiiy so'z san'ati, kuchli obrazli nutq yaratishdagi mahorati, til vositalari orqali yaratgan badiiy, shoirona obrazlari tufayli, badiiy asar to'liq obrazlar tizimi ta'sirida biz adabiy-ijodiy qahramonlarni mavjud insonlardek his etamiz, ular quvonchidan quvonamiz, qayg'usiga, tashvishlariga sherik bo'lamiz.

Badiiy asar tilining o'ziga xos jihatlari xush ifodali so'z materiali hisoblanuvchi muayyan til ekanligidadir. Badiiy asarda muallif foydalangan til bevosita dolzarb informatsiyani yetkazish maqsadiga xizmat qilmaydi, shaxslararo muloqot vositasi emas, ya'ni kundalik turmushga oid muayyan mavzuni ifoda etmaydi, biror siyosiy, iqtisodiy, davlat ahamiyatiga molik kundalik vazifani hal qilish pragmatik maqsadiga, jamiyat a'zolarining ongiga ta'sir o'tkazishiga xizmat qilmaydi. Adib odatiy kundalik nutqiy-muloqiy maqsadini ko'zlamaydi, balki ayni shu til vositasida badiiy obraz poetik nutqini mavjud olamdagi narsalar, insonlar, aloqalar, munosabatlarni ayni “tirik hayot”ni – o'zining poetik tasavvuri, o'zining badiiy xayoloti, o'zining olam haqidagi tushunchasiga mos hayotni aks ettirishi uchun yaratadi.

Albatta, so'z san'ati bo'lmish badiiy asar, boshqa har qanday san'at asari singari o'z zamonasiga xos dolzarb muammolarga qaysidir ma'noda aloqador bo'ladi. Lekin bu kundalik nutqiy kommunikatsiya vaqtida ijtimoiy ong a'zosi, til egasining mavjud hayotga bevosita munosabati emas, balki mavjud hayotni uning dolzarb muammolarini poetik so'z san'ati vositalari yordamida, badiiy obrazlar orqali idrok

etishdir. Adabiy-badiiy matn doirasida badiiy asar tilining umumiy tuzilishi tamoyili sifatida nutqiy ko'rinish tarzidagi hayotining obrazli ifodasi, avvalo, "muallif obrazi" kategoriyasida o'z tajassulini topadi. Bu muhim nazariy kategoriya so'z san'ati bo'lgan asarning ichki tuzilishi, g'oyaviy-estetik tomoni va kompozitsiyaviy-nutqiy tuzilishini belgilab beradi.

3-§. Badiiy asar tilining asosiy belgilari

Badiiy asar tilining funksiyaviy mohiyatiga ko'ra uning bir qator belgilarini ajratish mumkin.

Tarkibining sinkretik (aralash)ligi yoki adabiy nutqdagi til vositalari yig'indisi uslubiy xoslanganlik, ekspressiv-uslubiy, mazmuniy-mantiqiy xossasi va belgilari nuqtayi nazaridan badiiy asar tiliga xosdir. Badiiy matn mazkur uslubi tarkibiga okkazionalizm, o'zga til unsurlari (so'zlari tarjimasiz aynan ifodalanadi) kabi xalq-so'zlashuv tilidagi birliklar kiradi.

Badiiy matn doirasida va badiiy asar tilida til vositalarining barchasi to'lig'icha tartibli tizimda tizilishadi. Til vositalari o'z xilma-xilligi, ko'pincha mazmuniy-mantiqiy, semantik, ekspressiv, uslubiy tavsifi, hatto uslubiy qarama-qarshiligiga qaramay matn doirasidan joy oladi. Til birliklarining muayyan tizimda tizilishi adabiy til funksiyaviy turi sifatidagi badiiy asar tilining umumiy tuzilish tamoyiliga ko'ra yuz beradi; borliq obrazli aks etadi yoki obrazli nutq yaratiladi.

Muallif tomonidan foydalanilgan barcha til vositalari, ulardan foydalanish usuli va yo'sinlari faqat kommunikativlik, ya'ni matn adresantga tushunarli (bu har qanday matn, shu jumladan badiiy matn uchun ham tayanch shart hisoblanadi) nuqtayi nazaridagina emas, balki estetik jihatdan ham asosiy, nazariy ahamiyatga molikdir. Estetik jihat faqat badiiy matn uchungina asosiy shart hisoblanadi.

Badiiy uslubda "... til va uning uslublari umumiy tizimi unsurlarining har qanday nisbati keskin o'zgaradi, go'yo aralashib ketadi va bu bilan yangi ma'no, yangi obrazlilik – ta'sirchanlikka ega bo'ladi"⁶².

Til vositalarining kommunikativligi va estetikligi asoslanganligining samarali qo'shiluvi, ularning badiiy asarda qo'llanilishi

⁶² Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. —Москва, Поэтика, 1963. 141-б.

soʻz sanʼatkorining gʻoyaviy-estetik niyati toʻlaqonli amalga oshishiga imkon beradi.

Ijtimoiy kommunikatsiya, kishilarning oʻzaro muloqoti, informatsiya berishning ishonchli vositasi boʻlib xizmat qiluvchi tizim tarzidagi tilning universal xossasi – badiiy-obrazli nutqiy aniq shaklga kirishi badiiy asar tilining oʻziga xos kategoriyasi sifatida alohida ajralib turadi.

Biror jumla yoki ibora tuzar ekanmiz, har birimiz chuqur falsafiy mulohaza yuritamizmi yo boʻlmasa, kundalik tashvishlar haqida gapiramizmi, har holda murakkab dialogik vazifa bajaramiz; tilning mavhum kategoriyalari yordamida faqat turmushning mohiyati haqidagi yuksak maʼnoli fikrlarnigina emas, balki aniq-tiniq, shunchaki kundalik hayotiy maxmundagi oʻylarni ham yetkazamiz (*meni tobtim qochib turibdi; Avtobus kechikyapti; Sal boʻlmasa, poyezddan qolib ketardim; Bugun uxlab qolipman ... Sen qayoqqa? Uyga ...*), muayyan insonga, uning xulq-atvoriga, fikriga, odatiy yoki muhim voqeaga oʻz munosabatimizni bildiramiz. (*Bu ishing juda yaxshi; Sen ajoyib bolasan; Ha, yaxshigina ayyorsan; Oyijon, meni kechiring, boshqa bunday qilmayman*).

Xullas, gap tuzishda, fikrni ifoda etishda nutqiy aniqlik yuz beradi. Soʻzlovchi/yoʻzuvchi muayyan tilni, uning grammatikasi, fonetikasi qoidalarini, soʻzlar maʼnosi, ulardan foydalanishning asosiy qoidalarini bilgan holda, mazkur til abstrakt kategoriyalarini oʻz fikri aniq mazmuni bilan muvofiqlashtiradi, chunki u shuni ifodalashi kerak boʻladi. Masalan, soʻzlovchi shamolni his etadi va deydi: *Shamol esmoqda. Oʻrik gulladi; U gapirdi*. Bunday gaplarda ot (*shamol, oʻrik*), kishilik olmoshi (*u*), feʼl (*hozirgi zamon – esmoqda, hozirgi oʻtgan zamon – gulladi, gapirdi*).

Soʻzlashuv nutqida til birliklaridan tashqari verbal boʻlmagan vositalar (imo-ishora, xatti-harakatlar) ham ishtirok etadi, bunga rasmiy boʻlmagan muloqotga xos vaziyat sabab boʻladi; telenutqda nutqni aniqlashtirishda koʻpgina tasvir qatoriga tayanadi.

Bunday adabiyot tilidagi badiiy-obrazli nutqiy aniqlikka erishish ayni badiiy nutqga xos alohida xususiyatdir.

Nihoyat, Kumush kulgi aralash koʻziga yosh oldi.

- Siz ... qochqoqsiz! – dedi.
- Siz ...
- Men?

– Siz quvloqsiz.
– Ajab qilaman, – dedi Kumush va shapalog‘i bilan erining yuziga sekingina urib qo‘ydi.

– Bu yoqqa ham ...

– U yoqqa Zaynab ursin!

– Zaynabning urishga haqqi yo‘q!

Qodiriy matndagi aniqlik, nafislikka asosan kishilik olmoshlari (ism o‘rnida), otlar, ko‘rsatish olmoshlari tufayli erishiladi. Bular tartibda tadrijiylikka ega. Mazkur matnda fe‘l personaj xatti-harakatini tasvirlaydi: ...*sekingina urib qo‘ydi; Zaynab ursin; urishga ...*

Oddiy-so‘zlashuvga xos ohangdagi matnda shunchaki shaxsning muayyan harakati ta‘kid etiladi, “narsa-mantiqi” beriladi, boshqacha, tilshunoslar ta‘biricha, denotativ ma‘no ifodalanadi.

Badiiy mant nutqiy tuzilishiga e‘tibor bilan qaralsa, badiiy asar uslubining sintaksisda namoyon bo‘ladi. Badiiy mant ohangdorligi unda jamlangan til vositalari, ulardan foydalanish usullari, yo‘sinlari va o‘zaro nisbatiga ko‘ra yuzaga chiqadi.

Badiiy matnda til vositalarini tinglash, qo‘llash, konstruksiyalash tamoyili adabiy nutq me‘yorlariga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, adabiy nutq me‘yorlariga asoslanganlik har qanday adabiy nutqda yaratiladigan matnlar uchun umumiy talabdir. Adabiy nutqning mazkur funksiyaviy turida til birliklari, nutqiy ko‘rinishlar, xullas, milliy til doirasidagi barcha vositalardan, masalan, adabiy bo‘lmagan unsurlardan, hatto, grammatik jihatdan xato shakllar, konstruksiyalardan, g‘ayriodatiy yasalmalar – so‘zlar, iboralardan, shuningdek, chet tillardan olingan uzuq-yuluq so‘zlardan (ular chet tilida qanday bo‘lsa, shunday olinadi) foydalaniladi. Muallif o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirish uchun matn tayyorlanayotgan tilda shakllangan har qanday til unsurlariga, nutqiy hodisalariga murojaat qilishga haqli.

Lekin, shu bilan birga, so‘z ustasi o‘zi yaratgan matnni o‘quvchisi deyarli to‘liq tushuna olishi haqida ham qayg‘urishi lozim.

Badiiy matnda me‘yorga yo‘naltirilganlik, ya‘ni o‘quvchi to‘laqonli tushuna olishiga bo‘lgan intilish umumtushunarsiz bo‘lgan hodisalar (shevaga xos so‘zlar, jargonlar, kasb-hunarga oid terminlar, maxsus leksemalar, etnografiyalar, varvarizmlar, ekzotik so‘zlar, tabu so‘zlar), adabiy me‘yordan grammatik, fonetik jihatdan chetlashganliklar haqida ular tushunarli bo‘lishi maqsadida ularning

mazmun-mundarijasi, uslubiy qo'llanilishi haqida izoh, tushuntirish beriladi.

Masalan: *Otabek o'z hayotidagi fojialarning manbai bo'lgan bir habisni*⁶³ *nihyat birinchi marotaba tanib turar edi.*

— *Bek, shunga o'ltirganning qatorida yana yarim soatga tahammul*⁶⁴ *qilsangiz,...*

Matnga me'yoriy bo'lmagan yoki keng tarqalmagan til birliklari, nutqiy hodisalarni kiritar ekan, muallif hamisha amaldagi adabiy me'yorlar tizimidan yaxshi xabardor, ya'ni adabiy nutq egasi bo'lgan o'quvchini nazarda tutadi. O'quvchi adabiy me'yorlardan qanchalik chuqur va mukammal xabardor bo'lsa, badiiy matnning g'oyaviy-estetik va uslubiy jihatlarini aynan tasavvur eta biladi.

O'zbek badiiy adabiyotida (publitsistik nasrda ham) adabiy me'yorga mos bo'lmagan nutqiy unsurlar bilan o'quvchiga tushuntirishning turli usullari shakllangan: bevosita muallif izohidan tortib bayonning maxsus shakligacha; muayyan so'zning, nutqiy tiuzilmaning me'yoriy bo'lmagan tavsifi, shakli yoki ma'no, mazmuni mikrokontekstda ayonlashadi.

Mualliflar bevosita izoh berishdan tashqari, ko'pincha "tushuntiruvchi" kontekst tuzadi.

Mutal:

— *Balli, mo'ljalini olib bersalaring, ertadan boshlab qaziganim bo'lsin.*

Homid, Sodiq:

— *Balli, rahmat, polvon!*

Majlisning so'zi shu yerga yetganda Otabek o'rnidan turib yo'lakka keldi. Eshik zanjiriga qo'lini olib borgani holda o'ylanib to'xtadi va eshikni ochmay orqasiga qaytdi. Xaroba uy orqali usta Olimnikiga chiqib ayvon yonida to'xtadi, ularning xurrak va pishillashlariga qanoat hosil etgach, oyog' uchi bilan yo'lakka o'tdi va eshikni ochib chiqdi...

Abdulla Qodiriy usta Olim xatni bergandan so'ng qutidor qanday holatga tushganini izohlaydi:

— *Mendan taajjublandingiz, — dedi va qo'ynidan maktublarni chiqarib, bittasini qutidorga uzatdi, — mendan ham bu maktub ajabroqdir! — deb kuldi.*

⁶³ Habis — yaramas, iflos.

⁶⁴ Tahammul — sabr.

Qutidor xatning unvoniga ko'z yugurtirib chiqqach, usta Olim aytgandek taajjub ichida xatni ochdi ... O'qib bitirgach, u dahshat va taajjub ichida toshdek qotib qolgan edi ...

Badiiy asar nutqiy tuzilishida troplar va uslubiy figuralar tasviriy-ta'sirchan vositalar sifatida alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, troplar, uslubiy figuralar adabiy nutqning boshqa variantlarida ham uchraydi. Agar badiiy asar tilida troplar va uslubiy figuralar badiiy matn umumiy obrazlar tizimining tarkibiy komponenti hisoblansa, tilning estetik funksiyasini yuzaga chiqarishda qatnashsa, publitsistik uslubda yoki so'zlashuv nutqida tasviriy-ta'sirchan vositalar matnning ta'sir etish kuchini oshirish vositasi, uning qismi oddiy kundalik turmushdagi dialogda luqma (replika) vazifasida keladi.

O'zbek adabiy nutqi tarixida badiiy asar tili alohida o'rin tutadi. Ayni uning doirasida Nizomiddin Amir Alisher Navoiy bu nutqni takomiliga yetkazdi (bu hozirgi o'zbek tilining qaror topishida asosiy negiz hisoblanadi). Hazrat Navoiydan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Oybek va boshqalar to'bizning kunlarimizgacha o'zbek badiiy nutqi rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Badiiy asar tili adabiy nutq turi sifatida.
2. Badiiy asar tilining funksiyaviy tavsifi.
3. Badiiy nutq orqali adib qanday maqsadni ko'zlaydi?
4. Badiiy asar tilining qanday belgilari bor?
5. Muallif foydalangan til vositalari nazariy jihatdan qanday ahamiyatga molik?
6. Badiiy matnda til vositalaridan foydalanish me'yori deganda nimani tushunasiz?
7. Matnga me'yoriy bo'lmagan, tarqalish doirasi tor til birikmalarini kiritishdan maqsad nima?
8. Badiiy asar nutqiy tuzilishida troplar va uslubiy figuralar qanday o'rin tutadi?

USLUBIYATGA OID TERMINLAR IZOHLI LUG'ATI

Amaliy uslubiyat, nutq uslubiyati – uning vazifasi til vositalarining ta'sirchanlik, his-hayajon jihatidan mavjud imkoniyatlarini baholash, ulardan nutq egasi maqsadga muvofiq holda, mahorat bilan foydalanishni o'rganish va o'rgatishdir.

Antonimlar (yun. *anti* – *qarshi*, *zid*+*oputa* – *nom*) bir-biriga zid so'zlar antonimlar ham sinonimlar singari tildagi va nutqiy bo'ladi. Tildagi antonimlar deganda til tizimidagi, maxsus lug'atlarga kiritilganlari tushuniladi. Bularndan barcha birdek foydalanadi. Nutqiy antonimlar ma'nosiga ko'ra faqat nutq, matn egasi tomonidan zidlantiriladi, boshqa holatda esa ular bir-biriga zid kelmaydi. Masalan: *lavozimga tayinlash* – *lavozimdan ozod qilish*; *ishga olindi* – *ishdan bo'shatildi*; *talabalikka qabul qilindi* – *talabalik safidan chiqarildi*; *esida tutmoq* – *esidan chiqarmoq*.

Antropotsentrizm (yun. *anthropos* – *inson* + *kentron* – *markaz*) – inson olamining markazi va butun borliqning so'nggi maqsadi.

Antropotsentrik tahlil – tilshunoslikda: matn *kognitiv*, *diskursiv*, *psixolingvistik*, *lingvokulturologik* tahlilning umumiy nomi.

Arxaizmlar (yun. – *qadimga*) – iste'moldan chiqqan va chiqayotgan so'zlar. Bular uch guruhni tashkil etadi: 1) aholining ko'pchiligi uchun hali tushunarli bo'lgan (*paranji*, *chochvon*, *sandal*, *tancha*, *baldoq*, *bigiz*, *so'zana* va b.); aholining ko'pchiligi tomonidan unutilgan so'zlar (*ochun*, *budun*, *tozar*, *xayon*, *xanik*, *turim* va b.); 3) tashqi ko'rinishiga ko'ra tanish, lekin ma'nosiga ko'ra deyarli tanish bo'lmagan so'zlar (*hoshiya*, *izma*, *kuloh*, *zo'g'ata*, *dahma* va b.).

Mazkur tur arxaizmlaridan badiiy uslubda hamda qadimga oid ilmiy asarlarda, kasb-hunarga oid tarixiy asarlarda foydalaniladi.

Asos ma'no – biror ma'noning yuzaga kelishiga asos bo'ladigan ma'no. Masalan: qanot so'zining qushning parvoz qilish vositasi ma'nosi; *samolyot qanoti* birikmasidagi ma'noga nisbatan asos ma'nodir.

Assotsiatsiya (lot. *association* – *birlashish*) – nutq birliklarining mantiqiy-ma'noviy belgiga ko'ra birlashuvi.

Atovchi ma'no (lot. *nominativ ma'no*) – narsa, belgi, harakatning voqelik bilan bevosita bog'li nomi; atama, nom.

Atributiv birikma – so'z birikmasi, aniqlovchi va aniqlanishdan iborat bo'ladi.

Aytilgan (lot. *piredikat*) – mantiqiy kesim.

Badiiy matn diskursiv jihat – 1) *kognitiv* jihat; 2) *kommunikativ-progmatik* jihat; 3) *lingvomadaniy* jihat.

Belgilash (lot. *denotat*) – atama (til birligi) yordamida nomlanuvchi narsa, voqea, hodisa.

Birga nazarda tutmoq (yun. *sinekdoxa*) – butun yoki qism munosabati asosida bir narsa, voqea, hodisa nomini boshqa narsa, voqea, hodisaga ko'chishi, qismning nomi butuni bo'lib qoladi va aksincha.

Bitishuv aloqasi – so'zlarning sintaktik aloqa turi. Bunda hokim so'zga tobe so'z hech qanday grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va intonatsiya orqali bog'lanadi. Masalan: *shirin orzu, oltin kuz*.

Boshqaruv aloqasi – so'zlarning sintaktik aloqaga kirishuv turi. Birikma hosil bo'lishida hokim so'z talabiga ko'ra tobe so'z ma'lum bir grammatik shaklga kiradi va shu shakl orqali tobelanadi. Masalan: *uyga bormoq, ishdan ketmoq, qalamda yozmoq*.

Boshqacha atash (yun. *metonimiya*) – tashqi yoki ichki bog'liqlikka ko'ra bir narsa, harakat, belgi nomini boshqa bir narsa, harakat, belgiga nisbatan qo'llash tufayli narsa, harakat, belgi nomi boshqa narsa, harakat belgiga ko'chadi; qayta nom berish. Boshqacha atash natijasidagi hosila ma'noning yuzaga chiqqan ko'chma muchasida nutq jarayonida obyektga bo'lgan subyektiv munosabat namoyon bo'ladi. Subyektiv munosabat ikki qutbli – ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin.

Bo'yoqdorlik – his-hayajon, ta'sirchanlik, alohida ifoda va h.k. Bo'yoqqa egalik.

Bo'yoq – so'zning moddiy ma'nosiga qo'shimcha tarzdagi his-hayajon, alohida ifoda, uslubiy belgi.

Denotat (lot. – *belgilamoq*) – til birligi yordamida nomlanuvchi narsa, voqea, hodisa; atalmish.

Denotativ ma'no (lot) – narsa, voqea, hodisani bevosita ifoda etuvchi ma'no, atash ma'nosi.

Dialog (yun. *dialogos*) – 1) ikki va undan ortiq shaxsning o'zaro so'zlashuvi; 2) dramatik asarning nutqiy tuzilishi; 3) so'zlashuv shaklidagi adabiy asar.

Diskursiv (lot. *discursus*) quruq mulohaza, to'g'ri tushunilgan fikr, mantiqiy vositali (hissiy, mushohadaviy, fahmiy va bevositalikdan farqlanadi); mantiqda mulohazaga asoslangan, mantiqiy

qismlar ketma-ket qatori, ulardan har biri oldingiga bog‘liq va keyingisiga sabab bo‘ladi.

Diskursiv qobiliyat – mulohaza qilish imkoni, mulohaza yurita olish layoqati.

Ekspressiv (lot. *ifoda*) – nutq ta’sirchanligi, ifodaviylik mavjudligi; ekspressiv ma’no – ifodaviy xususiyatga ega ma’no.

Ellipsis (yun.) – nutq unsurlarining tushib qolishi. Ellipsisdan badiiy nutqda tejamkorlik, uslubiy maqsadda foydalaniladi. Masalan: *shishadek suv*. Mazkur o‘xshatish konstruksiyasida *tiniq* so‘zi tushib qolgan.

Epitet (yun. *epitet*) – narsa, voqea, hodisani obrazli, tasvirli ifodalashda qo‘llaniladigan so‘z; ilova, qo‘shimcha. Masalan: *oltin xotira*, *zumrad bahor*.

Etalon (fr. *etalon*) – o‘lchov, namuna. Nutq jarayonida o‘xshatish konstruksiyasi tarkibidagi unsuri.

Etnolingvistika (yun. *ethnos* – *qabila*, *xalq* va *lingvistika*) – qabila, xalq omilining til bilan o‘zaro munosabatni o‘rganuvchi fan.

Etnopsixolingvistika – tilshunoslikning qabila, xalq ruhiyatining til birliklarida namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi fan.

Etnolingvistik – til bilan til egasi o‘rtasidagi munosabatni, lingvistik va etnik faktorlarning til faoliyati va taraqqiyotidagi o‘zaro ta’svirini o‘rganuvchi makrolingvistikaning bo‘limi.

Faollashtiruvchi (lot. *aktualizator*) – nutq jarayonida til unsurlari imkoniy xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi. Til unsurlarini uslub talabi bilan muayyan nutqiy vaziyatga moslashtiruvchi.

Funksiya (lot. *function* – *faoliyat*, *bajarish*, *vazifa*). Til birliklari asosida tuzilgan sintaktik birliklarning nutqda bajaradigan vazifasi.

Funksiyaviy ko‘chim – vazifasidagi o‘xshashlik asosida bir predmet nomini boshqa predmetga ko‘chishi.

Funksiyaviy uslub – ijtimoiy idrok etilgan, ijtimoiy nutqiy muloqotda muayyan funksiyaga ko‘ra birlashgan til unsurlari, ulardan foydalanish, saralash, o‘zaro mutanosiblashish va nisbatlashish usul hamda tamoyillari tizimi.

Funksiyaviy uslublar – faoliyatning biror sohasidagi vazifaga ko‘ra xoslangan uslublar.

Funksiyaviy uslubiyat – tilshunoslikning mustaqil sohasi, til birliklari uslubi, matn uslubi va badiiy nutq uslubi bilan bir qatorda, uslubiyat tarkibiga kiradi. U muayyan adabiy nutq funksiyaviy

turlarining tarixan shakllangan tizimini, bu turlar o'zaro munosabati va ta'sirini; bu funksiyaviy turlarning tizim ichidagi tutgan o'rnini; ularning adabiy nutq ichida farqlanishi tamoyillarini o'rganadi.

Generatsiya (lot. *genero* – *tug'aman, yarataman*) – tartibga solingan fikriy mazmunni tabiiy til (nutq)ga aylantirish (*transformatsiyalash*); dildagini tilga chiqarish.

Geshtalt (nem. *obraz, tuzilma, bir butun shakl*) – obyektning qismlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit holda idrok etish, boshqacha aytganda, u alohida propositsiyalar emas, balki propositsiyalarning umumiy idroki. Geshtalt verbal bosqichda qism (propositsiya)lar shaklida ayonlashadi, matn yaratish jarayonida bir butunlik tarzida namoyon bo'ladi.

Hayajon (lot. *emotsiya*) – nutq egasining narsa, voqea, hodisaga bo'lgan hissiy munosabati ifodasi, u ikki qutbli – ham ijobiy, ham salbiy bo'ladi.

Hayajonli so'z – nutq egasining his-hayajonini ifodalovchi ma'noviy munosabatga ega so'z. Mazkur so'zni qo'llashdagi munosabat ikki xil bo'ladi: 1) ijobiy – chehra, jilmaymoq; 2) salbiy – bashara, tirjajmoq.

Hayajonli nutq – his-hayajonlarga yo'g'rilgan nutq.

Haqorat so'zlar – ma'nosi haqorat ifodasiga ega so'zlar. Nutqda qo'pol munosabat ayon ko'rinadi. Masalan: *ahmoq, kallavaram, itvachcha*.

Hokim unsur – so'z birikmasining hokim bo'lagi. Bu – o'zaro bog'lanishda sintaktik jihatdan tobe bo'lmagan, boshqa bo'laklarni ergashtiruvchi (hokim so'z, hokim gap, hokim bo'lak).

Holli birikma – hol bilan hollanish o'rtasidagi munosabat. Masalan, erta turdi.

Hokim bo'lak – so'z birikmasidagi hokim unsur. Masalan: *sayohatga chiqmoq* birikmasidagi *chiqmoq* so'zi hokim bo'lak.

Hokim unsur – bir-biri bilan bog'lanishda sintaktik jihatdan boshqa unurni ergashtiruvchi va unga hokim vaziyatdagi unsur.

Hosila ma'no – ma'lum bir ma'no asosida yuzaga chiqadigan ma'no. Badiiy nutqda mazkur ma'no tufayli ko'chim sodir bo'ladi va unda ko'chma mucha yuzaga chiqadi.

Hunar egalari nutqi – muayyan kasb-hunar egalari nutqida uchraydigan maxsus so'z va iboralar. Bunday so'zlar garchi adabiy til lug'atidan joy olgan bo'lsa-da, lekin hunar egalari nutqida o'z moddiy

ma'nosidan boshqa, mutlaqo farqli ma'no ifodasiga ega bo'ladi. Masalan: *xat* (sopol idishlarga bo'yoq bilan chiziladigan to'g'ri chiziq); boshlig'i (mahsining boshlanish qismi, oyoqning yuz qismini qoplaydi).

Ibora – o'ziga xos uslubiy, shevaga xos xususiyatga ega so'z, so'z birikmasi, gap kabilarning umumiy nomi. Masalan: *tili, gul* (tok)ning *tili, qo'li gul; kapalagi uchdi; ko'zi chiqdi; tarvuzi qo'ltig'idan tushdi*.

Ifoda – nutq birligi (og'zaki yoki yozma). Tilga xos qonuniyatlar asosida shakllanadi.

Ifodalilik (lot. *ekspressiya*) – nutqning ta'sirchanlik xususiyati. Badiiy nutqda bu xususiyat so'z, grammatik vosita va b. yordamida yuzaga chiqadi. Ekspressiv ma'no: subyektiv baho shakli.

Ilmiy uslub – adabiy nutqning ilmiy informatsiyani aynan yetkazuvchi, zamonaviy bilimlarni dalillar asosida bayon etilishini ta'minlovchi funksiyaviy-uslubiy sohasi. Ilmiy matnlarda matnning zarur va yetarli darajada axboriy bo'lishini ta'minlovchi nutq vositalaridan samarali foydalanish qat'iy ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ilmiy informatsiyani aniq yetkazish, nutq o'ta axboriyligi, qat'iy mantiqqa egalik, bayonning dalillanganligi, matnning mantiqiy tugallanganligi bu uslubga xosdir.

Implitsit konstruksiya (fr. – *nazarda tutiladigan*) – qaysidir jihatdan ochiq bo'lmagan konstruksiya. Narsa, voqea, hodisani ochiq-oydin, ravshan emas, balki nazardagidek aytish.

Integrativ – yaxlitlanish, bir butunga aylanish.

Intensiv shakl – belgining mo'tadillikdan ortiq, o'ta ortiq ekanligini ifoda etuvchi shakl.

Intensiya (lot. *intentio*) – intilish, niyat, maqsad, yo'nalish yoki biron bir predmetga ong, iroda, sezgining yo'nalganligi.

Interpretatsiya (lot. *interpretatio*) – 1) keng ma'noda – talqin etish, tushuntirish, ancha tushunarli tilga tarjima qilish; maxsus ma'noda – mantiq abstrakt tizimi uchun modellar tuzish. 2) Matn badiiy tuzilishi uslubi, tamoyillarining mohiyatini tushunishga imkon beruvchi adabiyotni o'rganish usuli.

Jargon (fr.) – muayyan guruhni tashkil etuvchilar boshqalardan ajralib turish maqsadida so'z va iboralarga boshqalar tushunmaydigan o'zgacha ma'no berib ishlatish. Masalan: *xit* – DAN xodimi (transport haydovchilar tilida); *sogqa* – pul (bozorchilar tilida).

Jonlantirish – jonsiz narsa, voqea, hodisa, mavhum narsalarga jonli narsalarga xos xususiyat bag‘ishlab tasvirlash; uslubiy usul. Masalan: *Teraklarning yaproqlari ohista shivirlaydi*.

Kesatiq (yun. *ironiya*) – piching, uchiriq, sirdan jiddiy, ammo zimdan mazah qilib aytilgan so‘z, ibora. Bunday so‘z, iboralarning atash ma‘nosidan anglashilib turgan tushunchaning ziddini ifoda etishi.

Kinoya – nutqda so‘z moddiy ma‘nosiga tamoman zid ma‘noda ishlatiladigan nutqiy birlik: kesatiq, uchiriq, piching. Masalan: Professorimiz so‘zladilar (ilm sohasida o‘ralashib yurgan, ilmdan yiroq xodimga nisbatan).

Kitobiy nntq – adabiy nutqning asosiy funksiyaviy-uslubiy sohalaridan biri. Istalgan mavzudagi guruhlararo yoki ommaviy kommunikatsiya sharoitida adabiy nutq egalari nutqiy (yozma, og‘zaki) muloqotiga xizmat qiladi. Kitobiy nutqda nutqning ikki asosiy funksiyasi – xabar (informatsiya) berish, ta’sir etish boshqa turlardagidan ko‘ra ancha to‘liq amalga oshadi.

Kitobiy nutq funksiyaviy turlari. Kitobiy nutq tarixda turli sabablarga ko‘ra funksiyaviy-uslubiy tasniflangan. Mazkur tasnifda *rasmiy-ish yuritish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy nutq* alohida ajratib turadi.

Kognitiv – antropotsentrik *paradigmaning* yetakchi yo‘nalishlaridan biri; insonning biror narsa, voqea, hodisani idrok etishini amalga oshiruvchi fikrlash tarzi.

Kognitiv kontekst – fikr konteksti.

Kognitiv metafora – hosil qiluvchi va hosila ma‘no refereti o‘zaro o‘xshash bo‘lishiga asoslanuvchi nutqiy hodisa; bir tushuncha yoki hukmga asoslanib, ikkinchi tushunchaga yoki hukmning yuzaga chiqishi. Masalan, *narhi qimmat – narxi baland*; til sathiga ko‘ra quyidagi tasnifga ega: so‘zga teng metafora; so‘z birikmasiga teng metafora; gapga teng metafora; mikromatik shaklidagi metafora.

Kognitiv-semantik – matnni mazmuniy idrok etish. Xabarni idrok etish, kodlashtirish, yaratishdan iborat tizim.

Kognitiv tilshunoslik – antropotsentrik *paradigmaning* yetakchi yo‘nalishi; matnni semantik (ma‘noviy) tahlili bilan shug‘ullanuvchi tilni umumiy kognitiv tizim sifatida o‘rganuvchi soha kognitiv tilshunoslikda tasvirlanayotgan konseptning so‘zlovchi uchun ahamiyatli bo‘lgan biror jihati o‘z ifodasini topadi.

Kognitologiya – fikrshunoslik, insonning biror narsa, hodisa va voqea xususidagi tushuncha (fikir)ni tadqiq etadi.

Konsent (lot. *concertus* – fikr, tushuncha) – nom (belgi)ning idroklangan ma’nosi, ya’ni tushunchaning mundarijasi, nom ma’noviy ko’lamlari (predmet), denotati (masalan, *tunning* ma’noviy mundarijasi *muayyan vaqt birligining qorong’i qismi*). Konsent quyidagicha bo’ladi: andozaviyligiga ko’ra etnik, guruhga oid, shaxsiy va ham-maviy; qo’llanishiga ko’ra badiiy, ilmiy, odatiy (maishiy); ifoda etilishiga ko’ra leksik, frazeologik, grammatik, sintaktik, matniiy va h.k.

Kontekstual sinonim (lot. *contextus* – jips aloqa, qo’shimcha + yun. *synonymia* – bir nomda) – ma’nosiga ko’ra mutlaqo farqli bo’lgan yozilayotgan yoki aytilayotgan nutq birliklarining semantik yaqinlashuv natijasida yuzaga chiqadigan nutqiy hodisa. Masalan: ... *ov, kim bilmaydi u poraxo’rni; ... yev u axir turg’unlik davri; yollanganlar – urush itlari.*

Kontekst (lot. – yaqin aloqa, birikish, qo’shilish) – mazmunan tugallangan, tarkibidagi so’z yoki iboralarning ma’nolarini aniqlashga imkon beradigan nutq qismi. Nutqning bunday qismi tarkibidagi so’zlar (iboralar)ning biri ikkinchisiga kontekst vazifasini bajaradi.

Kontekstual ma’no – so’zning kontekstiga bog’liq holda ayonlashadigan hosila ma’nosi. Masalan: *Bu yerlardan bosh olib ketsam, u yoqlarda biror kovak topilar.*

Kreollanganlik – verbal hamda verbal bo’lmagan shakllar uyg’unligi.

Ko’makchili aloqa – so’zlarning o’zaro ko’makchi yordamida yuzaga keladigan aloqasi. Masalan: *qo’l bilan tutmoq, oy kabi to’lmoq.*

Ko’makchi boshqaruv – ko’makchilar yordamida sodir bo’ladigan boshqaruv. Masalan: *Kursdoshlar bilan uchrashuv. Sun’iy yo’ldosh orqali so’zlashuv.*

Ko’chim (ar. *istiora*; yun. *metafora*) – o’xshatish konstruksiyasi etalonda qolgan unsurlarning nutq imkoniyatiga ko’ra nazarda tutilgandek ifoda topishi.

Lahja (yun. *dialekt*) – mahalliy nutqning bir necha shevadan iborat guruhi. Masalan: *qipchoq lahjasi, o’g’iz lahjasi, qarluq lahjasi.*

Leksema (yun. *ibora*) – muayyan til lug’ati tarkibidagi xos birlik: tilning yoki ayrim til birikmalarining (so’zlar, gaplar va b.) qurilishining moddiy ma’no anglatuvchi unsuri.

Lingvokulturologiya (lot. *lingua* – til + lot. *cultura* – yetishtirish, ishlov berish) – tilshunoslikda: lingvomadaniy ta’limot, u o’xshatish, metafora, jonlantirish va b. muayyan millatning qadriyatlarini, milliy-odatiy fikrlash tarzini namoyon etuvchi birliklarni o’rganadi va o’rgatadi.

Lingvokognitologiya – nutqni xabarlar uzatish va uni idrok etish tizimini o’rganuvchi soha tarzida.

Matn uslubiyati – nutq sintaktik qurilishi bilan bog’liq uslubiy samarani o’rganuvchi soha. Matnning gapdan boshlab to’liq asargacha uzayishiga ko’ra sintaktik va uslubiyat tobora jipslashadi. Sintaktik tuzilmadagi har qanday o’zgarishi, albatta matn uslubiyatida aks etadi. Masalan: *Bolalar maktabda o’qiydi. Ular maktabda o’qiydi. Oybek kitob o’qimoqda – Muslima rasm chizmoqda – Ulug’bek test yechmoqda.* Birinchi misoldan fikrning tadrijiy bo’lishi va rivojlanishi uchun, ikkinchisidan qiyoslanganda foydalaniladi.

Matn yaratilishining talqinlari – 1) matn – nutq egasi maqsadining ifodasi; 2) matn – nutq yaratish mahsuli; 3) matn – tushunish obyekti; 4) tushunish omili; 5) matn – mental tuzilmaning nutqga ko’chishi.

Maqol – tuzilishiga ko’ra gapga teng chuqur ma’noga, musiqiy-ifodali belgi-xususiyatga ega xalq og’zaki ijodi janri. *Yurgan daryo, o’tirgan bo’yra. Dangasa bir ishni ikki ishlar, oxiri barmog’ini tishlar.*

Mantiqiy kesim (lot. *predikativum*) – qismida subyekt to’g’risida xabar beruvchi bo’lak.

Ma’naviy tuzilma – til birikmalarining nutq jarayonida mazmun jihatdan tuzilishi.

Ma’no bo’yog’i – so’z moddiy ma’nosidagi umumiy qismdan tashqari, moddiy ma’noni tashkil etuvchi muchalardan biriga xos farqli belgi – xususiyat.

Ma’muriy-huquqiy nutq. Sodda nutq: ayblovchining, advokatning nutqi, maslahatchilar va b.ning suddagi nutqi; ma’muriy, xo’jalik faoliyatiga oid, ishga aloqador muzokara va b. mazkur nutqning asosiy ko’rinishlaridan hisoblanadi.

Mental – milliy, milliy-madaniy; milliy-ma’naviy; milliy qadriyat. Shularni aks ettiruvchi til boyligini egallagan; millatga xos xususiyatlarni namoyon etuvchi, muayyan til vakili, egasi.

Mikroproporsiya – matnda ifodalangan obyektiv mazmunni aks ettiruvchi hodisa; matnni tashkil etgan gaplar *propozitsiyasi* umumiy

ko'lamli. Diskursning fikriy-semantik tahlili, matn interpretatsiyadagi asosiy tushunchalardan biri.

Mikroproporsiya – yaxlit tushuncha, predmet tavsifi ifodasiga teng nutq bo'lagi, lingvistik *geshtalt* hodisasiga teng.

Moddiy ma'no (lot. *semema*) – so'z moddiy qismi. Narsa, voqea, hodisa, harakat, belgi kabilar haqidagi tushuncha-mazmunga mos keladi. Masalan: *daraxt* – shu nom bilan ataluvchi mevali, mevasiz o'simliklar turining umumiy nomini anglatadi; gilos, terak – birinchisi mevali, ikkinchisi mevasiz turi; turdosh ot.

Moslashuv aloqasi – tobe aloqaning bir turi. Bunda tobe so'z shaklan hokim so'zga moslashadi, shu tarzda hokim so'zga moslashadi. Agar hokim so'z o'zgarsa, tobe so'z ham shunga mos holda shaklini o'zgartiradi. Moslashuv asosan ega – kesim, qaratuvchi – qaralmish aloqasida bo'ladi. Masalan: *suvning tinig'i, u bordi*.

Monolog (yun. *nonologos monos* – bir + *logos* – nutq) – 1) asosan dramada so'zlovchining o'ziga yoki tomoshabinlarga qaratilgan nutqi; 2) yolg'izlikdagi o'z-o'ziga qaratilgan nutq.

Mucha (yun. *sema*) – belgi, ma'noni tarkib topdiruvchi unsur. Masalan: *oltin* so'zining moddiy ma'nosi metall, qimmatbaho, sarg'ish, qadrlı kabi muchalardan tashkil topgan.

Muqobilik – nutq birligiga xos xislat, xususiyat. Bunda bir nutq birligi boshqa nutq birligiga xos ma'noni ifodalay oladi, unga xos vazifani bajaradi. Masalan: *uchdi* – *parvoz qildi*; *tullak* – *ayyor*. Muqobil so'zlardan foydalanish badiiy nutqda ta'sirchanlik, ifodalilikni ta'minlaydi.

Nazarda tutilgan (fr. *implitsit*) – muayyan jihatdan ochiq, ravshan, aniq bo'lmagan nutqiy tuzilma; qisman yashirin, oshkora bo'lmagan ma'no.

Neologizmlar (yun. *neoz* – yangi + *logos*) – yangi narsa, voqelik va tushunchalarni anglatadigan so'zlar. Masalan: *menejment*, *siti*, *bankrot*, *inflneyatsiya*, *mentalitet*, *elektron* va b.

Ko'pincha neologizmlar yangi, hodisa, voqea va jarayonni atashga xizmat qiladi. Ayrim neologizmlar tilda mavjud so'z ma'nosini ifoda etadi va uning muqobili hisoblanadi: *bankrot* – *kasod*; *avans* – *bo'nak*; *lizing* – *ijara*; *masmedia* – *ommaviy axborot(lar)*; *konstruksiya* – *gap, jumla* va h.k.

Nutq – jarayon, u so'zlovchi til birikmalaridan foydalanishi tufayli yuz beradi, mazkur jarayon tufayli yuzaga keladigan hodisa.

Nutqiy faoliyat – nutq tuzilish jarayoni, shaxsning nutq tuzishi.

Nutq tejami – nutq jarayonida iloji boricha mantiqiylikni saqlagan holda nutq birliklarini qisqartirish. Bu hol til tizimi barcha sohalari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)da uchraydi. Masalan: *jilon* – *ilon*; *olib bermoq* – *obermoq*; *Salima opa* – *Salimpa* va h.k.

Nutqiy uslub, 1) muayyan ijtimoiy vaziyat – kundalik turmushda, rasmiy-ish yuritish sohasi va b. da foydalaniladigan, leksikasi, fonetikasiga ko‘ra ayni bir tildagi boshqa turlar (rasmiy-ish yuritish, so‘zlashuv, ilmiy, kitobiy uslublar)dan farqlanadigan uslub; 2) kimningdir individual o‘ziga xos nutq ko‘rinishi.

Nutqiy janr – funksiyaviy uslub turi, umumiy mavzu, ifoda etish usuli, mazmunini talqini, shuningdek, uslubiy xoslanganligi va tuzilganligiga ko‘ra umumiylik, o‘xshash jihatiga ko‘ra birxillashuvchi matnlar guruhini tahlil qilish asosida ajratiladi.

Nutqiy sinonim – muayyan kontekstdagina sinonim bo‘la oluvchi til birligi. Muallif uslubiga ko‘ra tilda mavjud bo‘lgan so‘zga nisbatan sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan: *kutubxona* – *nurxona*; *tuya* – *sahro kemasi*; *ta’lim muassasasi* – *ziyo maskani*.

Obyekt – nutq qaratilgan narsa, voqea, hodisa.

Olmoshga ko‘chish (lot. *pronominalizatsiya*) – nutq jarayonida boshqa turkumga xos so‘zlarning olmosh turkumiga o‘tishi.

Ommaviy-axboriy og‘zaki uslublar – xabarlarini ommaga zudlik bilan yetkazishga xizmat qiluvchi og‘zaki adabiy nutq turi. Ommaviy kommunikatsiya nutqda foydalanuvchi yangi soha sifatida XX asr 2-yarmida jadal rivojlana boshladi. Ommaviy xabarlar (masmedia) matni (mediamatn) bugungi kunda tildan intensiv foydalanishning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Ommaviy kommunikatsiya negizida yangi funksiyaviy-uslubiy birliklar, funksiyaviy turlar shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Bular – *radionutq*, *telemutq*, *kinonutq* (hujjatli kinonutq).

Ortiqchalik (yun. *pleonazm*) – nutqda ma’nosi yaqin yoki deyarli bir xil bo‘lgan til birliklarining qo‘llanishi. Bunda bir xabar bir necha marta ifodalanadi. Bu hol badiiy nutqda uslub talabiga ko‘ra sodir bo‘ladi. Adabiy tahrir jarayonida bu hol e’tiborga olinadi, u uslub, individual nutq talabiga muvofiq kelmasa, unda matndagi mazkur ortiqchalik qisqartiriladi. Masalan: *U chamasi o‘ttiz yoshlardagi navqirion yigit edi*. Bu jumlada bir emas, ikki ortiqchalik bor.

Birinchisi, *chamasi* soʻzi, chunki *yoshlar* soʻzidagi *-lar* qoʻshimchasining oʻzi taxmin (*chama*)ni ifoda etadi. Ikkinchisi, *navqiron*, aslida yigit soʻzining moddiy maʼnosi tarkibida navqiron belgisi ifodasini beruvchi mucha mavjud.

Otlashish (lot. *substantivatsiya*) – nutq jarayonida boshqa turkumga oid soʻzni ot turkumiga koʻchishi.

Ogʻzaki publitsistik nutq – kitobiy nutq sohasiga taalluqli adabiy nutqning funksiyaviy turi. Uning matnlari alohida funksiyaviy turga birlashadi. Barqaror boʻlmagan ijtimoiy jamoa doirasidagi nutqiy muloqotda yuzaga keladi. Til egasi boʻlgan jamoalar biror mashgʻuloti, umumiy kabi, oʻzgaruvchan manfaatlari, vaziyatga koʻra birlashgan boʻladi. Masalan, maktab oʻquvchilari, firma xodimlari, kasbi, mashgʻulot turi bir boʻlgan kishilar, parlament aʼzolari, miting ishtirokchilari, saylovlar va b. Mazkur funksiyaviy tur matni ogʻzaki tarzda boʻladi. Auditoriya oldidagi nutq ijtimoiy dolzarb mavzu, masalaga bagʻishlangan boʻladi, shunga koʻra unga rasmiylik xos.

Ogʻzaki publitsistik nutqda ham yozma uslublar – publitsistik, ilmiy, rasmiy-ish yuritish uslublaridagi singari ijtimoiy muloqot vazifalar va maqsadlar amalga oshiriladi. OPN doirasida quyidagi nutq koʻrinishlari ajralib turadi: *siyosiy soʻzamollik; ilmiy soʻzamollik* va *maʼmuriy-huquqiy soʻzamollik*.

Albatta OPNning bu turlari publitsistik, ilmiy, ramiy-ish yuritish uslubiga nisbatan olinadi. Lekin shunga qaramay, OPNga mustaqil funksiyaviy-uslubiy hosila sifatida qaraladi. Uning matnida guruhiy kommunikatsiya sharoitida nutqiy muloqot amalga oshiriladi. OPN matnlari oʻqilmaydi, balki aytiladi va shu aytilish jarayonida tuziladi.

Ogʻzaki ilmiy nutq – OPNning ancha yaxshi oʻrganilgan turi. Ilmiy konferensiyadagi, seminardagi, ilmiy munozara vaqtidagi doklad, maʼruza shu turga xos nutq koʻrinishlaridir.

Ogʻzaki siyosiy nutq – OPN turi. Mitinglardagi parlament, syezd, kongress, jamoatchilik tashkilotlarining va xalqaro forumdagi chiqishlar shu turga xos asosiy nutq koʻrinishidir.

Ochiq ifoda (fr. *eksplitsit*) – munosabat aniq, ochiq boʻlgan konstruksiya. Masalan: *toʻnka (tepsa tebranmas, qaysar, tanbal shaxsga nisbatan)*. Badiiy nutqda obyektga boʻlgan subyektiv munosabatni ochiq, ravshan ifoda topishiga xizmat qiladi.

Paradigma (yun. *paradeigma* – *misol, namuna*) – grammatikada: turlash yoki tushlash namunosi, ayni bir soʻzning shakllar tizimi; 2) isbotlash, qiyoslash uchun tarixdan olingan misol.

Paronimlar (yun. – *yondosh nom*) – tovush tuzilishiga koʻra boshqa-boshqa, nutq jarayonida talaffuzi oʻxshash, yaqin boʻlib qolgan soʻzlar. Badiiy nutqda askiyada soʻz oʻyiniga asos boʻladi. Masalan: *abzal – afzal, asr – asir*.

Persepsiya (lot. *perceptio*) – idroklash, sezgi organlari orqali obyektiv boliqning bevosita inʼikos etilishi.

Polilog (yun. *poly* – *koʻp* + *logos* – *nutq*) – koʻpchilikning oʻzaro soʻzlashuvi. Undan badiiy asarda, teatr, kinoda keng foydalaniladi.

Pretsedent (lot. *peaeecedent* – *oldinda keluvchi*) – tamsil, misol. Bular milliy madaniyatga xos belgilarni avlodlarga yetkazuvchi vosita hisoblanadi.

Psixolingvistikka – nutqiy ifodaning paydo boʻlishi va idrok etilishi qonuniyatlari toʻgʻrisidagi fan. Til birliklari bilan ular ortida joylashgan ruhiy omillarning nutqda namoyon boʻlish xususiyatlarini oʻrganadi. Badiiy asarda inson ruhiyati (hissiyoti) til vositalari orqali yaqqol namoyon boʻladi.

Proporsiya – yonma-yon joylashgan gapgateng nutq boʻlagi.

Publitsistik uslub (lot. *publicus* – *ijtimoiy uslub*) – adabiy nutqning funksiyaviy uslubiy sohasi, siyosat sohasida qoʻllanadi. Jamiyat aʼzolari ongiga taʼsir etish, uni shakllantirish – asosiy vazifasi hisoblanadi. Publitsistik nutqning nutqiy tuzilishi siyosiy va grajdanlik nuqtayi nazarni, siyosiy targʻibotni, siyosiy guruhlar partiyalararo qizgʻin muloqotni ifodalashga, kundalik turmushdagi hodisalarni yoritishga, jamoatchilik, siyosiy tashkilotlar, rasmiy muassasalarning faoliyatini, shuningdek siyosatchilar, davlat, madaniyat arboblari hamda jurnalistlar xatti-harakatini baholashga qaratiladi.

Publitsistik uslub uning turlaridan boʻlishi *publitsistik gazeta* va *publitsistik jurnalda* ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi.

Publitsistikaning ijtimoiy-funksiyaviy jihati publitsistik uslub leksikasi (frazeologizmi)ning tarkibi, semantikasi va ekspressiv-emotsional tavsifiga koʻra belgilanadi. Uning leksikasida ijtimoiy-siyosiy maʼnodagi soʻz va terminlar asosiy oʻrinda turadi. Yuqori ekspressivlikka kuchli ifodaviylikka ega frazeologiya anʼanaviy voizlik nutqiga xos boʻlib, adresantni yuksak ongliligiga va uni ishontirishga yoʻnaltiriladi. Leksik-frazeologik birliklardagi yuqori

ohangdorlik ijtimoiy-siyosiy soʻz va soʻz terminlarda namoyon boʻladi.

Publitsistik jurnal – nasriy jurnal. Undagi ikki muammoli (maʼrifiy) – tahliliy va badiiy publitsistik janr alohida ajralib turadi. Matn tuzilishida standart va emotsional, ekspressiv til vositalaridan foydalaniladi. Asosan dalil (fakt)lar, hodisa, voqealar ijtimoiy baholanadi.

Publitsistik gazeta, “gazeta tili” – publitsistik uslubning funksiyaviy tabiatini toʻlaqonli va tadrijiy aks ettiruvchi axboriy vosita. Publitsistik gazeta uslubining asosiy vazifasi – til vositalardan ommaviy auditoriyaga samarali va aniq maqsadli taʼsir etishda foydalanishdan iborat. Publitsistik gazeta nutqiga standartlashgan va ekspressivlikka ega nutqiy koʻrinish xosdir. Standartlashtirish ijtimoiy-muloqiy, emotsionallik va ekspressivlik badiiylashgan – individual muloqot hisoblanadi. Adabiy nutqning yozma turi bilan bogʻliqligiga koʻra, albatta, grammatika meʼyorlariga amal qiladi, agar uslubiy zarurat boʻlmasa, ogʻzaki-soʻzlashuv nutqi xos sintaktik konstruksiyalardan foydalanilmaydi.

Qaralmish – aniqlovchi va aniqlanmishdan tuzilgan soʻz birikmasining qaratuvchi tobe boʻlgan unsuri.

Qoʻpollashtirish (yun. *disfemizm*) – narsa, voqea, hodisani dagʻal ifodalash. Qoʻpollashtirish doirasida hosil boʻlgan koʻchma muchalarda subyektning obyektga boʻlgan salbiy munosabati aks etadi; odobsiz, qoʻpol, dagʻal soʻz, iboralar tub maʼnosi boshqa narsa, voqea, hodisalarga xos boʻladi hamda bu obyektlar kishida noxush taassurot qoldiradi. Bular shaxsga nisbatan qoʻllanilganda qoʻpollashtirish yuzaga chiqadi.

Qoʻshimcha ifoda – soʻz moddiy maʼnosiga qoʻshimcha ravishda uslubiy munosabatlarni ifoda etuvchi maʼno.

Radionutq – ommaviy xabarlar ogʻzaki funksiyaviy uslubi. Nutqiy vositalarni tanlash – asosan tamoyiliga koʻra intonatsiyaviy-fonetik, grammatik – asosan sintaktik, leksik-frazeologik. Radiomatnlr shakli asosan monolog tarzida. Radiomatnda hishayajonni ifodalash va baholashda intonatsiya yagona vosita hisoblanadi. Intonatsiya qoʻshimcha – noverbal informatsiya yetkazishda muhim ahamiyatga ega, bu aytilganni chuqur tushunishga imkon beradi.

Rasmiy-ish yuritish uslubi – an’anaviy, shu bilan birga aqidaviy uslub. Mazkur uslubdan qonunchilik, ish yuritish (ishga aloqador yozishmalar)da, yuridik munosabatlar sohasida foydalaniladi. Obyektivlik, umumlash tirilganlik bayonidagi mantiqiy izchillik mazkur uslubga xosdir. Unda ma’noning tushunariligi, bixildalik, muayyanlik yaqqol seziladi. Dalillashning qat’iy tizimiga ega.

Semiotika (yun. *semeion* – belgi) – belgilar xossasini va belgilar tizimini o’rganuvchi fan.

Sema (yun. *belgi*) – til birligi mazmun (mundarija) qismlarga bo’linadigan unsurlari; tildagi mundarijaning minimal (eng kichik) birligi.

Semema (yun. *semaino* – belgilayman) – til mundarijasi (mazmuni) birligi, *semalar* majmui.

Sifatlanish (lot. *ad’ektivatsiya*) – boshqa turkumdagi so’zlarning sifat turkumiga ko’chishi.

Silliqlash (yun. *evfemizm*) – yaxshi so’zlamog; narsa, voqea, hodisaning odob doirasidagi ancha silliq ifodasi: odobsiz, qo’pol, dag’al so’z, ibora, tabu o’rnida og’ir botmaydigan, kishining izzat-nafsiga tegmaydigan so’z va iborani qo’llash.

Subyekt – nutq egasi.

Subyektik munosabat – nutq egasining narsa, voqea, hodisaga bo’lgan o’z bahosi. Masalan: *toychog’im*, *oppog’im*, *bolaginam*, *dugonajon*.

So’z – eng kichik nutq (til) birligi. So’z o’z tovush qobig’iga ega. U mavjud narsa, voqea, hodisa haqidagi tushunchani, ular o’rtasidagi aloqani, munosabatni ifodalaydi, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo’llana oladi.

So’z birikmasi – ikki yoki undan ortiq mustaqil so’z bog’lanishi. So’zlar o’zaro tobelanish asosida birikadi, bir-biri bilan ma’no va grammatik jihatdan bog’lanadi, yaxlit, ammo qismlarga ajratiladigan tushunchani ifoda etadi. Masalan: *qizil gul*, *pichoqda kesmoq*, *ko’p qavatli bino*. Tuzilishiga ko’ra sodda so’z birikmasi (*Mayin shabboda*), murakkab so’z birikmasi (*Nojo’ya so’z aytib qo’ygani tushundi*) farqlanadi.

So’zlashuv nutqi – nutq turi. Odatda kitobiy nutqqa qarama-qarshi qo’yiladi. So’zlashuv nutqida oldindan o’ylash, so’zlarni oldindan tanlash, maxsus jumla tuzishning bo’lmasligi, muloqot suhbatdoshlararo vositasiz bo’lishi, nutq harakati erkinligi,

rasmiylikdan holiligi bilan tavsiflanadi. Fonetik, leksikologik, morfologik, sintaktik jihatdan ham soʻzlashuv nutqi oʻziga xoslikka ega.

Soʻzlashuv nutqi birliklari – ogʻzaki nutq jarayonida qoʻllanuvchi soʻzlar. Bular kitobiy nutq uchun xos emas. Masalan: *shaqillamoq, adi-badi, oʻynoq, zingʻichcha*. Soʻzlashuv nutqidagi birliklarning uch xil maʼnaviy-uslubiy turi farqlanadi: 1) oddiy soʻzlashuvga xos soʻzlar. Bunday soʻzlar narsa, voqea, hodisani dagʻal, qoʻpol, past nazar bilan kamsitib, mensimay ifodalash xususiyatiga ega. Adabiy til meʼyorlaridan chetga chiqadi, soʻz, grammatik shakl va konstruksiyalarga boy nutq; 2) vulgar soʻzlar va jargon soʻzlar. Masalan: *megajin; quda tomon*; 3) shevaga xos soʻzlar. Masalan: *boravuz – boramiz; olutti – olyapti; galdim – keldim; jovub qoʻy – yopib qoʻy*.

Soʻzlashuv uslubi – faoliyat uslublaridan biri. Mazkur uslub amal qilish vaziyati (sharoiti)ga (fikir almashuvining vositasizligi, til unsurlarini tanlab qoʻllashning yoʻqligiga koʻra, intonatsiyaviy vositalar, imo-ishora, ishorat kabilardan keng foydalanishiga koʻra; oddiy til birikmalari – soʻz, ibora, maqol, materiallarning, ifodali-hissiy vositalarning koʻp qoʻllanishi va boshqa xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Soʻzning moddiy qismi – soʻzning tub maʼno bildiradigan qismi.

Soʻzning maʼnaviy tuzilishi – soʻzning tub maʼno, maʼno boʻyogʻi va qoʻshimcha belgilardan iborat tizimi.

Soʻz oʻyini – soʻzlarning koʻp maʼnoligi, tovush tuzilishi bir xilligiga asoslanadigan nutqiy hodisa.

Tabu – nutq jarayonida ayrim soʻzlarning asl holda ishlatilishini man etish. Uning oʻrnida boshqa soʻzdan foydalaniladi. Masalan: *chayon – otiyoʻq, gul – qizamiq*. Bunday qoʻllash kishilarning turli irim-sirimlarga ishonishligi sababli yuzaga kelgan.

Telenutq – ommaviy-kommunikativ nutq turi. Uning kommunikativ tamoyili – tasvir – tovush – nutq. Vizual vaziyat (kadrlarning mundarijasi, kompozitsiya, tasvirning oʻzgarishi); audiovaziyat (musiqa, shovqin, ovoz); nutqiy vaziyat (nutq jarayonining ekstralingvistik tamoyillari) shartli tarzda ekrandagi kontekst konstruktiv unsurlari hisoblanadi. Telekoʻrsatuvdagi nutq ikki koʻrinishga ega; monolog va dialog. Monolog ishontiruvchi va bildiruvchi tavsifiga ega. Monolog koʻrinishi uchun yangilik, sharh,

xabar, suhbat xos. Dialog suhbatdoshlararo monolog almashinuvchi tarzda kechadi. Intervyu, soʻzlashuv, munozara dialogik turga kiradi.

Telenutq tomoshabin nutqiy madaniyatiga, uning “soʻzlash qobiliyatiga” kuchli taʼsir etadi.

Transformatsiya (lot. *transformation* – aylanish, oʻzgarish) – tushunchani nutqiy koʻrinishga aylantirish.

Tub maʼno (*genetik maʼno*) – til birligi yordamida ataluvchi narsa, voqea, hodisaning asl maʼnosi.

Tushish (yun. *ellipsis*) – badiiy nutqda muayyan nutq unsurining tushib qolishi. Nutq jarayonida undan turli maqsadlarda foydalaniladi. Nutqda tejamkorlikka erishish imkoniyatini beradi.

Tobe unsur – tobe soʻz, tobe boʻlak, tobe (ergash) gap; oʻzaro bogʻlanishda hokim unurning maʼnosi (mazmuni)ni turli nuqtayi nazardan izohlaydigan, aniqlaydigan, toʻldiradigan boʻlak.

Toʻgʻri maʼno – narsa, voqea, hodisa bilan vositasiz bogʻlanadigan uni toʻgʻridan toʻgʻri anglatish xususiyatiga ega boʻlgan maʼno. Masalan: *qopqon, ish, tulki*. Soʻzning tub (bosh) maʼnosi.

Uslub (lot. *stil*) – til unsurlarining muayyan vazifani bajarishiga bogʻliq holda birlashadigan, til birliklarining oʻziga xos tanlanishi, birikishi va b. bilan tavsiflanadigan tizim. Badiiy, ilmiy uslub soʻzlashuv uslubi, individual uslub, ilmiy-ommabop uslub, publitsistik uslub, ommaviy-siyosiy uslub va h.k.

Uslub (ar. *yoʻsin, tarz*) – 1) obrazli tizimlar birligi, yagona gʻoyaviy mazmunga bogʻliq badiiy ifoda, ijod yoʻsini. Uslubning oʻziga xosligi nutq (soʻz tanlash, nutq tuzish usuli)da yaqqol namoyon boʻladi.

Uslubiy belgi – soʻz moddiy maʼnosiga qoʻshimcha tarzda belgi (ottenka).

Uslubiyat – tilshunoslik sohasi, nutqiy uslublar tizimini, nutqiy meʼyorlarni va turli vaziyatlardagi nutqiy muloqotda, turli xil matn va janrlarda, ijtimoiy hayotning turli sohalarida adabiy nutqdan foydalanish yoʻsinlarini oʻrganadi.

Varvarizm – (yun.) ona tilga oʻzlashmagan yot soʻz va ibora, oʻzga til hodisasi sifatida qoʻllanadi. Bunday nutqda taʼsirchanglikka erishish va obraz yaratishga xizmat qiladi. Undan oʻzga millatga xos rasm-rusum, odatlarni tasvirlashda, nutqlarni namoyon etishda, mahalliy muhitni yaratishda foydalaniladi. Masalan: *koroachchisi, gudit qilaman, gulyat qivommiz* va h.k.

Vulgar (lot.) soʻzlar – oddiy soʻzlashuvga oid, adabiy til lugʻat tarkibiga kirmaydigan qoʻpol soʻz, ibora.

Yasovchi (lot. *formant*) – soʻz yasallishiga asos boʻluvchi unsur. *Shishadek osmon.*

Zid maʼno (yun. *enantiosemiya*) – bir soʻz maʼnoviy tuzilishida qarama-qarshi maʼnoning taraqqiy etishi, yuzaga kelishi. Masalan: *ayvonga chiqmoq, ayvondan chiqmoq.*

Zid maʼnolik (yun. *epantiosemiya*) – bir soʻzning maʼno tuzilishida qarama-qarshi maʼnolarning yuzasiga chiqishi. Masalan: *olmoq* feʼli qarama-qarshi tomon harakatni ifoda etadi; *chelakka olmoq, chelakdan olmoq; chiqmoq – ayvonga chiqmoq, ayvondan chiqmoq.*

Oʻzgarish (lot. *konversiya*) – biror turkumdagi soʻzning boshqa turkumga koʻchishi, bunda bir turkumdagi soʻz maʼlum maʼno muchasi bilan boshqa turkumdagi soʻz vazifasini bajarib keladi. Soʻz maʼno muchasining oʻzgarishi uslubiyatda, ayniqsa badiiy nutqda katta ahamiyatga ega.

Oʻzlashgan qatlamga oid soʻzlar – oʻz tilga oʻzga tillardan oʻtgan soʻzlar. Ularning ayrimlari oʻz til lugʻat tarkibiga kiradi va “oʻz” soʻzga aylanadi va barcha uslublarda qoʻllanadi. Masalan: *radio, internet, ekran, auditoriya, valyuta* va b. Baʼzilari faqat nutqiy hodisa sifatida qoladi, til birligi hisoblanmaydi. Masalan: *dom, darak, karochchi, dub, vunderkin, geniy* va b. Bulardan faqat badiiy uslubda, oddiy soʻzlashuv uslubida foydalaniladi.

Sheva (yun. *dialekt*) – mahalliy nutqning tovush, soʻz, ibora, grammatikaga koʻra umumiylikka ega boʻlgan bir qismi, bir guruhi. Masalan: *Toshkent shevasi, Fargʻona shevasi.*

ADABIYOT

1. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. –T.: O'qituvchi, 1980.
2. Mirtojiyev M. So'z ma'nosining kengayishi, torayishi va ko'chma ma'no hosil bo'lishi. –T.: Universitet, 1983.
3. Худойберганава Д. С. Семантический и стилистический анализ конструкции уподобления в узбекском языке. Автореферат кан. дисс. –T.: 1989.
4. Qo'ng'urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O'qituvchi, 1992.
5. Toshaliyev I. va b. Ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi. –T.: Universitet, 2004.
6. Taxiroy Z. Pragmatik sema. –T.: Zar qalam, 2004.
7. Ahmedov A. Badiiy asar tilini o'rganish haqida. (O'zbek tili va adabiyoti masalalari). – T., 1960.
8. Boboev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: O'qituvchi, 1979.
9. Doniyorov X., Mirzayev S. Badiiy asar tilini o'rganish masalalariga doir. So'z san'ati. –T.: Fan, 1962.
10. Mirtojiyev M., Taxiroy Z. So'z ma'nosining bo'yog'i. –T.: O'zbekiston, 1980.
11. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. –T., 1979.
12. Rustamov A. So'z qo'llash san'ati. (Nutq madaniyatiga doir masalalar). T., 1973.
13. Samadov Q. Oybek so'z san'atkori. –T., 1965.
14. Samadov Q. Oybekning til mahorati. –T., 1981.
15. Taxiroy Z. O'zbek tilida pragmatik sememalarning hosil bo'lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga kelishi. Nomzodlik diss. avtoreferati. 1994.
16. Umarqulov V. Poetik nutq leksikasi. –T., 1990.
17. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. 1-qism. –T., 1981.
18. Sharofuddinov O. Birinchi mo'jiza. –T., 1979.
19. Shukurov N. G'G'ulomning tildan foydalanishdagi mahoratiga doir. //O'zbek tili adabiyoti. –T., 1989, 4-son.
20. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. –T., 1977.
21. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati. –T.: O'qituvchi, 1990.

22. Qodirov M. Badiiy asar tilini o'rganish masalalari. //O'zbek tili va adabiyoti, 1987, 3-son.
23. Абдурахмонов А. Субстантивированные прилагательные в современном узбекском языке. Автореферат канд. дисс.: – Самарканд, 1950.
24. Абрамович Г. Л. Введение в литературоведение. –М.: Наука, 1975.
25. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика. –Москва: Наука, 1974.
26. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. –Москва: Наука, 1959.
27. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Русский язык, 1966.
28. Будагов Р. А. Сравнительно-семасиологические исследования. – Москва: ИМУ, 1963.
29. Булаховский А. А. Введение в языкознание. Часть 2. – Москва: Русский язык, 1954.
30. Валгина Н. С., Розенталь Д. Е., Фомина М. И., Сапукевич В. В. Современный русский язык. –Москва: Русский язык, 1966.
31. Волгина Н. С., Розенталь Д. Е., Фомина М. И. Русский язык. –Москва, 1968.
32. Виноградов В. В. Основные типы лексических значений слова //ВЯ. 1953 –№ 5.
33. Галкина-Федорук Е. М. Слова и понятие, –Москва: Высшая школа, 1956.
34. Галкина-Федорук Е. М., Гершкова К. В., Шанский Н. М. Современный русский язык. –Москва: Русский язык, 1962.
35. Звегинцев В. А. Семасиология. –Москва: Высшая школа, 1957.
36. Юлдашев А. Л. Конверсия в тюркских языках и её отражение в словарях. //Советская туркология. – Баку, 1970, 1-son.
37. Кесарес Х. Введение в современную лексикографию. – Москва: Русский язык, 1958.
38. Киргизско-русский словарь. – Москва, 1965.
39. Левковский К. А. Лексикология немецкого языка. – Москва: Русский язык, 1956.

40. Лендел Л. “Переносное значение” или “образное употребление” слов //Лексикология и лексография /Под. ред. Бархударова С. Г. – Москва: Наука, 1972.

41. Листвинов Н. Г. Вопросы стилистика русского языка. – Москва, 1965.

42. Madraximova O. Sifat va ot turkumi masalalariga oid. //O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1987, 4-son.

43. Махмудов Н. М. Семантика-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекском языке. – Автореферат док. дисс.: –Т.: Fan, 1984.

44. Mirtojiyev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. –Т.: Fan, 1966.

45. Миртожиев М. Возникновение лексических омонимом в узбекском языке. Кандидатлик диссертацияси автореферат. –Т., 1963.

46. Mirtojiyev M. Ellipsis va ko‘chma ma’no. //O‘zbek tili va adabiyoti – 1973, 1-son.

47. Mirtojiyev M. Okkazional ma’no. //O‘zbek tilshunosligi masalalari. –Т.: ITU, 1973.

48. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Т.: Fan, 1975.

49. Mirtojiyev M. Genetik ma’no. //O‘zbek tili va adabiyoti. – 1976, 6-son.

50. Mirtojiyev M. Sememaning ekspressiv bo‘yoq ifodasiga ega bo‘lishida ad‘ektivatsiyaning roli. //ToshDU ilmiy asarlari, 648-chiqishi, 1980.

51. Mirtojiyev M. Tovushlardagi ma’nolar. –Т.: O‘zbekiston, 1982.

52. Mirtojiyev M. So‘z ma’nosining kengayishi, torayishi va ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi. –Т.: ITU, 1983.

53. Миртожиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. – Автореферат док. дисс. –Т., 1989.

54. Obloqulov S. O‘zbek tilida substantivatsiya. //Tilshunoslik masalalari, 1-kitob, 1960.

55. Потебня А. А. Из записок по русской грамматике – Соч. 2-е изд. Т. 4 –Москва: Просвещение, 1977.

56. Реформацкий А. А. Введение в языковедение. –Москва: Просвещение, 1967.

57. Solixojayeva O. Subyektiv baho ifodalovchi gaplar. //O'zbek tili va adabiyoti, 1973, 3-son.

58. Смирницкий И. Так называемая конверсия и чередование звуков в английском языке.//Иностранные языки в школе. — Москва, 1953, 5-son.

59. Татарско-русский словарь. —Москва, 1965.

60. Toshaliyev I., Jo'rayev M. Hozirgi o'zbek tilida okkozional so'z yasalishi //ToshDU ilmiy asarlari, 711-chiqarish. — T., 1983.

61. Туркменско-русский словарь. Баскаков Н. А., Кorieв Б. А., Хамзаев М. Я. Umumiy tahriri ostida. — Moskva, 1968.

62. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev J., Hozirgi o'zbek adabiy tili —T.: O'qituvchi, 1965.

63. Уткина Е. А. К вопросу о конверсии //Некоторые вопросы усвоения грамматики иностранного языка» — Москва, 1955.

64. Худойберганова Д. С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке. Автореферат канд. дисс. —Т., 1989.

65. Xudoyberganova D. S. Matnning antropotsentrik tadqiqi. —T.: Fan, 2013.—136-b.

66. Xo'jayev T. Yaxshi tipidagi so'zlarning adverbializatsiya protsessiga doir//O'zbek tili va adabiyoti, 1961, 4-son.

67. Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка. —Москва, 1972.

68. Шопилова Л. В. Введение в литературоведение. — Москва, 1968.

69. Шохназарова М. Д. Синтаксис причастных в узбекском языке. —Автореферат канд. дисс., 1971.

70. O'zbekcha-ruscha lug'at. Akobirov S. F., Ma'rufov Z. M., Xo'jaxonov A. T. tahriri ostida. — Moskva, 1959.

71. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. — T.: Fan, 1977.

72. Qo'chqortoyev I. Tilning lug'at sistemasini o'rganishning bir yo'li to'g'risida // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 3-son.

73. Гулямов А. Г. К вопросу об адвербиализации в узбекском языке// Ученые записи ТГПИ, 1954.

74. Hojiyev A. Modal yoki subyektiv baho formalari haqida//O'zbek tili va adabiyoti, 1978. 1-son.

75. Hojiyev A. Soʻz semantik strukturasi taraqiyoti//Oʻzbek tili va adabiyoti, 1979. 4-son.
76. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati, //Toshkent, 1985.
77. Hozirgi zamon oʻzbek tili. Kamol F. tahriri ostida. –T.: Oʻqituvchi, 1957.
78. Homidiy X., Abdullayeva Sh., Ibrohimov S. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. –T., 1967.
79. Шмелев Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. –Москва, 1977.
80. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. –Москва, 1981.
81. Степанов Ю.С. Стилистика//Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –Москва, 1998.
82. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове: 3-е изд., испр. –Москва, 1986, –626-b.
83. Винокур Г.О. Филологические исследования. –Москва, 1990, 221-b.
84. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов. –Москва, 2000.
85. Матвеева Т.В. Лексическая экспрессивность в языке. –Свердловск, 1986.
86. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. –Москва, 1983,
87. Солганик Г.Я. Лексика газеты. –Москва, 1981.
88. Русский семантический словарь. –Москва, 2000,
89. Светлана С.В. Телевизионная речь //Языка и стил средств массовой информации и пропаганды. –Москва, 1980.
90. Гунко Ю.А. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Дисс. канд. филол. наук. –Санкт-Петербург, 2002.
91. Демянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке //Вопросы филологии. –Москва, 2001. 4-b.
92. Burxanov Z. Oʻzbek tilidagi koʻmakchilar va ularga vazifadosh kelishiklar progmatikasi: Fil. fan. nomz. diss. avtoref. –T., 2008.
93. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. –T., 2010.

94. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. –T., 2004.

Maxsus adabiyot

1. Abdurahmonov G'. O'zbek* adabiy tilining stilistik normalari//Nutq madaniyatiga oid masalalar. –T., 1953.

2. Abdurahmonov F. A. O'zbek adabiy tilining stilistik normalari. –T., 1992.

3. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida//O'zbek tilini o'qitish metodikasi masalalari. – T., 1966.

4. Ahmedov A. Badiiy asar tilini o'rganish haqida//O'zbek tili va adabiyoti. –T., 1960, № 3.

5. Begmatov E. A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.

6. Begmatov E. A. O'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.

7. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. –T.: Fan, 1983.

8. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umrqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. –T.: Fan, 1998.

9. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. –T.: Navro'z, 1-qism, 1997.

10. Begmatov E., Mamatov A. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. –T.: Ma'naviyat, 1998.

11. Begimov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. –T., Navro'z, 3-qism, 1999.

12. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati. –T., Fan, 1962.

13. Yoqubov O., Bektemirov H. Davlat tili haqidagi qonun va atamashunoslik masalalari. –T., 1996.

14. Mirtojdiyev M., Mahkamov N. Til va madaniyat. – T., 1992.

15. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.

16. Reshetov V., Shoabduraxmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. –T.: Fan, 1962.

17. Shoabduraxmonov Sh. O'zbek adabiy tilining leksik normalari. –T.: Fan, 1998.

18. Sharofiddinov O. Haqiqatga sadoqat. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

19. G'ulomov F. A. Adabiy til normalari. –T.: Fan, 1992.
20. O'zbek xalq shievalari. –T.: Fan, 1971.
21. O'zbek tili va adabiyoti. –T., 2006, 4-, 5-, 6-sonlar.
22. Taxirov Z. Jurnalistika terminlari qisqacha izohli so'zlar lug'ati. –T., Zar qalam, 2004.
23. Tojiyev Yo., Hasanova N., Tojimatov H., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Universitet, 1994.
24. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –T.: Fan, 1990.
25. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O'qituvchi, 1992.
26. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. – T.: Fan, 1973.
27. Hayitmetov A. Navoiy dahosi. –T., G'afur G'ulom, 1970.
28. Rustamov A. So'z xususida so'z. –T.: Fan, 1981, 38-b.
29. Васильева А. Н. Художественная речь. –Москва: Русский язык, 1983.
30. Doniyorov H., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –T.: O'qituvchi, 1988.
31. O'rinov B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T.: Fan, 1990.
32. Винокур Г. О. О языке художественной литературы. – Москва: Русский язык, 1991, 169-b.
33. O'zME, 1-, 2-, 3-, 4-jildlar.
34. Taxirov Z. Badiiy asar tilini o'rganish //O'zbekiston matbuoti, 2015, 4-son.

Internet materiallari

1. [http: analiculturo lod/ru component/R2/409-article html:](http://analiculturo.lod.ru/component/R2/409-article.html) Komarova L.I. Sovremennye podhody k izucheniyu xudojestvennogo teksta/Analitika kulturologii.
2. [http www philology/ru/linguistics2/narhiriova07 htm.:](http://www.philology.ru/linguistics2/narhiriova07.htm) Naximova Ye. A. Pretsedentnye imena v massovoy kommunikatsii.
3. [http www gumer. Info/bibloter](http://www.gumer.info/bibloter) –Burs/Linguist/maslova/06/php.: Maslova V.A. Chelovek v zerkale sravneniya.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

1-BOB. TIL, ADABIY NUTQ VA USLUB

1-§. Til haqida umumiy ma'lumot	4
2-§. Adabiy nutq	6
3-§. Uslubiyat	12
4-§. Uslubiyat va adabiy tahrir	20

2-BOB. USLUBLAR

1-§. Funktsiyaviy uslub turlari	22
2-§. Funktsiyaviy uslub	23
3-§. Uslubni yuzaga chiqaruvchi omillar	26
4-§. Funktsiyaviy-uslubiy soha	32

3-BOB. SO'ZLASHUV NUTQI

1-§. So'zlashuv nutqining funktsiyaviy tavsifi	36
2-§. So'zlashuv nutqining tasnifi	40

4-BOB. RASMIY-ISH YURITISH USLUBI

1-§. Umumiy ta'rif	48
2-§. Rasmiy-ish yuritish uslubining vazifasi	49
3-§. Rasmiy-ish yuritish uslubidagi ish qog'ozlari va ularga xos jihatlar	51
4-§. Rasmiy-ish yuritish uslubida sintaktik konstruksiyalash	53

5-BOB. ILMIY USLUB

1-§. Umumiy ta'rif	57
2-§. Ilmiy uslubning janriy-nutqiy turlari	59
3-§. Ilmiy-uslubiy sintaktik konstruksiyalar	63
4-§. Ilmiy uslubda so'zlarning qo'llanilishi	66

6-BOB. PUBLITSISTIK USLUB

1-§. Umumiy ta'rif	68
2-§. Publitsistik uslubning vazifaviy tavsifi	68
3-§. Publitsistik uslubning leksik tarkibi	71

4-§. Publitsistik uslubda andozaviy ifoda vositalarining qoʻllanilishi	73
---	----

7-BOB. PUBLITSISTIK OGʻZAKI NUTQ

1-§. Umumiy taʼrif	75
2-§. Publitsistik ogʻzaki nutqdagi sintaktik konstruksiyalar	76
3-§. Publitsistik ogʻzaki nutqning lugʻat tarkibi	79
4-§. Ommaviy axborotning ogʻzaki uslubi	80

8-BOB. TIL VOSITALARIDAN USLUBIY FOYDALANISH

1-§. Umumiy taʼrif	85
2-§. Bir maʼnolik va koʻp maʼnolikdan uslubiy foydalanish	86
3-§. Omonimlardan uslubiy foydalanish	87
4-§. Sinonimlardan uslubiy vosita sifatida foydalanish	88
5-§. Antonimlardan uslubiy vosita sifatida foydalanish	91
6-§. Oʻzlashgan qatlamga oid soʻzlardan uslubiy foydalanish	94
7-§. Jargonlardan uslubiy maqsadda foydalanish	94
8-§. Frazologizmlarning uslubiy imkoni	96

9-BOB. SOʻZ YASALISHINING USLUBIY IMKONIYATLARI

Soʻz yasalishining uslubiy imkoniyatlari	99
--	----

10-BOB. USLUBIYATNING FONETIK VOSITALARI

Uslubiyatning fonetik vositalari	104
--	-----

11-BOB. USLUBIYATNING MORFOLOGIK VOSITALARI

1-§. Umumiy taʼrif	112
2-§. Otlar va ular shakllarining uslubiy imkoniyati	113
3-§. Sifatlarining uslubiy imkoniyati	123
3.1-§. Sifatning morfologik xususiyatlari	123
3.2-§. Sifatning darajasi va ularning nutqda qoʻllanilishi	123
4-§. Sonlarning uslubiy imkoniyati	126
5-§. Olmoshlarning uslubiy imkoniyati	132
6-§. Feʼllarning uslubiy imkoniyati	145

12-BOB. USLUBIYATNING SINTAKTIK VOSITALARI

1-§. Umumiy ta'rif.....	155
2-§. So'z birikmalarining uslubiy imkoniyatlari	156
3-§. Sodda va qo'shma gap komponentlarining uslubiy imkoniyatlari	159
3.1-§. Subyekt va uning uslubiy o'ziga xosligi	159
3.2-§. Obyekt (to'ldiruvchi) va uning uslubiy imkoniyatlari	161
3.3-§. Sodda gapning murakkablashuvi va uslubiy imkoniyati	165
3.4-§. Kiritma so'z va kiritma konstruksiyalarning ifoda imkoniyati	167

13-BOB. MATN USLUBIYATI

1-§. Gaplarning bog'lanishi	173
-----------------------------------	-----

14-BOB. KO'CHIM VA OBRAZLI IBORALARDAN USLUBIY FOYDALANISH

1-§. Umumiy ta'rif.....	187
2-§. Ko'chimlar ma'noviy qayta shakllanishi	189
3-§. Ko'chimlarning turli funktsiyaviy uslublarda qo'llanilishi	194
4-§. Uslubiy figuralar	197

15-BOB. BADIY ASAR TILI

1-§. Umumiy ta'rif.....	206
2-§. Badiiy asar tilining funktsiyaviy tavsifi	207
3-§. Badiiy asar tilining asosiy belgilari.....	208
Uslubiyatga oid terminlar izohli lug'ati	213
Adabiyot	230

Z.T.TAXIROV

O‘ZBEK TILINING AMALIY USLUBIYATI

darslik

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 2021

Muharrirlar:	Abdukamol Abduljalilov
Texnik muharrir:	Yunusali O‘rinov
Badiiy muharrir:	Shoimov Zuxriddin
Musahhiha:	Gulchehra Azizova
Dizayner:	Dilfuza Beknazarova

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-

f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2021-yilda berildi. Bosishga 29.12.2021-yilda ruxsat
etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New Roman»

garniturasi. Shartli b.t. 15.0. Nashr b.t. 13.95.

Adadi 200 nusxa. Buyurtma № O-05.

Bahosi shartnoma asosida.

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

“Tafakkur avlodi” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko‘chasi, 1-uy.
Telefon: +99890 000-33-93



**«Tafakkur aylodi»
nashriyoti**

ISBN 978-9943-6898-2-4



9 789943 689824